O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2020

(ilmiy maqolalar to‘plami)

Toshkent – 2020

“O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2020” (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: TDSHU, 2020. − 332 b.

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-fevraldagi 56-F-sonli Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 13- fevraldagi “*Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2020-yilda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida*”gi 116-sonli buyru–g‘ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2020-yil 11-dekabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2020” mavzusida bo‘lib o‘tgan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari hamda TDSHU «Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalisika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid mavzular yoritilgan maqolalari o‘rin olgan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
PhD. dots. ***Xayrulla Hamidov***

Mas’ul muharrir:
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori,
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Gulchehra Rixsiyeva***

Taqrizchilar:
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Rustam Sharipov***
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Ergash Ochilov***

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2020-yil 26-noyabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Maqolalardagi ilmiy faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2020

“O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2020”

ilmiy maqolalar toplamining ushu soni taniqli adabiyotshunos olim,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,

Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori,

filologiya fanlari doktori, professor,

ijodkor, mudarris va murabbiy

G‘AYBULLA SALOMOV*ning*

porloq xotirasiga bag‘ishlanadi.

TARJIMASHUNOSLAR FORUMI - ILMIY MUNOZARALAR MAYDONI

Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning muhim bir bo‘lagini tashkil etayotgan bugungi kunda ana shu ma’naviy boylikni asrash, uni e’zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyotimiz orqali xalqaro aloqalarimizni yanada kuchaytirish universitetimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Jahon adabiyoti namunalarining tarjima orqali madaniy hayotimizga kirib kelishi tarjimashunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yuz yillar davomida dunyo xalqlarning milliy madaniyati, an’analari, urf-odatlari, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, badiiy tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda tarjima muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Millatimizning badiiy tafakkuri oynasi bo‘lmish adabiyotimiz durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ishini keng miqyosda amalga oshirish esa bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylanganligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, tarixiy hujjatlar tasdiqlab turibdi.

Xususan, bu yil sharqshunoslar uchun alohida ahamiyatga molik yil bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680 sonli qarori imzolandi. Unga ko‘ra ta’lim muassasamizga universitet maqomi berildi. Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabayoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida bir qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular orasida yangi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish masalasi ham bo‘lib, bu o‘quv yilidan aynan tarjima faoliyati bilan bog‘liq yangi – gid hamrohlik va tarjimonlik, xalqaro jurnalistika, sinxron tarjima bo‘yicha mutaxasssislar tayyorlash ishlari boshlandi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi ham yo‘nalishlari kengayib, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika deb nomlandi, talabalar kontingenti keskin ko‘paydi. Bularning barchasi xalqaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sharq tillari bo‘yicha tarjimon mutaxassislarga bo‘lgan katta ehtiyojdan tashqari, ushbu yo‘nalishda il-

miy tadqiqotlarni kuchaytirish, ularning soni va sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bilan bog‘liq, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-fevraldagi 56-F-sonli Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 13-fevraldagi “Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2020-yilda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 116-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan reja asosida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2020” mavzusida Respublika miqyosidagi o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiya tarjimashunoslik sohasida universitetda olib borilayotgan ishlarimizning yorqin misolidir. Ushbu forum universitet oldiga qo‘yilgan vazifalar doirasida faoliyatimizni tanishtirish, ayniqsa, tarjimashunoslikning barcha yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashning muhim jihatlarini muhokama qilish, o‘zbek dabiyoti namunalarini sharq tillariga va jahon adabiyotining yetuk asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalalari yuzasidan mutaxassislar va olimlar bilan fikr almashish uchun katta bir ilmiy maydon bo‘lishi shubhasiz.

“O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2020” to‘plamining ushbu soni taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor, ijodkor, mudarris va murabbiy, O‘zbekistonda tarjimashunoslik faniga asos solib, o‘ziga xos maktab ham yaratgan ustoz **G‘aybulla Salomov**ning porloq xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, undan bugungi anjuman ishtirokchilari hisoblangan taniqli tarjimonlar va sohaning eng ko‘zga ko‘ringan olimlari hamda TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid dolzarb mavzular yoritilgan ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Respublikamiz va undan tashqarida tanilgan adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunos olimlarning ushbu Forumga ishtirok etish uchun ma’ruza mavzulari va maqolalarini tashkiliy qo‘mitaga yuborganliklari anjumanning nufuzi va saviyasini ko‘rsatmoqda. TDShU professorlari, f.f.d. Abdurahim Mannonov (“Tarjimashunoslik an’analari va istiqbollari xususida”), f.f.d. Qudratulla Omonov (“Yozma yodgorliklarda qo‘llangan ayrim leksik birliklar ma’nosini hozirgi o‘zbek tiliga berish masalasi”), f.f.d. Shorustam Shamusarov (“Ogahiyning qur’oniy oyatlar

va hadislar tarjimasidagi mahorati”), Bartin Universiteti (Turkiya) prof. f.f.d. Zilola Xudayberganova (Tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida), dotsent, DSc. Dilfuza Ahmedova (“Газетный текст как источник формирования умений перевода”) larning forum tashkiliy qo‘mitasiga yuborgan ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, forumga respublikamizning taniqli tarjimashunos olimlaridan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, TDSHU dotsenti, f.f.n. A.Alimbekov (“Arab romani o‘zbek tilida”), sharqshuos olim, tarjimashunos f.f.n. Z.Isomiddinov (“Oliymaqom san’atning olijanob mardumlari”), Turon FA faxriy akademigi, f.f.n., dots. Roviyajon Abdullayeva (“O‘zbekistonda tarjima iqlimi (Tarjimon, tarjima, tahlil, muammo”), O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n. Ergash Ochilov (“Sayfi Saroyining tarjimonlik mahorati”), O‘zMU dotsenti, f.f.n. Shuhratxon Imyaminova (“Nemis tilidan o‘zbek tiliga satira, yumor tarjimasiga doir”), O‘zDJTU dotsenti, f.f.n. Odiljon Safarov (“Qiyosiy tipologiya va tarjima ilmi”), TDShU dotsentlari f.f.n. Rustam Sharipov (“Ibrat maktabi”), PhD. Xayrulla Hamidov (“Turkcha so‘roq gap shaklidagi frazeologik birliklarning tarjimada berilishi”), f.f.n., dotsent Saodat Nasirova (“Влияние фоновой информации на адекватній перевод общественно-политических терминов современного китайского язіка”), PhD. Dilshoda Muborakova (“Publistik matnlar tarjimasiga doir”) AndDU o‘qituvchisi PhD. Yorqinoy Nasirdinova (“XX asr oxiri, XXI asrda o‘zbek-fransuz adabiy aloqalari taraqqiyoti”), JDPI o‘qituvchisi, PhD. Nargiza Bo‘riyevalar (“Shekspir sonetlari XX-XXI asr o‘zbek shoir-tarjimonlari talqinida” o‘zlarining sermazmun maqolalari bilan ishtirok etmoqdalar.

Bugungi anjumanga ishtirok etayotgan muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar va o‘zbek tarjimashunosligining jonkuyarlari bo‘lgan taniqli olimlar va tadqiqotchilarga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati va jamoasi nomidan minnatdorchilik bildirgan holda, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Qariyb o‘n yil mobaynida TDSHUda uzluksiz tashkil etib kelinayotgan ilmiy anjuman an’anaviy tarzda respublikada hamda kelajakda xalqaro miqyosda ham tarjimachilik va tarjimashunoslik masalalari muhokamasi uchun asosiy ilmiy muhitni yaratuvchi eng muhim tadbirlardan biri bo‘lib qoladi deb umid qilamiz.

TDSHU rektori
Gulchehra RIXSIYEVA

TARJIMASHUNOSLIK TARIXI, TARJIMA STILISTIKASI, TANQIDI HAMDA TAHRIR MASALALARI

TARJIMASHUNOSLIK AN'ANALARI VA ISTIQBOLLARI XUSUSIDA

Filol.f.d. prof. ***Abdurahim MANNONOV****, TDSHU*

Tarjimashunosligimiz tarixi va an'analari qadimdan boshlangani barchaga yaxshi ma'lum, lekin uning taraqqiy topishida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning alohida o'rni bor. XVIII-XIX asrda esa ushbu sohaning yuksak cho'qqiga chiqishiga ulkan hissa qo'shgan olim, shoir, tarixchi va tarjimon Muhammad Rizo Ogahiydir. Uning Xorazmda buyuk tarjimonlik maktabini yaratgani haqida ustoz Najmiddin Komilov o'z dissertatsiyalari, monografiyalari va ilmiy maqolalarida yozganlar.

Ma'lumki, qadimdan to XX asrning 30- yillariga qadar arab, fors va rus tillaridan, qisman, hindcha, yunoncha va usmonli turkchasidan ko'plab adabiy, tarixiy va ilmiy asarlar o'zbek tiliga asarlar tarjima qilingan va ular xalqning juda qadimiy va boy yozma adabiyotining katta ulushini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tomonidan universitetimizga Ogahiy ijodini targ'ib qilishdek sharafli vazifa yuklatilishi, albatta, Ogahiyning tarjimonlik faoliyatini o'rganish uchun alohida mavzular olib ishlashga undaydi.

Bugun mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar badiiy adabiyot va tarjima sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganini ko'rib, sezib turibmiz va buni barcha ijod ahli e'tirof etmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 11-avgustdagi "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida "…kitob targ'iboti orqali xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, kitobxonlik an'analarini keng targ'ib qilish, elektron va audio kitoblar yaratish, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish", "…xorijda o'zbek tili va adabiyotini keng targ'ib qilish, nashriyotlarga kitob mahsulotlarining xalqaro kitob bozorida o'z mavqei va salmog'iga ega bo'lishida ko'makla-

shish” [1] zarurligi alohida ta’kidlangani tarjima sohasiga davlatimiz tomonidan muhim ahamiyat berilayotganidan dalolatdir.

Bugunga kelib tarjima adabiyoti original yozma adabiyot bilan birga rivojlanib, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i, Nizomiy Ganjaviyning “Mahzanul asror”, “Xisrav va Shirin”i, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Kaykovusning “Qobusnoma”si, “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” va boshqa yuzlab asarlar o‘zbek madaniyatida bebaho yodgorliklarga aylandi. Ular orqali yozuvchi va tarjimonning estetik prinsiplari, badiiy mahorati, o‘sha davr adabiyotining o‘ziga xos yo‘nalishi, til va uslub xususiyatlarini o‘rganish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash joizki, zamonaviy tarjimashunoslik fani XX asrning 30-yillaridan e’tiboran yuzaga keldi. O‘zbekistonda yetishib chiqqan tarjimonlarning mashaqqatli mehnati bois jahon adabiyotining noyob durdonalarini o‘qishga muyassar bo‘ldik va bu tarjimalar qadimiy madaniyatimizning ajralmas qismiga aylandi.

O‘zbekistonda zamonaviy tarjimashunoslikni rivojida sharqshunos mutaxassilarimizning hissasi ham salmoqlidir. Birgina ustoz Sh.M.Shomuhammedovning ulkan tarjimonlik faoliyatlarini o‘zi shu sohadagi buyuk tarixiy, madaniy voqeadir. Ustoz Shomuhammedov va undan keyin yetishib chiqqan sharqshunos tarjimonlar, jumladan, R.Muhammadjonov, A.Quronbekov, A.Fayzullo, N.Muhammedov, X.Hamidov va boshqa o‘nlab taniqli tarjimonlarimiz bevosita original tillardan bevosita o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan sharq tillariga ko‘plab she’riy hamda nasriy asarlarni yuqori saviyada tarjima qilganlar va bunday sharafli, ham mas’uliyatli ishni amalga oshirib kelmoqdalar.

So‘nggi yillarda respublikamizda tarjima nazariyasining eng muhim va dolzarb masalalarini yoritishga bag‘ishlangan bir qator ishlar yuzaga keldi. Tarjima nazariyasi muammolari ustida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgacha yoqlangan dissertatsiyalar va nashr etilgan monografik ishlarning ko‘pchiligida boy tarjima tarixining ayrim davrlari va sohalari ma’lum darajada ko‘rib chiqilgan.

Tarjima tarixini yaratishdan maqsad faqat tarix yaratish, tarjima san’atida mavjud tarixiy an’analarni o‘rganish va boy madaniy merosni ilmiy tomondan o‘zlashtirish uchungina emas, balki klassik tarjimaning

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 11 августдаги “Матбуот ва ахборот соҳасида бошқарувни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони (“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 12 август).

oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish, chinakam badiiy tarjima yaratish istiqbolini belgilashdir.

Globallashuv jarayonlari hayotimizning barcha jabhalarini egallab borayotgan, axborot almashinuvi kengaygan hozirgi davrda milliy adabiyotlarni asrash, maʼnaviy qadriyatlarni eʼzozlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyot orqali xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida eʼtibor talab etilmoqda. Shu sababli ham bugun tarjimonlarga boʻlgan ehtiyoj tobora ortmoqda, ayniqsa, millatning badiiy tafakkuri oynasi boʻlmish adabiyotni xorijiy tillarga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni keng miqyosda amalga oshirish kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Endi, "Oʻzbekiston tarjimashunoslari forumi"ga keladigan boʻlsak, ushbu anjuman 2012-yildan buyon har yili anʼanaviy tarzda oʻtkazib kelinadi. Anjuman Respublikamiz oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tarjima tarixi, nazariyasi va amaliyoti, tanqidi yoʻnalishlarida izlanishlar olib borayotgan professor-oʻqituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, soha mutaxassislarining tarjima muammolari, oʻzbek adabiyoti namunalarini sharq xalqlari tillariga va sharq adabiyoti durdonalarini ona tilimizga tarjima qilishning dolzarb masalalari, zamonaviy nasr va sheʼriy asarlar tarjimasi muammolari, XX asr ikkinchi yarmi tarjimachiligini rivojlantirish tamoyillari, sinxron tarjima sohasini rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy va publisistik matnlar tarjimasi muammolari keng miqyosda muhokama qilib kelingan ilmiy anjumanlarning mantiqiy davomi mohiyatiga ega boʻlib, fanning eng dolzarb muammolarini hal etish sohasida erishilgan yutuqlar doirasida mutaxassislarning tajriba va fikr almashuvini taʼminlashga qaratilgan.

Mamlakatimizdagi tarjimon va tarjimashunos mutaxassis yetishtirib chiqaruvchi oliy oʻquv yurtlari bilan oʻzaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, sohaning dolzarb muammolari ustida ish olib borayotgan yosh tadqiqotchilarning iqtidorini yetuk tarjimonlar va tarjimashunos olimlar nazaridan oʻtkazish, yoshlarning ilmiy anjumanlarda oʻzlarini namoyon etishlariga imkon yaratish, respublika miqyosida tarjima mutaxassislari bilan tajriba almashishni yoʻlga qoʻyish, oʻzbek va sharq xalqlari adabiyotini oʻzaro yaqinlashtirish, adabiyot namunalarini oʻzbek va sharq tillariga tarjima masalalarini kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida muhokama etish anjumanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Anjuman doirasida amaliy tarjima hamda tarjimashunoslik sohasida soʻnggi chorak asr ichida erishilgan yutuqlarga bir bora nazar tashlanib, erishilgan muvafaqqiyatlar haqida soʻz yuritiladi hamda kelajak

rejalari belgilab olinadi, ilmiy bahs va munozaralar, davra suhbatlari sirasida respublikadagi turdosh institutlarning mutaxassislari o‘zaro tajriba va fikr almashishadi, ular o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, respublikada tanilgan tarjimonlar, tarjimashunos olimlar, shoir va adiblar qalamiga mansub asarlar, adabiy aloqalarni o‘rganish va hamkorlik rejalari tuzish imkoniyati yaratiladi.

Ma’lumki, hozirda tarjimashunoslik bo‘yicha tayorlanadigan mutaxassislar biron bir sharq va g‘arb tillari qatori zamonaviy tarjimashunoslikni deyarli hamma zarur fanlarini o‘qib o‘rganadilar. Ammo yuqori malakali tarjimon mutaxassislarni tayyorlash bir qator muammolarni hal qilish bugungi kunda universitetimiz oldiga qo‘yilgan vazifalarning muhim qismi hisoblanadi. Ammo hozirda tillarni biladigan va tarjimashunoslikka oid fanlardan dars beradigan salohiyatli professor-o‘qituvchilarning yetishmasligi muammosi ham kun tartibida turibdi. Bir tildan boshqasiga tarjima qilishning barcha muammoli masalalari, asliyat badiiyati va mullif uslubi, asardagi milliy xarakter va tarixiy koloritni tarjimada ishonchli qayta yaratish va bularning so‘z muammosi bilan, tarjima sohasida yaratilgan har qanday hajmdagi nazariy ish birinchi galda so‘zni tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Bizda badiiy tarjimada so‘z tanlash muammosini o‘rganishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yib kelinayotgani nazariyaning qudratli emasligi, nazariyaning amaliyotdan orqada qolayotgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tarjimalarning o‘z vaqtida munosib baholanmayotgani, aniqrog‘i tarjima tanqidida sustkashlikka yo‘l qo‘yilayotgani bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga e’tiborni qaratmoq kerak. Bugun adabiy aloqalar, xususan badiiy tarjima bilan bir qatorda og‘zaki tarjimaning eng nozik, ham murakkab, doimo chetda qolib kelayotgan turi –sinxron va ketma-ket tarjimaga alohida e’tibor berish, malakali sinxronist-tarjimonlar tayyorlash ishiga jiddiy yondashish kerak. Zero, O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari orasida nufuzi yuksalib, xalqaro munosabatlarning kengayib borayotgani yuqori saviyali sinxron tarjima mutaxassislarga bo‘lgan talab, ehtiyojni ham orttirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tarjimonlar yetishtiruvchi universitetimiz zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘tgan 9 yillik tajriba bakalavriat yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligida ayrim ixtisoslik fanlari bor-yo‘g‘i 1-2 semestr o‘qitilgani tufayli fanlar soni ko‘payib ketganligi va optimallashtirilmaganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, talaba va magistrantlarga berilgan ta’lim, asosan, nazariya bilan cheklanib qolganligi, amaliyot bilan omuxta etilma-

ganligi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga salbiy ta’sir etganligini ko‘rsatadi. Kafedra professor-o‘qituvchilari o‘z imkoniyatlari doirasida, ustoz-shogird an’anasiga amal qilgan holda talabalarni yozma tarjima sirlarini o‘rgatishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, talabalarda sinxron va ketma-ket tarjima ko‘nikmalari yaxshi shakllanmay qolgani sir emas. Chunki, og‘zaki tarjimaning ushbu muhim turiga talabalarni o‘rgatish uchun zarur moddiy-texnika bazasi (sinxron tarjima kabinalari bilan jihozlangan auditoriyalar) yaratilmagan. Zero, sinxronistlar yetishtirish uchun talabalarni muntazam chet ellarda stajirovkalarga yuborish, tillarni o‘sha til so‘zlashiladigan mamlakatlarga o‘qishga yuborish kerak.

“Sinxron tarjima” magistratura mutaxassisligi malaka talablariga asosan yangi joriy qilingan fanlarni o‘qitishdan asosiy *maqsad* magistrantlarga o‘zbek tilidan sharq tillariga va sharq tillaridan o‘zbek tiliga tezkor, bexato, adekvat tarjima qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Demak, talabalarda sinxron tarjima nazariyasining vujudga kelishi, rivojlanishi, uni amalga oshirish tizimi, sinxron tarjima strategiyalari hamda ularning afzallik va kamchiliklari, sinxron tarjimonga qo‘yiladigan talablar, tarjimonlarni tayyorlash borasidagi amaliy masalalar bilan tanishtirish hamda sohaviy atamashunoslik, asosiy o‘rganilayotgan sharq tilidan grammatik, stilistik malaka bilan bog‘liq chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zarur.

Yana bir muammo: kafedraning hamkor tashkilotlar: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, “Jahon adabiyoti” va “Sharq yulduzi” jurnallari, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bilan shartnomaga asoslangan doimiy ijodiy hamkorligi ushbu tashkilotlarning loqaydliklari tufayli amaliyotga tatbiq etilmagan. Har yil yozgi semestrda ushbu tashkilotlarda malakaviy amaliyotga yo‘llangan talabalarga zarur e’tibor berilmagan.

Umuman, o‘zbek tarjimachilik tarixi turli-tuman uslublarga, janrlarga, mavzularga, yo‘nalishlarga boy. Bu tarjimalarda har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topgan. Garchi tarjima jarayonida to‘plangan boy faktik material o‘z davrida ilmiy tomondan maxsus o‘rganilmagan bo‘lsada, bu – tarjimonlarning muayyan prinsiplarga tayanib ish ko‘rganliklarini rad etmaydi. Shunday qilib, sharq tarjimashunosligida yuzaga kelgan nazariy va amaliy masalalarni umumlashtirib, chuqur tahlil qilish va uning asosiy prinsiplarini aniqlash alohida ilmiy tadqiqot ishlarining mavzusi bo‘lib qoladi.

YOZMA YODGORLIKLARDA QO‘LLANGAN AYRIM LEKSIK BIRLIKLAR MA’NOSINI HOZIRGI O‘ZBEK TILIGA BERISH MASALASI

Filol.f.d. prof. ***Qudratulla OMONOV****, TDSHU*

Til tizimida so‘zning ahamiyati, uning matndagi yetakchi o‘rnini ko‘rsatadi; so‘z matnning asosiy birligidir. O‘tmishda yaratilgan matnlarda qo‘llangan leksik vositalarni o‘rganish, muayyan nutq vaziyatida ishlatilayotgan so‘zning ma’nosini tahlil etish tarixiy leksikologiyaning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Zamonaviy semasiologiya qo‘lga kiritgan yutuqlarni qo‘llagan holda yozma yodgorliklardagi mavjud so‘zlarni turli-tuman ma’nolarini o‘rganish, ma’lum doirada tildagi leksik vositalarning ishlatilishi masalasi germenevtikada chuqur o‘rganilmagan muammolar qatorida turadi [1]. So‘z – matnni anglash asosidir. O‘tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar ustida tadqiqot olib borish, birinchi galda, uning leksikasi ustida tekshirish olib borishdir. Ayonki, matnni anglash so‘z ma’nosini bilishdan boshlanadi.

Ko‘pincha, yozma obidalarda qo‘llangan so‘zlarda jamiyatning mafkurasi, dunyoqarashi, jamiyatdagi til vaziyati aks etadi. Ma’lum davr o‘tishi bilan matnlarda qo‘llangan birliklar saqlanib qolishi mumkin. Biroq ularning ma’nosi, talqini davr va jamiyat o‘z ko‘zqarashlarini o‘zgartib borgani singari o‘zgarib boradi. Shu bois, muayyan matndagi so‘z tanlanishining tahlili o‘sha matn bitilgan davr jamiyatining nutq madaniyati va adabiy me’yorlarini belgilashda asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi.

Yozma yodgorlikda qo‘llangan so‘zlar hozir uchraydigan ma’nolari bo‘yicha emas, uning tarixiy ma’nolari asosida talqin qilinmog‘i kerak. Bitiglarda kechgan so‘zlarni hozirda saqlangan ma’nosidagina tushunish ham matnni noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi. Shu jihatdan o‘tmishda yaratilgan asarlardagi so‘zlarning ma’nosi va talqiniga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

So‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun ayrim misollarga murojaat qilsak. Hozirgi o‘zbek tilida *söz* leksimasi faol qo‘llaniladigan birliklar sirasiga kiradi. Ushbu so‘z eng qadimgi yozma yodgorliklarda ham qo‘llangan. O‘tmishda yaratilgan asarlarda ushbu birlik kelgan o‘rinlarni barchasini so‘zning hozirgi ma’nosi nutq birligi “slovo” bilan berish ko‘pda o‘zini oqlamaydi. Masalan, XI asrda yaratilgan, turkiy adabiyotining bebaho va tengi yo‘q durdonasi “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) dostonida *söz* ning quyidagi ma’nolarda qo‘llangani kuzatildi[2]:

söz – (1) «so‘z»; tushuncha birligi;

(2) «kishining nutqi»;

(3) «aytilgan fikr, mulohaza»;
(4) «yorliq, farmon, buyruq»;
(5) «o‘git, pand-nasihat, ibratli so‘z»;
(6) «sir, yashirin so‘z»;
(7) «ta’lim»;
(8) «maslahat, ko‘rsatma»;
(9) «ta’rif, bayon»;
(10) «va’da»;
(11) «ma’lumot; xabar»[3. 132].

Shundan kelib chiqqan holda asarda *söz* leksimasi kelgan jumlaning talqinidan kelib chiqqan holda hozirgi o‘zbek tiliga berish muallif fikrini aniq yetkazish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari *söz* birligiga ko‘makchi fe’llarni qo‘shib, yangi ma’nolar yuklangan: *söz ač-* – «so‘z och-»; *söz ay-* – «so‘z ayt-»; *söz čïqar-* – «so‘z chiqar-, sir ayt-» singari. Yozma yodgorliklarda ko‘makchi fe’llar qo‘shilishi tufayli, so‘zning ma’nosi uslubiy o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan: *kör-* «ko‘r-, qara-» degani, *körü tur-* deganda esa «boqib ko‘rish, razm solish; fikrlab ko‘rish»; yoki: *tut-* «tut-, ushla-» degani, *tuta bil-* deganda esa «uddalay olish» ma’nosi bor. Ushbu birliklarni hozirgi o‘zbek tiliga berganda ayni jihatlarga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

Shuningdek, “Qutadg‘u bilig” asarida kelgan fan sohalariga tegishli ayrim atamalar hozirgi o‘zbek tilidagi talqinlarda tushuncha sifatida berilgan o‘rinlar tez-tez uchraydi. Chunonchi, *bitig söz* atamasi “yozilgan so‘z”, “matn” ma’nosida, *söz bilig* atamasi so‘z va bilim ma’nosida berilgan. Aslida, asarda uchraydigan *bitig söz* tilshunoslik atamasi bo‘lib, «yozma nutq tili», ya’ni «yozma adabiy til» ma’nosida ishlatilgan. Yoki *söz bilig* adabiyotshunoslik atamasi bo‘lib, «adab; adab ilmi; adabiyotshunoslik» ma’nosida kelgan.

O‘tmish yozma yodgorliklarida qo‘llangan so‘zlarning ma’nolarini talqin qilishdagi chalg‘ishlar qadimgi bitiglarda qo‘llangan so‘zlarning muayyan bo‘lagi bizning davrimizga kelib iste’moldan chiqqan yoki ba’zi so‘zlar bir qancha ma’noda ishlatilib, hozir esa ulardan ayrimlari unutilgan bo‘ladi. Biz yozma meros bilan bog‘liq asarlarni hozirgi o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida eski so‘zlarni lug‘atlarda kelgan ma’nosiga ko‘ra talqin qilishga odatlanganmiz. Unutilgan yoki hozir ham qo‘llanilayotgan so‘zlar va ularning o‘sha davrdagi ma’nolarining bari mavjud lug‘atlarda uchrayvermaydi. Bunday hollarda so‘zlar semantikasiga, matn mazmuniga chuqurroq yondashishga to‘g‘ri keladi.

Yozma yodgorliklarni hozirgi o‘zbek tiliga talqini jarayonida ma’-noning bundayin nozik qirralari hisobga olinmog‘i kerak. Shunda asar muallifining matnni bitishdan ko‘zlagan maqsadini aniq yetkazish im-koniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

[1] - https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASHad6ab45a 4895b 125e87aad

[2] – Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов). –Т.: 1971.

[3] – «Қутадғу билиг» сўзлиги. Тузувчи: Қосимжон Содиқов – Тошкент: «Akademnashr», 2020. – 302 б.

OLIYMAQOM SAN’ATNING OLIJANOB MARDUMLARI

filol. f.n. ***Zuhriddin İSOMIDDINOV***

“Tarjima” degan so‘z forsiy “tar zabon”, ya’ni xushkalom lafzidan olingan, deydilar. “Tarzabon” keyinchalik arab tiliga “tarjamon” shakli-da o‘tib, undan “tarjima”, “mutarjim” kabi yasalmalar paydo bo‘lgan. Lekin ma’noning asli o‘zgargan emas – fasohatli, shirinzabon kishilar hamisha tarjima bilan shug‘ullanib, o‘zganing fikrini to‘liq va xolis, go‘zal va bolig‘ bir shaklda boshqa odamlarga yetkazishgan.

Turkiy xalqlar (jumladan, o‘zbek) so‘z san’atida tarjima original ada-biyot bilan bir vaqtda dunyoga kelgan, deyish mumkin. I.V.Steblevaning ko‘rsatishicha, V asrda “Xuastuanift” degan bir asar qadimgi so‘g‘d tili-dan qadimgi uyg‘ur tiliga tarjima qilingan, u hozirda bizga ma’lum bo‘l-gan turkiy tildagi eng ko‘hna yozma yodgorlik hisoblanadi (“Поэзия тюрков VI-VIII веков” kitobida).

Ana shu bir yarim ming yillik tarix mobaynida tarjima turkiy ellar so‘z ijodchiligida goh u, goh bu darajada mavjud bo‘lib keldi. Ayniqsa, keyingi ming yillikda tibbiy, tarixiy, badiiy va boshqa yo‘nalishlarga mansub necha yuzlab asar turkiy tilga o‘girilgani ma’lum.

XX asr esa butun jahon adabiyotida tarjima asri bo‘ldi. Dunyoning turli puchmoqlarida umrguzaronlik qilayotgan elu elatlar aynan XX asrda tarjima sharofati bilan bir-birini yaxshi tanidi, borligidan boxabar bo‘ldi. Bu yuz yillik o‘zbek so‘z san’atida ham ayniqsa katta va chuqur iz qoldirdi. O‘n asrlik tarixga ega so‘z san’atimizda qancha asarlar o‘z-bekchaga o‘girilgan bo‘lsa, shu so‘nggi yuz yillikdagi tarjima mahsuloti oldida ular bamisoli tog‘ oldidagi bir tepaday bo‘lib qoladi. Aynan shu

asrga kelibgina o‘zbek so‘z san’atida realistik tarjima maktabi shakllandi, shuningdek, uning negizi bo‘lgan nasriy asarlarni o‘girish yo‘lga qo‘yildi. Bu an’analar yana talay zamonlar tarjimachiligimizning ravish-raftorini belgilab turishi shubhasiz. Binobarin, XX asr o‘zbek tarjimachiligining hozirgi o‘zbek adabiyotini boyitish, adabiy tilimizni shakllantirish, o‘zbek kitobxonining ma’rifiy dunyosini boyitishdagi o‘rni beqiyos.

Bundan o‘n-o‘n besh yillar muqaddam atoqli tarjimonlarimizdan biri Ibrohim G‘afurov O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalariga bu oliymaqom san’at sirlarini o‘qitdi, ma’ruza o‘qish bilan cheklanmay, talabalar uchun tarjima bo‘yicha darslik ham tartib berdi. Ammo bunga-da qoniqmadi. XX asrda faoliyat yuritgan o‘zbek tarjimonlari, ularning ijodiy hayoti, hayotiy ijodi haqida katta, mukammal bir tadqiqot yaratish niyati borligini izhor qildi. Bu benihoya ulkan yumushni uddalash borasidagi rejalarini aytib, bir qancha olimlarni hamkorlikka chorladi. Ammo bilasiz, bizda ilm kishisini mushtipar, ijodkorni ojiz bir holga tu-shiradigan “grant” otlig‘ bir narsa bor, o‘sha berilsa, muallif shunga loyiq ko‘rilsa, oz-ozdan xo‘rak tashlab turiladi, yozgan narsangiz kitob bo‘lib chop etiladi. Yo‘qsa, ming “Shohnoma”yu ming “Kapital” asar yozing, xaridori bo‘lmaydi. Taassufki, Ibrohim akaning shundoq ezgu tashab-busi “yuqori”da – vazirlikda o‘tirgan, aslida bu muhtaram ulamoga sho-girdlikka ham yaramaydigan to‘rabachchalarning loqaydligi, sovuqqon-ligi tufayli yo‘qqa chiqdi. Alaloqibat, XX asr o‘zbek tarjima maktabi-ning muallimlari, murabbiylariyu muqavviylari haqida yaxshi bir asar tug‘ilmasdanoq bo‘g‘ildi.

Holbuki, mustahkam poydevorsiz muhtasham imorat qurib bo‘lmay-di. XX asr mutarjimlarining ijodiy tajribalari yangi asr tarjimonlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi kerak edi. Garchi I.G‘afurov va u kishi-ning qavatidagi olimu adiblarimiz hamon ijod bilan mashg‘ul bo‘lsalar-da, boyagi tashabbusning karvoni ketib bo‘lganday, bu ishga qo‘l urilgan zamonning shavqu shiddatlari, zavqu hiddatlari bir qadar so‘nganday ko‘rinadi. Biroq o‘zbek xalqining ma’rifatini ravnaq toptirishga aziz umrini bag‘ishlagan necha o‘nlab benazir so‘z sohiblarining ijodiy yo‘-lini kuzatish ehtiyoji hamisha saqlanib qoladi. XX asrning yigirmanchi yillaridan XXI asrning yigirmanchi yillariga qadar – shu yuz yillik tajri-ba evaziga qo‘lga kirgan xazinaning qo‘ri sovimay turib bu ishga qo‘l urilishi darkor. Zamonaviy o‘zbek tarjimachilik maktabining ijobiy na-tijalarini, yutuqlarini o‘rganish endigi tarjimalar saviyasini ko‘tarishga ko‘mak berishi shubhasiz.

Negaki, o‘tgan asrda tarjimaga qo‘l urmagan o‘zbek ijodkori yo‘q. Eng ulug‘ shoir va yozuvchilarimiz ayni paytda eng mohir mutarjim ham edilar. Aksar o‘zbek adiblarining original ijodiga qaraganda tarjima qilgan asarlarining ko‘lami kattaroq ham. XX asr o‘zbek adabiyoti uchun tarjima asri bo‘ldi, degan da’voimizni tasdiqlaydigan dalillar yetarli.

XX asrga qadar badiiy tarjimalar original asarlardan kamroq edi, so‘ngi yuz yillikda esa buning aksi bo‘ldi. Xo‘sh, bunga sabab nima?

Nazarimizda, buning boisi – aksar o‘zbek kitobxoni uchun fors-tojik tilidagi, undan avvalroq esa arab tilidagi badiiy va ilmiy asarlarni ham asliyatda o‘qish oddiy va odatiy hol bo‘lgan. Hatto bir qancha turkiyzabon ijodkorlar o‘z asarlarini to XII asrgacha arab, undan keyin esa fors-tojik tilida ta’lif qilganlar. Buning dalili – Beruniy va Ibn Sinolar, Xorazmiy va Marg‘inoniylar asarlari. Ammo arab tilida asar yozish, loaqal arabiy ibora va misralar ijod qilish, yanada qizig‘i – asarlarini arabcha nomlash an’anasi bizda XX asr o‘rtalariga qadar davom etib keldi.

Dunyoga mashhur to‘rtta “Xamsa”ning uchtasi forsiy, bittasi turkiy tilda yaratilgan. Ammo ularning uchtasi turkiy xalq vakillari (Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy)ning qalamiga mansub. Bu ham forsiy tildan tarjima qilib o‘tirmay, bevosita mutolaa qilish ziyoli otalarimiz uchun taomil bo‘lganini ko‘rsatadi. Lekin XX asr turkiy xalqlar oldiga yangicha, avvalgilariga mutlaqo o‘xshamaydigan voqeliklarni ko‘ndalang qo‘ydi. Jumladan, dunyoning o‘zga millatu elatlari yaratgan adabiy, ilmiy-ma’rifiy asarlar bilan tanishish ehtiyoji paydo bo‘ldi. XX asr tarjimachiligi mana shu asnoda dunyoga keldi va shakllandi.

Yangicha maktablar uchun darslik va qo‘llanmalar tuzishning o‘ziyoq rus va boshqa tillardan o‘girishni taqozo etar edi. Bu davrning ilk tarjimalari ana o‘shanday asarlar bo‘ldi.

Xronologik jihatdan olganda, XX asrning dastlabki o‘n yilligi – badiiy tarjima nuqtai nazaridan – undan avvalgi asrning bevosita davomiday tuyiladi. Bu davrda ham yangi tarjima asarlari soni nihoyatda oz, saviya va sifati ham nochor. Ehtimol, bizda bu davr adabiy hayotiga oid ma’lumotlarning nihoyatda kambag‘alligi ham o‘sha yillar tarjimachiligi xususida shunday fikrlarga olib kelayotgandir. Qolaversa, “Robinzon hikoyasi” kabi yakkam-dukkam asarlar, rus-tuzem maktablari uchun ba’zi darsliklar tarjimasini demasa, yangi davrning o‘ziga xos voqeligi qarshisida arabiy va forsiydan tarjimaga ehtiyoj birmuncha kamaygan, yangi davr muhiti ham dabdurustan to‘liq sezilmayotgan edi. Zero, tarjima asari o‘z davri muhitining taqozosi bilan yuzaga keladi. Qozoq ma’rifatparvari Abay Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidan to‘rt yirik par-

chani, Lermontovning o‘ndan ortiq she’rini XIX asrning 70-80- yillarida-yoq ona tiliga o‘girgan ekan, bu hol shoir ijodidagi novatorlik bilan birga, o‘sha yillarda rus va Yevropa madaniyati Abay yashagan muhitda bo‘y ko‘rsata boshlaganini ham dalillaydi; bu yangicha ruh hatto XX asrning 20- yillariga qadar Toshkentga, Qo‘qonga yetib kelganicha yo‘q edi.

Ammo o‘sha, G‘afur G‘ulom aytganiday, “o‘ninchi yillarning sargar-donligi” mahali adabiyotimiz tushkunlikda emasdi. Bu davr, so‘z san’ati uchun, “to‘lg‘oq pallasi” bo‘ldi. Uning yakunida ikki buyuk o‘zgarish yuz berdi – she’riyatda aruzdan barmoq tizimida ijod qilishga o‘tildi, rea-listik nasriy asarlar bitishga kirishildi. Bu esa yangi davr tarjimachiligi-ning tamal toshlari qo‘yila boshlaganini ham ko‘rsatadi. She’riyat bu o‘z-garishlarni juda qizg‘in aks ettirdi, buning natijasida uning tarzi, usul va uslublari, mavzu va yo‘nalishlarida ham chinakam inqilobiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Chunonchi, ijtimoiy hayot oqimida yangi davr bosh-langanini xabar qilib, bu yangi davr adabiyoti oldida turgan asosiy vazifa nimadan iborat ekanini XX asrning yigirmanchi yillari avvalida xorazmlik tarixchi shoir Muhammadyusuf Bayoniy “Ahli ash’ora” degan she’rida belgilab bergan edi:

El orzusin kuylamoq,
El dardini so‘ylamoq,
Elga hamnafas bo‘lmoq,
El birla qadamlashmoq
Shoir-chun ezgu niyat,
Iftixor va sharafdir.

Qalamqosh g‘ammozlarga
Jonni sadqa qilmoqliq,
Vafosiz yor dardida
Behad afg‘on chekmoqlik,
Tiriklikda o‘lmoqlik
Bu – aslo shoirlikmas!
Elni kurashga chorlang,
Ma’rifat sori yo‘llang,
Jabhalardan so‘z so‘zlang,
Fidoyilarni kuylang,
Shoirning iftixori,
Shoir baxti shundadur.

Bayoniy der: “Yo‘ldoshlar,
Qalamkash orqadoshlar,
Birodar ham qo‘ldoshlar,
El baxtini kuylaylik.[2]

Bayoniyning ushbu she’ri bir necha jihatdan xarakterli. Avvalo u yozma adabiyotimizda barmoq tizimida yaratilgan dastlabki she’rlardan biri. Ammo ayni paytda, bu she’r mazmuni va bu mazmun orqali olg‘a surilgan g‘oya alohida e’tiborga molik – unda yangi davr shoirlardan nimani kutayotgani va nimalarni rad etayotgani ayon ko‘rsatilgan. Zero o‘tmish so‘z san’atida nafaqat shakliy turg‘unlik, balki mazmuniy mahdudlik, mavzularning mushtarakligi ham bor gap edi. G‘afur

[2] қ.: А.Отамуродова, О.Абдураҳимов. Маоний арсаси, Тошкент, “Тафаккур қаноти” нашр., 2012, 98-99 бб.

G‘ulomning “Go‘zallik nimada” degan she’ri Bayoniyning mazkur she’riga har jihatdan hamohang:

“Go‘zallik qizlarda,	Go‘zallik bir guldir,	Go‘zallik – ishlayish,
u qora ko‘zlarda,	muddati fasldir,	manglayni terlatish,
soz kabi so‘zlarda”,	yashamoq asildir,	go‘zaldir ungan ish,
deganlar yanglishur.	siz, biz bor, u yashar.	maqtansa yarashar!

Hamza, Cho‘lpon va boshqa bir qancha shoirlarning an’anaviy aruz bilan birga barmoq tizimida ham ijod qilishga kirishganligi o‘zbek she’riyati va she’riy tarjimachiligidagi butun bir inqilob bo‘ldi, zero rus va boshqa tillardan yangicha ruh, o‘zgacha shaklu mazmunga ega asarlarni muayyan qoliplar doirasidan chiqish amri mahol bo‘lgan aruzda ag‘darish amri mahol edi. Qolaversa, barmoq o‘zbek tilining milliy tabiatidan kelib chiqqan asl she’riy tizimimiz edi. O‘shandan boshlab hozirgacha o‘zga tillardan (va hatto tamomila aruziy bo‘lgan fors va arabchadan ham!) she’riy asarlar ko‘pgina hollarda barmoq tizimida tarjima qilinayotir.

Jimjimador ifoda shakllari bilan “muzayyan” etilgan, buning ustiga arabiy-forsiy kalimalar to‘lib-toshgan, asosan ehtiromli maktub tariqasidagi eski nasr o‘rniga esa konkret badiiy tasvir usullari keldi – yangi o‘zbek prozasi tug‘ildi.

Bundan qariyb yuz yillar avval nishona ko‘rsatgan va sharif nomlari o‘sha yillarning og‘ir sharoitiga ko‘ra xira qog‘ozlarga kam nusxada bosilgan va ko‘p o‘qilganlikdan titilib ketgan gazetalar, jurnalar va ayrim kitoblardagina saqlanib qolgan ayrim mutarjimlarni bilamiz. Ulardan biri Amaliyaxonim otli tarjimondir. Amaliyaxonimni yigirmanchi yillar boshida bir qancha asarlarni rus tilidan o‘zbekchaga o‘girgan va tarixda boshqa ijod turi (she’r yozish, nasrda ijod qilish) bilan shug‘ullanmagan “professional” mutarjimlarning onaboshisi bo‘lgan edi, desak yanglishmasak kerak. Bu ayolning familiyasi Petrosyan (Petrosova) bo‘lib, SSSR xalq artisti Tamaraxonim va O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimovalarning bir tug‘ishgan opasidir. 1900 yilda Petrosyanlar oilasida to‘ng‘ich farzand bo‘lib tug‘ilgan va besh yashar vaqtida ota-onasi bilan Marg‘ilonga kelib qolgan Amaliya jurnalist bo‘lib yetishdi. Uning qadimgi arman, fors, fransuz, rus va o‘zbek tillarini yaxshi bilgani keyinchalik tarjima bilan shug‘ullanishida muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston kitob palatasi tayyorlagan “Sovet O‘zbekistoni kitobi” bibliografik ko‘rsatkichining birinchi jildi (1917-1927 yillar)da yana boshqa bir qancha tarjima mualliflarining ham nomi keltirilgan. Biroq ularning aksari bir-ikki asarni o‘girishdagina qatnashgan, xolos. O‘zbekistonda badiiy tarjima ana shu tariqa, qadamba-qadam rivojlangan.

Bir yoqdan, davr ehtiyoji, ikkinchi tomondan esa koʻp asrlik adabiy anʼanalarning barakali taʼsirida oʻzbek tarjimachiligi juda tez taraqqiy topdi va Oʻrta Osiyo hamda Qozogʻiston mintaqasida yetakchi oʻringa koʻtarildi, boshqa qardoshlar uchun ibrat, oʻrnak maydoniga aylandi.

Tarixchi olimlarning qayd etishicha, yigirmanchi yillar oxiriga kelib, marksizm-leninizm asoschilarining bir qancha asarlarini Sharq tillariga tarjima qilish lozim, degan fikr asosida, ularning roʻyxati tuzilib, Markaziy Osiyodagi xalqlarning ziyolilari bu ishga jalb etiladi. Tajriba tariqasidagi bu ishning nihoyasi shu boʻladiki, ilmiy-falsafiy yoʻnalishdagi, usluban murakkab, shaklan ilgari koʻrilmagan, uzun-uzun jumlalardan iborat, mazmunan ham butunlay kutilmagan bunday asarlarni ona tiliga agʻdarish oson koʻchmaydi. Boy yozma adabiyot tarixiga ega boʻlgan oʻzbek tiliga oʻgirishdagina birmuncha yutuqlar koʻriladi, xolos. Ana shundan soʻng VKP(b) Markaziy Komiteti qaror chiqarib, bunday asarlar avval oʻzbek tiliga oʻgirilishi va boshqa tillarga rus tilidan emas, balki oʻzbekchadan qayta tarjima qilinishi shart qilib belgilanadi...

Afsuski, bugunga qadar oʻzbek tarjimashunoslik ilmi asosan badiiy tarjima yuzasidan tadqiqotlardan iborat boʻlib qolyapti. Ilmiy-texnikaviy, tibbiy, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy-diplomatik, huquq sohasiga oid va hokazo adabiyotlar tarjimasi deyarli oʻrganilgan emas.

Holbuki, masalan, ijtimoiy-siyosiy kitoblarni oʻgirish XX asr oʻzbek tarjimachiligining eng katta yoʻnalishlaridan biri boʻlib kelgan. Eng mohir, otoqli mutarjimlar “partiya va hukumatning daʼvati”, qolaversa, rad etsa aybdor boʻlishdan hadiksirash va baʼzibir imtiyozlar sabab, siyosiy adabiyotlarni, partiyaning sʼezd va plenumlari materiallari va hukumat qarorlarini, partiya rahbarlarining, ayniqsa marksizm-leninizm klassiklarining asarlarini oʻgirish bilan shugʻullanishgan. Oʻta bilimdon, qalami ham oʻtkir Rustam Abdurahmonov, Sharif Tolibov, Hibziddin Muhamadxonov singari oʻnlab mutarjimlar, aksar hollarda nomlari darj etilmagan holda, ana shunday asarlarni oʻzbekchalashtirish bilan shugʻullanishgan. Bu qalam ustalarining zakovati, tarjima jarayonida tilimiz boyliklaridan naqadar ustalik bilan shugʻullanishgani, zarurat tugʻilganda – oʻzbek tilining yangi ifoda shakllarini kashf etib, boyitishlari hodisasi borki, bugungi muazzam oʻzbek adabiy tili, xususan uning ijtimoiy-siyosiy uslubi ana shu kamtarin, fidoyi qalamkashlarning zahmati evaziga bino boʻlgan. “Kapital”, “Materializm va empiriokritisizm” singari, hatto koʻpchilik asliyatda oʻqib ham tushunishi mushkul yuzlab, minglab asarlarni ona tilimizda yayratib talqin qilish shu zotlarning uhdasiga tushdi va ular buni qoyillatib uddaladilar. Faqat, achinarli jihati shundaki, bu oʻnlab alloma mutarjimlar

asari keyinchalik unutilishga mahkum asarlarni o‘girishgan ekan. Ruscha-o‘zbekcha ulkan lug‘atning R.Abdurahmonov tahririda chop etilishi ham bu mutarjimlarning erudisiyasi nechog‘liq yuksak bo‘lganini dalillaydi.

Leninning “G.V.Plexanov. “Marksizmning asosiy masalalari”” asaridagi bir jumla tarjimasi matniga diqqat qilaylik: *“Marksning fikriga ko‘ra, geografik muhit muhim muayyan joyda muayyan ishlab chiqaruvchi kuchlar asosida, ya’ni rivojlnishining dastlabki sharti shu geografik muhitning xususiyatlari bo‘lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar asosida kelib chiqqan ishlab chiqarish munosabatlari orqali insonga ta’sir qiladi…”* (TAT,29,492). Mazkur yo‘nalishdagi, yuz-yuzlab tomlarni tashkil etuvchi asarlar matnida bunday va bundan ham murakkab uslubdagi jumlalar behisob. Ularni tarjima qilish tugul, ma’nosini anglab olishning o‘ziga ham ancha vaqt va uquv kerak bo‘ladi.

Albatta, bu gaplar ularning tarjimasi batamom begidir, qoyilmaqom degani emas. Goho biron so‘z anglatgan birinchi ma’no olinib, muallif ko‘zda tutgan asl muddao biryoqlama yoki yanglish aks etgan o‘rinlar ham bor. Masalan, Leninning keyinchalik shiorga aylantirilgan “Учиться, учиться и учиться” degan mashhur da’vati xato ravishda “O‘qish, o‘qish va yana o‘qish” deb o‘girilgan. Vaholanki, “учиться”, garchi o‘qishni ham bildirsa-da, asosiy ma’nosi – o‘rganmoqdir, “Yoshlar soyuzining vazifalari” haqidagi ma’ruzada yoshlar o‘zlaridan avvalgi avlodlar qo‘lga kiritgan barcha bilim va tajribani o‘rganishlari, egallashlari haqida gap boradi, o‘qimoq, mutolaa qilmoq ko‘zda tutilmagan ayni o‘rinda...

Bugungi kun uchun mazkur yo‘nalishdagi asarlar tarjimasining biz uchun eng qimmatli jihati – ularda orttirilgan tajriba tufayli o‘zbek tilida so‘z zaxirasi ko‘paygani bo‘lib qoldi, jumlalarning sintaktik rang-barangligi oshdi, tilimizning qulochi kengroq yoyilib, kuch-qudrati yaqqolroq namoyon bo‘ldi.

II Jahon urushi arafasiga kelib, o‘zbek tiliga, masalan, ukrain tilidan bevosita o‘girish ham boshlandi: Taras Shevchenkoning ayrim asarlarini Madamin Davron asliyatdan o‘girib taqdim etdi. Biroq urush boshlanib ketgach, bunday adabiy tajribalar uchun fursat qolmadi, boyagiday xayrli ishlar keyinchalik unutilib ham ketdi. Ammo tarjimachilik bu yillarda to‘xtab qolgan emas. Bil’aks, juda ajoyib tarjima namunalari ham yuzaga keldi. 1942 yilda nashr etilgan “Front qo‘shiqlari” kitobi bunga yaqqol dalildir. Eng ulkan shoir-tarjimonimiz Mirtemir bu kitobda rus tilidagi o‘ttizdan ortiq front qo‘shiqlarini o‘zbekchalashtirgan. Ayni nashrning favqulodda ahamiyati shundaki, rus tilidagi harbiy qo‘shiqlar shunchaki emas, balki o‘zbek tilidagi she’r-qo‘shiqlarning

har biri rus tilidagi o‘sha qo‘shiqning musiqasiga batamom “tushadigan” qilib ona tilimizga o‘girilgan, har bir tarjima matni nota bilan ta’minlangan – rus qo‘shig‘ini ruscha kuyi bilan o‘zbek tilida ijro etish mumkin edi. O‘zbekiston bastakorlari esa tarjima matnining ruscha kuyga to‘la-to‘kis muvofiq kelishini shu kitobning o‘zida tasdiqlashgan. Bunday natijani “tarjima mo‘jizasi” deb atash lozim, albatta.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab har yili O‘zbekistonda rus va boshqa tillardan o‘girilgan mingdan ortiq kitob chop etiladigan bo‘ldi. Albatta, ular orasida “sotsial zakaz” deb ataladigan (siyosat taqozo etgan), 1000-1500 betli “roman”lar, ikki oy ham qo‘yilmay, sahnadan tushib ketadigan “drama”lar, har turli dekadalarga tayyorgarlik asnosida paydo bo‘ladigan, naridan-beri, “hashar” tariqasida paydo bo‘ladigan kitoblar ozmuncha emas. Biroq iste’dodli mutarjimlarimizning sidqidildan qilgan mehnatlari tufayli batamom “o‘zimizniki” bo‘lib ketgan tarjima asarlari ham bir talay. M.Ismoiliyning Tolstoy, Chexov, Gorkiy, Guntekin asarlaridan o‘girmalari, Mirtemirning Nekrasovdan, qardosh turkiy xalqlar eposlaridan qilgan tarjimalari, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov tarjimalari ana shular jumlasidan. Shoirlarimizdan Jamol Kamol ingliz tilini, Abdulla Sher olmonchani, Shavkat Rahmon ispan tilini tarjima uchun maxsus o‘rganib, bir qator asarni o‘zbek xalqiga tuhfa etdilar.

Albatta, har bir tarjima eng kamida ikki el ma’rifati va madaniyati, tafakkuri va tili o‘rtasida kechadigan ijodiy jarayon mahsuli. Ammo shunday tarjima asarlari ham borki, ular tillar, ellar, davlat chegaralari va qit’alararo yo‘l bosib kishilar ko‘ngliga yetib boradi. Abdulla Qahhorning “Shohi so‘zana” asari grek tilida paydo bo‘lgan ekan, u rus tiliga, ruschadan fransuz tiliga va farangchadan grek tiliga o‘girilishday jarayon mevasi, deb qaralishi lozim. Yoki XX asr arman shoiri Avetik Isaakyan (1875-1957) o‘zidan rosa to‘qqiz yuz yil avval yashab o‘tgan arab shoiri Abul A’lo al Maarriy (973-1057) haqida doston bitgan ekan, u qo‘limizga yetib kelgunicha armanchadan tarjima bilan shug‘ullangan rus shoiri Valeriy Bryusov va Amerika adibasi Zabel Boyadjyanning mehnatlarini, asarni Al Maarriy davri ruhiga yaqinlashtirish uchun arman shoirining rus tilidagi asarini aruzda o‘girish lozimligini savqi tabiiy ravishda his etgan Asqad Muxtorning betakror izlanishlarini yodda tutish lozim bo‘ladi. Qarang – kichkina bir dostoncha o‘zbek kitobxoni stolida paydo bo‘lishi uchun kamida o‘n asrlik vaqt kerak bo‘lgan, boz – arab, arman, rus va o‘zbek tillari o‘zaro muloqotga kirishgan, dostonni o‘zbek tilida bu qadar yayratib o‘girgan shoir Asqad Muxtorning – donishmand o‘zbek adibining esa asl millati tatar edi. O‘n asr, to‘rt til, besh millat vakili!

XX asrda, shuningdek, tarjimaning yana bir sohasi – filmlar dublyaji ham kuchli rivojlandi. Atoqli tarjimon Qodir Mirmuhamedovning ta'biricha, o'zbek dublyajchiligining qaddi-basti sobiq Ittifoqdagi boshqalar dublyajiga nisbatan bir qarich balandroq bo'lgan va buni ularning o'zlari ham e'tirof etgan.

Bu, aslida, tabiiy. Chunki u zamonlarda barcha filmlar faqat rus tilida suratga olinar, hatto o'zbeklar hayotidan olingan kartinalarda ham o'zbek aktyorlari o'zaro rus tilida gaplashib rol o'ynashar, keyinchalik esa o'zlariga o'zlari ovoz berib, dublyaj qilishar edi.

Ammo mashhur aktyor Obid Yunusovning bir hangomasi o'zbek dublyaj tarjimonlari ishining naqadar sermashaqqat, ijodiy izlanishlarga to'liq bo'lganini ko'rsatadi. Allaqaysi rus kinosida ikki odam bir tugunni talashadi. Bunisi sherigiga ko'zini olaytirib, "Дай мне!" desa, unisi "Не дам!" deya tixirlik qiladi. "Дай мне!"ni tarjima qilish qiyin emas – "Ber menga!" (yoki – Menga ber) deb o'girish mumkin, chunki ikki so'zu uch bo'g'in. Ammo "Не дам!"ning ishi qiyin – ikki bo'g'inli bu so'zni "Bermay-man!" deb uch bo'g'inli so'z bilan bersangiz, aktyorning og'zi qimirlashiga muvofiq kelmay, sun'iylik yuzaga keladi – "dublyaj" ekani bilinadi-qoladi. Nima qilish kerak? Mutarjim biron soat o'ylanadi va oxiri ikki bo'g'inli so'z bilan o'girish yo'lini topadi: "Не дам!" – "Hecham!" Ana shunda hatto og'iz qimirlashlari ham bir xil bo'lib chiqadi. Uzukka ko'z qo'yganday munosib. Hatto kinofilmlarning nomi ham ijodiy tarzda: "А зори здесь тихие" – "Hur qizlar" deb, "Служебный роман" – "Ishdagi ishq" deb o'girilgan. Bizning dublyaj san'ati ana shu darajada taraqqiy etgan edi.

… Avvalgi sahifalarda aytganimizdek, XX asr o'zbek adabiyotida tarjima asri bo'ldi. Ijodning bu turi bilan necha yuzlab adibar shug'ullandi. Shunchalikki, agar sanasangiz, original asar yozish bilan shug'ullangan shoir va yozuvchilarga qaraganda tarjimonlarning soni ko'proq bo'lib chiqadi. O'zbek kitobxoniga taqdim etilgan asarlarni sarhisob qilsangiz ham, tarjima mahsuloti ko'proq ekani aqlga tayin.

Va har bir tarjima – sifatidan qat'i nazar, o'zbek elining ma'rifatini yuksaltirishga ozdir-ko'pdir, hissa qo'shdi. Milliy madaniyatimizning, ilmiy saviyamizning, badiiy didimizning o'sishida ijodning bu turi bilan shug'ullanib o'tgan otalarimizning hissasi beqiyos, ularning tajribalarini tadqiq qilib, o'rganishimiz lozim bo'lgan narsalar bisyor.

O‘ZBEKISTONDA TARJIMA IQLIMI
(Tarjimon, tarjima, tahlil, muammo)

filol. f.n., dots. ***Roviyajon ABDULLAYEVA****, Turon FA faxriy akademigi*

Milliy adabiyotni shu millatga mansub shoirlar, nasrnavislar, dramaturglar yaratishsa, jahon adabiyotini tarjimonlar bunyodga keltiradi. Binobarin, mahoratli **tarjimon**lar har turli adiblardan ham balandda turadilar. Zero, “ikki olam yukini” yelkasida ko‘tarib yurgan bitta shaxsda ikkita jon, ruh taloshadi. Ularning yana bir xususiyati shundaki, ular doim original muallifi ko‘rsatgan ramka ichida turishga burchli, erkin qalam tebratmaydilar, muallif bilan hisoblashib turadilar. Yozuvchilar g‘oya tug‘ildimi, iqtidorini ishga solib, mavzu yuzasidan ot o‘ynatadilar. Biz F.M.Dostoyevskiy buyukligi oldida tiz cho‘kamiz, ammo Dostoyevskiy olamini, sirlari, haqiqatlari, fojealarini yetkazib bergan I.G‘afurovni birov taniydi, birov tanimaydi, chunki u orqa frontda xizmatda.

Tarjimonlarsiz Dante, Shekspir, Rumiy, Gyote, Shiller, Hayne, Pushkin, Lermontov, Yeseninlar sayyoramiz miqyosida tanilmagan bo‘lur edi. Yesenin A.Blok ijodidan ta’sirlangan, Blokni ustunligini tan olgan, o‘ziga ustoz sanagan. Yesenin nazmidagi “go‘zal iztirob”lar o‘zbeklar orasidan “o‘z odamini” topdi. Ammo, Blok topa olmadi. E.Vohidov Yeseninni shu darajada sayratganki, tarjima asliyatdan ham go‘zal chiqqan. Agar Yesenin o‘zbek yigit qizlarining “O, Shohinam, Shohinam, ko‘zi zangori o‘risingni unutma zinhor”, deya o‘ychan hayol surib yurganlarini ko‘rganida bormi, Erkin akaga ta’zim qulliq qilgan bo‘lur edi.

Xo‘sh, nima uchun “shams ul-millat”imiz Navoiy jahon miqyosida Gyote kabi mashhur bo‘lmadi? Dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida **Gyote** institutlari ishlab turibdi. Nega Angliya, Amerika, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda Navoiy instituti yo‘q? Garchi, Navoiy Germaniyada “Hirotning baxti” (Hofman) deya, kuchli shoirlar qatorida e’tirofga loyiq ko‘rilayotgan bo‘lsa-da, nazmidan jahon she’rshunoslari to‘liq bahramand bo‘layapti, deb bo‘lmaydi. Zero, u boshqa millatlar orasidan “o‘z odamini” topaolmadi.

Istiqlolgacha jahonda o‘zbek millati borligini Yevropa va Ummon ortida bilmaganlar. Tan olish kerak, bugungacha biror bir o‘zbek ijodkori Yevropa, AQShda chinakamiga tan olinganicha yo‘q. Buning siri nimada? Siri shundaki, o‘zbek ash’orlari G‘arb tillari qolipiga doim qoyilmaqom tarzda tushavermaydi. A.Oripov: “She’rlarimning ruscha tarjimalaridan mutlaqo qoniqmayman. O‘sha she’rlar meniki emas”[3], degan

[3] Б.Рўзимуҳаммад. Чилла чиққан кун .Эссе. (Шоир Абдулла Орипов билан бўлган суҳбатдан) 2011. 5 февраль.

bo‘lsa, E.Vohidov: “she’rlarimni o‘rni-o‘rniga keltirib qo‘yishsin”, degan ekan. Xulosa shuki, ***tarjimon*** degan kalom ulug‘ maqomda ko‘rsatilishi va ko‘rilishi lozim.

A.Obid 48 nafar shoir ijod namunalaridan inglizchaga o‘girib, nashr qildirgan. Pryag Saykia inglizchadan assam tiliga o‘girgan. Bu fakt Hindistonda tarjimonlar qadrlanayotganini tasdiqlamaydimi?! U “Qush tili” antologiyasini 8 tilda[4] nashr qildirib, bepul tarqatdi. Yana kattaroq adadda chop ettirib, 40dan ortiq mamlakatga jo‘natdi.“Jahon adabiyoti” jurnali antologiyani targ‘ib etdi. Ammo nemis, ingliz, fransuz, polyak, ispan, koreys, xitoy tillari mutaxassislari fikr bildirmadi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Lisonut - tayr” dostonining nasriy bayonini kanadalik Gerri Dikk bilan Nosir Qambar hamkorlikda inglizchaga o‘girgan. G.Dikk o‘z hisobidan chop ettirgan[5]. Bu uslub o‘zbek tilini mutlaqo bilmaydigan xorijliklarni chalg‘itadi. Tasavvur qiling, maboda “Faust” tragediyasining nemis tilida nasriy bayoni amalga oshirilsa va shu matn asosida o‘zbekchaga o‘girilsa, Gyotening jarangdor ovozi o‘zbek o‘quvchisiga yetib bormaydi-ku!

Tarjimani amalga oshirish uchun asar ichiga “*kirib ketish*” kerak. Dostoyevskiyga I. G‘afurov ruhan yaqin. U rus dahosi asarlari *“ichida yashagan, qahramonlar bilan birga nafas olgan”*. Shu boisdan, *Dostoyevskiy* o‘zbek tilida asar yozgandek tuyuladi. *I.G‘afurov* qalami esimizdan chiqib ketadi. Nega o‘zbek daholari *ingliz, nemis, fransuz* xalqlari orasidan *I.G‘afurov*ga o‘xshagan *ruhbilgich*larni topishi mumkin emas?

Erkin A’zam *“Zabarjad”, “Dilxiroj”, “Chantrimore”, “Parizod”, “Erkak”,“Suv yoqalab”* filmlari bilan xalqaro kino festivallarda qatnashib, sovrinlarga ega bo‘ldi. “*Ertaklar bilan xayrlashuv*” va “*Shovqin*” romani “*Buyuk osiy Shayx sanon vorislari*” nomli to‘plamda *ingliz* va *fransuz* tillarida chop etildi. Parij, Amerika va Londonda taqdimotlari bo‘lib o‘tdi. “*Asosiy mashg‘ulotim adabiyot*” deya adib qilayotgan amallar Yevropa va Ummon ortida kuchli rezonans berdi. Bu o‘zbek adabiyotshunosligi, kinoshunosligi, orqa frontda xizmatdagi *mutarjim*larning yutug‘idir.

Men germanistlar ahvolidan voqifman. Aksari *tilbilgichlar* iste’dodi yuqori darajada, ammo badiiy saviyasi maqtanarli emas. Shunday mutarjimlar borki, matn ruhini tez his qiladilar-u, afsus xorijiy tillarni bilmaydilar. Ana o‘sha *“ikki qutb”* (*tilbilgich* va *ruh bilgich*) yaqinlashmog‘i kerak. Modern shoirlarning 50dan ziyod ijod namunalarini hammualliflikda

[4] Обидов Аъзам. The Language of the Birds. International poetry anthology. „Тафаккур”. Тошкент. 2011. 256 саҳифа

[5] Ўзбек шоирлари орасида “Г. Дикк Навоийнинг ҳатто шоир эканини билмаган ҳам” деган гаплар юради - А.Р.

asliyatdan o‘girdim. Gyote, Shiller, Hayne she’riyati namunalaridan, O.Genri, M.Tvenning esse va hikoyalarini, A.Kurellaning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan “*Buyuk shoirning qayta kashf etilishi*” ilmiy tadqiqotini ham. Bular gazeta, jurnallarda e’lon qilindi.*“Tanishuv-Kennenlernen”*[6] nomida ikki tilda *E.Lotarro* so‘zboshi bilan to‘plam bo‘lib chiqdi. Shu usul samarali ekanini ta’kidlashni istardim. Hammuallifim bundan ma’-naviy foyda ko‘rdi. *“Fauzerga nazira”*, *“Ensensberger”* kabi she’rlarni yozdi.[7] Uning “*Ich habe mein Selbst vergessen”*[8] kitobiga *Ya.Taube*[9] *“Some’lik”* she’rining ilk misrasini sarlavha sifatida tanlagan. Nega nemis noshirlari bu kitobni nashr qilishni lozim topdilar? Buning ***sababi*** Sharqu G‘arb she’riy usullari sintezi bilan izohlanadi.

Oybek Ostonov *“Dunyoning ishlari”* romanini *“Kein Himmel auf Erden”* deb o‘girgan, ma’nosi: “*Er ustida osmon yo‘q*”. Sarlavha tarjimasi to‘g‘risida kunning yarmigacha uch - to‘rt kishi rosa bahslashdi. Bunday bahslarning kimga keragi bor o‘zi? Deylik,*“O‘tkan kunlar”* romani “*Die Liebenden von Taschkent”* deb o‘girilgan.“*Sinchalak-Sekretär Saida”*[10] deb berilgan, rumin tilida “*Saida”* deyilgan. Ammo asar mohiyati o‘zgarib qolmagan-ku?! To‘g‘ri, *“Sinchalak”*ka translitreratsiya usulida izoh berilsa bo‘lardi. Yana *Oybek Ostonga* nemis tilidan bilimga ega emas, degan e’tirozlar bo‘lmoqda. *Gyote*ning *yurist*, *Ch.Aytmatov*ning *zooveterinar*, *M.T.Oybekning agronom*, *A.Voznesenskiy*ning *arxitektor*, *A.P.Chexov*ning *vrach* bo‘lganini, *yurist*, *zooveterinar*, *agronom*, *arxitektor* va *vrachni* dunyoga badiiy adabiyot mashhur qilganini eslasak, Oybek faoliyatini bu kriteriya bilan baholab bo‘lmasligi ayon bo‘ladi. Germaniya tarjimonlar uyushmasi faxriy a’zosi *M. Akbarov*ning mahorat qirralari – ochilmagan qo‘riq. Dissertatsiyalarga mavzu bo‘la oladigan uning ijod tajribalari, “*sirlari va haqiqatlari*” bor. Bu haqda tadqiqotlar yozish joiz. “*Die Heimsuchung”* romanining *“Makon istab”*[11] deb o‘girilgani ancha munozaralarga sabab bo‘ldi. Gyote institutidagi taqdimotda muallif J.Erpenbek ham qatnashdi. R.Sultonov tarjimadagi xatolarni eslatdi. Bu fikrga qo‘shilish mumkin.

---

[6] Танишув-Kennenlernen. „Ўқитувчи” нашриёти. –Тошкент. 2000. 88 саҳифа.

[7] Баҳром Рўзимуҳаммад. Соялар суҳбати. „Зарқалам” нашриёти. –Тошкент. 2006. Б. 11; –Б.15.

[8] Bahrom Rożimuhammad. Ich habe mein Selbst vergessen. –Leipzig. Leipziger Literaturverlag. 2013.

[9] Якоб Таубе Ўзбекистонга бир неча бор келиб, Тошкенда малака оширган, академик Эргаш Фозиловнинг шогирди.

[10] Abdulla Kachar. Sekretär Saida. Roman. –Berlin. Kultur und Fortschritt.1961.

[11] Женни Эрпенбек. Макон истаб. „Ниҳол” нашриёти.–Тошкент.2011.176 саҳифа.

“Ilonbaliq”,“Qush tili” ishtirokchisi amerikalik *K.Merril* yurtimizga 2 marta keldi. Biror bir yozuvchi yoki shoir unga o‘z asarini ko‘rsatganini eshitmadim. *K.Merril* ijod namunalari dunyoning 25 dan ortiq tillariga o‘girilgan. *“Olmos suv”,“Olovni kuzatish”* to‘plamlari uchun mukofotga sazovor bo‘lgan. “*Badiiy ijod*” dasturi har yili dunyoning 30ga yaqin ijodkorlarini *adabiyot shahri* Ayovada o‘tkaziladigan 3oylik seminarga yig‘adi. “Do‘stlik”[12] gazetasida bu haqda axborot berib boriladi. Jahon miqyosidagi shu nufuzli dastur nigohimizdan chetda qolmasligi kerak. Zero, bunday anjumanlarda dunyo adabiyoti nafasi aks etadi. Antologiyalarda turli xil antiqa uslub va usullarga duch kelasiz. Milliy adabiyotimizga mansub nasrnavis va shoirlar Yevropa, Amerika qit’alari uchun an’anaviy hisoblanadilar. Mutlaqo o‘zgachalik o‘zbek o‘quvchisida ishtiyoq qo‘zg‘ashi tabiiy. *K.Merril*ning “*G‘arb darichasi*” she’rining ilk bo‘lagiyoq o‘quvchi e’tiborini tortadi:

Tepalikni yelpib-elpib ostidagi o‘tni yashirgan
Palma daraxtiday yam-yashil kaltakesak sirg‘alib
Yoxud asta tushar kattakon bargdan yomg‘ir tomchisiday
Paporotnik ostida ko‘zdan yo‘qolgan
Gul ustiga. Orolning taqlidchilari -
Maynayu to‘tilari - kuylashni boshlaydi
kardinal qush tuzoqdan qocharkan mango va undan nariga.[13]

She’rda na tinish belgi mavjud, na misralar til orfografiyasi talablariga javob beradi. Ajablanarli joyi yo‘q, o‘ta erkin uslub. Bu G‘arb modern uslubi. G‘arb derazasidan ko‘zga tashlanayotgan kinodek tasvirlarda *o‘xshatish, epitet* va *harakatlar* taloshini ilg‘aysiz. *Kaltakesak*ning gul ustiga tushishi, *mayna, to‘ti va kardinal qush*ning kuylashi kabi holatlar qancha joylarni aylanib tasvirlanadi.

Tarjima jarayonida egoizm ruhi hukm surmoqda. Har kim o‘z bilganicha ish yuritadi. Bir-biridan xabari yo‘q. Tilbilgichlar *Ya. Taubega* o‘xshab ikki odamni o‘ziga sherik qilishdan orlanadilar, shekilli. Agar shunday qilsa, dovrug‘i kamayib qolayotganday. Oqibatda tarjima jabhasi oqsashga tushaveradi. Tarjimashunoslik sohasi deyarlik yo‘q bo‘lib ketayotganini hisobga qo‘shsangiz real ahvol yanada oydinlashadi. Jarayonni jonlantirish uchun *tarjima guruhlari*, *markazlari* tashkil etish zarur. Davlat miqyosida ma’lum yillarga mo‘ljallangan tematik Ishchi dasturlari tuzish shart. Shundagina bu jabhada siljishlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbeklar *hind, yapon, xitoy, koreys*lardan iste’dod, iqtidorda orqada

[12] “Дўстлик” газ.,. Америка Қўшма Штатлари Элчихонаси. Март. 2010.
[13] Кристофер Меррил. Қуш тили. –Тошкент. 2011. Б. 116-119.

emaslar, lekin birlashish, jahon miqyosiga intilish borasida orqadalar. Muammoning yechimi ishtiyoqimizga, havasimizga kelib taqaladi.

Modernist ijodkor deyishsa, ba'zilar lab burashadi. Ayrimlar uchun *modernizm* - G'arb hodisasi, eskirgan, iste'moldan chiqqan adabiy oqim, o'zbek adabiyotiga xos emas, allaqachon umrini yashab bo'lgan. Ba'zilar ijodkorlarning aksariyati G'arb modernistlariga *taqlid* qilishadi, deyishadi. O'z davrida *A.Blok, B.Pasternak, V.Mayakovskiy* kabi rus yozuvchi, shoirlari she'r shaklini o'zgartirib, noan'anaviy usulda yozib, jahon she'riyatida o'zgarish yasaganlar.

Modernizm simvolizmdan unub chiqqan desak to'g'ri bo'lar. Ong osti tafakkurini tushga qiyos qilish mumkin. Modernistlarning bitiklari xuddi tushdagi harakatlar ifodasiday. Jahon adabiyotidagi oqimlarga, estetik ideal tufayli o'zga she'riy shaklda yuz bergan o'zgarishlarga e'tibor qaratib, ularni o'rganish zarur. O'zgalardan o'rganmay, o'zgalarga nimadir bermay, o'z qobig'imizda o'ralashib qolsak, adabiy aloqalar taraqqiy qilarmikan?! Bizning *"...havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz..."* bo'larmikan? ..."[14]

G'arb shoirlari an'anaviy tasvir unsurlaridan voz kechib, o'quvchi g'ashiga tegadigan, aslida, inson shaxsiyatining chuqur qatlamlarigacha yetib boradigan xos usulni tanladilarki, bu ***modernizm***dir. Bu bitta mamlakat doirasidagi "***eksperiment***" bo'lmay, dunyo adabiyotiga-da o'z ta'sirini o'tkazdi. G'arb va Sharq modernchi adiblariga Nobel mukofotining berilishi "***zar qadrini zargar bilar***" naqlini eslatadi.

Adabiy aloqa, tarjima, ta'sirlanish masalalari haqida fikr mulohazalar yo'q emas, bor. Lekin bu sohada xolislik kayfiyati hukm surishi lozim. Sof san'at mezoniga mos badiiy asarlar G'arb tillariga o'girilsa, adabiyotimiz Yevropa miqyosiga chiqishi aniq. Nemislar Navoiy, Cho'lpon va ularning izdoshlari she'riyatiga qiziqmoqdalar. Quvonarli jihati shundaki, ularning ba'zilari o'zbek tilini o'rganishmoqda.

"***Tarjima san'ati***" to'plamining ilk nashri 1961 yilda chiqqan. Keyin 6 ta soni nashr etildi. Bu minbarda A.Qahhor, Ch.Aytmatov, M.Ismoiliy, J.Sharipov, Sh.Rashidov, S.Shermuhammedov, V.Zohid, O.Sharofiddinov, N.Komilov, N.Vladimirova, Yan Komorovski, J.Griva, S.Ivanov, Yu.Levin, Vl.Rossels, B.X.Tohirboyev kabi adabiyotshunoslar, yozuvchi shoirlar, davlat arboblari, xorij olimlari so'zlagan. Shu nashr to'xtab qoldi. To'plamni tiklash istagi tug'ilib, maqola yig'ildi, tahrir qilindi. To'plam tayyor. Natija yo'q.

[14] Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш - халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир/ Халқ сўзи. 2017. 4 август.

“***Tarjima ensiklopediyasi***”ga ehtiyoj sezilayotgani kengashlarda aytilmoqda. Etyudlar tayyorlandi. ***Ensiklopediya***dan darak yo‘q. Bu bitta kishining ishi emas. Buning uchun davlat komissiyasi tuzilib, Yozuvchilar uyushmasi qoshida yetuk mutaxassislardan iborat salmoqli “***Ishchi guruhi***” tashkil qilish lozim. Bu jamoada ***tilbilgich*** va ***ruhbilgichlar*** ishtiroki zarur. Qolaversa, tarjimonlarga rahbariyatning madadi, rag‘bati kerak. Muxtasar qilib aytsak, Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinda turgan ***o‘zbek adabiyoti*** jahon miqyosiga chiqishi muqarrar. Buning uchun tolerantlik bilan, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlab, muvaffaqiyatlardan vaqtida xursand bo‘lib, murod hosil qilmog‘imiz lozim.

IBRAT MAKTABI

F.f.n. dots. ***Rustam SHARIPOV****, TDSHU*

Ba’zan talabalarimiz “Tarjima adabiy hodisami yoki ilmiy tafakkur mahsulimi?” – degan savol bilan murojaat qilishadi. Ularning bu savolida yuzaki qiziqish emas, balki masalaning mohiyatini tushunib yetish va uning ildiziga yetib borish istagi mujassamligini kuzataman. Darhaqiqat, qiziq savol. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Tarjima – biror tildan ikkinchi bir tilga ag‘darilgan tekst” deb ta’riflansa, Vikipediyada “Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat bo‘lib, u millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi” sifatida izohlanadi. Demak, tarjima jarayoni ikki yoki undan ortiq bir-biridan farqli bo‘lgan tilni puxta bilish majburiyati bilan bog‘liq bo‘lib, tarjimondan asl matn tili bilan bir qatorda matn tarjima qilinayotgan tilni mukammal va chuqur egallagan bo‘lishni talab etadi. Shu bilan birga, tarjimon o‘zga xalq adabiyotining o‘zbek kitobxoni uchun qiziqarli va foydali bo‘lgan durdona asarlarini ko‘ra olish didiga ham ega bo‘lishi kerak.

Tarjima xalqaro do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qilish bilan birga, odamlarning bir-birini tushunishiga ko‘maklashadi va ularni ma’naviy-ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi U turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini ham tezlashtiradi.

Tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarjima tillarning rivojlanish sur’atini jadallashtiruvchi, lug‘at boyligini oshiradi-

gan va takomillashtiradigan vosita sifatida ham muxim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlar tarjimani inson ma’naviy hayotini boyituvchi, ona tilining bor bisotini ro‘yobga chiqaruvchi, ayni paytda, uning serjilo bo‘lishini ta’minlovchi, kitobxonning tafakkurini charxlab, yangi g‘oyalar, tushunchalar bilan boyituvchi xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi.

Shuningdek, tarjima asarlar jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima tufayli milliy adabiyotlarga yangi g‘oyaviy yo‘nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. Shu ma’noda, tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san’ati deb ham ta’riflash mumkin. Tarjimaning maqsadi u yoki bu tilda yaratilgan matnni ikkinchi bir til vositasida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat matni mazmun-mohiyatini to‘la-to‘kis idrok etish, uni o‘girilayotgan tilda bekami ko‘st qayta ifodalashga erishish talab qilinadi.

Bu masalaga lingvistik nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, tarjimani bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlab qolgan holda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo‘yilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan ijodiy-adabiy jarayon sifatida ta’riflash mumkin. Demak, tarjima jarayonida asliyat tili vositalari yordamida yaratilgan asar tarjima tili qonuniyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda qayta yaratiladi va buning natijasida asliyat hamda tarjima matnlarining mazmuniy-uslubiy muqobilligi yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida lingvomadaniy qatlamlarning yaqinlashuviga zamin yaratadi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hech bir milliy madaniyat boshqa ma’naviy-ma’rifiy qatlamlardan, shuningdek tamaddun rivojlanish jarayonlaridan ajralgan holda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rmaymiz. Aksincha, dunyodagi barcha madaniyatlar bir-birlariga u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazib, o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini boshidan o‘tkazib kelgan. Shuning uchun turli millatlar madaniyatlarida umumiylik va xususiylik borligini hisobga olib, tarjimani xalqlar o‘rtasidagi lingvomadaniy ko‘prik, tarjimonlarni esa madaniyat elchilari deyishga to‘la asosimiz bor.

Elchi maqomiga erishishga da’vogar bo‘lgan tarjimon zimmasiga nihoyatda jiddiy mas’uliyat yuklanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, u asl matn tilini mukamal egallagan bo‘lishi, o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqning milliy ruhiy holati, tarixi, madaniyati, mentaliteti, qolaversa mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlardan xabardor bo‘lishi hamda eng asosiysi, matn tarjima qilinayotgan tilning (bizning holatimizda o‘zbek adabiy tilining) barcha qonun-qoidalarini puxta egallagan bo‘lishi shart.

Shuningdek, tarjimon o‘zga xalq madaniyati namunasining o‘quvchi uchun qiziqarli va foydali bo‘lish-bo‘lmasligini avvaldan ko‘ra bilish xususiyatiga, adabiyot va san’atning asosiy sharti bo‘lgan badiiy-estetik didga ham ega bo‘lishi kerak. Buning uchun esa tarjimon chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak. Xullas, tarjima – bu jiddiy tayyorgarlik talab etadigan og‘ir va mashaqqatli mehnat.

Lingvomadaniy qatlamlarning tarjima vositasida o‘zaro yaqinlashuvi shak-shubhasiz har ikki madaniyatning ham boyishiga xizmat qiladi. Sababi, o‘zga tilda yaratilgan badiiy asarning mukammal tarjima natijasida yangicha qirralari va jilolari ko‘z oldimizda namoyon bo‘lsa, biz o‘quvchilar o‘z ona tilimizda undan ma’naviy-estetik ozuqa olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Demak, bu jarayonda tarjimon shaxsiyati va uning badiiy mahorati nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda, fikrimizning dalili sifatida xalqimizning ardoqli farzandi O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning tarjimonlik mahoratiga biroz to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Hammamizga yaxshi ma’lumki, Abdulla Oripov o‘zining benazir asarlari bilan xalqimizga boy adabiy meros qoldirdi. Lekin shu bilan bir qatorda, uning ulug‘ italyan shoiri Dante Aligerining “Ilohiy komediya”si, Aleksandr Sergeyevich Pushkin, Lesya Ukrainka, Taras Shevchenko, Qaysin Quliev va boshqa bir qator shoirlar ijodidan qilgan tarjimalari ham bizga yaxshi ma’lum bo‘lib, ular xali-hanuznacha o‘z tadqiqotchilarini kutib turganini alohida ta’kidlash lozim.

Shoir Pushkin dahosi haqida shunday degan edi: “Pushkin qo‘llagan she’riy shakllar hozir an’anaviy bo‘lib qoldi. Lekin nega Pushkin she’rlari eskirmaydi?! Pushkin davridan buyon o‘nlab, balki yuzlab she’riy eksperimentlar paydo bo‘ldi. Lekin nega “eng yangi shakllar” jahon badiiy tafakkurida muhim zina bo‘la olmayotir. Buning sababi oddiy va soddadir. Ya’ni, shakl hech narsani anglatmaydi. Libos nisbiydir, faqat ruh va ma’no mohiyatni belgilaydi. Adabiyotdagi shakliy izlanishlar nihoyatda zarur. Lekin u nechog‘lik zamonaviy va ilg‘or bo‘lmasin, nochor iste’dodni tanazzuldan asrab qololmaydi. Pushkin she’riyatining o‘lmasligiga sabab–uning satrlari orasida daho shoirning yurak nafasi ufurib turadi”.

O‘z asarlarida teran falsafiy ma’nolarni ifodalay olgan shoirning adabiy tarjimalarida ham ayni mana shunday “yurak urishi” betakror tarzda aks etadi. Atoqli shoirimiz o‘zbek tiliga tarjima qilgan asarlar, xususan, Dante Aligerining “Ilohiy komediya” poemasi (“Do‘zax” qismi), Lesya Ukrainkaning “Mag‘oralarda” hamda Yenyo Xeltaining “Soqov risar” she’riy dramalari, Aleksandr Pushkin, Taras Shevchenko, Yegishe Charens, Qaysin Quliev, Xarivansh Ray Bachchan, Sergey Baruzdin, Kresti

Merilaas, Xalil Rizo kabi shoirlarning she’rlari, Ganjaviy ruboiylari adabiyotimiz xazinasiga aylangan. Eng muhimi, A.Oripov tarjimasida she’rlar o‘zbekona ohanglarga omuxta bo‘lib, xalqimizning ko‘nglidagi gaplarga aylanib ketadi. Masalan, Pushkinning “Hikmat” she’ri o‘zbekona lutf bilan yangray boshlashiga guvoh bo‘lamiz:

Kulbada bittagina sham yonib turar edi,
Ravshan bo‘ldi yoqishgach, yana bitta shamchiroq.
Bejiz emas, qadimgi donolar deyar edi:
“To‘y yaxshi-yu va lekin kengashli to‘y yaxshiroq”.

“Kengashli to‘y to‘zimas”, “Maslahatli osh aynimas” kabi ko‘plab hikmatlarni hayotiy aqidasiga aylantirgan xalqimiz uchun kengashib, ko‘p bilan bamaslahat boshlangan to‘yning xayrli, bekamu ko‘st o‘tishi azaldan ma’lum. Sodda qilib aytganda, “kengashli to‘y” iborasi ham, bu ibora anglatgan ma’no ham Pushkin mansub rus xalqidan ko‘ra bizga ko‘proq tanish va qadrdon. Shu bois bir shamning yorug‘iga boshqasining qo‘shilishi bilan kulbaning yanada yorug‘lashishi, agar bu tashbihni hayotga qiyoslaydigan bo‘lsak, ota-onaning jonfidoligi, farzandlarning mehri, yordo‘stlarning oqibati, ustozlarning fidoyiligi va boshqa-boshqa ko‘plab insoniy fazilatlar kishilarni bir-biriga yelkadosh qilishi, birining kamini boshqasi to‘ldirishi shu qisqa hikmatda o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Abdulla Oripov qay mavzuga qo‘l urmasin, qay shaklda she’r bitmasin, mudom ezgulik bilan yovuzlikning azaliy kurashi, olamning mehvari odamiylik ekani, yomonlik qilib hargiz yaxshilik topib bo‘lmasligi kabi umuminsoniy qadriyatlarni kuylaydi. Shoir tarjimalarida ham shunday ruh va ohang seziladi. Boshqacha aytganda, Abdulla Oripov tarjima uchun o‘zining qalbiga yaqin she’rlarni tanlaydi va shu bois ham tarjimalari xuddi o‘zining asarlari qadar ta’sirchan va betakror jaranglaydi. Pushkinning shoir tarjimasidagi “Tumorim” she’riga e’tiborni qaratsak:

Begona ellarda yozib xumorim,
Erinchak sukunat qo‘ynida qolsam,
Olovli jang hissin qalbimga solsam,
O‘zing asra endi meni, tumorim.

She’rning Pushkin qalamiga mansub ekanini bilmagan o‘quvchi uni xuddi o‘zbek shoiri yaratgan asar sifatida qabul qilishi mumkin. Avvalo, tumorni e’zozlashimiz, ko‘ksimizda olib yurishimiz, uning sirli-sehrli kuchiga ishonishimiz – xalqimizning ko‘p ming yillik an’analari sirasiga kiradi. Qolaversa, ifodaning o‘zbekonaligi, so‘zlarning topib qo‘llangani ham Abdulla Oripov mahoratidan dalolatdir.

Umuman olganda Abdulla Oripov tarjimalaridagi ifodaning betakrorligi va samimiyligi o‘quvchini rom etadi. Atoqli bolqor shoiri Qaysin Qulievning mana bu she’rini dalil sifatida keltirishimiz mumkin:

Gullar bosh egadi,
Yulduz charaqlar.
Qor erib, tog‘lar ham tovlanar turlik,
Men uchun dunyoda hammadan battar
Hayratni bilmagan odamlar sho‘rlik.

Tarjimada ishlatilgan birgina “turlik” so‘zi she’rga o‘ziga xos o‘zbekona ohang bag‘ishlaganini ko‘rishimiz mumkin.

Lesya Ukrainkaning “Mag‘oralarda” she’riy dramasi tarjimasi ham e’tiborimizni o‘ziga tortishi tabiiy. Asar nomi rus tiliga “В катакомбах” deb o‘girilgan. Bu so‘z (“катакомба”) ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarda vayrona, chuqurlik kabi ma’nolar bilan izohlangan. Abdulla Oripov esa uni o‘zbekchada “Mag‘ora” deb beradi. Bu so‘z sirliligi, jozibasi bilan ham tilimizning boyligini, ham shoir-tarjimonning ulug‘ligini ko‘rsatadi.

Ayni jihat shoirning mahoratidan dalolat berishi bilan bir qatorda Abdulla Oripovning tarjimonlik maktabi mavjudligi va u boshqalarga, ayniqsa, bugungi kunda tarjimonlik yo‘lini tanlagan yoshlarga ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlash joiz. Zotan, shoirning o‘zi: “Biz, eng avvalo, Pushkinning samimiyatidan ibrat olmog‘imiz lozim”, deganidek, bugungi yosh ijodkorlar Abdulla Oripov samimiyati va mahoratidan ibrat va saboq olishi lozim desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

QIYOSIY TIPOLOGIYA VA TARJIMA ILMI

F.f.n. dots. ***Odiljon SAFAROV****, O‘zDJTU*

Ma’lumki, so‘nggi o‘nyilliklarda tilshunoslik shiddat bilan taraqqiy etdi, soha bo‘yicha ancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shunday bo‘lsa-da, yillar davomida yig‘ilib qolgan yoki ayni paytda paydo bo‘layotgan muammolar ham yetarli. Shulardan biri *qiyosiy tipologiya* va uning *tilshunoslikdagi o‘rni* bilan bevosita bog‘liq. Shuni nazarda tutib, nomi yuqorida qayd etilgan mavzu bo‘yicha alohida mulohaza yuritishni lozim topdik. Mavzu qiyosiy tilshunoslik fani mavqeini tiklash va bu boradagi izlanishlarni to‘g‘ri tashkil etish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega. Mavzu o‘yicha ishdan ko‘zlangan maqsad – qiyosiy tipologiya va unga tegishli masalalar mohiyatini ilmiy asosda ochib berish.

Ayni paytgacha qiyosiy tilshunoslik bo‘yicha ish olib borgan tadqiqotchi va olimlarning aksariyati, qiyosiy tilshunoslik o‘rniga qiyosiy tipologiya iborasini qo‘llashga shu darajada odatlanib qolishganki, natijada,

bu ikki sohani bir-biridan ajratish qiyinlashib qolgandi. Tillarni o‘qitishga ixtisoslashgan oliy o‘quv muassasalarida esa qiyosiy tipologiya alohida fan sifatida o‘qitiladigan bo‘lgan. Masalan, uni o‘qitishda J. Bo‘ronovning Сравнительная типология английского и тюркских языков» (M.,1983), Ya.R.Ben’yaminov “Vergleichende Typologie der deutschen und usbekischen Sprache” (1984) kitoblaridan foydalanilgan.

Bu kabi ishlarda *qiyosiy tipologiya* tillarni qiyosiy o‘rganishga oid deyarli barcha masalalarni, hatto *intereferensiya* hodisasi**,** ya’ni o‘zga tilni o‘rganishda ona tilining ta’siri masalasini ham qamrab olgan. Ularda qiyosiy tipologiya tarjima ilmi va amaliyotiga bog‘liqligi haqidagi fikr ham alohida qayd etilgan. Jumladan, J. Bo‘ronov bu holni shunday ifodalaydi: “Qiyosiy tipologiya va tarjima nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bog‘liqdir. Qiyosiy tipologiya va tarjimaning nazariy bog‘liqligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq tillar vositalarini muvofiqlashtirish qonuniyatlarini topish va o‘rganish bilan shug‘ullanadi” [1].

Shunga o‘xshash fikr Ya.Ben’yaminovning kitobida ham uchraydi. Biroq qiyosiy tipologiyaga oid ishlar hanuzgacha tarjimaga nafi tegadigan holda emas. Bu soha olimu tadqiqotchilar, tarjima ishlarini yengillashtiradigan yoki *lisoniy tarjima* nazariyasi haqiqatan ham ilmiy asoslarga egaligini tasdiqlay oladigan darajadagi ishlarni bajara olmaganlar. Shunday bo‘lsa-da, qiyosiy tipologiyaga oid tadqiqotlar ko‘lami kengayib borganini M.Umarxo‘jaev quyidagicha ifodalaydi:

“So‘nggi paytlarda umumiy va aniq tilshunoslik oralig‘ida yangi yo‘nalish yuzaga kelmoqda. Bu yo‘nalish tillarning umumiy xususiyatlarini va tiplarini o‘rganmoqda va bu fan yo‘nalishi “Tipologiya” deb atalmoqda” [2].

Aslida qiyosiy tipologiya - qiyosiy tilshunoslik (komparativistika) deb ataladigan keng qamrovli sohaning bir qismi. Shunday bo‘lsa-da, olimu-tadqiqotchilar uni bu tarzda talqin qilayotganliklari, oliy o‘quv muassasalarida esa qiyosiy tilshunoslik emas, qiyosiy tipologiya alohida fan sifatida o‘qitilayotgani qay darajada to‘g‘ri va ilmiy asosli bo‘lishi mumkin? **–** Bu savolga javob topish oson emas. Oson bo‘lganida, allaqachon topilardi. Shuning uchun bunga tegishli izlanishlarni tipologiya so‘zining ma’nosini aniqlab olishdan boshladik. Jumladan, tilshunos olim A. Hojiev qayd etishicha, tipologiya “(yun. typos – iz, shakl, namuna + logos – ta’limot):

1. Tilshunoslikning tillarni tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini o‘rganuvchi bo‘limi.

2. Til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish” [3].

Har holda qiyosiy tipologiya turli tillardagi so‘zlar tuzilishini o‘rganadigan soha sifatida vujudga kelgan. “Tillarning morfologik tipologiyasiga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy asar Germaniyada 1809 yilda Fridrix Shlegel tomonidan yaratilgan. “Hindlarning tili va donoligi haqida” degan asarida F. Shlegel tillarni flektiv va affiksal tillarga ajratadi. Uning fikricha, tillar paydo bo‘lgan kundan boshlab, bu ikki turdan biriga mansub bo‘ladi va shundayligicha qoladi. < ...> F. Shlegel gapda so‘zlar munosabatga kirishganda, o‘zakning ichki tuzilishi o‘zgaradigan tillarni istiqbolli hisoblab, ularni flektiv tillar deb atagan va bu turga nemis va boshqa hind-evropa tillarini kiritgan. Uning fikricha, affiksal tillarning o‘zaklari o‘zgarmaydi, grammatik forma esa affikslarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilishi tufayli o‘zgaradi. Bunday tillarni u “nuqsonli” tillar deb atab, ularga grammatik strukturasi turkiy tillarnikiga o‘xshagan tillarni kiritgan.

Qiyoslang:	*Flektiv tillar*	*Affiksal tillar*
	shraybe – shriyb	yozyapman - yozdim
	leju – lyog	yotibman – yotdim

1818 yilda F.Shlegelning ukasi Avgust Shlegel “Provansal tili va adabiyoti to‘g‘risida xotiralar” asarida tillarni flektiv, affiksal va amorf tillarga ajratadi. U amorf tillarga xitoy-tibet tillarini kiritib, ularning xususiyatlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot berdi, flektiv tillarni esa sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratishni taklif etdi. A Shlegel ham tillarni mukammal va mukammal bo‘lmagan tillarga ajratdi” [4].

M.Irisqulov tillar yaxshi-yomon, mukammal yoki nuqsonli bo‘lishini inkor etib, millatlar va ularning tillarini kamsituvchi fikrlar XIX va XX asrda yashab ijod etgan ayrim nemis va Amerika olimlariga xosligini yozadi. Har holda tarixiy davr davomida tillarning bari ham birday taraqqiy etmagan. Shu bois, umuman olganda, nemis olimlari ularning mavqei haqida bildirgan fikrlar to‘g‘ri. Qaysidir ma’noda bundan istisno hollar ham mavjud, albatta. Ayrim nemis olimlari va mutafakkirlarining o‘zlari buni ham alohida e’tirof etishgan. Masalan, turk tilini chuqur o‘rgangan nemis sharqshunosi Maks Myuller (1823-1900), uning o‘ziga xos jihatlari haqida mulohaza yuritib, go‘yo u tilshunoslar tomonidan yaratilganday ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, “G‘arbu Sharq devoni” ustida yillar davomida ishlagan, bu orada arab va fors tillariga qiziqish bildirib, ularni qunt bilan o‘rgangan Gyoteni shu ikki tilning nazmu nasrdagi jozibadorligi va imkoniyatlari hayratga solgan.

Zamonaviy tilshunoslikda tillar mavqeini belgilovchi mezonlar ham mavjud. Tillarning tarjimaviy quvvati ham o‘sha mezonlardan biridir. Chunki, - “Tarjima tillarning imkoniyatini namoyish etuvchi juda

maqbul mezon, ajoyib barometr bo‘la oladi. Zotan biron tilga Gomer, Shekspir, Balzak, Pushkin, Dante, ... kabi shoir va yozuvchilar, Aristotel, Ptolomey, Siseron, Beruniy, … kabi olimlarning o‘lmas asarlari tarjima qilingani yoki qilinmagani juda chuqur ma’noga ega” [5].

Taniqli o‘zbek adibi va tarjimoni A. Cho‘lpon XX asr boshlarida haqli ravishda qayd etganidek, - “Tarjima qilish qiyin. Ayniqsa, ishlangan tildan ishlanmagan tilga”.

M.Irisqulov qayd etishicha, keyinchalik Vilhelm fon Humboldt ham aka-uka Shlegellarning ishlarini davom ettirib, jahon tillarini flektiv, agglyutinativ, amorf (ajratuvchi), polisintetik (mujassamlashtiruvchi) tiplarga ajratgan.

Shlegellar affiksal deb ataganlarini u agglyutinativ deb atashni taklif etadi. Affiksal flektiv tillarni esa affiksal agglyutinativ tillardan farqlash kerakligini ta’kidlab, mavjud tasnifga polisintetik tillarni qo‘shadi. Shuningdek, Humboldt amorf tillarni ajratuvchi tillar deb atagan. Amorf so‘zi shaklsiz degan ma’noga ega ekanligini, Xitoy-Tibet tillari o‘z shakllariga ega bo‘lsalar-da, ularning grammatik shakllari boshqa tillardan farqli ravishda, so‘z tartibi va ohang orqali o‘zgarishi haqida ma’lumotlar bergan. Tillardan nuqson topishda, u ham aka-uka Shlegellardan qolishmagan. Uning fikricha, tafakkur rivojini ta’minlay oladigan va uning rivojiga to‘siq bo‘ladigan tillar mavjud bo‘lib, - “Birinchi turdagi tillarni u qat’iy to‘g‘ri formaga ega bo‘lgan tillar va ikkinchisini qat’iy to‘g‘ri formadan chekinuvchi tillar deb atab, birinchisiga flektiv tillarni, ikkinchisiga – agglyutinativ, ajratuvchi va mujassamlashtiruvchi til turlarini kiritdi. Ammo u o‘z fikrini tasdiqlaydigan birorta asosli dalil topa olmadi” [6].

M.Irisqulov yozishicha, – “yuqorida keltirilgan olimlardan tashqari tillar tasnifi bilan Avgust Shleyxer, F.Misteli, N.Fink, F.Fortunatov, E.Sepir va boshqa bir qancha tilshunoslar ham shug‘ullanishgan. < ...> Amerika tilshunosi E.Sepir morfologik tipologiyaning yangi sistemasini yaratishga urindi. U tillarni 15 dan ortiq turga ajratdi. Bu tasnif qator kamchiliklari tufayli, ko‘pchilikka manzur bo‘lmadi. Hozirgi zamon tilshunosligida V.Fon Gumboldt yaratgan morfologik tipologiya ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilib, tillarni to‘rt turga ajratish an’anaga aylangan. Bu tasnif asosida Gumboldt sistemasi yotgan bo‘lsa ham, uni uzoq vaqt saqlanib qolishiga Gumboldtdan keyin yashab ijod etgan tilshunoslar o‘z hissalarini qo‘shdilar” [7]. Aynan qiyosiy tipologiyasi sohasida ish olib borganlar qardosh tillar qiyoslanishi, qardosh bo‘lmagan tillar chog‘ishtirili-

shi haqidagi fikrni ilgari surishgan. A. Hojievning kitobida bu hol grammatika misolida shunday talqin qilinadi:

“Qiyosiy grammatika. Qarindosh tillarning grammatik qurilishini bir-biriga qiyoslab o‘rganuvchi grammatika. Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi” [8]. “Chog‘ishtirma grammatika. Qarindosh bo‘lmagan tillarning grammatik qurilishini solishtirib o‘rganuvchi grammatika. Mas., rus va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma grammatikasi” [9].

Shu o‘rinda matematikadagi, – “Ko‘paytuvchilarning o‘rni almashgani bilan ko‘paytma o‘zgarmaydi”, - degan qoida beixtiyor hayolga keladi. Holbuki, qiyoslash va chog‘ishtirish deyarli bir xil ma’noga ega. Gap tillar qiyosi haqida ketadigan bo‘lsa, ular qardosh yoki qardosh emasliklaridan qat’iy nazar qiyoslash so‘zi qo‘llaniladigan bo‘lsa, ayrim mantiqsiz hollar bartaraf etilishi mumkin. Masalan, biz qiyosiy tipologiyani (tillarning qiyosiy tipologiyasini) qiyosiy tipologiya sifatida bilamiz. Biroq tipologik tadqiqotlar faqat qardosh tillar doirasida olib borilmagan. Shunday bo‘lsa-da, hech bir manbada chog‘ishtirma tipologiya iborasi uchramaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan kitoblarning ham, 1980-yili Moskvada chop etilgan “Сравнительная типология немецкого и русского языков” (Zeleneskiy A.L., Monaxov P.F.) kitobining sarlavhasi ham shundan dalolat beradi. Bu kabi misollarni ko‘p keltirish mumkin. Har holda qiyosiy tipologiya - qiyosiy tilshunoslikning bir qismi. Shu nuqtai nazardan ular bir-biriga bog‘liq. Biroq qiyosiy tilshunoslikka oid ko‘p masalalar qiyosiy tipologiyaga yo‘yib talqin qilinishi, ilmiy asosga ega emas. Bunday hollar bartaraf etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1973. 246-б.

2. Ирискулов М. Морфологик типология // Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992.

3. Саломов, Ғ. Таржима антиномиялари // Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 48.

4. Умархўжаев М. Тилшунослик//Умумий тилшунослик (ўқув қўлланма). – Андижон: “Жаҳон-интер-принт”, 2010. 13-б.

5. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002. 108-б.

XX ASR OXIRI VA XXI ASRDA O‘ZBEK-FRANSUZ ADABIY ALOQALARI TARAQQIYOTI

PhD. ***Yorqinoy NASIRDINOVA****, AndDU, o‘qituvchi.*

Ustozim professor Muhammadjon Xolbekovning yorqin xotirasiga bag‘ishlayman.

O‘zbek-fransuz adabiy aloqalarining dastlabki asoslari XVII asrning birinchi yarmidan boshlanadi. Sharqshunos olimlar Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi o‘zbek adabiyotining zabardast vakillari asarlarini tadqiq etish va tarjima qilish bilan bir qatorda geografiya, tarix, dinshunoslikka oid manbalarni ham tadqiq etdilar. B. d‘Erbello, S. de Sasi, E. Katremer, A-J.Klaprot, F-A.Belen, A.-P.Kurteyl, Sh.Shefer, L.Buva, F.Grenard, J.- L.Bake Gramon kabi yetuk sharqshunos olimlar esa turkiy xalqlar ilmiy va ma’naviy merosini tadqiq qilish hamda g‘arbda targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shdilar [1]. Fransuz sharqshunosligining to‘rt asrlik tarixida aksariyat tadqiqotlar XV asrgacha bo‘lgan mumtoz davr tarixiy va adabiy jarayonlarini qamrab olgan. Buning asosiy sabablaridan biri O‘rta Osiyo xalqlari XIX asrdan XX asrning so‘nggiga qadar, dastlab Chor Rossiyasi, keyinchalik esa sobiq Sovet Ittifoqining mustamlakasi sifatida bevosita xalqaro munosabatlardan chetda qolganligi edi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘rta Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekistonda xalqaro aloqalarga keng yo‘l ochib berildi. Jahonning turli davlatlaridan barcha sohalar bo‘yicha mutaxassis, ilmiy tadqiqotchi hamda sharqshunos olimlar taklif qilindi. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlarida asrlar davomida yoritilmagan yoki aksariyat hollarda noto‘g‘ri talqin qilingan o‘zbek xalqi ilmiy va ma’naviy merosi asl holida, xolisona baholandi. Fransuz sharqshunoslari ushbu jarayonlarga birinchilardan bo‘lib kirib keldilar.

XXI asr o‘zbek-fransuz xalqaro aloqalari taraqqiyotida Per Shuvin, Remi Dor, Stefan Dyuduagnon, Mark Tutan singari sharqshunos olim va tarjimonlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Qadimgi Yunoniston va hozirgi zamon O‘rta Osiyo tarixi va madaniyati mutaxassisi bo‘lgan Per Shuvin tashabbusi bilan 1993 yil Toshkentda Fransiyaning O‘rta Osiyoni o‘rganish instituti (IFEAC) tashkil etildi. 2010 yilgacha Toshkentda, hozirda esa Qirg‘iziston Respublikasining Bishkek shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan mazkur institut ko‘plab mahalliy va fransuz tadqiqotchilarining ilmiy ishlariga homiylik qilib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi barcha sohalarda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, tadqiqotchilarning izlanishlariga har tomonlama ko‘maklashishdan iborat.

1967 yil Sharq xalqlari tili va sivilizatsiyasi institutining (INALCO) turkiy xalqlar tili va sivilizatsiyasi bo‘limini tamomlagan P.Shuvin 1993-

1998 yillar oralig‘ida IFEACni boshqarib, O‘rta Osiyo tarixi va sivilizatsiyasiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlariga boshchilik qildi. Tarixshunos va tilshunos olim 1999 yil «O‘rta Osiyo san’atlari» deb nomlangan kitobida mintaqaning eng qadimgi tarixi – Buyuk Iskandar fathidan to Islom sivilizatsiyasining kirib kelishigacha bo‘lgan davrlarni tasvirlaydi va shunday ma’lumot beradi: «Ushbu kitob bayoni Iskandar Zulqarnaynning 2300 yil avval O‘rta Osiyoning g‘arbi – Baqtriyaning fath etgan davrdan boshlanadi. Tarixiy haqiqat shuki, ushbu mintaqa Buyuk ipak yo‘li chorrahasi – behisob boyliklar: oltin, javohir, ot, qo‘ydan tortib, ipak va paxta kabi nodir mollar savdo- sotig‘i chorrahasida joylashgan. Ushbu kitob o‘z oldiga Erondan Xitoygacha, shimolning cho‘lu biyobonidan janubda Ximolay tog‘-larigacha bo‘lgan o‘lchamni egallagan qit’a olamini qayta kashf qilishni maqsad qilib qo‘ygan. Asarda, hozirda ma’muriy bo‘linmalar bo‘lsada, aslida bir butunlik sifatida tanilgan majmua (O‘rta Osiyo) tasvirlanadi» [2].

P.Shuvinning xalqaro aloqalarga qo‘shgan eng katta xizmatlaridan yana biri 1996 yil IFEAC – fransuz institutida tashkil qilingan «Cahiers d'Asie centrale» elektron hamda bosma shakldagi ilmiy jurnaldir. Mazkur davriy jurnal O‘rta Osiyo va qo‘shni Sharq xalqlarining tarixi, adabiyoti va global ijtimoiy muammolari yechimiga bag‘ishlanib, jahon sharqshunoslarining mazkur mintaqa tadqiqiga bag‘ishlagan ilmiy ishlari nashrini qamrab oladi. Bevosita asliyat orqali tadqiq qilingan o‘tmish, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixiga oid manbalar ham jurnalda yoritib borilmoqda.

XXI asrning boshlarida o‘zbek-fransuz adabiy aloqalari rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan fransuz sharqshunoslaridan yana biri – o‘zbek folklori va mumtoz adabiyoti tarjimoni, Fransiya hamda bir necha O‘rta Osiyo davlat institutlari fahriy doktori Remi Dordir[3]. O‘zbek, qirg‘iz, turk, fransuz, nemis, rus tillarida ijod qilgan sharqshunos o‘zbek bolalar tez aytishlari, «Nurali» xalq dostoni, Navoiyning «Mufradot» asari, qadimgi turkiy maqollar namunalarini namunalari fransuz tiliga tarjima qildi. R.Dorning folklorshunos va tarjimon sifatidagi mehnatlari M.Jo‘raev, M.Xolbekov, Yo.Nasirdinovalarning qator ilmiy maqolalarida tahlil qilingan.

Jadid adabiyoti, uning vakillari hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar fransuz sharqshunosi Stefan Dyuduagnon ilmiy ishlarida keng yoritildi. Olim boshchiligida 1995 yil Toshkentdagi Fransiyaning O‘rta Osiyoni o‘rganish institutida tashkil etilgan «Movaraunnahrda jadidchilik (XIX asr oxiri – XX asrning boshlari): tarixiy manbalar va zamonaviy qarashlar» mavzusidagi ilmiy anjumanda muallif sifatida 3ta, tarjimon sifatida esa 5dan ziyod katta hajmdagi maqolalari bilan ishtirok etdi[4,7]. Mazkur anjumanda jadidshunos olimlardan Sherali Turdiev [5,211] va

Begali Qosimovlar[6,107] ham o‘z maqolalari bilan ishtirok etdilar. Ularda jadid adabiyotining falsafiy asoslari yoritib berilgan.

1998 yil Parijda «XIX asrdan hozirgi davrgacha butun jahon musulmon olimlari va buyuk shaxslarining bibliografik lug‘ati» [7] nashr etildi. Lug‘atda Dyuduangon tomonidan Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Avloniy kabi o‘zbek jadid adabiyotining taniqli namoyondalari tarjimai holi keltirilgan. Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, sharqshunos o‘z asarlarida o‘zbek millatining uyg‘onish davri adabiyotini yoritish bilan bir qatorda, uning milliy xususiyatlarini ham o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan.

1999 yil Dyuduagnon buxorolik mashhur sayyoh, tabib va ma’rifatparvar Mirzo Sirojiddin Hakimning (1877-1914) «Tuhfai ahli Buxoro» [8], 2009 yil Cho‘lponning «Kecha va kunduz»[9] asarlarini tarjima qildi. Uning tarjimonlik mahorati R.Shirinovaning «Badiiy tarjimada milliylik muammosi yoxud fransuz osmonida o‘zbek yulduzi»[10] maqolasida yuksak baholangan.

Mumtoz adabiyot mavzusi azaldan fransuz sharqshunosligini o‘ziga maftun qilib kelgan. Qolaversa, Navoiyning turkiy adabiyotda qoldirgan boy adabiy merosini olimlar asrlar davomida qancha o‘rgangan bo‘lsalar ham, shuncha o‘rganilmagan tomonlari namoyon bo‘lavergan. XIX-XX asrda ijod qilgan Belen, Buva, Bloshe kabi sharqshunoslar Navoiy ijodini ko‘klarga ko‘tarish bilan birga fors mutafakkirlari Nizomiy, Jomiy asarlarining «tarjimoni» sifatida qaraganlar. Mustaqillik tufayli Navoiy asarlarini bevosita asliyat orqali o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan fransuz adabiyotshunosligi vakillarining bu boradagi fikrlari keskin o‘zgardi. Bu jarayon, dastlab, Remi Dor ijodida kuzatilgan bo‘lsa [11], yosh navoiyshunos olim Mark Toutant asarlari mutloq mana shu xatolarni tuzatishga qaratilganligini ko‘rish mumkin. U 2013 yil Parijda – Ijtimoiy fanlar oliy maktabida, Natali Kler rahbarligida «So‘nggi temuriylar madaniyati: Alisher Navoiy (1441–1501) «Xamsa»si misolida nazirago‘ylik amaliyoti tadqiqi» [12] nomli doktorlik ishini yoqladi.

Tutan avvalgi vatandoshlaridan farqli ravishda Navoiy asarlari tadqiqi bilan izchil va keng qamrovda shug‘ullanib, uning asarlari bilan bir qatorda E.Bloshe, F-A.Belen, M.Nikitinskiy, Ye.Bertels, A.Erkinov, A.Shoabdurahmonov kabi jahon va o‘zbek navoiyshunoslarining barcha ilmiy ishlarini o‘rgangan. Xamsachilik an’analari va xamsanavis shoirlar ijodini mohiyatan kashf etgan, qiyosiy tadqiq etgan.

Fransuz navoiyshunosining 2016 yilda chop etilgan «Co‘zlar saltanati: Alisher Navoiy «Xamsa» asari so‘nggi temuriylar davri qudrati, madaniyati va tasavvufi in’ikosi sifatida»[29] nomli 701-bet hajmdagi monografiyasi nafaqat muallifning ijod cho‘qqisi sifatida, balki G‘arb tilida

sharq haqida yaratilgan eng yirik asar sifatida ham tan olindi. Fransuz mutasavvuf olimi Aleksandr Papa so‘z boshi sifatida keltirgan fikrlarida Navoiy shaxsiyatiga va Tutan mahoratiga baho berib shunday deydi: «Ushbu kitob g‘arb tilida Alisher Navoiyga bag‘ishlangan dastlabki yirik asardir. Serqirra ijodkor, o‘rnak bo‘larli shaxsiyat sohibi, Temuriylar saltanati davrida Xirot shahrida yashagan Alisher Navoiy O‘rta Osiyo adabiyotining yulduzidir. Uning asarlari takror-takror o‘qilmoqda, o‘rganilmoqda, to‘xtovsiz nashr etilmoqda, har yili tavallud kuni nishonlanib kelinmoqda, ko‘cha va shaharlarga nomi berilmoqda. Shunga qaramay, G‘arbda Navoiy, bir guruh sharq adabiyoti muxlislarini hisobga olmaganda, keng fransuz ommasiga notanish bo‘lib qolmoqda. O‘tmishda esa ba’zilar uning asarlariga yuzaki baho berib, taqlid, takror, bir xillik deb qarab kelganlar. Mark Tutan ushbu buyuk muallifga nisbatan adolat o‘rnatib, keng ommaga tanishtirish umidida mazkur asarini yaratdi» [13].

O‘zbek adabiyoti qo‘lyozma manbalarini jahonga tanitishda o‘zbek adabiyotshunoslaridan A.Erkinovning ham xizmatlari beqiyos. Man-bashunoslik sohasida tinimsiz olib borgan ilmiy izlanishlari samarasini jahon miqyosiga olib chiqishda olim asosan fransuz olimlari bilan hamkorlik qildi. Alisher Navoiy she’riyatining Oqquyunlilar muhitida ko‘chirilgan noyob qo‘lyozmasi, XIX asr oxiri XX boshlarida Turkiston general gubernatorligida maddoh shoirlar, O‘rta Osiyoda bayoz san’ati, XIX asr oxiri XX boshlarida Qo‘qonda ayollar tomonidan ko‘chirilgan she’riy devon kabi mavzulardagi ransuz tilidagi maqolalari bilan o‘zbek adabiyotini dunyoga tanitdi.

Istiqlol yillari tarjimachilik ishlari ilgarigi davrlarga nisbatan ko‘proq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek shoiri H.Ismoimov fransuz tarjimoni Jan-Per Balp bilan hamkorlikda Navoiy she’riyati majmuasini chop etdi. To‘plamda o‘zbek mutaffakirining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot bilan birga uning fransuz tiliga tarjima qilingan asarlari bibliografiyasi ilova qilingan. Eng muhimi, asarlar matni ikki tilda, ya’ni asliyat (arab imlosida) va fransuzcha tarjima yonma-yon berilgan. Bu fransuz o‘quvchisiga Navoiy she’riyatini bir paytning o‘zida ham aslida ham tarjimada o‘qish imkonini bergan.

2008 yilda ikki shoirning tarjimalari mashhur fransuz adibasi Jaklin Farme boshchiligidagi Sandr nashriyoti vakillari tomonidan 2- jildli «O‘zbek she’riyati antologiyasi» nomi bilan chop etildi. Antologiyaning birinchi jildida Yassaviy, Lutfiy, Husayniy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy, Uvaysiy, Fazliy va Mahzuna kabi mumtoz adabiyot vakillari ijodidan namunalar berildi. Ikkinchi jildda esa Usmon

Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa zamonaviy she'riyat vakillari she'riyat bo'stoni fransuz kitobxoniga yetkazildi.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotining Fransiyadagi targ'ibot ko'lami kengaymoqda. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani (Sh.Xolmurodov), «O'zbek maqol va matallari» (M.Ergashev), «O'zbek xalq ertaklari» (Sh.Doniyorov) kabi tarjimalar bunga dalildir.

Xulosa qilib aytganda, adabiy aloqalar uch yo'nalishda – tadqiqotchilik, tarjimachilik hamda tarixiy romanchilik yo'nalishlarida rivojlandi. Fransuz adabiy muhitida mumtoz adabiyot bilan bir qatorda o'zbek folklori va jadid adabiyoti haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] – Холбеков М. Н. Узбекско-французские, литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.фил.наук.–Ташкент,1991.– 424с.

[2] – Chuvin, Pierre. Les arts de l'Asie centrale. – Paris: Citadelles & Mazenod, 1999. – 640 p. (http://www.bibliomonde.com/pays/ouzbékistan-136.html)

[3] – Насирдинова Ё.А. Ўзбек ольклори ва мумтоз адабиёти ранцуз тилида. – фил.ф.ф.д. дис. – Тошкент, 2019.

[4] – Georgeon François, Dudoignon Stéphane A. Avant-propos // Cahiers du monde russe : Russie, Empire russe, Union soviétique, États indépendants, vol. 37, n°1-2. – Janvier-juin 1996. – P.7-11.

[5] – Turdiev Sherali, Dudoignon Stéphane A. La Sûreté russe, les maîtres d'école tatars et le mouvement djadid au Turkestan. // Cahiers du monde russe : Russie, Empire russe, Union soviétique, États indépendants, vol. 37, n°1-2, Janvier-juin 1996. – P.211-221.

[6] – Qosimov Begali, Dudoignon Stéphane A. Sources littéraires et principaux traits distinctifs du djadidisme turkestanais (début du XXe siècle) // Cahiers du monde russe : Russie, Empire russe, Union soviétique, États indépendants, vol. 37, n°1-2, Janvier-juin, 1996. – P.107-132

[7] – Dictionnaire biographique des savants et grandes figures du monde musulman périphérique,du XIXe siècle à nos jours, 2. – Paris: EHESS, 1998.

[8] – Hakîm Mîrzâ Sirâdj ad-Dîn. Souvenirs de voyage pour gens de Boukhara, traduit du persan par Stéphan Dudoignon. – Paris: Sindbad, 1999. – 430p.

[9] – La Nuit,Tchulpan, traduite par S.A.Dudoignon. – Éditeur: Bleu autour, 2009.

[10] – Chirinova.R. Le probleme de la mentalite dans la traduction litteraire ou Une étoile ouzbeque dans le ciel français.//Молодой учёный, № 23 (103). – Казань: Молодой учёный, 2015. – P.1106-1109.

[11] – Dor Rémy L'Enigme du Nom Propre. Langes Mondes IFEAC. 2006. 154p.

[12] – Toutant, Marc. La culture des derniers Timourides : études des pratiques d'imitation à travers l'exemple de la Ḵẖamsa de Mīr ʿAlī Shīr Nawā'ī (1441-1501). Soutenue en 2013 à Paris, EHESS .Sous la direction de Nathalie Clayer.

[13] – Toutant, Marc. Une empire des mots: pouvoir, culture et souffisme à l'époque des dérniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mir Ali Chir Nava͡ï. – Paris - Louvain – Bristol: Peeters, 2016 – P.28

NASRIY VA SHE’RIY TARJIMA MUAMMOLARI

OGAHIYNING QUR’ONIY OYATLAR VA HADISLAR TARJIMASIDAGI MAHORATI

F.f.d. prof. ***Sharustam SHAMUSAROV****, TDShU*
Ilhomjon AHATOV*, TDShU, o‘qituvchi*

Islom dunyosiga taalluqli bo‘lgan qadimgi pandnoma asarlarda asarning didaktik, ya’ni ta’lim-tarbiyaviy xususiyatlarini oshirish maqsadida, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan maqol, matal, hikmatli so‘zlar, xalq qissalari keltirib o‘tish bilan bir qatorda, hadislar va hatto Qur’oni Karimdan oyatlar keltirish an’anasi keng tarqalgan. Xususan, Sharqda keng tarqalgan pandnoma janrining yetuk namunalaridan sanalgan Shayx Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarida ham ushbu an’anaga sodiq qolinganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur asarning asosiy qismida yigirma besh o‘rinda Qur’oni Karimning 19 ta surasidan 27ta oyat to‘liq holda, kerakli o‘rinda mahorat bilan, ta’sirchan tarzda keltirib o‘tilgan hamda ko‘plab o‘rinlarda ishora tarzidagi oyatlar hamda hadislardan keng va unumli foydalanilgan.

O‘z navbatida, bunday holatlarda tarjimon oldiga yana bir muammo ko‘ndalang qo‘yiladi: bu muammo - oyatlarni va hadisi shariflarni badiiy asar ichida qanday usul bilan tarjima qilish masalasidir. “Guliston” asarining o‘zbekcha tarjimalarida bu vaziyatlarni har bir tarjimon, o‘z mahorati va tajribasidan kelib chiqib, turli o‘rinlarda turlicha ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ularni tahlil qilishdan oldin, eng avvalo, Qur’on hamda hadislar ma’nolari tarjimasi, ularni amalga oshirishdagi tajriba xususiyatlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Hozirgi kunda qanday saodatli, ziyomand zamon yetishib keldiki, arab tili, islom ilmi, madaniyati, tarixi, diniy va dunyoviy ahkomlari, ularning zamona kishilari hayot tarzidagi o‘rnini yaxshi bilgan arab tili bilimdonlari – allomalar tomonidan Qur’onning sharhlar bilan ta’minlangan-“ma’nolar tarjimalari” amalga oshirilgan bir davrda yashayapmiz. O‘zbekistonda yashovchi kishilar ilk bora Qur’on ma’nolari, ilohiy ohanglari, timsollari, mo‘jiza o‘gitlari okeaniga o‘z ona tili qudrati, poetik salohiyati to‘lqinida yetishib bordilar. Biroq “Guliston” asari tarjimalari amalga oshirilgan paytlari arab tilini asosan ilm ahli bilganligi uchun Qur’on tarjimasiga ehtiyoj sezilmagan bo‘lsa, keyingi

davrlarda esa siyosiy jarayonlar bunga yo‘l bermagan. Tubsiz ma’nolarni ilgari faqat g‘avvos musavvirlar, qilni qirq yorgan ulamolar, darveshlar, faqihlar, qorilar anglab bilgan bo‘lsalar, endi Allohning sara kishilargagina emas, jamiyki o‘zi yaratgan, tarbiyalagan insonlarga qarata aytgan xos so‘zlarini xalqning keng vakillari, qatlamlari bilish, tushunishlariga erkin yo‘llar ochilgan.Qur’onning ilk tarjimasi-mana shu yagona o‘zbek tilida yaratilgan ulkan madaniy obida. Tafsir muallifi Qur’on oyatlari ostiga juda sodda va o‘ta tushunarli o‘zbekcha tarjimasini beradi. O‘qigan kishi oyatlarning asli hamda o‘zbek tiliga tarjimasida ularning to‘g‘ri ma’nolarini o‘zlashtirib boradi.

Katta ehtimol bilan “Guliston” asari ichida kelgan Qur’on oyatlarini tarjimada berishda ham, ba’zi o‘rinlarda ushbu “Turkiy tafsir”dan foydalanilgan bo‘lishi mumkin.

Sa’diy Sheroziy “Guliston” asarning asosiy qismida to‘liq ko‘rinishda Oli Imron surasi 37,134-oyalari; Baqara surasining 44, 206-oyatlari; Josiya surasi 15-oyat; Qof surasi 16-oyat; Yusuf surasi 32, 33, 90-oyatlari; Sharh surasi 6-oyat; Furqon surasi 72-oyat; Luqmon surasi 15-oyat; A’rof surasi 31-oyat; Sho‘ro surasi 27-oyat; Nur surasi 26-oyat; Ankabut surasi 65-oyat; Luqmon surasi 19-oyat; Zuxruf surasi 38-oyat; G‘ofir surasi 85-oyat; Soffot surasi 41-oyat; Maryam surasi 46-oyat; Taloq surasi 3-oyat; Qasas surasi 77-oyat; Sajda surasi 21-oyatlarini tanbeh yoki pand tarzida keltirib o‘tgan. Ularni tarjimlarda qay tarzda berish borasida tarjimonlar mahoratini qiyoslashdan oldin jahon tajribasida Qur’on oyatlarini tarjima qilishdagi ayrim tajribalarga nigoh qaratib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yevropa, Amerika, ayrim Sharq mamlakatlarida Qur’on ma’nolarining ilmiy akademik tarjimalari amalga oshirilgan bo‘lib, Germaniyada qilingan tarjimalar ichida sharqshunos R. Paretning 1963-1966 yillarda chiqargan nemischa tarjimasi eng aniq ilmiy tarjimalardan sanaladi. Inglizcha akademik nashri 1969 yilda Angliyada “Qur’on interpretatsiyalari (talqinlari)”, deb nomlanib nashr etilgan.

Qur’onning boshqa tillarda qilingan eng yangi tarjimasi mualliflaridan yana biri ajoyib tarjimon Valeriya Poroxova bo‘lib, u o‘zining Damashq-Moskvada 1995 yilda nashr etilgan nodir tarjimasida ushbu ingliz tilidagi tarjimaga iqtibosan o‘z tarjimasini- “Koran. Perevod smislov”[15], deb nomlaganligini yozadi. U kitobga yozgan so‘zboshida “ma’noni imkoni boricha aniq ifodalash” tarjimonning asosiy maqsadi ekanligini ay-

[15] Порохова В. Коран. Перевод смыслов. – М.: Рипол классик,2007. – 800 с.

tadi. U Qur’onni ilmiy talqin qilishning ahamiyati haqida bir qator mulohazalarini o‘rtaga qo‘yadi. Valeriya Poroxova Qur’on ma’nolarini she’riy tarjima etishga jazm etadi. Emotsional ko‘tarinkilikni berishda katta natijalarga erishadi. Shu bilan birga tarjimaning adekvatligi ustida jiddiy qayg‘uradi. Qur’onni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, degan fikr juda qadimlardan beri mavjud. Shuning uchun tarjimada ko‘proq tafsir - bayon va sharh yo‘lidan borish, ya’ni tafsir qilish odat tusiga kirib, an’anaga aylangan. So‘zma-so‘z tarjimalar Qur’on oyatlari ostida, aniqrog‘i asliyat bilan birga berib boriladigan tarjimalardagina qo‘l keladi. Lekin asliyatdan holi tarzda so‘zma-so‘z tarjimani chiqarib bo‘lmaydi.

“Ma’nolar tarjimasi” degan tushunchani ham turlicha anglash va tushunish ehtimoldan uzoq emas. “Ma’nolar tarjimasi” deyilganda talqinlar, interpretatsiyalarga, ularning nozikliklariga yo‘l ochiladi. So‘zma-so‘z tarjimada so‘zlar va jumlalarning aniq tarjimalari ifodalanadi. Lekin bunda badiiylik va uslub yuzaga chiqmaydi.

“Guliston” tarjimasida ham, garchi u badiiy tarjima bo‘lishiga qaramasdan, shu jihatni e’tiborga olish lozim bo‘lgan. “Tafsir”ning tarjimasi ana shunday so‘zma-so‘z tarjimaning yaqqol namunasidir. Hazrat Sayyid Mahmud Taroziy tarjimasi ham so‘zma-so‘z tarjimaga yaqin. Uni ham faqat asliyat bilan birga o‘qigan ma’qul. U Qur’on oyatlariga so‘zma-so‘z, jumlama-jumla ergashib, ularga hamrohlik qilib boradi.

Alouddin Mansur tarjimasida esa sharhlarga keng o‘rin ajratiladi. Sharhlar ham alohida, ham oyatlar tarjimalari ichida, ham qavs ichida keng qo‘llaniladi. Muallif Qur’on ma’nolari ilk o‘qiyotgan o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lib qolishidan qattiq hadiksiraydi va ketma-ket izohlar bilan oyatlar ichini to‘ldiradi. Bu sharhli tarjima uchun unchalar g‘ayritabiiy emas. Lekin ko‘p o‘rinlarda kalom sharhlar va izohlar ichida ko‘rinmay ketadi. Bu ma’noni qabul qilishni juda qiyinlashtiradi. Bu tarjimalardagi tarjimon mahorati yuzasidan chiqarish mumkin bo‘lgan dastlabki xulosalarimiz quyidagicha:

- Oyatlar ma’nolarini aniq tarjima qilish va ularda faqat Xudoning o‘zi tushirgan kalomnigina aks ettirish. Oraga hech qanday izoh, sharh, bayon qo‘shmaslik.

- Sharh, bayon, izohlar juda zarur. Ular har qancha bo‘lganda ham ortiqchalik qilmaydi. Lekin ularni o‘z o‘rnida, alohida qilib berish. Krachkovskiy hamda Valeriya Poroxova oyatlar kalomini sof holda tarjima qilib, barcha izohlarni alohida o‘ringa qo‘yadilar. Nazarimizda bu, ayniqsa, ilohiy matnlar tarjimasida g‘oyatda zarur ilmiy usuldir.

- Qur’on istilohlari, atamalari imkoni boricha chuqur va har tomonlama tadqiq qilinishi va ushbu tekshirishlar ilmiy tarjimalarga singdirilishi zarur[16].

Bizning so‘zlashuv va yozuv tajribalarimizda so‘zning orttirma darajalarini qo‘llashga mayllar ancha kuchli ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, Sayyid Mahmud Taroziy hazratlari “Bismilloxir Rahmonir Rahim” kalomini quyidagicha ifoda qiladilar: “Ibtido qilinur behad mehribon va nihoyatda rahimdil Alloh nomi ila”. Bunda “ibtido qilinur”, “behad" va “nihoyatda” degan so‘zlar mubolag‘a. Asliyatga nisbatan ular ortiqcha. Asliyat kalomi lo‘nda, qisqa va tez esda qoladi. Bir so‘z bilan aytganda, uch asliy so‘z orasiga ortiqcha so‘z nari tursin, hatto havo zarrasini ham kiritib bo‘lmaydi. Ko‘p so‘zlilik doimo tarjimani susaytiradi, lo‘ndalikka va ta’sirchanlikka putur yetadi. Muhtarama Valeriya Poroxova “Rahmon”ni “Vsemilostiviy” degan so‘z bilan o‘giradi. Bizningcha, “Vse” degan orttirma daraja bu yerda o‘rinsiz. Arabiy matnda- “kulli rahmon” deyilayotgani yo‘q. Shuning uchun Krachkovskiy “milostiviy”, deb beradi va to‘g‘ri qiladi. Bu kalomni muhtaram mutarjim professorlar Sumayya Afifiy hamda Abdus-Salom al-Mansiy Qur’onning rus tiliga qilingan eng yangi tarjima nashrida ham “Vo imya Allaxa milostivogo, miloserdnogo!”, deb talqin etadilar.

Ulug‘ ulamolarimiz Shamsiddin Boboxonov, Abdulaziz Mansur, Alouddin Mansur “Mehribon va Rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman)”, deb o‘giradilar. Bu ayni adekvat tarjima. O‘zbek o‘quvchisiga yaxshi tushunarli. “Bismilloh,”“Lo iloha ilalloh” singari o‘ta xos iboralar hamda Allohning go‘zal ismlarini asliyatda qanday bo‘lsa, tarjimalarda ham shunday o‘zgartirmay saqlash o‘rinli bo‘lar edi. Bularni har qanday tarjima matnida arabchasi qanday bo‘lsa, shundayligicha ifodalash va alohida izohda ular tarjimasini ko‘rsatib o‘tish matn koloritini, uning ohangdorligini kuchaytiradi. Atributlarni o‘zgartirish o‘zini oqlamaydi. Tarjima qonuniyatlariga ko‘ra ham realiyalarni asl holicha berish o‘zini oqlaydi. Yana bir muhim jihati asl realiyalar, istiloh-atamalar bilan birga islom g‘oyasining o‘ziga xosliklari boshqa til muhitlariga ham oqib boradi. Ular islomning o‘ziga xos din ekanligiga urg‘u beradi. Realiyalarni o‘z asl holicha berish ilohiy matnning yuksak koloritini saqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ayrim tarjima variantlarida suralarning nomlari asl holicha keltirilayotgani, satr ostidagi

[16] Ғафуров И. Қуръон маънолари таржималари: тажрибалар// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2009. – № 9. – В. 3. (http://uzas.uz/2009/09/).

izohlarda ularning ma’nosi va ayrim hollarda ularning tarixiy ma’nosi keltirilayotganini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Ko‘pincha, bu yuksak ilohiy hayajonlarni tarjima so‘zida ifoda qilib bo‘lmaydi, degan fikr yuradi.

Qur’onning o‘z shahodatiga suyanib, uni turli o‘zgarish va o‘zgartirishlardan Allohning o‘zi asraydi, deb uqtiradilar. Xo‘sh, badiiy tarjimada didaktik maqsadda qo‘llanilgan oyatlar tarjimasi-chi, u qanday bo‘lishi kerak? Bunda “Guliston” tarjimonlari qay yo‘lni qo‘llaganini qiyosiy misollar orqali ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda Qur’on oyatlaridan foydalanish islom dunyosi adabiyotida keng tarqalgan uslublardan sanalib, undan ma’nodorlikni oshirish, ta’sirchanlikni kuchaytirish uchun ko‘p foydalanishgan. Uning berilishini esa shartli ravishda to‘rt turga ajratish mumkin bo‘ladi:

- Biror oyatning asar ichida to‘liq berilishi;
- Biror oyatning tarjimada qisman berilishi;
- Biror oyatga ma’lum bir so‘z yoki jumla orqali ishora qilish;
- Oyatning mazmunining sharhini berib ketish.

Tartib bo‘yicha birinchi bob, o‘ttiz beshinchi hikoyatda keltirilishicha, kemada ketayotgan bir guruh odamlarning kemasi ortida bir qayiq kelayotgan bo‘lib, undagi ikki og‘a-ini girdobga tushib qoladi. Amaldorlardan biri kemachiga har ikkalasini qutqarsang, har biri uchun ellik dinordan beraman, deya taklif qiladi. Kemachi og‘a-inilardan birini qutqaradi, ikkinchisi g‘arq bo‘ladi. Nega bunisini qutqarganini so‘raganda, kemachi ushbu inini qutqarishiga sabab: bir mahal kemachi biyobonda qolganida, kemachini o‘z tuyasiga mindirgan, cho‘kib ketgan inidan bo‘lsa bolaligida qamchi yeganini aytadi. Bunga Sa’diy o‘zining tilida hayratini aytadi hamda Qur’oni Karimning Josiya surasi 15-oyatini keltiradi:

...ملا خندید و گفت : آنچه تو گفتی یقین است .
دیگر آنکهمیلخاطر منبهر هانیدناینیکیبیشتر بودکهوقتیدر راهماندهبودمومر ابرشترینشاندواز دستآن یکیتازیانهخوردهبودویدرطفولیت .گفتم:**صَدَقَاَللّٰهُمَنْعَمِلَصالِحاًفَلِنَفْسِهِوَمَنْأَساءفَعَلَيْهَا**

So‘ngra, oyatdan keyin o‘sha davr muhitiga mos tarzda ta’sirchanlikni yanada oshirish uchun she’riy qit’ani keltirib o‘tadi:

تاتوانیدرونکسمخراش
کاندراینراهخارهاباشد.
کاردرویشمستمندبرآن
کهتورانیزکارهاباشد[17]

[17] Саъдий Шерозий. Гулистон. Мулло Муродхўжа таржимаси. Нашрга тай. Сайфуллоҳ С. – Т.: Фан, 2005. – Б. 78-80.

Ogahiy tarjimasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarjimadagi qiziq jihatlardan biri bu asliyatdagi “ملاخندیدوگفت” jumlasidagi kemachining kulib gapirgan joyini, “shunchaki javob bergan”ga aylantiradi. Sababi, bizningcha, Ogahiy Qur’ondan oyat keltirishdan oldin kulishni o‘sha davr o‘zbek kitobxoni uchun kibrga yo‘yilib tushunilmasligini maqsad qilgan.

«…Kemachi dedi: “Bale, so‘zung rostdur va lekin mening ko‘nglum muni halokatdin qutqarmoqqa ko‘broq mayl etdi, nedinkim, bir kun biyobonda piyoda kelur erdim. Bu meni tevasiga mindurdi va ul biri bir vaqtda menga bir tozyona urdi, ikkovi ham qilg‘on amalining jazosin ko‘rdi”. Men dedim: “Subhon olloh”

Qilmag‘il hech bir ko‘ngulni xarosh,
Ki bu yo‘l uzra xorlar bordur.
Ajz elining ishini butkorgil,
Ki senga dog‘i korlar bordur[18] ».

Mullo Murodxo‘ja: «… Kemachi kuldi va aydi: “Ul kalomeki, san so‘ylading to‘g‘ridir. Va lekin mening xotirimning mayli muni qutqarmoqda ziyoda erdi. Ul sabab bilanki, bir vaqtida cho‘lda qolg‘on erdim. Bu mani tevag‘a mindurdi. Va ul birining qo‘lidin yoshlikda qamchi yegan erdim”. Aydim: “Rost buyurmishdur Xudoi Bo‘zo‘rg”:

مَنْعَمِلَصالِحاًفَلِنَفْسِهِوَمَنْأَساءفَعَلَيْهَا

“Har kimki yaxshi ish qilsa, aning zotig‘a oiddur va yamon ish qilsa ham o‘zig‘adur” (Josiya surasi 15-oyat).

Qudrating bor kishini ranjitma,
Chunki bu yo‘lda xorlar bo‘lg‘ay.
Hojat ahlini hojatin chiqar,
Ki daxi sanga korlar bo‘lg‘ay [19]».

Yana bir misolga e’tibor qaratib o‘tsak, asarning beshinchi bobida, tartib bo‘yicha o‘n ikkinchi hikoyat keladi. Unda to‘ti bilan bir qafasda bo‘lgan qarg‘a haqida masal qiladi. To‘ti qarg‘aning xunukligidan azob chekadi hamda Zuxruf surasi 38-oyatni o‘qiydi:

طوطیرابازاغیدرقفسکردندوازقبحمشاهدهاومجاهدههمییردومیگفت :این چهطعلتمکروهاستوهیاتممقوتومنظرمعلونوشمایلناموزون؟يَاغُرَابَالْبَيْنِ،يَالَيْتَبَيْنِيوَبَيْنَكَبُعْدَالْمَشْرِقَيْنِ .

علیالضباحبهرویتوهرکهبرخیزد
صبا حروز سلامت براو مسا باشد
بداختری چو تو درصحبت تو بایستی

[18] Огаҳий М. Огаҳий. VI жилдлик. Нашрга тай. Долимов С. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Ж. 4. – Б. 120-121.
[19] Саъдий Шерозий. Гулистон. Мулло Муродхўжа таржимаси. Нашрга тай. Сайфуллоҳ С. – Т.: Фан, 2005. – Б. 79-81.

ولی چنان که تویی، درجهان کجا باشد؟[20]

Ogahiy tarjimasidagi to‘ti nutqida faqat oyat keladi, qit’a bilan uning ta’sirchanligi oshirilmaydi: «Bir to‘tini bir zog‘ bila bir qafasg‘a soldilar. To‘ti zog‘ning diydori mushohadasidin ranj chekar erdi va der erdi: “Ey g‘urob, bu nechuk makruh tal’at bo‘lubdur? Koshki sening bila mashriq yiroqligicha bo‘lsa erdi, tokim sening karih diydoringni ko‘rub, muncha azob chekmag‘ay erdim”…[21] ».

Mumtoz pandnoma adabiyotning namoyondalaridan ko‘pchiligi ma’lum bir tariqatning vakillari bo‘lishgan. Bu esa ular asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, Sa’diy Sheroziy ham shu jumladan bo‘lib, adib ham o‘z ijodida tasavvufiy qarashlar va hadislardan foydalangan. Birgina “Guliston” pandnomasining o‘zida bir qator o‘rinlarda hadislardan parchalar keltiriladi. Misol o‘rnida “Guliston” asarining “Ishq va yoshlik bayoni” bobidagi tartib bo‘yicha o‘n to‘qqizinchi hikoyatni tahlilga tortib ko‘rsak. Ushbu hikoyat birmuncha beparda, hayosiz hikoyat bo‘lib, unda Hamadon qozisining bir yosh yigit bilan munosabati aks etgan. Ular gunohi kabir ustida shoh hamda uning a’yonlari tomonidan qo‘lga tushadi. Shoh qozining yotog‘iga jinoyat ustida a’yonlari bilan kirib boradi hamda gunohkorlarni jazolamoqchi bo‘ladi. Shu payt cho‘chib uyg‘onib ketgan qozi shohdan najot istab, hadisi sharifdan parcha keltiradi.

Sa’diy Sheroziy bitgan “Guliston” pandnomasining “Podshohlar odati bayoni” bobida tartib bo‘yicha to‘rtinchi hikoyat kelgan bo‘lib, unda vazir asir tushgan qaroqchilar orasidagi yosh yigitning gunohidan o‘tishni so‘rab, shohdan shafqat tilaydi hamda u hali yoshligini, yaxshi tarbiyat topsa, to‘g‘ri yo‘lga kirishi mumkinligini aytib, hadisdan parcha keltiradi:

...وزیر اینسخن ابشنید .طَوعاًوکَرهاًبپرسیدوبرخسن ایملکآفرینحواندوگفت :آنچه
]داوند،فرمودعینمصلحتاستوحقیقتکهآگردرسلکصحبتآنبدانانتظرمماندیطبیتایشانگرفتیامابندهامیدوار استکهبهعشرتصالحانتربیتپذیردوخویخردمندانگیردکههنوزطفلاستوسیرتبغیوعنادانگروهدراومتمکننشدهودرحدیثاست :مَامِنْمَوْلُداًلاَوَقَدْیُلَدُعَلَیاُلْفِطْرَةِفَاَبَواهُیَهَوِّدانِهاَویُمَجِّسانِهِ.

بابدانیارگشتهمسرلوط
خاندانبوتشگمشد
سگاصحابکهفروزیچند
پینیکانگرفتومردمشد[22].

[20] Саъдий Шерозий. Гулистон. Мулло Муродхўжа таржимаси. Нашрга тай. Сайфуллоҳ С. – Т.: Фан, 2005. – Б. 192.
[21] Огаҳий М. Огаҳий. VI жилдлик. Нашрга тай. Долимов С. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Ж. 4. – Б. 158.
[22] Саъдий Шерозий. Гулистон. Мулло Муродхўжа таржимаси. Нашрга тай. Сайфуллоҳ С. – Т.: Фан, 2005. – Б. 36-38.

Ko‘rinib turganidek, Sa’diy She’roziy hadisni o‘sha davrga xos tarzda arab tilida keltiradi. Bu o‘sha davr uchun badiiylik hamda ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Sababi shundaki, birinchidan, Qur’oni karim arab tilida nozil qilingani bois kitobxon unga nisbatan boshqacha hurmat bilan qaragan bo‘lsa, ikkinchidan, bu holat uning ishonchliligini hamda mazmun o‘zgartirib yuborilmasligini saqlagan.

XIX asrda Xiva xonligida yaratilgan tarjima maktabining yetuk vakili bo‘lmish Muhammadrizo Ogahiy mazkur hikoyatni Xorazm tarjima maktabi an’analariga mos holda badiiy tarjima qilishga intilgan. Asliyatdagi shakl va mazmun uyg‘unligiga erishishga harakat qilgan:

«Vazir bu so‘zni eshitib, xoh noxoh qabul etti va podshohning aqlig‘a tahsin ko‘rg‘uzub, dedi: “Aytg‘on so‘zingiz rostdur va lekin bu yigit agar qaroqchilarning suhbatida doimiy qolsa erdi, olarning tabiatig‘a xuy qilur erdi. Ammo Bandai umidvormankim, solihlarning tarbiyatin ko‘rsa xiradmandlarning tabiatig‘a xo‘y etgay, nedinkim, halo yoshdur va qaroqchilarning fasod va inodi hanuz oning tabiatida barqaror bo‘lmamishdur. Xabarda kelubdurkim, har farzand onodin tug‘sa islom fitratida tug‘g‘usidur. So‘ngra suhbat ta’siridin ota va onosi yahudiy bo‘lsa – yahudiy, nasroniy bo‘lsa nasroniy bo‘lg‘usidur”. Qit’a:

Nuh o‘g‘li bo‘lub yomonlar ila,
Edi nasli nubuvvati barham.
Yaxshilar izig‘a igorgon uchun
Bo‘ldi ashobi kahf iti odam[23]».

Ogahiyning yuqoridagi tarjimasida “*: مَامِنْمَوْلُدالَّاوَقَدْيُلَدُعَلَيالْفِطْرَةِفَاَبَوا هُيُهَوِّدانِهاَوُيُمَجِّسانِهِ*” tarzida hadisdan keltirilgan jumlani “…*har farzand onodin tug‘sa islom fitratida tug‘g‘usidur. So‘ngra suhbat ta’siridin ota va onosi yahudiy bo‘lsa – yahudiy, nasroniy bo‘lsa. nasroniy bo‘lg‘usidur*” tarziga cheviradi. Hadisi sharifdan keltirilganligiga ishora sifatidagi “*درحدیثاست*” jumlasini boshqacharoq tarzda badiiylik asosida “*Xabarda kelubdurkim*”, ko‘rinishida ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. **Manbalar:**

II. گلستان سعدی. Огаҳий таржимаси. ЎзРФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида 899-инвентар рақами остидаги қўлёзма, 1258. – 177 б.

III. سعدی شیرازی. طاش باسمه№ 4549.

IV. سعدی شیرازی. قولیازمه № 4843.

II. **Adabiyotlar:**

4. Аҳмедова Г. Огаҳий девони дебочасининг адабий қиммати // Бадиий тафаккур ва адабий жараён. Тўплам. – Тошкент, 2007. – №7.

[23] Огаҳий М. Огаҳий. VI жилдлик. Нашрга тай. Долимов С. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Ж. 4. – Б. 155-156.

5. Ғафуров И. Қуръон маънолари таржималари: тажрибалар// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2009. – № 9. – В. 3. (http://uzas.uz/2009/09/)
6. Саъдий Шерозий. Гулистон. Мулло Муродхўжа таржимаси. Нашрга тай. Сайфуллоҳ С. – Т.: Фан, 2005. – Б. 78-80.
7. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарлари тавсифи. – Тошкент: Фан, 1986. – 125 б.
8. Муҳаммад Ризо Мироб Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик, V жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1978.
9. Раҳмонов В. Саъдий Шерозий “Гулистон”ининг ўзбекча таржималари: Филол. фан номз... дисс. – Самарқанд, 1968.
10. Порохова В. Коран. Перевод смыслов. – М.: Рипол классик,2007. – 800 с.

III. Internet saytlar:

11. www.ta’lim.uz.
12. www.inter – pedagogika. ru.
13. www.search.re.uz – O‘zbekistonning axborotlarni izlab toppish tizimi.
14. www.ref.uz. – Referatlar to’plami
15. www.ziyonet.uz.
16. www.Google.uz
17 . http://www.mehrargham.com

ARAB ROMANI O‘ZBEK TILIDA

F.f.n. dots. ***Adhambek ALIMBEKOV****, TDShU*

Arab mamlakatlari adabiyoti o‘ziga xos tadrijiy yo‘lni bosib o‘tgan adabiyotdir. Mumtoz arab adabiyotida she’riyat yetakchilik qilsada, arablarda turli shaklda nasriy asarlarning yaratilganini ham ko‘ramiz. Dunyoga mashhur “Ming bir kecha”dek ajoyib nasr namunasi bekorga paydo bo‘lmagan. Umuman mumtoz arab shoirlari X!X asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlik adabiyotiga zamin hozirladi. Ma’rifatparvarlik adabiyoti – Sharq va G‘arb adabiyotidan oziqlangan zamonaviy adabiyot rivojiga asos bo‘ldi. X1X asrning ikkinchi yarmida Misr, Livan, Suriya kabi arab mamlakatlari ma’rifatparvarlik markazi bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik bu hudud yanada kengaydi. X1X asr arab adabiyotida ikki oqim paydo bo‘ldi. Birinchisi mumtoz adabiyot an’analarini tiklab adabiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlasa, ikkinchisi zamonaviy jahon adabiyotining yutuqlaridan foydalanib yangi adabiyot yaratish tarafdorlari edi. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlarinig ishlari tezda ko‘zga ko‘rina boshlaydi. Jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar, publisistikaning rivojlanishi, emigratsiyada bo‘lgan yevropalik ijodkorlarning arab davlatlariga kelishi bu jarayonni yanadi tezlatdi. Shuning natijasida boshqa arab mamlakatlarida bo‘lgani kabi

Saudiya adabiyotida ham yangi janrlar - xususan hikoya, roman janrlarida asarlar yaratilib rivojlana bordi.

Saudiya romanchiligining rivojiga katta hissa qo‘shgan yozuvchilardan biri Homid Damanhuriydir. 1922-1965 yillarda yashab ijod etgan H. Damanhuriy shoir, hikoyanavis, romanchi, publisist sifatda tanildi. 1946 yili Misrda oliy ma’lumotli filolog bo‘lib, ona shahri Makkai Mukarramaga qaytgan Homid ish faoliyatini maktabda o‘qituvchilikdan boshlaydi. Yoshlarda adabiyotga mehr uyg‘otdi. Homid keyinchalik ham qaerda ishlamasin, ichki ishlar idoralarida yo maorif vazirligidami hamisha ijod bilan shug‘ullandi. Adabiy asarlarining matbuotda tez-tez chop qilinishi uni xalqqa tanitdi. “Qurbonlik qiymati yoxud muhabbat va burch” (1957), “Va kunlar o‘tdi” (1963) romanlari bilan Saudiya romanchiligining asoschilaridan biri bo‘ldi. Yozuvchiga xalqi orasida shuhrat keltirgan birinchi romani –“Qurbolik qiymati” jahon tillariga (masalan rus, ingliz va boshqa) tarjima bo‘lgan. Bu roman taniqli arabshunos va tarjimon Murtazo Saydumarov tomonidan asliyatdan o‘zbek tiliga o‘girilib 2019 yili “O‘qituvchi” NMIU tomonidan “Qurbonlik qiymati yoxud muhabbat va burch” nomida o‘zbek tilida nashr etildi. Romanda do‘kondor Abdurahmonning oilasi va uning o‘g‘li Ahmad misolida XX asrning birinchi yarmida Makkai Mukarramadagi ijtimoiy sharoit, arablarning o‘ziga xos urf – odatlari aks etdirilgan. Abdurahmonning oilasi yashaydigan Muqaddas masjidga yaqin mahalla, katta shaharning bir parchasi bo‘lgan Suveyqa ko‘chasidagi hayot orqali yozuvchi Makka muhitini ko‘rsatadi. Mana oqshomgi Suveyqa ko‘chasi: “Ko‘chaga sukunat cho‘kkan bo‘lib, aksariyat qismi qorong‘i, torko‘chaga ikki chekkada joylashgan uylarning derazalaridan nursiz yorug‘liklar tushib turardi. Torko‘cha boshidagi simyog‘ochga ilingan fonusning g‘ira-shira yorug‘i esa o‘tayotgan yo‘lovchilar uchun torko‘chaning boshlanishini belgilovchi vazifani o‘tardi, xolos”(15-bet). Endi tong otib Suveyqa odatiy ko‘rinishiga kirgan, do‘konlar ochilib, rastalarga matolar qo‘yilgan payt: “Bunday vaqtlarda quyosh ufqda ko‘tarilganiga, barcha bozorlarni o‘z harorati bilan qizdirganiga qaramay, bu ko‘chaning yorug‘likdan nasibasi cheklangan bo‘lib, eski chodirning teshiklaridan kumush tangalar ko‘chaning turli yerlariga sochilib turganday ko‘rinar edi” (36-bet). Yozuvchining mahorati ko‘cha holatining so‘zlar bilan chizilgan ajoyib manzarasini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantira olganidadir. Mana shunday tasvirlarda yozuvchi u yerda yashovchilarning yashash tarzini ko‘rsatadi.

Yozuvchi qahramonlari taqdiri orqali Saudiya arabistonidagi ta’lim tizimi, ayollarga bo‘lgan munosabat, ota va bolalar o‘rtasidagi va yoshlarning orasidagi turlicha qarashlar haqida fikr yuritishga undaydigan badiiy lavhalarni beradiki bu romanning g‘oyaviy mazmunini kuchaytirgan. Masalan romanda qizlarning o‘qishiga ikki xil munosabatni ko‘rish mumkin. Bir taraf ayolning ishi uyda o‘tirish desa, ikkinchilari ularning ilm olishi tarafdori.

Romanni o‘qigan kishi yozuvchining adabiy portret ustasi ekanligini ham sezadi. Do‘konga ketayotgan ikki qo‘shni Ahmadning otasi Abdurahmon va do‘sti tasviri: “Shayx Abdurahmon o‘rta bo‘yli, oriq, yuzi cho‘ziqroq, biroz qorachadan kelagn, shayx Solim esa past bo‘yli, to‘lacha, yurganida o‘ngdan chapga lapanglar, yelkasida joynamoz va qo‘lida uzun tasbehi bor edi” (27-bet). Fotima tavsifi bundanda go‘zal: “Fotimaning qomati kelishgan, u go‘yoki istalgan go‘zal hayotning timsoli, bo‘yi balandga yaqinroq, beli ingichka, bug‘doyrangdan ko‘ra oqishroq, yuz chiziqlari aniq, tim rora sochli. E’tiborni tortadigani uning ma’noli qora ko‘zlari edi” (43-bet). Bu tasvirlar qahramonlar xarakteri bilan ham bog‘liq. Homid Damanhuriy personajlar sajiyasiga mos adabiy portretni beraolgan. Romandagi yozuvchi mahoratini ko‘rsatuvchi matnlarni misol tariqasida keltirishimizdan maqsad, yozuvchi mahoratini aytish bilan tarjimonning muvaffaqiyatinida ta’kidlashdir.

Homid Damanhuriyning sharoitni qahramonning ruhiy holatidan kelib chiqib tasvirlashi asarni yanada o‘qishli qilgan. Romanda insonning atrof muhitga bo‘lgan munosabati uning ichki dunyosi bilan, o‘sha vaqtdagi holati bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rsatiladi. “Ahmadning yuzida to‘satdan kelgan xursandchilikni ifodalovchi tabassum paydo bo‘ldi. U Foizaning so‘zsiz so‘zlayotgan olovli ko‘zlariga boqqanida ich-ichlarini larzaga keltiruvchi kuchli isyonni his qildi. Shuningdek, mana shunday turgan holatida xuddi uni birinchi kuni uylarining eshigi oldida ko‘rganida, “Sizga kim kerak?” deb muloyim ovoz bilan savol berganida bo‘lgani kabi yuragi tinimsiz tez-tez ura boshladi”(133-bet). Yana bir holat: “Siringning oshkor etilishidan, har qanday sirning, ayniqsa, yurak sirlarining oshkor etilishidan azoblirog‘i bormi? Bu go‘yoki yuragingning bir parchasini o‘tkir pichoq bilan kesayotganingda undan qon tomchilayotganini, undan hayot sug‘urib olinayotganini birov tomosha qilib turgandek” (141-bet). Yuqoridagi ikki holatda bir odamning ichki kechinmalari tasvirlangan bo‘lsa, personajlarning barchasiga taalluqli bo‘lgan holat ifodalashda ham muallifning qalami o‘tkirligiga guvoh bo‘lamiz. Abdurahim amakining vafotidan so‘ng, hammaning qayg‘uga botib,

oila uchun hayot bir kichik doira ichida aylanayotgandek bo‘lib qolganini yozuvchi shunday tasvirlaydi: “ Bu yerda hech qanday yengil- yelpi shovqin yoki baland ovoz yo‘q edi. Bu bahaybat uy qayg‘u-alamning og‘ir yuki ostidagi birzax kabi edi. Chiroqlar uni qanchalik yoritmasin, bu yerdagi sukunat qayg‘udan dalolat berardi, u go‘yoki oyli tundagi qabrlarga o‘xshardi. Hayot tegirmoni aylanar, oila barcha a’zolari bilan tegirmon toshini to‘xtamay aylantirayotgan, ko‘zlari to‘silgan ho‘kiz kabi edi” (118-bet). Yozuvchi qahramonlarining ruhiy tushkunligini muhit orqali kitobxonga singdirayotir. Insonning dili qorong‘u bo‘lsa uni hech qanday chiroq yoritolmasligini bayon qilib emas, tasvir orqali berayotir. Bunday tasvirlar o‘quvchi ko‘z o‘ngida badiiy obrazni tirik insonni ko‘rib turganday his qilishi va dardini tuymoq imkonini yaratadi.

Romandagi barcha obrazlar markazida Ahmaddir. Personajlar Ahmadga yoki Ahmadning ularga bo‘lgan munosabatiga qarab romandan joy olgan. Bu syujet va kompozisiyadagi izchillikda ham ko‘rinadi. Ahmad Foizani uchratgandan so‘ng unda kechgan ichki g‘alayonlar, uzoq vaqt sevgilisi Fotimani ko‘rmagan Ahmad Foizadagi unga o‘xshash jihatlari uchun yoqtirib qolgani samimiy tasvirlangan. Orada hech qanday munosabat bo‘lmasada, Ahmad Fotimaga xayolida ham xiyonat qilmagani holda uning ruhiy holati, kechinmalari ro‘yi-rost beriladi. Chunki insonda o‘tkinchi havasning bo‘lishi tabiiy. Muhimi bunga berilmaslik. Muhabbat va burchga sadoqatli qolishdir. Romanining tub mohiyati ham shu g‘oyada mujassam. Muallif voqealar rivojlanishi yoki qahramonlarning ruhiy holatidan kelib chiqib, o‘rinli tarzda hayotiy fikrlarni roman matniga singdirib yuboradiki, bu asarning ma’no jihatdan serqatlamligini ta’minlagan. “Yaralar biz o‘ylagandek tez bitmaydi. Ularning asorati qoladi, har zamonning o‘z hodisalari bor, biz ana shu hodisalar haqida qayg‘uramiz, ular yaralarimiz ustiga yupqa qatlam qoldiradiki, uni odamlar ko‘zi oldida yashiradi, lekin jabr tortuvchigina uning alamli og‘riqlarini his qiladi, yolg‘iz qolgan vaqtlarida sukut saqlab, ana shu og‘riqlar bilan yashaydi” (50-bet). Yoki tabiat hodisalari bilan qiyoslab aytilgan quyidagi tasvirga e’tibor beraylik: “Hayotimizning baxtli lahzalari yomg‘irli tundagi chaqmoq nuri kabidir. To‘satdan yaraqlaydiyu, to‘satdan o‘chadi. Shu lahzalarda zulmatning qorong‘ulikdan qo‘rqinch hislarimiz ortadi, xavf-xatarning yuz berishini his qilishimiz kuchayadi. Chaqmoq bulutlar to‘qnashuvining e’lon qilinishi bo‘lib, uning kuch bilan o‘kirgan tovushi borliqni larzaga tutadi.(168-bet). Yozuvchi inson hayotidagi lahzalarni tabiat hodisasi bilan muqoyasada tasvirlashi o‘quvchi xotirasida muhrlanadi. Ko‘rganini his qilgani bilan qiyoslash imkoni tug‘iladi. Asarda qahramonlar so‘zidan yozuv-

chining aytmoqchi bo‘lgan g‘oyalarining berilishini eng yaxshi namunasi Ibrohim va Husayn suhbatida o‘z aksini topgan. “Husayn unga javob berdi:

-Hamma narsani chet eldan keltirish yetar. Hatto qo‘shiqlarda ham boshqalarga qarab qolyapmiz.

-Do‘stim, bu rivojlanish. Men yigirmanchi asrda yashayapman. Butun olam yagona bir insoniy ummatga aylanadi. Insoniy hissiyotlar birlashgan to‘qimadir. Musiqa va qo‘shiq xalqaro til, uni har bir idrok etuvchi inson tushunadi. Husayni o‘zini zo‘rg‘a tiyib turdi-da dedi:

-Sen bu gaplaringni G‘arbiy Sahroda va Rossiya hududlarida qon to‘kayotgan va insoniylikni da’vat etayotganlarga ayt! Sen ularga “butun dunyo turli tillarda so‘zlashuvchi va insoniylikka birlashuvchi bir xalqdan iborat” deb ayt” (72-bet). Bu asli ikki student do‘stning emas, G‘arb va Sharqning o‘rtasidagi tortishuvdir. Yozuvchi o‘z siyosiy, falsafiy qarashlarini qahramonlari nutqi orqali berishi badiiy adabiyotning asosiy xususiyatlaridan. Muallifning yutug‘i bu yerda umuminsoniy muammolarni ko‘tarayotgani va unga munosabat bildirayotganidadir. To‘polonli dunyoda har bir millat o‘zligini saqlab qolishi oson kechmasligini ko‘rsatish va umuminsoniy g‘oyalarni yoshlarga singdirishdir.

Asarda urushni qoralash g‘oyalari, Saudiya ta’lim tizimidagi muammolarga diqqat qaratilib, G‘arb madaniyati kirib kelishining salbiy oqibatlari, avlodlar o‘rtasidagi munosabat, bir burda non topish uchun qiylayotgan odamlar taqdiri, zamonaviy Saudiya adabiyoti, oila qurish haqidagi fikrlar romanning ijtimoiy vazifasini yanada oshirgan.

O‘quvchi romanda yozuvchining badiiy tasvir ustasi ekanligi sahifadan sahifaga his qila boradi. Shuningdek: “Bola uzgunidan bo‘shagan toychoq kabi chopib ketdi”, “Suyaklarimda sovuqni xuddi quvirlarda oqayotgan suv kabi his qilyapman”, “Oyna siniqlari xuddi sergak ko‘zlardek yo‘lovchilarga qarar”, “Yo‘l uzun, jazirama issiqdan charchab, qumlik uzra cho‘zilib yotgan bahaybat qora ilon kabi ko‘rindi” singari topib o‘xshatilib asarni bezagan jumlalardan zavqlanadi.

Baxtsizlikni ko‘rmasdan baxtning qadriga yetish, zulmni bilmasdan adolat qadriga yetish, yo‘qchilikni ko‘rmasdan, farovonlikning mazmuniga tushunish qiyinligini, har bir narsaning o‘z qiymati borligi, baxtning kelishi hech qachon kech bo‘lmasligi, kitobdagi qahramonlar taqdiri misolida yaxshi ko‘rsatilgan.

Asar yengil o‘qiladi. Bu tarjimon Murtoza Saydumovning mehnatining natijasi. Tarjimon ninaqadoq kabi yangi so‘zlarni qo‘llashdan cho‘chimaydi. Bu so‘z o‘zbek tilida yangi so‘z bo‘lib qolishi mumkin. Ammo tarjima matnidagi konservativ, nivelir, termometr, defisit, optimistik, taktika, prinsip, zal, monastir, kolleksiya, chashka kabi so‘zlarning

o‘rniga imkoni qadar o‘zbekcha muqobili qo‘llanganda romanning sharqona ohangi yanada to‘liqroq saqlangan bo‘lardi.

Umuman muvaffaqiyatli o‘girilgan ushbu roman Saudiya arabistoni hayoti bilan tanishtirish barobarida, urf odatlari zaminini ham ifodalaydi. Roman qahramonlari Fotimadagi sharqona hayo, Ahmaddagi ota-onaga, qarindoshlarga bo‘lgan munosabat o‘zbek yoshlari uchun ham o‘rnaklidir. Tarjimadan maqsad ham bir xalqni boshqa bir xalq hayoti bilan tanishtirish, dunyoqarashini kengaytirish ekan H.Damanhuriyning o‘zbek tilida chop etilgan bu romani o‘z vazifasini o‘tayapdi deyishimiz mumkin.

SAYFI SAROYINING TARJIMONLIK MAHORATI

F.f.n. ***Ergash OCHILOV,*** *O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, katta ilmiy xodim*

XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi 1321 yili Xorazmning Qamishli degan joyida hunarmand-qurolsoz oilasida dunyoga keladi. Boshlang‘ich ta’limni o‘z qishlog‘ida olgan bo‘lajak shoir tahsilni davom ettirish uchun Oltin O‘rda markazi – Saroy shahriga boradi. Bu yerda u o‘z davrining barcha ilmlarini egallaydi, iste’dodli shoir sifatida taniladi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi:

Qamishli yurt mening tuvg‘on elimdi,
Biling, g‘urbatga kelturgan bilimdi.
Kelib bo‘ldum Saroyda she’r fidoyi,
Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi o‘zaro urushlar tufayli Oltin O‘rdada vujudga kelgan notinchlik sababidan u avval Eron, keyin Turkiyaga boradi, so‘ng Misrga o‘tib, turg‘un bo‘lib qoladi – 1396 yili shu yerda vafot etadi. “Tazkirai Qayyumiy”da u haqda shunday qisqa ma’lumot beriladi: “Bu kishi Oltun O‘rdali shoirlardan bo‘lub, Oltun O‘rdaning poytaxti – Saroy shahrida nash’u namo etmishdur. Muhammad O‘zbekxonning o‘g‘li Jonibek zamonida bo‘lmishdur” [11,19].

O‘z davrining fozil olimi va yetuk shoiri bo‘lgan Sayfi Saroyi forstojik va arab tillarini mukammal bilgan. Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Ishoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmadxoja as-Saroyi kabi shoirlar bilan yaqin bo‘lib, she’riy mushoiralar qilgan.

Sayfi Saroyidan bizga 10 dan ortiq g‘azal, 2 qasida, 2 qit’a, ikki bayt she’r, “Suhayl va Guldursun” dostoni (82 bayt) hamda “Guliston bit-turkiy” nomi bilan tarjima qilingan Sa’diy Sheroziyning “Guliston”

asari tarjimasi yetib kelgan. Bu meros O‘zbekistonda 3 marta – 1968, 1973 va 1986 yillarda nashr etilgan. Nasrullo Davron Sayfi Saroyi ijodi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ma’lumki, nasr va nazm aralash xalqona uslubda yozilgani, rivoyat, naql, hikmatga boyligi bilan katta shuhrat qozongan «Guliston» asari o‘zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu asarni birinchi marta 1390–1391 yillarda XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi «Guliston bit-turkiy» nomi bilan Misrda tarjima qilib, Misr sultonining hojibi – xos begi Batxosbekka bag‘ishlagan. O‘z tarjimasiga yozgan so‘zboshisida bu haqda shunday deydi:

Turkiyga qaytib ajamdin bu kitob,
Marifatga ochti sakkiz turlu bob.
Tekma bir jong‘a mufarrah bo‘lmag‘a,
Tekma xotirni musharraf qilmag‘a.
Bu Gulistonga tamosho qilg‘an er,
Dam-badam ma’ni yemishin toza yer [6,171].

Sa’diyning “Guliston” asari asrlar davomida Sharq mamlakatlarida madrasalarda asosiy darsliklardan biri sifatida o‘qitilib kelgani ma’-lum. Ayni jihatdan asar Sharq xalqlarining ma’naviy hayotiga chuqur singib ketgan va ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatib kelgan. Sayfi Saroyi do‘stlari va maslakdoshlarining da’vatiga ko‘ra, «Guliston»ni o‘zbek tilining qipchoq shevasida o‘giradi. U asarning aslini aytarli saqlab qolgan, ayni paytda, asliyatdan bir qadar chekingan. Bu davr omili bilan ham bog‘liq: o‘rta asrlarda tarjimaga birmuncha erkin yondashilgan – tarjimonning asarni qisqartirish, o‘zgartirish, hatto unga qo‘shimcha qilishi mumkin bo‘lgan. Sayfi Saroyi ham tarjima jarayonida «Guliston»dagi ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, ba’zi she’rlarni ijodiy qayta ishlaydi, o‘zining va zamondosh shoirlarning ba’zi she’rlarini kiritadi, ayrimlarini tarjima qilmay, o‘zicha qoldiradi. “Bu va boshqa jihatlari bilan Sayfi Saroyi tomonidan tarjima qilingan “Guliston”, qisman bo‘lsa-da, mualliflashtirilgan tarjima asari tusini oladi” [4,264]. Shunga qaramay, tarjima muvaffaqiyatli chiqqan hamda asrlar mobaynida turkiy xalqlarni Sa’diy ijodi bilan tanishtirish va shoirning ma’naviy-axloqiy qarashlarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynagan. Chunki “Sayfi Saroyi “Guliston” asarining asosiy mag‘zini olib, uni o‘z zamonasi ruhini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qita va baytlar bilan to‘ldirib, ona tilida o‘z xalqiga taqdim etgan” [2,231].

O‘tmishda tarjima original ijodga teng ko‘rilgani uchun tarjimonlar asliyatga ijodiy munosabatda bo‘lib, muallif “panjasiga panja urish”ga harakat qilganlar − bir adabiyotning durdonasi bo‘lgan asarni o‘z tillarida

ham jaranglatib tarjima qilib, uni asliyatda o‘qishdan mahrum o‘quvchilarning bu boradagi ehtiyojlarini qondirmoqchi bo‘lganlar. Asliyat bilan huquq talashar darajada bo‘lgan bunday tarjimalarning asrlar davomida kitobxonlar mehrini qozonib, qalam ahliga ham ta’sir ko‘rsatib kelgani va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani ma’lum. Ta’bir joiz bo‘lsa, ular vatan adabiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, milliy so‘z san’atimizning oltin xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Saroyi tarjimasidagi “Guliston bit-turkiy” haqida ham shunday deyish mumkin.

O‘zi ham davrining barkamol shoiri bo‘lgan Sayfi Saroyi «Guliston» tarkibida kelgan she’rlar tarjimasida alohida mahorat ko‘rsatgan. Chunonchi, quyidagi to‘rtlik asliyatga ham shakl, ham mazmun jihatidan to‘la muvofiq:

Abr agar obi zindagi borad,
Hargiz az shoxi bed bar naxo‘ri.
Bo furo‘moya ro‘zgor mabar,
K-az nai buryo shakar naxo‘ri [8,34].

Mazmuni: “Agar bulutdan obi hayot – tiriklik suvi yog‘sa ham, tol daraxti hech qachon meva bermaydi. Shunga o‘xshab, tagi past, nasli buzuq, tuban kimsa bilan umringni zoe qilmaki, bo‘yrabop qamishdan shakar chiqmaydi”.

Tarjima deyarli so‘zma-so‘z asliyatga muvofiq: ilk misradagi “obi hayvon” – tiriklik suvi degani. Ikkinchi misradagi “yaqin” so‘zi aniq, haqiqat ma’nosida, “emish” esa mevani bildiradi. “Furo‘moya” – tagi past, nasli buzuq, tuban ma’nosidagi so‘zni oddiygina qilib “yomon” deb olgan, zero, “yomon” so‘zining o‘zida bu ma’nolarning barchasi mujassam. “Bo‘yrabop qamish” ham “quruq qamish” deb ketilgan. “Emish” so‘zi tajnis bo‘lib kelib, ikkinchi misrada u meva, yegulik, to‘rtinchi misrada esa yemoq, tanovul qilmoq ma’nosida kelgan. Turkiy she’riyat tajnisga boyligi bilan ajralib turadi. Bu she’riyatning iste’dodli namoyandasi sifatida Sayfi Saroyi ijodi ham tajnislarga boyligi bilan ajralib turadi.

Agar yog‘sa bulutdan obi hayvon,
Yaqin bil tol ag‘ochinda yemish yo‘q.
Yomon birla umrni zoe’ etma,
Quri naydan kishi shakkar yemish yo‘q [6,176].

Asliyat va tarjima garchi boshqa-boshqa vaznlarda bo‘lsa-da, lekin hijolarining tengligi ularning ohang jihatidan o‘zaro muvofiq kelishini ta’minlagan: forsiy to‘rtlik 11 hijoli xafif vaznida yaratilgan bo‘lsa, u o‘zbek tiliga 11 hijoli hazajda tarjima qilingan.

Quyidagi bayt tarjimasida vazn o‘zgargan – tavil hazajga aylangan bo‘lsa-da, mazmun asliyatga qoyilmaqom:

Humoy bar hama murg‘on az on sharaf dorad,
Ki ustuxon xo‘radu jonvar nayozorad [8,44].

Mazmuni: “Humo qushlar ichida sharaf topganining sababi shundaki, u biror jonivorning go‘shtni yemay, so‘ngak bilan kifoyalanadi”.

Humoy ul ish bilan topti sharafkim,
So‘ngak yeb, jonvor injitmishi yo‘q [6,186].

Albatta, Sayfi Saroyi «Guliston»ning nasriy qismini ham katta mahorat, shoirona hassoslik bilan tarjima qilgan. Jumladan:

“*Du kas murdandu tahassur burdand: yake on, ki doshtu naxo‘rd va digar on, ki donistu nakard*” [8,201].

Majmuni: “Ikki toifa bu dunyodan hasratu pushaymon bilan ketadi: biri nozu ne’mat ichida yashagani holda o‘ziga ravo ko‘rmay yemagan, ikkinchisi esa hamma narsani bilib turib hech narsa qilmagan”. Mutarjim bu jumlani saj’ san’ati vositasida o‘zbekchalashtiradi:

“Ikki kishi dunyodin ketti, dag‘i hasrat-nadomat eltti: biri ulkim, yig‘di – dag‘i yemadi, biri ulkim, bildi – dag‘i qilmadi” [6,325].

Ba’zida jumlani ixchamlashtirib tarjima qiladi:

“Yakero guftand: «Olimi beamal ba chi monad?» Guft: «Ba zanbo‘ri beasal!” [8,192]

Mazmuni: “Birovdan so‘radilar: “Amalsiz olim nimaga o‘xshaydi?” “Asalsiz ariga”, – deb javob berdi u”.

Mutarjim bu savol-javob asosidagi hikmatli so‘zni oddiygina hikmatli so‘z shaklida tarjima qilib qo‘ya qoladi:

“Amalsiz olim bolsiz zanburg‘a o‘xshar”[(6,320].

Ma’lumki, badiiy tarjima amaliyotida nasriy asarni she’rga solib, yoki aksincha she’riy asarni nasriy shaklda tarjima qilish tajribasi mavjud. Sayfi Saroyi ham ba’zida Sa’diyning nasriy hikmatlarini she’r bilan tarjima qiladi:

“Duro‘g‘i maslihatomez beh, ki az roste fitnaangez” [8,30].

Mazmuni: “Oraga fitna soluvchi rost so‘zdan ikki o‘rtadagi adovatni bartaraf etadigan yolg‘on afzal”.

Fitna yuzli rost so‘zdan bo‘l yiroq,
Maslahatli yolg‘on andan yaxshiroq [6,173].

Ko‘rinib turganidek, bu yerda hikmatli so‘z ramali musaddasi maqsur (foilotun foilotun foilun)da tarjima qilingan fardga aylangan. Yoki: “*... dah darvesh dar gileme bihusband va du podshoh dar iqlime nagunjand*” [8,33].

Mazmuni: “O‘n nafar darvesh bitta bo‘yra ustida yotadi-yu, ikki podsho bir iqlimga sig‘maydi”.

Sig‘ar bir hujraga o‘n ikki mehmon,
Bir iqlima sig‘ishmas ikki sulton [6,176].

Bu yerda ham hikmatli so‘z fard shaklida tarjima qilingan. lekin u hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun mafoil) vaznida. sa’diy siyosiy jihatdan notinch bo‘lgan bir davrda yashadi. u muhammad xorazmshohning o‘z mamlakati hududini kengaytirish uchun olib borgan tinimsiz jangu jadallarini ham, mo‘g‘ul bosqinchilarining istilochilik urushlarini ham, salibchilarning diniy shiorlar bilan niqoblangan yurishlarini ham ko‘rdi. yigirma yildan ortiq davom etgan bu sayohat uning uchun buyuk hayot maktabi vazifasini o‘tadi – u turli mamlakatlar va xalqlarni ko‘rib, odamlarning turmush tarzi bilan tanishib, o‘zi ham boshidan ko‘p savdolarni o‘tkazib, hayot qozonida obdan pishib, ko‘pni ko‘rgan donishmand insonga aylanadi. jahongashta shoir ona yurtiga qaytgach, shahar chekkasidagi shayx abu abdulloh hafif xonaqosini makon tutib, qizg‘in ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. tazkiranavislar uning 102 yil yashab, umrining 12 yoshdan keyingi davrini uch qismga bo‘lgani – 30 yil ilm o‘rgangani, 30 yil sayohat qilgani va qolgan 30 yilni ijodga bag‘ishlaganini (ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra esa u 120 ga kirib, 40 yil ilm o‘rgangan, 40 yil sayohat qilgan, 40 yil ijod bilan shug‘ullangan) yozib qoldirganlar.

Sa’diy o‘zigacha yaratilgan pandnoma adabiyotining eng sara namunalarini, dunyo kezib, xalq ichida yurib to‘plagan hayotiy hikmat va hikoyatlarining qaymog‘ini, uzun umri davomida ko‘rgan-kechirganlari yuzasidan chiqargan xulosalarini kitoblari sahifasiga naqshlagan. Shuning uchun ham Sa’diy ijodi dunyo bog‘idan dastalangan quchoqqa sig‘mas hikmatlar guldastasiga, hayot ummoni qa’ridan topib chiqilgan hikmatlar javohiriga, tafakkur osmonida porlab turgan hikmatlar kamalagiga, ko‘ngil tubidan qaynab chiqqan hikmatlar chashmasiga o‘xshaydi. Bu hikmatlar rang-barang diniy, tasavvufiy, ilmiy, tarixiy, adabiy chashmalardan suv ichgan, hayotiy asosi mustahkam, badiiy jihatdan barkamol. Sa’diy hikmatlarining asrlar davomida kitobdan-kitobga, og‘izdan-og‘izga ko‘chib kelgani, yod aytilgani ulardan ifodalangan fikrlarning tabiiyligi, qo‘llangan so‘zlarning samimiyligi, har birining hayotiy timsolu tashbehlar asosiga qurilganligi, badiiy barkamolligida. shuning uchun ham Abdurahmon jomiy: “Uning so‘zlari hamma toifalarga ma’qul tushdi” [1,86], – deb luft etgan edi.

“Guliston” – jahon pandnoma adabiyotining nodir durdonasi bo‘lib, shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak bu asar Sharq olamining mashhur madrasalarida tahsilini kamolga yetkazib, o‘z davrining barcha ilmu fanlarida zamonasining yagonasi bo‘lgan, dunyo kezib, xalq turmushini chuqur o‘rgangan, umrining oxirida esa xilvatga chekinib, qanoat xonaqohida dunyoning mohiyati, hayotning ma’nosi, inson umrining mazmuni, bani bashar tabiatining turfa qirralari, insoniy fazilat va illatlar

ustida har tomonlama teran fikr yuritib, chiqargan xulosalarini asarlari qatiga muhrlagan donishmand shoir Sa’diy iste’dodi va tafakkurining bebaho mahsulidir. Shuning uchun ham bu insoniyat ma’naviy rahnamosining har bir fikru mulohazasi qomusiy allomalarning hikmatli so‘zlariday, xalqning asrlarni bo‘ylab kelayotgan maqollariday jaranglaydi. Shuning uchun ham “Sa’diyning ma’nolari kuchliyu mening iste’dodim zaif” (“quvvatim zaifturur aning qaviy ma’niylarina” [6,170] deya ming bir andisha bilan tarjimaga kirishadi. Shuning uchun ham “tarjima qilish jarayonida tug‘ilgan ba’zi qiyinchiliklar tufayli Sa’diy hikoyatlarining bayoninigina berishga qaror qilgan. Buni “Gulistoni bit-turkiy” hikoyatlaridagi “Shayx Sa’diy aytur”, “Sa’diy aytur” kabi adabiy priyom yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ammo Sayfi Saroyining o‘zi aytganidek, Sa’diy “Guliston”idan gul olib, suxan daryosidan so‘zni mo‘l olib, mazkur asarni o‘zicha, erkin va ijodiy tarjima qilgan. “Guliston bit-turkiy” faqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki XIV asr o‘zbek adabiy tilining leksik boyligi, grammatik xususiyatlarini o‘rganish uchun katta qimmatga ega bo‘lgan adabiy yodgorlikdir” [2,235].

Ma’lumki, hikmatli so‘z qancha ixcham va lo‘nda bo‘lsa, shuncha go‘zal va ta’sirchan bo‘ladi. Fikr qancha teran va serqirra bo‘ladi, shuncha ma’no qatlamlariga ega bo‘ladi. Har kim aql va bilim darajasi, farosat va tajribasiga ko‘ra bir, ikki, uch va hokazo ma’no qatlamlarini kashf etadi. Ana shu ixchamlik va lo‘ndalik tarjimada ham saqlansa, tarjima ham asliyat kabi go‘zal va ta’sirchan chiqadi. Misol tariqasida Sa’diy bir hikmatining ikki tarjimasini ko‘rib chiqaylik:

Miskin haris dar hama olam hameravad,

O‘ dar qazoi rizqu ajal dar qafoi o‘ [8,190].

Mazmuni: “Bechora mol-dunyo bandasi butun olamni charx uradi: u rizq ketidan, ajal uning ortidan”. Sayfi Saroyi tarjimasi:

Yelar dunyoning ortincha haris er,

O‘lumin anglamay oltun g‘amin yer [6,319].

Ogahiy tarjimasi:

Miskin haris olam aro tinmayin yurar:

Ul rizqning izidan, ajal oning izidan[(5,172].

Birinchi tarjimada yugurik dunyo va haris insonga urg‘u berilgan: omonat dunyoda g‘animat ekanligini bilmagan xom sut ichgan banda o‘limni xayoliga keltirmay, molu dunyo yiqqani-yiqqan. Holbuki, topgan davlatini bu dunyoda ham sarflab tugatolmaydi, u dunyoga ham olib ketolmaydi. donishmandlar lutf etganlaridek, ortiqcha boylik to‘playotgan kimsa boshqalar uchun jon kuydirayotgan bo‘ladi.

Ikkinchi misolda odam va ajal asosiy obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi: haris banda dunyo bo‘ylab rizqini izlab yugursa, ajal uning jonini olish uchun ortidan qolmaydi. Ha, bu charxpalak dunyoda hamma narsa bir doira bo‘ylab bir-birining ortidan charx uradi: kim boylikning, kim ilmning, kim ishqning, kim maishatning... Lekin o‘zining ketidan ham bir narsa tushganini, hamisha payt poylab yurganini ko‘pchilik xayoliga keltiravermaydi. Bu tarjimalar asliyat bilan chog‘ishtirilsa, Sayfi Saroyi Sa’diy fikrini bir qadar erkin talqin qilgani, Ogahiy tarjimasi esa forsiy matnga muvofiqligi ma’lum bo‘ladi. Fikr qanchalik teran bo‘lsa, ifodasi shunchalik qisqa bo‘lishi, qanchalik serqirra bo‘lsa, shunchalik ta’sirchan chiqishi, qanchalik samimiy bo‘lsa, shunchalik ko‘ngilga yaqinligi, qanchalik go‘zal bo‘lsa, shunchalik tez yodda qolishi Sa’diy hikmatlari misolida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, bu hikmatlarni zarrada quyosh, qatrada ummonni aks ettirish san’atining yorqin namunalari deymiz.

Sayfi Saroyi buyuk salafi hikmatlarini o‘zbek tiliga xuddi asliyatdagiday jaranglatib tarjima qilishga intiladi. Imkon qadar arab va fors so‘zlaridan qochib, aksincha, turkiy so‘zlarning ko‘p qo‘llanilganligi jihatidan Sayfi Saroyi tarjimasidagi bu hikmatlarni tushunish zamondoshlarimizga hech bir qiyinchilik tug‘dirmaydi, deb o‘ylaymiz:

Munofiq suhbatingda ne’mating yer,
Chiqib dushmanlaringga g‘iybating der [(6,185].

Oqil ul – so‘zni o‘rinda so‘zlagay
ham javobini munosib ko‘zlagay [6,173].

Ma’lumki, klassik adabiyot janrlari asrlar davomida shakllanib, o‘z takomiliga erishgan. Shulardan biri ruboiy bo‘lib, uning boshqa lirik janrlardan alohida ajralib turadigan xususiyati shundaki, u faqat hazaj bahri axram va axrab tarmog‘ining 24 vaznidagina yoziladi. Boshqa har qanday o‘lchovga solinsa, u ruboiy emas, qit’a yoki to‘rtlik deb ataladi. Yo.Ishoqov ta’biri bilan aytganda: “Har qanday to‘rtlik ruboiy bo‘lavermaydi. Biror to‘rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo‘lishidan tashqari, ruboiy vazni ham bo‘lishi kerak. To‘rtlik qanchalik chuqur ma’no va go‘zal shaklga ega bo‘lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo‘la olmaydi” [3,35]. Bu talab ruboiy tarjimasiga ham taalluqli: ruboiy ruboiy bo‘lib chiqishi uchun uni o‘z vaznida tarjima qilish kerak. Ogahiy “Gulistonˮning ichki she’rlari tarjimasida fard, qit’a, masnaviy kabi janrlarning “vazn turini ham, qofiyalanish tartibini ham o‘zgartirib” [7,147] o‘girgani holda, ruboiylarni o‘z vazni bilan o‘zbekchalashtirar ekan, janr uchun vaznning asosiy omil hisoblanishini ham nazarda tutgan, albatta.

Davroni baqo chu bodi sahro biguzasht,
Talxiyu xushiyu zishtu zebo biguzasht.
Pindosht sitamgar, ki jafo bar mo kard,
Dar gardani o‘ bimondu bar mo biguzasht [8,61].

Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ahtam (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faul) vaznidagi mazkur ruboiyning o‘zbekchasi hazaji musammani axrabi makfufi ahtam (maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faul) vaznida:

Sahro yelidek o‘tgusi davroni baqo,
Ayshu tarabu rohati zishtu zebo.
Zolimki, xayol etar, qilur elga sitam,
Eldin ketib, aylar yana o‘z bo‘ynida jo [5,115].

Sa’diyning qator hikmatlarini vaznini o‘zgartirib tarjima qilganiga qaramay, Sayfi Saroyi ham pandnoma tarkibida kelgan ruboiylarni o‘z vaznida tarjima qiladi:

Sahro yelitek umr baqosi kechti,
G‘am javri dag‘i farah safosi kechti.
Jofiy saqinur, jafo biza qildim deb,
Qoldi anga bizdan ul, jafosi kechti [6,200].

Sayfi Saroyi tarjimasining ilk misrasi hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar (maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’), qolgan uch misrasi esa hazaji musammani axrabi solimi mahjubi musabbag‘ (maf’uvls mafoilun mafoiylun fa’) vaznida. Ya’ni u ruboiyni ruboiy uchun belgilangan vaznlardan birida tarjima qilgan bo‘lishiga qaramay aynan asliyat vaznining o‘zida tarjima qilmagan.

Ruboiyning injiqliklari, nozikliklari bilan bir qatorda, o‘z imkoniyatlari, qulayliklari ham bor. Chunonchi, bir necha vazn bir ruboiyda o‘rin almashib kelishi mumkin. Hatto ham axram, ham axrabda bitilgan ruboiylar mavjud. Bu mazmunga ta’sir qilmaydigina emas, balki bir musiqiy ohang, bir she’riy ruh doirasida aylangani uchun ritmni ham aytarli o‘zgartirmaydi. Mumtoz adabiyot namoyandalari hech qachon bitta vaznda ruboiy yozishni qat’iy qoida qilib olmaganlar. Ularning ko‘pgina ruboiylarida bir nechta vazn mahorat bilan qo‘llanilgan. “Bir ruboiyda turli vaznlardan foydalanish o‘zbek shoirlari orasida ko‘proq Boburga xosdir” [12,14]. Mutarjimlardan J.Kamol ijodida shu holni kuzatish mumkin. U 9 fors-tojik shoirining 333 ta ruboiysini an’anaviy vazn bilan o‘girgan va bu namunalarning ko‘pchiligida ikki yo uch vazn o‘zaro o‘rin almashib kelaveradi [10].

Umuman, tarjimalar tahlili Sayfi Saroyi o‘z tarjimalarida mazmunga asosiy e’tibor qaratib, shaklni aynan saqlashga ko‘pda e’tibor qilmagani, “Guliston”dagi turli janrdagi she’rlarni ularning o‘z vazni qolib, asosan turkiy she’riyatda ko‘p qo‘llanganligi jihatidan aruzning turkiy vaznlari sifatida mashhur bo‘lgan hazaj va ramal bahrlarining turli vaznlarida tarji-

ma qilib ketaverganini koʻrsatadi. Albatta, bu tarjima konsepsiyasidan ham kelib chiqadi, yaʼni tarjima tor doiradagi ilmu adab ahliga emas, balki fors tilini bilmaydigan keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan.

Sayfi Saroyi tarjimasining oʻziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

– U ham salaflari kabi tarjimaga original ijod namunasi sifatida qarab, "Guliston" asarini oʻzbek tilida ham jaranglab chiqishiga harakat qilgan va oʻz tarjimasi "Guliston bit-turkiy" – "Turkiy tildagi Guliston" deb nomlashi bejiz emas.

– Tarjima fors tilidan bexabar va asosan savodsiz boʻlgan keng xalq ommasiga moʻljallangani uchun u salafi asarini qisqartirib, murakkab oʻrinlarini, Qurʼon va hadislardan keltirilgan iqtiboslarni tashlab, asosan qiziqarli va ibratli hikoyatlar hamda pand-nasihat ruhidagi sheʼrlarni tarjima qilgan – uzilishlarni esa kiritma soʻzlar bilan bogʻlab ketgan.

– Mazmunni mukammal, tushunarli va taʼsirchan yetkazishga harakat qilgan. Buning uchun arab va fors soʻzlari hissasini imkon qadar kamaytirib, sodda va tushunarli xalqona soʻzlar, qadim turkiy soʻzlar va hatto sheva soʻzlaridan ham foydalangan. "Tarjimaning tili sodda va shirali boʻlib, kishini oʻziga jalb etadi" [9,48].

– Maʼlumki, forsiy aruz bir qadar murakkabligi, turkiy aruz esa soddaligi bilan ajralib turadi. Buning ustiga, Saʼdiy aruzning keyingi davr forsiy sheʼriyatda ham kam qoʻllanilgan murakkab vaznlaridan keng foydalangan. Voqean, keng oʻquvchilarga moʻljallanganligiga qaramay, Saʼdiy pandnomasining tili ogʻir, uslubi murakkab. Sayfi Saroyi tarjima jarayonida asar tilini soddalashtirgani kabi sheʼriy janrlar vaznini ham turkiy sheʼriyatda keng qoʻllaniladigan hazaj va ramal bahrlari vaznlari bilan almashtiradi, yaʼni asarni nafaqat mazmunan, balki shaklan ham soddalashtiradi.

– Sayfi Saroyi "Guliston"ni erkin va ijodiy tarjima qilgan: asarni bir qadar qisqartirib, muayyan oʻrinlarini oʻzgartirib oʻgirgan, lekin uning asosiy mazmun yoʻnalishi, uslubiy xususiyatlari va badiiy barkamolligini saqlab qolishga, mashhur pandnomaning turkiy namunasiga aylantirishga harakat qilgan. Boshqacha aytganda, Saʼdiy qalamining qudratini ham, "Guliston" badiiyatining sir-sinoatini ham oʻzbek oʻquvchisiga namoyon eta olgan. Zero, tarjimadan maqsad ham, tarjimon oldiga qoʻyiladigan eng asosiy talab ham shu.

Abdulla Oripov "Bahor" sheʼrida Maqsud Shayxzoda haqida yozar ekan, "Mirzo Ulugʻbek" dramasining badiiy yuksakligiga ishora qilib:

Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini
Unga kiygizardi Sulton Ulug‘bek, – deb lutf etgan edi.

Shunga o‘xshab, agar tarix evrilib, Shayx Sa’diy tirilib kelsa-yu, Sayfi Saroyi tarjimasi bilan tanishsa, uning ba’zi qusurlaridan ko‘z yumib, yutuqlarini alqagan va tarjimonning boshiga shuhrat tojini kiygizgan bo‘lar edi. Zero, bebaho pandnomaning turkiy nusxasiga aylangan ayni tarjima shunday yuksak bahona munosib.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodini o‘rganish asnosida o‘zbek adabiyotshunosligida “Guliston” tarjimasi haqida ham u yoki bu darajada fikr-mulohazalar yuritilgan. Lekin asar hozirgacha tarjimashunoslik nuqtai nazaridan asliyatga qiyosan hamda tarjimon ko‘zi bilan tarjimon mahorati yuzasidan maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan. Shuning uchun ham tarjimadagi erkinlik va ijodiylik nisbati, “Gulistoni bit-turkiy”ning tarjima yoki original asar sifatidagi aniq mavqei va miqyosi chegaralari muayyanlashtirilmagan. Bu o‘zbek tarjimashunosligining kun tartibidagi turgan vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu maqola orqali biz ayni masalaga tarjimashunoslar e’tiborini qaratishni maqsad qildik.

Bir g‘azalida shoir mening so‘zimni orif – dono kishilar qadrlaydilar va qimmatbaho dur kabi doim quloqlariga iladilar, degan edi:

So‘zlarimning javharin orif ko‘rub, qadrin bilib,
Ko‘p baholi dur bikin doim quloqinda tutar.

Bu so‘zlarda mubolag‘a yo‘q. Bizgacha yetib kelgan mo‘’jaz merosi va “Guliston” tarjimasi ham Sayfi Saroyining zabardast so‘z ustasi va mohir mutarjim ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Binobarin, uning merosi to‘laligicha topilsa, u o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasini boyitishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳамедов таржимаси). – Тошкент: “Ёзувчи”, 1997.

2. Давронов Н. Сайфи Саройи \\ Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдли. 1-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1977.

3. И с ҳ о қ о в Ё. Навоий ижодида рубоий жанри \\ “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, 1968, 9-сон.

4. М а л л а е в Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. XVII асргача. Қайта ишланган учинчи нашри – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1976.

5. М у ҳ а м м а д Р и з о М и р о б Э р н и ё з б е к ў ғ л и О г а ҳ и й. Асарлар. Олти жилдлик. 4-жилд (таржималар). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

6. С а й ф и С а р о й и. Гулистон бит-туркий \\ Уч булбул гулшани. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

7. С а л о м о в Ғ., К о м и л о в Н. Жаҳонгашта рубоийлар \\ Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.

8. Саъдии Шер о з и й. Гулистон. – Душанбе: “Дониш”, 1988.

9. Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. –Тошкент: “Фан”, 1965.

10. Қаранг: 333 рубоий (Форсийдан Жамол Камол таржимаси). – Тошкент: “Нур”, 1991.

11. Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий. Уч китобдан иборат. 1-китоб. – Тошкент: Қўлёзмалар институти, 1998.

12. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: “Фан”, 1981.

NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA SATIRA, YUMOR TARJIMASIGA DOIR

***Shuxratxon IMYAMINOVA**, O‘zMU professori*

Hozirgi vaqtda tarjima jarayoni ikki va undan ortiq tillar asosida olib borilar ekan, tilshunoslikda tillarni tarjima maqsadida qiyosiy o‘rganish muammosi xam mavjud. Demak shunday ekan, tillarni qaysi maqsadda qiyoslanishidan qat’iy nazar, qiyosiy tilshunoslikda bir necha yo‘nalishlar mavjud, ya’ni tillarni tarjima, lingvofalsafiy, lingvodidaktik, nazariy va mashina tarjimasi maqsadlarda qiyoslash mumkin [1, 16].

Tarjimashunoslikda satira va yumor tarjimasi ham muximdir. Buyuk nemis shoiri I.V.Gyotening fikricha, quvnoq kishiga dunyo ham kulib boqqandek tuyuladi [2,5]. Ammo hozirgi kunda latifa tarjimalai to‘plamlari kam, deyarli barmoq bilan sanarli. Kishilarga beg‘ubor va quvnoq kayfiyat uyg‘otadigan asosiy manbalardan biri bu satira va yumordir.

Latifa (ko‘pligi latoif) arabcha so‘z bo‘lib-xazil-mutoyiba, xozir javoblik, zarofat, hamda go‘zallik ma’nolarini bildiradi. Latifani dunyo xalqlarining deyarli yarmi grekcha *“anekdot”* deb yuritishadi. Latifa dastlab og‘zaki hikoya tarzida tug‘ilishi kulgili holat og‘izdan-og‘izga, so‘ng yurtdan-yurtga, xalqdan-xalqqa ko‘chib, umumbashar mulkiga aylanadi.

Har bir latifa ma’lum bir davr ma’lum bir mamlakat, yoki xalqning ma’naviyati, odob-axloqidan baxs yuritadi. Uning asrlarga qolguvchi tarixiga aylanadi. Har bir xalq xoh u katta bo‘lsin, xox kichik o‘zining latifa tashuvchi qaxramonlariga ega. Masalan, arablarning Juxoni, hindlarning Birbali, turkiy xalqlarning Xo‘ja Nasriddini, ruslarning Ivanushka tentakvoyi, eroniylarning Ubayda Zakoniysi, olmonlarning Oylenshpigeli xullas, har bir xalqning o‘z milliy qaxramoni bor.

Latifa, masal va dono fikrlarni bir syujet tarzida namoyon qilgan sharqning bu soxasida tajribalari benihoya qimmatlidir. Masalan, “Juxo latifalari”, “Kamila va Dimna”, “Sinbodnoma”, “To‘tinoma”, “Zarbul-masal” va hokazo o‘lmas kitoblar o‘z vaqtida g‘arb adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Latifaning asosida albatta loflar yotadi. Loflar mubolag‘a asosida qurilgan og‘zaki ijod turlaridan bo‘lib xalqimiz xayotida ming-ming yillar yashab kelmoqda. Lof og‘zaki, yozma adabiyotning barcha janrlarida o‘z naqshiga ega. Dostonlarda, ertak va latifalarga, roman, povestlarda ayniqsa tomosha san’ati repertuarlarida lof satira va yumorning alohida ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hamma xalqlardagidek bizning mumtoz adabiyotimiz ham hozirgi zamon adabiyotimiz ham loflardan, giperbolalardan holi emasdir (Mushtum, 1964, 20). Nasriddin Afandi latifalari o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan. Bu latifalarda bexad mubolag‘alar, o‘xshatishlar ko‘chma ma’noli so‘zlar, so‘z o‘yinlari borki, bular bevosita hozirgi askiyaning muxim elementlaridan iboratdir. Nasriddin Afandi nafaqat O‘zbekistonda, balki O‘rta Osiyo xalqlari orasida ma’lum va mashxur. U birgina o‘zbeklar balki umumturkiy xalqlar qaxramoniga aylanib ketgan. U o‘zbeklarda Nasriddin Afandi, turklarda Xo‘ja Nasriddin, qozoq va uyg‘urlarda Xo‘ja Nosir, ozarbayjonda Mulla Nasriddin deb ataladi.

Bugungi kunda olmon xalqi ham o‘zbek latifalarini o‘z tillarida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Nasriddin Afandi latifalari hozirgi kungacha dunyodagi 27 tilga tarjima qilingan. Ilk bor 1857 yilda Vil’-gelm fon Kamerlayer va V. Preloglar tomonidan “*Usta Nasriddin latifalari*” nomi bilan olmon tilida chop etildi. Bu tarjimaga asos qilib 1837 yilda Istambulda chop etilgan Nasriddin Afandining 134 latifalari olingan. Eng muhim va yaxshi tarjimalardan biri bu Al’bert Veselskiyning Afandi latifalarini olmon tiliga qilgan tarjimasidir. Bu 1911 yilda Vaymar shahrida chop etilgan bo‘lib, Nasriddin Afandining 511 latifasi va kulgili hikoyalarini o‘z ichiga olgan. Bundan keyin ham Afandi latifalarini nemis tiliga tarjima qilish ishi to‘xtab qolmadi. O‘zbek tilidan olmon tiliga 1991 yilda *“Der Sündensack (Anekdoten, Schwänke und Witze von Nasriddin Afandi aus Uzbekistan)” (tarjimonlar: Otaboy Jumaniyozov va Haydi Shtaynlar) xamda, 1995 yilda Wer die Maus unter dem Arm kitzelt (Usbekischer Volkshumor)” (tarjimon: Yo‘ldosh Parda)* asarlari tarjima qilindi.

Bundan tashqari qiziqarli va kulgili xandalarni nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni ham bir oz jadallashdi. Masalan 1995 yilda *Boyxo‘roz Mamatqulov* “Bolalar xandasi” nomi bilan xandalar va quvnoq latifalarni nemis tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qildi. 2012 yilda “*Aql qachon kiradi*“ nomi bilan qiziqarli hikoyalar, kulgili voqealar,

anekdot va quvnoq xandalarni o‘z ichiga olgan nemischadan o‘zbekcha tarjima kitobi *Shuxratxon Imyaminova* tomonidan chop etildi. Bu ham satira va yumor tarjimasi sohasida eng oxirgi tarjima kitoblardan biridir. Demak, satira va yumorga yo‘g‘rilgan tarjimalar ham amaliy va nazariy jihatdan o‘rganish jarayoni jadallashib bormoqda.

Bizning Nasriddin Afandi ismli adabiy qahramonimiz o‘zida bir vaqtning o‘zida ham donishmand-faylasuf, ham soddadil inson obrazini gavdalantiradi. Yuqorida keltirilgan barcha timsollar ham shunday! Ular bilan bizning Nasriddin Afandi o‘rtasidagi umumiylik, ularni o‘zaro birlashtiruvchi asosiy unsur ham aynan shunda ko‘zga tashlanadi. Xuddi shunday avstriyalik janob Balaban ham o‘zida Nasriddin Afandiga xos barcha fazilatlarni jamlay olgan. U har qanday vaziyatdan so‘z vositasida chiqib keta oladi. Uning so‘zni ustamonlik bilan to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olish borasidagi yuksak mahorati o‘zi tez-tez duch keladigan har qanday ko‘ngilsiz, noqulay va ba’zan o‘ta ahmoqona vaziyatlarni ham silliqlab ketadi, so‘z orqali u o‘z mag‘lubiyatini yashirib, ko‘pincha bartaraf etishga ham muvaffaq bo‘ladi.

Og‘ir vaziyatlarda ham o‘ziga xos oqilona yechim izlab topadi. Janob Balabanning o‘zi ham Nasriddin Afandini o‘zining buyuk ustozi, bobokaloni deb biladi. Afandi bilan bog‘liq hangoma-yu latifalarni ibrat namunasi, ba’zan hatto etalon sifatida hikoya qilib beradi. U tushadigan vaziyatlar hamda shunday og‘ir vaziyatlarda u qo‘llaydigan usullar, so‘z o‘yinlari ham bizning Mulla Nasriddin bisotidan olingan deyish mumkin.

Avstriyalik yozuvchi Martin Auerning “*Die lustige Geschichten von Herrn Balaban und seiner Tochter Selda“ (Janob Balaban va uning qizi Selda xaqida g‘aroyib voqealar)* kitob qahramoni Janob Balaban ba’zan o‘zi, ba’zan qizi Selda bilan birgalikda juda ko‘p sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Avstriyalik zamondosh yozuvchi Martin Auer janob Balaban va uning qizi obrazini o‘zi o‘qigan, o‘rgangan, ko‘rgan-tanigan, balki tevarak atrofda, bir ko‘chada, bitta shaharda yashaydigan turli insonlar, gapning indallosini aytganda, bugungi zamonaviy madaniyat, sivilizatsiya odamlari hayotiga, yashash tarziga, qolaversa, butun dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga tayangan holda yaratgan. Bu asar ham *Shuxratxon Imyaminova* tomonidan 2018 yilda nemis tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilindi va chop ettirildi.

Shu o‘rinda 1966 yilda olmon sharqshunos olimi Manfred Lorens tomonidan “Sudxo‘rning o‘limi” asari mahorat bilan olmonchaga o‘girilganligini ta’kidlamoqchimiz. Asarning ruhi, unda o‘z aksini topgan davr hayoti, tojiklar va o‘zbeklarning milliy o‘ziga xos tomonlari olmon tilida ancha yaxshi berilgan. Aytaylik, O‘rta Osiyo xalqlarining o‘tmishi va

ma’naviy turmush tarziga xos bo‘lgan *so‘fi, xurjin, aroba, madrasa, mudarras, mufti, qozi, qushbegi* kabi so‘zlar tarjimada transliteratsiya yo‘li bilan ifodalangan, so‘ngra ular izohlangan. Bundan tashqari, bu asarda xilma-xil o‘xshatish, majoz, sifatlash maqol, matallar uslubi rango-rangligini ta’minlaganligi, asarga takrorlanmas milliy kolorit baxsh etgan.

Shunday qilib, ma’lum xalqqa xos va mansub bo‘lgan predmet, tushuncha hamda xodisalarni ifodalaydigan so‘zlar muallifga tasvirlayotgan personajlarni moddiy-ma’naviy hayotini real, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi.

Ana shu yuqorida zikr etilgan xususiyatlarni tarjimada to‘laligicha saqlab qolish uchun tarjimaning trasliteratsiya uslubidan foydalaniladi. Bu uslub ko‘proq bir xalqning urf-odatiga, an’analariga, ust-bosh, kiyinish odatlariga geografiyasi va etnografiyaga xos bo‘lgan so‘zlarni tarjima yo‘li bilan berishda qo‘l keladi. Bu borada so‘zning qanchalik ommaviyligi, tilda o‘quvchi kitobxon uchun sinashtaligini ham e’tiborga olish kerak. Bo‘lmasa, bu so‘zlar o‘ziga xos doirasidan chiqib ketib, internasional so‘zga aylanib ketadi. Demak, shunday ekan olmon tilida o‘zbeklarga xos bo‘lgan *boy, bek, shoh, oqsoqol* kabi so‘zlarga ekvivalent qidirish befoyda.

Chunki olmonlarda o‘zbek tilidagi bu so‘zlarning to‘la ma’nosini beradigan birorta ham so‘z yo‘q. Ammo, bu o‘zbek milliy urf-odatlari, ijtimoiy hayoti, turmushiga oid bunday so‘zlar asrlar mobaynida ishlatilaverib bizning kitobxonga tanish bo‘lib qolgan. Shuning uchun ham, tarjimon asliyatga o‘girayotganda undagi har bir so‘zga nihoyatda e’tibor qilishi lozim. Tarjima qilish mumkin bo‘lsa ham, ba’zan ayrim so‘zlarni izohlab, shundayligicha qoldirishga to‘g‘ri keladi.

Ammo, agar milliy koloritni belgilovchi har bir so‘zni tarjimasiz qoldiraversak, matn nihoyatda milliylashib ketib, hatto kitobxon u yerda o‘zini yo‘qotib qo‘yishi ham mumkin.

Transliteratsiya bir tildagi alfavit sistemasida yozilgan matnni boshqa alfavit sistemasi bilan berilishiga aytiladi.

Demak shunday ekan, **“***Afandi latifalari***”** o‘zbek tilidan olmon tiliga o‘girilgan uchun va qolaversa bu ikki til ikki turli alfavit sistemasiga mansub tillar ekanligini e’tiborga olib o‘zbek tilidagi milliy koloritni aks ettirib turuvchi so‘zlar o‘zga g‘arb tiliga transliteratsiya orqali berilgan. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, transliteratsiya orqali berilgan so‘zlar baribir g‘arb kitobxoniga mavhumligi holida qolaveradi. Bu borada matn yoki badiiy asar tarjimasida izohlash jarayonini qo‘llash lozim, chunki transliteratsiya orqali berilayotgan so‘zlar orqali izoxlash bilan

olmon kitobxonida ham umuman g‘arb kitobxonida hech qanday transliteratsiya orqali berilgan so‘zda tasavvur paydo qilmaydi.

Masalan: Ertalab podsho ovga chiqqanda Afandiga duch kelib qolibdi.

Als der Padischah eines Morgens zur Jagd tritt, begegnete ihm Afandi

(Der Sündensack, S. 5)

Agar matnda “*podsho”* so‘zini shu holda qoldirsak, bu olmon kitobxonida tushunmovchilikka olib keladi. Shuning uchun xam bu so‘zga, ya’ni, *Padischah: orientalischer Herschertitel*, kabi tushuntirish berib o‘tish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Iste’mol qilinadigan taomlar nomi “*lag‘mon”, “nisholda*”, **“***palov”, “patir***”** so‘zlari xam olmonchaga tranliteratsiya orqali berilgan va olmonchasiga *Lagman, Nischolda, Plow, Patyr* deb ko‘rsatilgan. Bu so‘zlarga bizningcha tushuntirish bersak quyidagicha bo‘lar edi, ya’ni:

Lagman: ein Nudelgericht mit einer Sause aus Fleisch und Gemüse.

Nischolda: Süssspreise aus Zukkersirup und Eisweis, das unter Zugabe eines Suds von Seifenwurzel geschlagen wird.

Plow: “palow“ oder “osch“, zusammen mit geschmortem Fleisch und Gemüse gedüksteter Reis. Uzbekisches Nationalgericht, von dem es viele Varianten gibt und das bei keinem grosseren Essen fehlen darf.

Patir: dunnes Fladenbrot, unter Zugabe von Öl und Milch gebacken.

Ana shunday har bir milliyligimizga xos bo‘lgan so‘zlarni izoxlab berganimizdan so‘nggina olmon kitobxonida bular to‘g‘risida birmuncha tasavvur hosil bo‘ladi. Adabiyotimiz xayotimizning asosiy jihatlari ijobiy narsalarni kuylash bilan musbatda qarshi bo‘lgan uning yo‘liga g‘ov bo‘lgan barcha manfiy narsalarga qattiq o‘t ochishni hech qachon esdan chiqarmadi. Yomon narsa qanchalik kuchli fosh qilinsa, yaxshi narsa shunchalik yarqirab ko‘rinadi, uning olg‘a qarab ketishiga keng yo‘l ochiladi. Satiraning xususiyati shundan iboratki, u o‘lik, chirik narsalarni tanqid qilish bilan birga, yaxshilikka undaydi, unga yo‘llanma beradi.

O‘tmishda adabiyotimizda satirik prozaik asarlar esa juda kam bo‘lgan. O‘zbek klassik satirasining xarakterli xususiyati shundaki, u ijtimoiy guruhdagi turli kishilarning satirik obrazlarini chizib bergan. A.Navoiy, Maxmur, Muqumiy, Zavqiyning ijodlarida o‘zbek klassik satirasi yaratildi va rivojlantirildi. Satira achchiq, zaxarxanda, g‘azabli kulgiga suyanadi, yumor esa unga nisbatan mayinroq, yumshoqroq.

Yuqorida ta’kidlaganimizdan, o‘zbek xalqida satira juda rivojlanmasada adabiyotda bunga alohida e’tibor beriladi. Bu borada Respublikamizda “Mushtum” jurnalining o‘rni benihoya muhim.

Ammo nemis adabiyotidagi anekdot yoki qiziqarli va kulgili kichkina hikoyalarni o‘zbek tiliga tarjima qilib kitobxonlarga bu to‘g‘rida ma’lumot berish ham albatta foydadan xoli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Монография. Т., Фан, 2007, 16.

2. Болалар хандаси. Немис тилидан Бойхўроз Маматқулов таржимаси. Т., Ўқитувчи, 1995, 5

TURKCHA SO‘ROQ GAP SHAKLIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI

*PhD. **Xayrulla HAMIDOV**, TDShU, dotsent*

Iboralar genetik jihatdan so‘z birikmalari bo‘lishiga qaramay, turkiy tillarda ayrim iboralar gap shaklida ham uchraydi. Hozirgi turk tilida tuzilish jihatdan sodda (yig‘iq va yoyiq), hatto ayrimlari qo‘shma gaplar shaklida ham bo‘lgan iboralar, maqol va matal, kichik masallar *(deyimler, özdeyişler, ibâreler)* salmoqli miqdorni tashkil etadi. Aynan shu mavzuga e’tibor qaratilgan ushbu maqolada tahlilga tortilgan frazeologik birliklar turk tilining izohli lug‘ati [TS,1998] va O.A.Aksoyning maqol va iboralar lug‘ati [Aksoy,1996], badiiy asarlar va jonli nutqdan olindi. Ayrim turkcha iboralarning muqobillari o‘zbek tilida mavjud ekanligi ta’kidlanib, muqobili bo‘lmagan birliklar so‘zma-so‘z berildi.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, so‘roq gap shaklidagi frazeologik birliklar barcha tillarda, jumladan o‘zbek va rus tillarida ham uchraydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Ana gap qaerda?” degan ritorik so‘roq shaklidagi iboraning rus tilida *Вот где собака зарыта* (so‘zma-so‘z: Ana (ko‘rdingmi) it qaerga ko‘milgan ekan!) degan muqobili mavjud. Ustoz G‘.Salomov ushbu iboraning tarjimasi masalasida turli munozarali fikrlar borligi, u bir idioma sifatida asli nemis tilida yuzaga kelgani, so‘ngra uning obrazli asosi, shakli va mazmuni aynan saqlangan holda rus tiliga tarjima qilinganligini ta’kidlar ekan (chunki buni rus tilining tabiati ko‘targan, shu bois idioma nemis tilidan so‘zma-so‘z o‘girilgan. Ammo boshqa tillarda ham aynan shunday bo‘lishini talab qilish kulgili), ushbu idiomaning kontekstga ko‘ra *“Hamma balo mana shunda”* yoki *“Hamma illat mana shunda”* variantlari vositasida tar-

jima qilish mumkinligi, shu bilan birga o‘zbekcha idiomani rus tiliga so‘zma-so‘z o‘girib bo‘lmasligini uqtiradi [Саломов,1998:137]. O‘xshash mazmundagi idiomatiak birlik turk tilida ham mavjud: *Bu değirmenin suyu nereden geliyor?*[24](Tarjimasi: *Bu tegirmonga suv qaerdan kelmoqda?).* E’tibor berib qaralsa, sanab o‘tilgan tillarda qo‘llanib kelayotgan idiomaning mazmuni bir-biriga juda yaqin. Lekin obrazni yuqoridagi nemischadan o‘zlashgan maqol va uning turkcha muqobilida yaqqol sezish mumkin (*“собака” va “tegirmonning suvi”*).

Iboralardagi so‘roq ohangi unda ifodalanayotgan fikrni yanada kuchaytirishdan tashqari tilning keng sintaktik imkoniyatlarini ham namoyon qiladi. Ko‘pincha og‘zaki nutqda qo‘llanadigan, muhim ishlar bir tomonda qolib, keraksiz yumushlar bilan shug‘ullanayotgan kishiga qarata aytiladigan *Her iş bitti de fıstığın yeşili mi kaldı?* (Tarjimasi: *Har ish bitdi-yu, pista mag‘zining yashil rangda bo‘lishi masalasi qoldimi?* aytimini alohida ta’kidlash joiz. Yana bir misol: *Arkamı unlu gördün de değirmenci mi sandın?* (Tarjimasi: *Yelkamdagi unni ko‘rib, tegirmonchi deb o‘yladingmi?* Ma’nosi: insonning tashqi ko‘rinishiga qarab u haqida shoshilinch xulosaga kelish to‘g‘ri emas). Turk tilida ushbu aytimga ma’nodosh yana bir aytim bor: *Karaca kuracsa gördün de, kuzgun yavrusu mu sandın?* (Tarjimasi: *Qora-qura ko‘rib (meni), quzg‘unning bolasi deb o‘yladingmi?)* kabi.

So‘roq gap shaklidagi aytimlarda turk xalqi hayotida qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik va chorvachilikning qanchalik muhim o‘rin egallaganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, uy hayvonlari nomining frazeologik birliklar tarkibida ko‘p uchrashining sababi xalqining qadimdan chorvador bo‘lgani, uy hayvonlari xususida yetarli anatomik bilimga ega ekanligini bildirish bilan bir qatorda xalqning badiiy tafakkur olami qanchalar keng bo‘lganligidan dalolat beradi: *At olup kuyruk mu sallayacağım?* (Tarjimasi: *Ot bo‘lib dumimni likillatishim kerakmi?*. Ma’nosi: O‘z manfaatim uchun birovlarga xushomad qilishim kerakmi?). Yoki, *Anasını sağdım da, danasını aç mı bıraktım?* (Tarjimasi: *Onasini (sigir) sog‘dim-u buzog‘ini och qoldirdimmi?*. Ma’nosi: “Bir narsa olgan bo‘lsam, badalini to‘laganman”, ya’ni “inson bir ish qilsa, oxirigacha qilishi kerak, qilinmaydigan bo‘lsa, umuman qo‘l urilmasligi lozim”).

Yana bir misol: *Eşeği düğüne çağırmışlar:“Ya odun eksik, ya su” – demiş*. (Tarjimasi: *Eshakni to‘yga chaqirishibdi, shunda u “Yo o‘tin*

[24] Ushbu so‘roq gap – ibora ters jumla shaklida ko‘proq qo‘llaniladi *(Nereden geliyor bu değirmenin suyu?)*

kam, yo – suv" – debdi. Ma'nosi: Oddiy, mehnatkash odamni ziyofatga emas, faqat biron yumushga chaqirishlari mumkin)[25]. "Tuya" asosiy komponent bo'lib kelgan *Deveye sormuşlar: "Neden boynun eğri?" Deve demiş: "Nerem doğru ki?"*[26]. E'tiborli jihati, tuyaning berilgan savolga qaytargan "javobi" ham savol shaklida va bu tilning sintaktik va ifoda imkoniyatlari qanchalik boy ekanligini ko'rsatadi.

Uy hayvonlari nomi asosiy komponent bo'lib keluvchi va ko'pchiligi maishiy-turmush mavzusida aytilgan so'roq gap aytimlarning bir qismida xalq ichida kuyov yoki pochchaning zarurat tug'ilganda hech ayamasdan ishlatilganligi ta'kidlanadi: *Eşeğin yoksa enişten de mi yok? ("Eshaging bo'lmasa kuyoving (pochchang) ham yo'qmi?").*

Hayvonot nomi ishtirok etgan so'roq gap – aytimlar tog'lik, o'rmonlik hududlarda yashaydigan turklar nutqida paydo bo'lgan va keng tarqalgan. Masalan: *Orman olur da, domuz olmaz mı? (O'rmon bo'ladi-yu, to'ng'iz bo'lmaydimi?), Beni yılan soktu da ondan tıryak mı bulundu? (Meni ilon chaqdi-yu, undan taryoq (zahar kesuvchi) topildimi?*, ya'ni "Boshimga og'ir kun tushganda yordam berdimi").

Rus tilida "Volka nogi kormyat" degan matal bor. Bunga o'xshash ma'noda turklarda quyidagi so'roq gap qatnashgan masal-ibora qo'llaniladi: *Kurda sormuşlar: Neden boynun kalın? Kurt cevap vermiş: Kendi işimi kendim görürüm de, ondan!"* (so'zma-so'z: "Bo'ridan so'rashibdi: Nima uchun bo'yning buncha yo'g'on? Bo'ri javob beribdi: O'z o'ljamni o'zim tashiyman-da, shuning uchun yo'g'on") kabi.

Yuqoridagi misollardan so'roq gap shaklidagi aytimlarning turkcha nutqda tugallangan jumlalar shaklida qo'llanilishi, bunday birikmalarning rus tilida "pogovorka", ya'ni matallar jumlasiga kiritilishi ma'lum bo'ladi. Yuqoridagi "*tuya"* (sharqda) va *"eshak"* (turklarda) obrazlari asos olingan o'git-jumlalar rus paremiologiyasida **pobasenki** (latifa, qiziq hikoyacha) deb ta'rif etiladi [Пермяков, 14].

So'roq gap shaklidagi iboralardagi so'roq ohangi fikrning yanada kuchayishini ta'minlash bilan birga tilning boy sintaktik imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Masalan, *Babanın çiftliği mi zannediyorsun?* (so'zma-so'z: "Otangning tomorqasi deb o'ylayapsanmi?") so'roq gap – ibora o'zbekchadagi *"Katta xolangna uyimi?"* (Onangni uyimi?) degan gapga mos keladi.

---

[25] Xuddi shu ma'noda aytilgan yana bir sharqona aytim bor: Tuyaga: Muborak bo'lsin, seni shaxsan podshohning o'zi chaqiribdi! – deyishibdi. –Bilaman, yo Kohbga tuzga jo'natadi, yo Sharurga guruch olib kelishga.

[26] Ushbu masal – iboraning o'zbek tilida aynan muqobili bor: "Tuyadan so'rashibdi: "Nimaga bo'yning egri?" Tuya javob beribdi: "Qaerim to'g'ri?".

Sodda so‘roq gap shaklidagi ayrim iboralar hayotdagi turli voqea-hodisalarga asoslangan bo‘ladi. Masalan: *Ya hırsızın hiç mi suçu yok? (“O‘g‘rining hecham aybi yo‘qmi?”)* iborasi quyidagi qiziqarli voqeaga asoslanadi: Bir kuni bir kishining uyiga o‘g‘ri kirib, bor-budini olib ketadi. Voqea joyiga yetib kelgan mirshablar uy egasini so‘roqqa tutishadi. Salkam o‘zi aybdorga chiqib qolayozgan soddadil odam mirshabdan qo‘rqimsirab so‘raydi: *“Hamma ayb mendami, o‘g‘rining hech qanday aybi yo‘qmi?” (Acaba, şimdi suçlu ben mi oluyorum? Hırsızın hiç mi suçu yok?).* Ana shu kichik voqea asosida yuzaga kelgan so‘roq gap – ibora uyini o‘g‘ri urib, moddiy zarar ko‘rgan, lekin o‘g‘ri bir chetda qolib, o‘zi aybdor holatiga tushay degan gunohsiz, o‘z haq-huquqini bilmagan kishi tilidan aytilib, hozir ham nutqda o‘xshash vaziyatlarda qo‘llanib keladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan so‘roq gap shaklidagi turkcha aytimlarning aksariyat ko‘pchiligi o‘zbek tilida muqobillarga ega bo‘lmasada, ularning tarjimada so‘zma-so‘z berilishi o‘zbek kitobxoniga to‘la tushunarli bo‘ladiki, buning asosiy sababi ikkala tilning bir oilasiga mansubligi hisoblanadi:

Abacı[27] *kebeci, sen neci?*[28] – (Ma’nosi: *Sen kimsan o‘zing, nega birovning ishiga aralashasan?*).

Ak yorak (deri), kara yorak hepisi sana mi gerek? – (Ma’nosi: hamma narsaga o‘zi ega bo‘lishni o‘ylagan, boshqalar bilan ishi bo‘lmagan kishiga nisbatan ushbu ibora qo‘llaniladi)

Çekirdek çűrűkse toprağın ne kabahatı var? Ushbu iboraning varianti *Ekilen çürükse, toprağın ne kabahatı var?*

Kavgada yumruk sayılır mı? – “Janjal-to‘polonda musht sanab o‘tiriladimi”;

Senin elin armut mu topluyordu? – “Sening qo‘ling nok terayotganmidi?”, ya’ni “Sen qayoqqa qarab turganding?” “Ko‘zing qayoqda edi?” kabi.

Taş attık da kolumuz mu yoruldu? – “Tosh ottigu, qo‘limiz charchadimi?”, ya’ni “Hech nima qilganimiz yo‘qku, nimaga charchar ekanmiz”.

Seni hamamcı eden Allah, beni külhancı etmez mi? – “Seni hammomchi qilgan Olloh meni (hammomda) o‘t yoquvchi qilmaydimi?” kabi.

Deve kadar güydün de, kulağı kadar güyemedin mi?

El gűn ne der? (El yurt nima deydi)

Eski köy yeni adet mi?

Hangi rüzgar attı buraya (seni)? (Qaysi shamol uchirdi)

Her şey bitti de, fıstığın yeşili mi kaldı? (Her günü kutladık da,bir sevgililer günü mü kaldı?)

---

[27] *aba* - darvishlar kiyadigan, jundan turlicha qalinlikda savab tayyorlanadigan matoning nomi bo‘lib, asosan oq rangda bo‘lgan. Qora rangdagisiga *kebe (qaba)* deyiladi (*aba da bir, kaba da bir giyene* (kiyganga abo ham bir, qabo ham)

[28] Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010. –S. 3.

Keşmik ile köpek uydurup da, sü.rüye faydası mı olacak?
Koku neki, köçeği ne olsun?
Ne dolap(lar) dönüyor ya?
Neyin nesi (Kimin nesi)?
O kadar mızrak hangi çuvala sığar?
Orman olur da, domuz olmaz mı?
Sakal bıyığa denk gelmeyince berber ne yapsın? (So‘zma-so‘z: Soqol mo‘ylovga teng kelmay tursa sartarosh nima qilsin. Ma’nosi: Asbob-anjom nuqsonli bo‘lsa eng usta kishi ham istagan natijaga erisha olmaydi).

Yumurtadan mı çıktın? (So‘zma-so‘z: *“Tuxumdan ochib chiqqanmisan?”, ma’nosi:* Kattalarga nisbatan hurmatsizlik qilgan yoshlarga kattalar “Sening ota-onang yo‘qmi?” degan ma’noda ushbu iborani ishlatiladi).

Xulosa qilib aytganda, ibora, frazeologik birikma terminlarining to‘la muqobili turkchada *deyim* bo‘lib, ularga nisbatan o‘zbek tilida ba’zan *aytimlar* terminini qo‘llash noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuning uchun barcha frazeologik birliklarga nisbatan bo‘lmasada, faqat gap shaklidagi idiomatik birliklarga nisbatan bu terminni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana bir muhim jihat, boshqa tillardan farqli o‘laroq o‘zbek va turk tillarida so‘roq gap shaklidagi aytimlar juda ko‘p uchraydi. Shuning uchun bu tillardagi maqol, matal va idiomatik birikmalarning grammatik xususiyatlari ko‘rib chiqilayotganda, uni tashkil etuvchi komponentlar orasidagi bog‘lanish yoki gapga xos xususiyatlari emas, iboraning har qanday tugallangan ma’no ifodalovchi nutq birligi ichida reallashuvi masalasiga ham balohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[Aksoy, 1996; 1994; 1984] – Aksoy, Ömer Asim, Bölge Agızlarında Atasözleri ve Deyimler, 1. 2. Cilt, Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara, 1996; Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 1. Atasözleri Sözlüğü, İstanbul, İnkilap Yayınevi, 1994; Aksoy O.A. 2. Deyimler Sözlüğü, 3. Dizin ve Kaynakça 4. Baskı, Türk Dil Kurumu Yayınları, – Ankara, 1984.

[TS,1998] –Türkçe Sözlük, TDK, 9.Baskı, 1,2.C. –Ankara, 1998.

[Саломов,1998:137] – Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. –Т.: 1961.

[Пермяков] –Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока. – Москва, 1979, с.14.

Hamidov X., Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. −T., 2017. −128 b.

Ҳамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари, Тошкент, ТошДШИ, 2014, 142 b.

Ҳамидов Х., Турк фразеологияси масалалари. − Тошкент. “Баёз” нашриёти, 2019. − 160 б.

O‘ZBEKCHADAN HINDIYGA BADIIY TARJIMADA SO‘Z TANLASHNING AYRIM USLUBIY MUAMMOLARI

PhD. Nilufar XODJAEVA, *TDShU, kafedrasi mudiri*

O‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga tarjima qilish, xususan, o‘zbek adabiyotining hindiy va urdu tillariga tarjima qilish an’anasining ilk namunalari dunyo bilan yuzlashdi. Ilk bor o‘zbek tilidan Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” (“Nagma-e-Kashmir”) dostoni urdu tiliga tarjima qilingan. Zulfiya qalamiga mansub “Xotira satrlari” she’riy to‘plamini esa o‘zbekchadan N.Muhamedov urdu tiliga tarjima qilgan.

O‘zbek adabiyoti namunalarini hindiy tiliga o‘girishda o‘zbek hindshunoslari bilan bir qatorda til sohiblarining tarjimalari ham kuzatiladi. Jumladan, A.Muxtorning “Opa- singillar” romani 1979 yilda Ray Ganesh Chandra tomonidan ingliz tilidan bilvosita hindiy tiliga, 1983 yilda O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, 1988 yilda P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlari Sudhir Kumar Mathur tomonidan hindiy tiliga tarjima qilingan. Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romani hindiy tiliga tarjimasini kuzatish jarayonida turli xil leksik, semantik va stilistik masalalar ko‘zga tashlanadi. Asarda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi ba’zi iboralar mavjudki, tarjimon uni so‘zma-so‘z tarjima qilinganida har doim ham tarjima muvaffaqiyatli chiqavermaydi. U ham o‘ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. “Ba’zilari, hatto Naimiyning darsida undan yuzini bekitmaydiganlari ham, u *voy o‘lay!* deb chachvonlarini yuzlariga tushirib olishdi” *[1,88]*. Ushbu jumlada *voy o‘lay* iborasini tarjimon *काश मौत आ जाती [2,83](Kaash maot a jati)* shaklida tarjima qilgan. *काश मौत आ जाती (Kaash maot a jati)* so‘zma-so‘z tarjimasi *Koshki o‘lsam* degan ma’noni bildiradi. *Voy o‘lay* birikmasi hindiy tilida kontekstga ko‘ra हाय हाय (hay hay), हाय-तोबा (hay toba), हाय अल्लाह (hay allah), हाय राम (hay ram) shaklidagi tarjima uslubiy hamda emotsional tasvirni aniq ifodalanishiga xizmat qiladi. Boshqa millat muhitida dunyoga kelgan tarjimon doim ham, boshqa millatga xos ekspressivlikni to‘g‘ri ifodalay olmasligi tabiiy.

“Yulduzli tunlar” hamda “Ulug‘bek xazinasi” romanlarining Sudhir Kumar Mathur tarjimasida tarixiy shaxslar portreti tasvirida inglizcha o‘zlashmalar qo‘llanganligi uslubiy kamchilik sifatida baholanadi. Jumladan, *yasavul[3]* so‘zini *अरदली [4]* (orderly) tarzida, *nimcha [5]*

वास्कट [6](waistcoat), e*tik – बूट (boot)***,** *choynak -केतली (kettle), po‘stin – कोट (coat)* shaklida beriladi. Tarixiy asarlar tarjimasida o‘sha davrga xos bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llash, davr uslubini buzilishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan so‘zlar hindiy tiliga XIX asrning 2-yarmida inglizlar bostirib kelgandan so‘ng o‘zlashgan deb tahmin qilish mumkin. Shu sababdan *nimcha* so‘zini *सदरी (sadri), फतुही [7,260] (fatuhi), choynak चायदानी (chaydani),* e*tik बालायी जूता (balayi juta), po‘stin-पोस्तीन (postin)* tarzida berilishi o‘rinlidir.

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida milliy-tarixiy tushunchalarni hindchaga tarjimasida ayrim leksik-semantik masalalar ham kuzatiladi. “Quduq chuqur emas, nari borsa *10-15* ***gaz*** bo‘lib, uning bir tomonidan arang sig‘adigan tuynuk ochilgan edi”*[5, 87]*.

Jumladagi “gaz” so‘zi metrik sistema qabul qilinganga qadar ishlatilgan 0,71 metrga teng uzunlik o‘lchov birligi; arshin *[8, 152]*. Hindiy tilida ham “gaz” uzunlik o‘lchovi mavjud bo‘lib, *गज [7,439]* (gaz) 90 smga teng uzunlik birligi hisoblanadi. Tarjimada *gaz हाथ* (hath) so‘zi bilan tarjima qilingan**.** Hindiy tilida *हाथ [11,800]* (hath) arxaik so‘z hisoblanib, 45-smga teng uzunlik o‘lchovidir. Tarjimon turli xil o‘lchov birliklarini qo‘llasada, matnda masofa haqida to‘g‘ri tasavvur berish bilan birga til madaniyati qabul qila oladigan birlikni qo‘llagan.

Lavozim, unvon va kasblar nomini tarjimada berilishi xususida navbatdagi jumla misol bo‘la oladi. “Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo‘lida maktub ushlagan *shayxulislom* Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi.

- “Tag‘in noxush xabar !”-dedi Mirzo Ulug‘bek.

- Qayda yuribsiz, xazratim? - dedi *shayxulislom* xansirab, -Amir Iskandar barlosdan *chopar* kelubdur”” *[5, 76]*.

Ikki davlatning madaniy va diniy yaqinligi har ikki til lug‘at boyligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Tarjimada *shayxulislom* so‘zi transliteratsiya qilinib, matn ostida izohsiz berilgan. Hindiy tilidagi tarjimada ayrim leksik birliklarni sinonimlari bilan almashtirishga uringan tarjimon har doim ham muvaffaqiyatga erishaaermaydi. *Shayxulislom [8,392]* musulmon ruhoniylari boshlig‘i, bosh ruhoniy hisoblanadi. Butun musulmon dunyosida bu so‘z shu ma’noni anglatadi. Urducha-ruscha lug‘atda *shayxulislom [9,477] islom dinining bilimdoni* deb berilgan.

Tarjimon *Shayxulislom* so‘zni hindiy tiliga ayrim o‘rinlarda *क़ाज़ी (qazi)* tarzida tarjima qilgan. Hindiy tilida *क़ाज़ी [7,350](qazi)* “sudya” degan ma’-

noni anglatadi. *Shayxulislom* esa qoziga nisbatan yuqori lavozim hisoblanadi. Bu ikki lavozimdagi shaxslar bajaradigan ishlar ham turlichadir. Ya'ni *qozi* shariat qonuni bo'yicha sud ishlarini olib borsa, *shayxulislom* musulmon diniy peshvolari boshlig'i hisoblanadi. Bu borada Tarjimashunos R. Shirinova "barcha dinlar uchun umumiy diniy realiyalar uchun tarjima tilidan asliyatdagi istiloh tushunchaning muqobilini topib, va aksincha har bir din uchun xos bo'lgan diniy realiyalar transliteratsiya qilinib, zarur izohlar keltirilishi lozim" *[10, 112]* deb ta'kidlagan.

"Eshikda shahar *dorug'asi* Mironshoh, uning ketidan qilich va xanjar taqqan ***amirlar***, qizil kimxob to'n kiygan *devonbegi* bilan *saroy mahramlari* ko'rindi" *[5, 9]*.

O'zbek tilida *dorug'a [8, 235]* arxaik so'z bo'lib, *shahar hokimi* ma'nosini ifodalaydi. Ushbu so'z hindiy tiliga fors tilidan o'zlashgan bo'lib, *boshliq, inspektor* degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur birlik *दारोग़ा - समरक़न्द का सूबेदार मिरानशाह (darog'a – Samarkand ka subedar Miranshah)* ya'ni "Dorug'a - Samarqand hokimi Mironshoh" deb matn ichida izoh bilan berilgan. Izoh ichida qo'llanilgan *सूबेदार [11, 735] (subedar)* so'zi *kichik ofitser*, hamda *viloyat, biror bir hudud hokimi* degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu *दारोग़ा (darog'a)* va *सूबेदार (subedar)* so'zlarining ma'nosi yaqin va tarjima jarayonida bir biriga sinonim sifatida qo'llanilgan.

Amir va *devonbegi* so'zlarining har ikkisi hindiy tiliga *अमीर (amir)* tarzida tarjima qilingan. Hindiy tili lug'atida *अमीर [7, 125](amir) boy odam, rahbar, feodal*, degan ma'nolarni anglatadi. *Devonbegi [8, 218]* esa o'zbek tilida *devon yoki ayrim vazirlik mahkamalari boshlig'i* degan ma'nolarda qo'llaniladi. Hozirgi kunga kelib, *vazir* lavozimiga tenglashtirish mumkin. Hindiy tilida *दीवान [7,785](divan)* so'zi mavjud bo'lib, *bosh vazir* ma'nosini anglatadi. Shu sababli, tarjimada *amir* so'zini *अमीर (amir), devonbegi*ni esa *दीवान (divan)* shaklida berilishi maqsadga muvofiq.

Saroy mahramlari birikmasi hindchaga *सरदार [11, 785] (sardar)* shaklida tarjima qilingan bo'lib, ushbu so'z hindiy tilida *yo'lboshchi, rahbar, boshliq*, tarixiy leksika sifatida esa *zamindor yer egasi* ma'nolarini anglatadi. O'zbek tili izohli lug'atida *Mahram [8, 453]* so'zi *Buxoro va Xiva xonliklari davrida saroy amaldorlarining yozishma ishlarini olib borgan mansabdor shaxs, ishonchli xizmatkor, cho'ri* kabi ma'nolari berilgan. *Saroy mahrami* so'zini hindiy tiliga *महल का सेवक (mahal ka*

sevak) tarzida tarjima qilish o‘rinli. Hindiychada *सेवक (sevak)* so‘zi *xizmatchi*, *xizmatkor* ma’nolarini anglatadi, mazkur *महल का सेवक (mahal ka sevak)* birikmasi o‘zbek tilidagi *saroy mahrami* ma’nosini qoplaydi. “Tarjimon tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki, hosil bo‘lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo‘lsin va shu bilan birga asar yaratilgan davr uning ko‘z oldida jonlanib tursin. Buning ma’nosi shuki, tarjimada tilning arxaik va tarixiy qatlamlariga murojaat qilishda suiiste’mollikka yo‘l qo‘ymasdan, ulardan kitobxonda asar yaratilgan davr to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘lgan darajada foydalanish zarur” *[12,11]*.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har bir tarjimaning o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud. Ammo, badiiy tarixiy asarlar tarjimasida tarjimon nafaqat so‘z tanlash, bilki so‘zning davriy ma’nosi, uslubi hamda qo‘llanish kontekstiga juda ehtiyotkor bo‘lishi talab qilinadi. Hissiy ekspressivlik barcha xalqlarda bir xil his qilinsada uni yozma va tasviriy ifodasi boshqa-boshqadir. Tarixiy asarlar tarjimasida imkon qadar zamonaviy va o‘zlashma leksikani qo‘llashdan tiyilish darkor. U yoki bu xalq tarixiga oid adabiyotni tarjima qilishdan avval tarjimon tarixni yaxshi o‘rganishi kerak.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

[*1] – Мухтор А. Опа-сингиллар. Роман. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.*

[2] – आसकद मुख्तार, चिंगारी, अनुवादक राय गणेश चंद्र, ताशकन्द, प्रगति प्रकाशन, 1979.

[3] – Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Т.: Шарқ, 2009.

[4] – बाबूर। अनुवादक सुधीर कुमार माथुर। मास्को : रादुगा प्रकाशन। 1988.

[5] – Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.

[6] – उलुग़वेक का दरोग़ा। अनुवादक सुधीर कुमार माथुर। ताश्कन्द , 1983.

[7] – Современный русско-хинди словарь. – М.: Русский язык медиа. 2004.

[8] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. –М.:Рус тили нашриёти, 1981.

[9] – Урду-русский словарь. Пакистан: Муктадира Кауми Забан, 2013.

[10] – Ўрмонова Н. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги. (ўзбек классик адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида) Филол. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ЎЗМУ, 2008.

[11] – Хинди-русский словарь. –М.: Советская энциклопедия, 1972.

[12] – Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005.

SHEKSPIR SONETLARI XX-XXI ASR O‘ZBEK SHOIR-TARJIMONLARI TALQINIDA

*PhD. **Nargiza BO‘RIYEVA**, JDPI, katta o‘qituvchi*

Ushbu maqolada muallif buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir sonetlarining o‘zbek shoirlari tomonidan amalgan oshirilgan tarjimalarning tarixiy tadrijiga izoh bergan. Maqolada sonetlar siklini to‘liq tarjima qilgan, Yusuf Shomansur va Jamol Kamol tarjimalarining o‘ziga xosliklari xususida fikr yuritilgan. Shu o‘rinda, bevosita tarjima muallifi Jamol Kamol tarjimasining boshqa mualliflardan ustunligi muallif tomonidan asoslangan.

Sonet xuddi Sharq she’riyatidagi g‘azal va ruboiy janriga o‘xshash yuksak san’at asari bo‘lib, qat’iy qonun-qoidaga, shartlarga bo‘ysunuvchi lirik turdir. Amalga oshirilgan tarjima tufayli O‘zbekistonda ham Shekspir sonetlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladigan bo‘ldi. Dastlab 1938 yilda Chulpon tomonidan, keyinchalik 1965-1966 yillarda Maqsud Shayxzodaning yuksak she’riy mahorati tufayli Shekspirning 11, 17, 18, 21, 22, 25, 29-sonetlari o‘zbek tilida o‘girildi. Keyinchalik A’zam Obidov 21, 54, 55, 65, 66, 128-sonetlarni tarjima qildi. Taniqli shoir Xurshid Davron ham Shekspir sonetlariga befarq emasligini namoyon etib, 27, 28, 29, 66-sonetlarini o‘zbek tiliga o‘girdi. 1978 yil o‘zbek kitobxonlari uchun quvonchli voqea yuz berdi, Shekspirning 154 ta sonetini shoir Yusuf Shomansur o‘zbek tiliga rus tilidagi S.Marshak variantidan tarjima qildi. [1,170] She’rni tarjima qilishdan ko‘ra sonetni tarjima qilish ikki barobar qiyin. Chunki sonet tarjimonni biroz cheklab qo‘yadi. Tarjimon aslo sonet mazmuniga va shakliga tahrir kiritish huquqiga ega emas. Bu tarjimondagi erkinlikni cheklaydi. Sonet tarjimoni eng avvalo, uning mazmunini, ichki musiqaviyligi va ohangini buzmasligi kerak, qofiyalarining dilbar jarangi o‘zining asliyatdagi shaklini yo‘qotmasligi, obrazli iboralar go‘zalligi saqlanmog‘i lozim. Yusuf Shomansur ham Shekspir sonetlarini tarjima qilar ekan, eng avvalo, ana shu usulga amal qilishga harakat qilgan. Tarjimonning mahorati shundaki, shoir tarjima qilgan sonetlarni hech kim rus tilidan tarjima qilingan deb o‘ylamaydi, balki o‘zbek tilida yozilgan sonet sifatida qabul qiladi. Agarda kitobxon ularning rus tilidagi tarjima nusxasi bilan qiyos qilsa, Yusuf Shomansurning tarjimon sifatidagi mahoratiga tan beradi. Chunki tarjimon sonetning asl mohiyatini chuqur idrok etgan holda uning butun ruhiyatini saqlab qolishga harakat qilgan. Bu o‘rinda aytish kerakki, Yusuf Shomansur tarjimasi asl nusxaning surrogati emas, balki o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos ko‘rinishidir. U Shekspirning yoniq nafasini o‘zbek kitobxoniga yetka-

zishda qutlovga loyiq ish qildi. Chunki Yusuf Shomansur Shekspir sonetlarida ham buyuk dramaturg timsolini namoyon qila oldi. Shekspir sonetlari tarjimasi bilan tanishish borasida ba'zi bir qusurlarga duch kelamiz. Ba'zi sonetlarda mazmundan biroz chekinish hollari, ohang va qofiyadagi soxtalik, so‘z tanlash jarayonidagi g‘alizliklar mahorat bilan qilingan tarjimalarga soya solib turadi. Lekin, bu Shekspir sonetlarini tarjima qilishdagi dastlabki urinish bo‘lganidan har qanday tarjimon faoliyatida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tabiiy bir hol, deb o‘ylaymiz. Chunki har bir shoir Shekspir sonetlarini o‘z iste'dodi darajasida tarjima qiladi, albatta. [4,6]

Keyingi yillarda o‘zbek she'riyatida ham sonetlar keng quloch yoydi. Bu esa sonet janrining barcha zamonlar va xalqlar uchun birdek xizmat qilishini ko‘rsatib turuvchi dalildir.

Shoir va tarjimon Yusuf Shomansur buyuk Shekspirning sonetlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, yangi ijodiy pog‘onaga ko‘tardi va madaniyatimiz xazinasini boyitishga ulkan hissa qo‘shdi.

Nihoyat, O‘zbekiston xalq shoiri, zahmatkash tarjimon Jamol Kamol Shekspirning o‘n ikki dramasini ona tilimizga o‘girib xalqimizga tuhfa ayladi, sonetlarning asliyat matnidan ilk tarjimasini nihoyasiga yetkazib, nashr qildirdi.[2,195]

Asliyatga ham, tarjimaga ham baho berish uchun birinchi galda so‘z taqdiri va til musiqasiga tayanish zarur. Har ikki holatda ham she'rning siru sinoatini shular hal qiladi. Asliyatni bilmasdan, uning ma'no ifodasi, musiqa, rang tovlanishlari va obrazli jozibasini ma'lum bir miqyosda tasavvur etmasdan tarjima xususida gapirish – ko‘rmagan, anglamagan narsaga guvohlik berishdek bir chechanlikdir. [2.12]

Jamol Kamol tarjimashunos sifatida Mashriqni ham, Mag‘ribni ham, O‘rta asrlarni ham, Uyg‘onish davrini ham qamrab olgan. Uning fors tilidan qilingan tarjimalari orasida Jaloliddin Rumiy, Abdulla Ansoriy, Hakim Sanoiy, Najmiddin Kubro, Xisrav Dehlaviy, Abdulqodir Bedil she'riy durdonalari ham bor. A.S.Pushkin, Lesya Ukrainka, Yan Raynis, Bualo, Radiy Fish, Jonatan Landau, Bernon Tomas, Bilkiz Aladdin kabi G‘arb hamda rus mualliflarining she'riy va diniy-falsafiy asarlari Jamol Kamol tarjimasida o‘zbek tilida jaranglagan.

Shekspirning 12 ta asosiy dramatik asarlarining ingliz tilidan, Shayx Farididdin Attorning uch jildli mumtoz asarlarini fors tilidan o‘zbek tiliga va boshqa ko‘plab tarjimalar Jamol Kamolning ulkan xizmatidir. Bu o‘rinda Jamol Kamolning tarjimalari o‘zbek kitobxonini jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishtirib qolmasdan, ayni paytda ular o‘zbek zaminida tarjimonlar uchun mahorat maktabi vazifasini ham o‘tayapdi. Jamol Kamol tarjima san'atining eng yuksak cho‘qqisi - U.Shekspirning

“Sonetlar”idir. Ushbu tarjimalarini mutolaa qilar ekansiz, siz ularning g‘oyat mukammaligidan hayratlanibgina qolmasdan, balki mazkur she’riy satrlarni go‘yo U.Shekspir o‘zbekcha bitgandek his etasiz:

24-sonet:

Mening ko‘zim bo‘lib usta, o‘ymakor,
Solmish suvratingni ko‘ksimga, qara.
Men jonli gardishman suvratingga, yor,
San’atning san’ati - kengish manzara.
Sen ustaga boqib, san’atin ko‘rgil,
Ko‘ngil ko‘ksimdagi timsoling sanam.
Ko‘nglim do‘konida suvrating turur,
Oynaband etilmish ko‘zlaring bilan.
Men senga termulib, suvrating chizgum,
Ne baxtkim, ko‘zlaring ko‘zimga tutash.
Ko‘zlaring orqali gohida bir zum
Mening yuragimga mo‘ralar quyosh.
Garchi ko‘zlaringni ko‘zlarim ko‘rar,
E voh, yuragingni ko‘rolmas ular... [2,24]

Sonetlarda she’riy tilning tabiiyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, Jamol Kamol keng lirik ko‘lam, ulkan til boyligiga ega bo‘lganligi sababli har bir so‘zni kerak joyida aniq qo‘llay olgan. Shu bilan birga, u ba’zi “jimjimador” so‘zlarni ishlatishdan, tabiiy satrlarga ularni yaltiroq “yamash”dan o‘zini olib qochadi. Shu sababli, Jamol Kamolning she’riy ijodiyotida U.Shekspirning ko‘pgina sonetlari alohida o‘rin tutadi. Biz U.Shekspirning bu sonetlariga go‘yo shaffof kristallar orqali nigoh tashlayotgandek bo‘lamiz. Ular asliyat nusxasi emas, balki mustaqil ijod mahsulidir. Jamol Kamolning tarjimalari faqat asar asliyatining aksi emas, balki o‘zbek she’riyatining boyligidir. [3,389]

Marshak Shekspirni rus klassik she’riyatining shubhasiz tan olingan sevimli ustalarining usulida tarjima qilgan. U o‘tmishdoshlaridagi tarjimaga oid faoliyatsizlikni yengib o‘tdi. Bir paytlar Shekspir ularga tenglashgan, ammo XVI asr sonetchilarini hozir hech kim tanimaydi, chunki ular o‘ziga xos romantizmdan mahrum ijodiy namunaga ega emas. [5,46] Marshak tarjimalarida rus klassikasi tilida gapirgan ingliz shoiri rus o‘quvchisining ongida vazmin, hamohang donishmand va o‘tmishning ulug‘ madaniyatini ulug‘vor klassik adibi bo‘lib gavdalangan: xuddi adabiyot tarixida aqidaparast klassisizm tarafdorlari birgina Shekspir nomini eshitganida qahr-g‘azabga tushmagandek. Chunki ular Shekspir ijodini yuksak klassika qonuniyatlarini toptash bilan teng, deb qabul qilishgan. Yusuf Shomansur tarjimalarida Marshakning ushbu uslubini payqash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Biz bu yerda sharq va g‘arb

she’riyatining bilimdoni, yetuk shoir-tarjimon Yusuf Shomansur tarjimasini aslo kamsitmoqchi emasmiz. Shoir o‘z tarjimasini ruschadagi S.Marshak variantiga yaqinlashtirishga uringan. Jamol Kamol bo‘lsa o‘z tarjimasini bevosita asliyatdan amalga oshirgan. Shu bois, uning tarjimasida asliyat mazmuni aniqroq ifodalangan.

Jamol Kamol Shekspirni adabiy odatiy muhitda tarjima qilgan. Bu o‘z navbatida o‘quvchi uchun notanish, ba’zan tushunarsiz, ba’zan esa yoqimsizdir. Bu mutlaqo boshqa uslub – uning, tarjimonning uslubi. Klassikadan farqli o‘laroq uning yozish tarzi hanuzgacha o‘quvchi qalbiga yo‘l topayapdi. Bu tarjima shakliga o‘tib Shekspirning yangi qirralari ochildi – darg‘azab, jonsarak, kuchli taassurot qoldiradigan, jo‘shqin obraz. Jamol Kamol bizga o‘sha eski, hech kim daho deb tan olmagan, klassika qonun-qoidalarini bilmagani uchun qoralangan Shekspirni eslatadi, deyishimiz mumkin. Ancha-muncha davrning o‘tishi bilan adabiyot tarixida eski ko‘rinish unutildi. Shunchalar unutildiki, endi biz tarjimalardagi so‘zlashuv ohanglari, nutqdagi oddiyliklarni buyuk klassikaga munosib emas, deb qabul qilamiz. Yo‘q, bu yerda boshqa narsa: Jamol Kamol Shekspirda bizning zamondoshimizni ochib beradi. Hayratlanarlisi shundaki, ammo bunday Shekspirni uning vatandoshlari ham qabul qilmaydilar, chunki uning tili haddan ziyod eskirgan.

Har xil va shunday buyuk so‘z ustalarini solishtirib, ularning tarjimalari, hammasidan tashqari bir madaniyatdan ikkinchisiga tarjima qilinganini ko‘ramiz. Shuning uchun biz yana bir bora badiiy tarjimani adabiyot madaniyatida noyob hodisaligiga, uning yutuqlarini cheksiz ijodiy qayta tirilishga qodirligiga ishonch hosil qilamiz. Yangi davrning madaniy tilining tarjima qilinadigan kuchi esa, zamonlar suhbatini ijodiy o‘tkazib beruvchi vosita sifatida ma’suliyatni o‘z zimmasiga oladi va davrlar osha badiiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Шекспир У. Сонетлар. Русчадан Ю.Шомансур таржимаси. Т., 1978, 7-190 б.
2. Шекспир В. Сонетлар. Инглиз тилидан Ж.Камол таржимаси. Т., 2010, 121-195б.
3. Акмал Саидов., “Шеърият, само фарзанди мутлақ куч.”, // Қиёсий адабиётшуносликка кириш.// Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. Б. 386-403.
4. Холбеков М.Н. Шекспир бепоён....// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009, 27 февраль. 67 б.
5. Холбеков М.Н. “Ишқинг сақлагувчи кўксим беқалқон, ёхуд ”Шекспирнинг хуштаъб сонетлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати., 2009. 10 июль, № 28. Б. 46.

TARJIMA SAN’ATINING ZALVORLI YUKI

***Shermurod SUBHONOV**, TDShU, o‘qituvchi*

Biz o‘zbeklar azaldan nihoyatda nazokatli xalqmiz. Boshqa millatlardan farqimiz hamda o‘ziga xos jihatimiz ham botiniy, ham zohiriy mushtarak go‘zallikka katta e’tibor berishimizdir. Bu bizning urf-odatlarimizdan tortib qiyofamiz – kiyinishimizu qurayotgan uyimizning imoratigacha shunday. Mamlakatimiz hududidagi tarixiy obidalar xoh u ko‘shku saroy bo‘ladimi yoki madrasa-yu maqbara bo‘ladimi barcha mahobatli me’moriy yodgorlik inshootlaridagi ichki va tashqi naqshinkor zebu jilolarning bugun ham ko‘rk, tarovat taratib turishining boisi ham shunda. Qolaversa, O‘rta Osiyo mintaqasining, nafaqat jug‘rofiy o‘rni, shu bilan birga, mo‘’tadil iqlimi ham bunga musoiddir. Sohibqiron Amir Temurning qalblarda g‘urur va iftixor tuyg‘usini jo‘shtiruvchi “Kimki kuch va qudratimizni bilmoqchi bo‘lsa, biz qurdirgan binolarga boqsin” deya qilgan shohona xitoblari bunga yana bir dalildir. Xullas, bu moddiy va ma’naviy go‘zalliklarning barchasi, alal-oqibat, milliy madaniyatimizning ko‘zgusi bo‘lmish ona tilimizda o‘z in’ikosini topadi.

Kezi kelganda shuni ham aytib o‘tsak: zabardast shoir Maqsud Shayxzoda tomonidan 1962 yilda, sinfiyligidan qat’iy nazar, turk tilidan mahorat bilan o‘girilgan “65 she’r” to‘plami uchun yozib bergan so‘zboshisida Nozim Hikmat o‘zbek kitobxonining badiiy saviyasiga bo‘lgan hurmat va ehtiromini ming bir istihola-yu andisha bilan quyidagicha e’tirof etadi: “O‘zbek she’r o‘quvchisining didi yuksakdir. Bularning barchasini bilaman, bilganim uchun ham uning qarshisiga yuragimni hovuchlab chiqmoqdaman.”

Mustaqillikdan so‘ng ijtimoiy madaniy hayotimizda, qolaversa, milliy madaniyatimiz tarixida ro‘y bergan muhim voqeliklardan biri “Jahon adabiyoti” nufuzli jurnalining ta’sis etilishi bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Zero, ushbu jurnalning say-harakati tufayli yurtdoshlarimiz jahon adabiyotining sara asarlarini ona tilimiz –o‘zbek tilida o‘qib bahra olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Darhaqiqat, o‘ziga xos dunyoqarashi-yu keskin fikrlari bilan dunyo jamoatchiligining diqqat e’tiborini tortgan hamda atrofida hali-hanuz turlicha ziddiyatli mulohazalar bildirilayotgan murakkab taqdir egasi turk yozuvchisi O‘rxon Pamuqning aftobiografik tarzidagi “Istanbul: xotiralar va shahar” romani tarjimasi “Jahon adabiyoti” jurnalining 2008-yilgi oktyabr-dekabr hamda 2009-yilning yanvar oyi sonida chop etilishi ko‘pchilik qatori meni ham quvontirdi. Chunki Shvesiya Qirolligi Akademiyasi matbuot anjumanida aytib o‘tilganidek *“Ona shahrining g‘amgin ruhiya-*

tini aks ettirishda madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarning yangi qirralarini topgan” muallifning xalqaro nufuzli Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilgan mazkur romanini o‘zbek tilida o‘qishni ko‘pdan beri orzu qilardim. Ayniqsa, mazkur tarjima qardosh xalqlar yoki chet el davlatlari bilan o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik uyoqda tursin hatto adabiy aloqalarga ham shubha-yu gumon – yot ko‘z bilan qaralgan o‘sha mash’um sobiq sho‘rolar tuzumi davridayoq, “Hozirgi zamon turk she’riyati” (G‘afur G‘ulom nashriyoti 1980) tarjimalar to‘plami hamda “Asr ovozi” (G‘afur G‘ulom nashriyoti 1988) to‘plamidan joy olgan jahon she’riyati namunalaridan qilgan nafis tarjimalari bilan o‘zbek she’r muhiblarining qalbidan chuqur joy olgan shoir Miraziz A’zam tomonidan amalga oshirilganini bilib, ko‘nglimda tag‘in bir iliqlik paydo bo‘ldi. Biroq, ne afsuski, mening bu quvonchim uzoqqa cho‘zilmadi. Sababi... To‘g‘ri, men tarjimashunos emasman, ammo o‘zbek hamda turk filologiyasi bo‘yicha olgan sabog‘im haqi-hurmati tarjimada yo‘l qo‘yilgan qator xato va kamchiliklardan ko‘z yumishni ham ma’qul bilmadim.

Avvalo shuni aytib o‘tsak, ehtimol, qardosh yoki chet el she’riyati namunalarini tarjima qilganda, imkon qadar matn vazni va ohangini saqlab qolib, ma’lum darajada tahsinga sazovor bo‘lish mumkindir, ammo muayyan bir nasriy asar tarjimasiga qo‘l urilganda bunday yo‘l bilan olqishga umidvor bo‘lishning sira iloji yo‘q. Chunki nasriy asar tarjimasida asl matn tili tarjima qilinayotgan tilning grammatik qonun-qoidalari, adabiy normalariga to‘la bo‘ysundiriladi. Aks taqdirda na asl matn jozibasiga, na tarjima qilinayotgan til nafosatiga erishib bo‘ladi. Qolaversa, xoh nazmiy, xoh nasriy bo‘lsin har qanday asar tarjimasi ham san’at, to‘g‘rirog‘i ijod mahsuli hisoblanadi. Unga ana shu nuqtai nazardan yondashilmas ekan, ko‘zlangan maqsadga erishish dushvor. Shu ma’noda tarjima san’atining nihoyatda murakkab, mashaqqatli hodisa ekanligini e’tiborga olib, ushbu soha bilimdonlari tarjima zahmatiga yangi bir asar yozish bilan barobar deb e’tirof etishlari bejiz emas, albatta.

“Istanbul: xotiralar va shahar” romani tarjimasi deyarli qoralama, ya’ni so‘zma-so‘z qanday o‘girilgan bo‘lsa, shundayligicha tahrir qilinmay nashr etilgan. Buning natijasida o‘zbek tili grammatik qonun-qoidalari, adabiy til normalaridan yiroq turk tili grammatikasiga xos so‘z birikmalar, izofa, fe’l zamonlari qo‘shimchalari, jumla qurilishining aynan – noo‘rin qo‘llanilishi, shuningdek, bir so‘zning sinonimi bo‘la turib qayta-qayta takrorlanishi kabi ko‘plab tahrirtalab xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganini ko‘ramiz. Yuqoridagi so‘zimizning tasdig‘i sifatida tarjima asarining ilk jumlalariga e’tiborni qaratsak:

“Istanbul ko‘chalarining ichkarisidagi yerda, biznikiga o‘xshagan bir boshqa uyda qosh-ko‘zidan tortib og‘zi-burnigacha hamma a’zosi bilan mening o‘xshashim, egizim, hatto xuddi o‘zimday bir boshqa O‘rxon yashashiga bolalikdan boshlab uzoq yillar aqlimning bir chekkasida inonib yurdim. Bu fikr ilk bora qaerdan va qanday qilib menga kelib qolganini eslayolmayman”.

Bizningcha, ushbu jumlalarni quyidagicha tahrir qilishga zaruriyat bor: *“Istanbul ko‘chalarining birida biznikiga o‘xshash bir boshqa uyda qoshu ko‘zidan tortib og‘zi-burnigacha hamma a’zosi menikiga mengzagan, egizim, hatto xuddi o‘zimday bir boshqa O‘rxon istiqomat qilishiga bolaligimdan beri uzoq yillar inonib yashadim. Bu fikr xayolimga ilk bora qaerdan va qanday kelib qolganini eslay olmayman”.*

Boshqa bir o‘rinda ham xuddi shunday uslubiy xatolikka yo‘l qo‘yilganini ko‘ramiz: *“Qor bolaligim Istanbulining ayrilmas bir qismi edi”*. Ushbu jumla “*Qor Istanbulda kechgan bolaligimning ayrilmas bir parchasi edi”* tarzida tarjima yoxud tahrir qilinganda yanada to‘g‘riroq bo‘larmidi?!.

Mutarjim jurnalning 2008 yil oktabr soni 17-sahifasi ostida « *Maso* – arabcha so‘z bo‘lib, *stol* ma’nosida ishlatiladi» deb izoh beradi. Holbuki, *masa* – yunoncha so‘z bo‘lib turkchada *masa* tarzida yoziladi va talaffuz qilinadi. Shu ma’noda mazkur so‘zni stol yoki kursi deb tarjima qilish o‘rniga “*maso*” ko‘rinishida o‘girilishi tag‘in bir xatolikka sabab bo‘lgan.

Turk udumiga ko‘ra xotin kishining eriga «Ko‘rdingmi, Oydin nima deganiga qara” qabilida murojaat qilishi tabiiy hol hisoblanadi. O‘zbek mentalitetiga yot bo‘lgan bunday murojaatni tarjimada aynan o‘girilishini qanday izohlash mumkin.?!

“Istanbul: xotiralar va shahar” romanining asliyati bilan o‘zbek tilidagi tarjima matni qiyoslanganda turk tilidagi juda ko‘p so‘zlar o‘zbek tiliga xato tarjima qilinganining guvohi bo‘lamiz. Misol uchun turk tilida *xavotir, qiziqish, istak, xohish* ma’nolarini bildiruvchi – **merak** so‘zining o‘zbek tiliga - maroq; *ziyoli, ma’rifatli* ma’nolarini bildiruvchi – **aydın** so‘zining o‘zbek tiliga - oydin; *ko‘nikmoq, odatlanmoq, o‘rganib qolmoq* ma’nolarini bildiruvchi – **alıshmak** so‘zining o‘zbek tiliga - olishmoq deb, ya’ni asl ma’nolari chetda qolib, xato bir tarzda o‘girilishi, shuningdek, *vulqon* ma’nosini bildiruvchi **yanardağ** so‘zining o‘zbek tiliga - yonartog‘; *nur, yorug‘lik, chiroq* ma’nolarini bildiruvchi - **ışık** so‘zining o‘zbek tiliga - ishiq; *qishloq* ma’nosini bildiruvchi - **köy** so‘zining o‘zbek tiliga – ko‘y; ye*ngil, oson* ma’nolarini bildiruvchi – **hafif** so‘zining o‘zbek tiliga xafif; *omborxona* ma’nosini bildiruvchi - **depo** so‘zining o‘zbek tiliga – depo; *hushtak, signal* ma’nolarini bildiruvchi - **düdük**

so‘zining o‘zbek tiliga - duduk tarzda, ya’ni tarjima qilinmay aynan qo‘llanilishi tarjima sifatining yanada pasayishiga olib kelgan.

Darvoqe, frazeologik ibora, turg‘un birikma, maqol, juft so‘zlar har bir tilning o‘ziga xosligini ta’minlovchi unsurlar hisoblanadi. Turk tilida **siyah beyaz** shaklga ega bo‘lgan juft so‘zning o‘zbek tilidagi muqobili oq-*qora* bo‘lishiga qaramay, asarda 5-bo‘limning nomi hisoblangan hamda sahifalararo 57 bor takrorlangan ushbu juft so‘z tarjimada teskari: *qora-oq* holida o‘girilgan. Romanning turk tilidagi matnida sifatdan oldin qo‘llanilib, kuchaytiruv hosil qilgan **ne güzel,** ya’ni naqadar go‘zal ma’nosini bildiruvchi so‘zning o‘zbek tiliga *na* inkor yuklamasi holida tarjima qilinishi oqibatida jumladagi asl ma’no jiddiy o‘zgarishga uchragan:

“G‘arblik kuzatuvchining shaharni teran bir tarzda tanqid (aslida tadqiq Sh.S) qilib yerga urgan maqolasini unga qo‘shilib o‘qish istagi menda ham bordir va bu turdagi maqolalarni o‘qimoq Istanbulning na go‘zal, na g‘alati, na hayratlanarli va o‘ziga xos bir joy ekanligini takrorlab turgan Pier Loti kabi yozuvchilarni o‘qishdan ko‘ra zavqliroqdir.”

Tarjimada isim va joy nomlari yozilishida ham qat’iy bir izchillik, tartibga amal qilinmaganini ko‘ramiz. Asl matndagi tarixiy shaxslar: **Tanpınar –** Tanpinar o‘rniga Tongpinar, **Yavuz –** Yovuz o‘rniga Yavuz, **Bayar –** Bayar o‘rniga Boyor, shuningdek, tarixiy obida **Ayasofya** – Ayasofiya bir o‘rinda Ayo-Sofiya, boshqa bir o‘rinda esa Ayya-Sofiya ko‘rinishida o‘girishga bilmadim qanday hojat bor ekan?!

Xullas, har qanday asarning o‘qilishi ravon hamda jumla ifodalari badiiylikka, ekspressiv bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgandagina kitobxonni o‘z ortidan yetaklay oladi. Bu qoida tarjima asarlari uchun ham asosdir. Aks holda “surnaychidan bir puf” qabilida ish ko‘rib, o‘quvchini aro yo‘lda qoldirishdan hech qanday naf yo‘q.

Chunonchi, tarjima asari jiddiy ko‘zdan kechirilib tahrir qilinganda *“Devordagi rasm menligimni aytganlarida”, “ Men tug‘ilishdan ikki yuz yil oldin”, “o‘quvchilardan olganim ma’qullashlardan ham ko‘ra”, “U esa sizning diqqatingga bog‘liq, ey, o‘quvchi”* kabi g‘aliz va tumtoq jumlalar jurnal sahifalaridan joy olmasmidi?!.

Yozishni hayotining asosiy tamoyili deb bilgan O‘rxon Pomuqning barcha muxlisu muxoliflari tomonidan yakdillik bilan e’tirof etilgan eng muhim yutug‘i adib qanday mavzuga qo‘l urmasin, tildan nihoyatda ustalik bilan foydalanib, asarga joziba baxsh etishidir. Asarlari jahonning qirqdan ortiq tillariga qayta va qayta tarjima qilinib, bir qancha xalqaro nufuzli sovrinlarga noil ko‘rilishining sabablaridan biri ham shunda. Tarjimada ana shu jihatlarga e’tibor qaratilganda nur ustiga nur bo‘lardi.

XITOY TILIDAGI 成语 CHENG YU-TURG‘UN IBORALARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING BA’ZI MASALALARI

***Tair AKIMOV**, TDSHU, o‘qituvchi*

Xitoy frazeologik birliklari deyilganda, xitoy xalqining asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifodalari, tasviriy vositalari hamda ijodiy tafakkurining serqirraligini o‘zida mujassam etgan leksik meros tushuniladi. Bu birliklarda insonning tabiat va ijtimoiy hodisalarga munosabatlari muxtasar hamda mukammal tarzda jamlangan bo‘lib, ular nutqqa ko‘rkamlik, jozibadorlik va obrazlilik beradi, hamda so‘zlovchi va tinglovchiga estetik did baxsh etadi.

Xitoy tilidagi frazeologik birliklar(FB) G‘arb va Sharq xitoyshunos olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilib kelayotganligiga qaramay, bu mavzu hali o‘z zamirida ko‘plab xazinalarni saqlab turganligi sir emas. Frazeologik birliklar muayyan xalqning o‘tmishi, yashash tarzi, madaniy boyliklari, urf-odatlari, tabiatga, borliqqa, voqelikka munosabatlari, olamni empirik bilishga intilishlari kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Tarjimashunos olim G‘.Salomov ta’biricha: “*Jahondagi barcha tillarda yaratilgan ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z va idiomalar tabiat hodisalari, ota-ona-bola, qaynona-kelin munosabatlari, yer, tog‘, daryo, qarama-qarshilik va ziddiyat, shakl va mazmun, rost va yolg‘on, manmanlik va kamtarlik, ta’lim va tarbiya, fe’l-atvor va xulq, donolik va nodonlik kabi bir qancha tushunchalarni aks ettiradi. Iboralarda har bir xalqning madaniyati va urf-odatlari yaqqol ifoda etishi bilan ajralib turadi va umuminsoniy xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Chunonchi, umuminsoniy axloq, umuminsoniy fazilat, umuminsoniy burch va majburiyat mavjuddir. Bu esa xalqlar tillarida ham mushtarak hodisalar va o‘xshashliklar bo‘lishiga olib keladi*” [4,248-249.].

Rus tilshunos olimi V.A.Maslova “*Tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti jamlangan qimmatli manba bo‘lib, unda xalqning afsonalari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, odob-axloqqa oid fikrlari va hokazolar mujassamlashgan*” [3,80.], - deb yozgan.

Tilshunos olimlarning fikricha, inson o‘z nutqida 800 ga yaqin ibora, maqol, matal yoki aforizmlardan u yoki bu darajada foydalanadi. Frazeologik birliklar orqali milliylikning aks ettirilishi masalasi tilshunoslikda o‘rganilgan. Barcha tillardagi hikmatli so‘zlar va iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, avlod-

dan-avlodga meros bo‘lib kelmoqda. Shu sababdan ular kelajak avlodlar uchun bebaho meros hisoblanadi. Frazeologik birliklar har qanday tilda til birligi maqomiga ega bo‘lib, so‘z kabi uning lug‘at boyligini tashkil etgan holda tilning rivoji va o‘sishiga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar nutqda tayyor birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklar ayni bitta zukko fikrni ifodalashga xizmat qiladi, gapda esa gap bo‘lagi vazifasini bajarib keladi.

Iboralar kishilar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalaydi. Tilda frazeologizmlarning qanchalik ko‘p bo‘lishi o‘sha til imkoniyatlarining shunchalik kengligidan dalolatdir. Tildagi turg‘un iboralar- muayyan lahzada so‘zlovchi tarafidan mohirona aytiluvchi fikr, deyish mumkin. Iboralar tildagi yashovchanlik xususiyatini o‘zida aks ettiradi.

Xitoy tilshunosligida frazeologizm mavzusi to‘liq o‘rganib chiqilgan emas. Go Sin-ining yozishicha: “*Xitoy tilshunosligida frazeologiya hozirga qadar alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan hamda leksikologiyaning bu bo‘limi hali maxsus nomga ega emas*” [1,4.].

Tilshunos olim A.E.Mamatov qat’iy qilib ta’kidlagan: “*Frazeologiyani “keng” va “tor” ma’noda tushunish noto‘g‘ri, uni bitta ma’noda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat’iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg‘un so‘zlashuv formulalarimi, “qanotli so‘zlar”mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta’rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya’ni tuzilishi jihatidan so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘lgan, obrazli, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart*” [2,212.].

Tilshunos olim X.X.Hamidov **“Turk frazeologiyasi masalalari”** degan ilmiy asarida turg‘un iboralarni keng va tor tushunish haqida o‘z fikrini quyidagicha bayon qilgan: “*Frazeologiya –tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Uni keng va tor ma’noda tushunish mumkin. U keng ma’noda, turg‘un so‘z birikmalarning barcha turlarini anglatadi. Shuningdek, frazeologiya deganda so‘zlarning semantik bog‘lanishi ham anglashadi. Frazeologiya tor ma’noda qaralganda, ba’zan uning qamrovi toraytirilib yuboriladi va faqat idiomalar ko‘zda tutiladi. Agar masalaga bunday nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, unda katta miqdordagi obrazli ma’noga ega bo‘lgan turg‘un birikmalar frazeologiya doirasidan chiqib ketishi mumkin*”[6,13.].

Xitoy tilidagi manbalarda “熟语 shú yǔ- frazeologik iboraga na ilmiy tekshirishlar jarayonida, na adabiyotlarda aniq, ravshan tushuncha berilgan emas, lekin “熟语 shú yǔ” ga mansub ko‘p nomlar keltirilgandir. Misol: (成语 chéng yǔ- ibora), (古语 gǔ yǔ- qadimiy so‘zlar),(常言 cháng yán- maqol-matallar), (谚语 yàn yǔ- maqol), (格言 gé yán-aforizmlar), (惯用语 guàn yòng yǔ-ko‘p qo‘llaniladigan so‘z birikmalari, uch ieroglifdan tashkil topgan birliklar), (习语 xí yǔ -odatdagi gaplar), (习用语 xí yòng yǔ-odat tusiga kirgan so‘zlar), (俗语 sú yǔ-matal), (俚语 lǐ yǔ- vulgarizm, sleng so‘zlar), (歇后语 xiē hòu yǔ-jumboq so‘zlar, ya’ni topishmoqlar),(缩脚语 suō jiǎo yǔ- qisqartirilgan so‘zlar), (俗话 sú huà-so‘zlashuv tilidagi qochirmalar), (俏皮话 qiào pí huà- ta’na, kinoya, istehzoli so‘zlar), (警句 jǐng jù-qanotli so‘zlar) (奇说 qí shuō-paradokslar) va hokazolar”.

Xitoylik tilshunos olim 孙维张 Sūn wéi zhāng 成语 chéng yǔ haqida shunday fikr bayon qilgan: 成语作为熟语的一个小类，它自然具有熟语所拥有的共同特点。这些特点是熟语同其它语言材料，包括词，词的自由组合，术语性固定组合等相比较而呈现出来的，这是熟语的共性。但成语又是熟语的一个小类，它除了同其它熟语有一定的共性以外，还有自己的特点，成语作为熟语的一个小类而独立存在[7,75.]. Tarjimasi: “*成语 chéng yǔ - 熟语 shú yǔ ning bir kichik bo‘lagi, u 熟语 shúyǔ bilan tabiy o‘xshashlik xususiyatlariga egadir. Ushbu xususiyatlari 熟语 shú yǔ kabi o‘ziga xos til manbalarini, so‘zlarni qamrab olgan bo‘lib, erkin so‘z birikmalaridan tashkil topgan, turg‘un so‘z birikmasi degan atama shakllangan. Biroq, 成语 chéng yǔ - 熟语 shúyǔ ning bir kichik bo‘lagi bo‘lib kelishidan tashqari, yana o‘ziga xos xususiyatlarga ega , 熟语 shú yǔ ning bir kichik bo‘lagi sifatida mustaqildir* ”.

Xitoy tilidagi 成语 chéng yǔ- turg‘un ibora asosan to‘rt komponentdan tashkil topgan bo‘ladi.Ushbu to‘rt kompanentdan tashkil topgan turg‘un ibora chuqur mazmunga ega bo‘lib, qadimgi tarixiy afsonalar, turli davrdagi turli hikoyalar, budda dini rivoyatlari va she’rlardan kelib chiqqanligi sababli, ularning ba’zilarini ierogliflarning ma’nosidan tuhuib olish mumkin bo‘lsa, ba’zilarini ularning kelib chiqish tarixiy hikoyasini bilmasdan tushunib bo‘lmaydigan murakkab birlikdir. Bunday murakkab birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ancha-muncha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ko‘pgina olim va adiblar tomonidan frazeologik iboralar, maqol, matal va idiomalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish mushkul va murakkab ish ekanligiga urg‘u berilishi mubolag‘a emas.

Xitoy tilidagi 成语 chéng yǔ- turg‘un iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda quyidagilarga e’tibor berish kerak.

1. So‘zma-so‘z tarjima qilish:

Xitoy tilidagi ba’zibir iboralarni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin. Misol: “趁热打铁 chèn rè dǎ tiě-Temirni qizig‘ida bos”;

“隔墙有耳 gé qiáng yǒu ěr - Devorning ham qulog‘i bor”;

“问道于盲 wèn dào yú máng- Ko‘rdan yo‘l so‘ramoq”;

“嘴甜心苦 zuǐ tián xīn kǔ - Tili shakar, dili zahar; Tili boshqa, dili boshqa;

“火上浇油 huǒ shàng jiāo yóu – O‘tga moy purkamoq”;

Bu iboralar xitoy va o‘zbek tillarida mavjud, shuning uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa har ikki millat xalqiga tushunarli bo‘ladi.

2. Xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganda muqobil varianti-ni topish:

“牛头不对马嘴 niú tóu bú duì mǎ zuǐ- Sigirning boshi otning og‘ziga to‘g‘ri kelmabdi” yoki “驴唇不对马嘴 lǘ chún bú duì mǎ zuǐ- Eshak-ning labi, otning og‘ziga to‘g‘ri kelmabdi; otning jugani eshakka to‘g‘ri kelmabdi ” iborasiga o‘zbek tilidagi “Bog‘dan so‘rasa, tog‘dan javob bermoq” iborasi muqobil variant bo‘la oladi. Bu ibora biror narsani so‘rasa, beparvolik qilib, umuman boshqa narsaga javob beradigan befahm va mavzuga to‘g‘ri kelmaydigan gaplarni gapiradigan odam-larga nisbatan qo‘llaniladi.

三个和尚没有喝水 sān gè hé shang méi yǒu hē shuǐ - so‘zma-so‘z tarji-masi: “*Uchta rohibning ichishga suvi yo‘q*” muqobili “*San solar-man so-lar, otga bedani kim solar?” Bu iboraning kelib chiqish hikoyasi quyi-dagacha: “Bir rohib ibodatxonada yashar ekan. Ibodatxona tog‘ning te-pasiga joylashgan, suv esa tog‘ning pastida oqarkan. U o‘zi suv olib kelib ovqat , kir yuvish , ichishga ishlatar ekan. Kunlarning birida yana bitta rohib kelib unga qo‘shilibdi. Bu ikki rohib suv olib kelish uchun bir birlariga sansalorlik qilishar ekan. Uchinchi rohib bu chiroyli manzarani ko‘rib shu yerda qolsam sizlar bilan birga yashasam bo‘ladimi deb so‘rabdi. Ikki rohib bo‘ladi deb javob beribdi. Uch rohib idishdagi suvni ichib bo‘lgandan so‘ng san suv olib kel desa, san suv olib kel deb bir birlariga sansalorlik qilib suvsiz qolishibdi*”. Shundan so‘ng bu ibora dan-gasalarga nisbatan qo‘llanaladigan bo‘libdi. G‘.Salomov: “*Ikki tilda, kontekstsiz ham, ma’nolari bir-biriga monand va bir-birining o‘rnini qoplay oladigan maqol, matal va idiomalarni “ekvivalent (muqobil) birikma*” [4,266.] deb atashni tavsiya etadi. Masalan:

铁树开花 tiě shù kāi huā- so‘zma- so‘z tarjimasi: “ Temir daraxt gul-laganda” o‘zbekcha muqobili: “Tuyaning dumi yerga tekkanda”

要想我答应你，除非铁树开花！ [8,1473.] yào xiǎng wǒ dāying nǐ, chú fēi tiě shù kāi huā! -Senga va’da berishni o‘ylab ko‘rishim kerak, faqat temir daraxt gullaganda!

铁公鸡 tiě gōngjī – so‘zma- so‘z tarjimasi: “ temir xo‘roz” o‘zbekcha muqobili: “Qishda qor so‘rasa ham bermaydi; xasis”.

这个人是有名的铁公鸡,一毛不拔 zhè ge rén shì yǒu míng de tiě gōng jī, yì máo bù bá - Bu odam uchiga chiqqan qizg‘anchiq (xasic), undan bir tiyin ham chiqmaydi.

他是单位里有名的铁公鸡—一毛不拔 Tā shì dān wèi li yǒumíng de tiě gōng jī —yì máo bù bá-U ishxonamizdagi mashhur temir xo‘roz -bir tiyinning ustida tik turadi, deb tarjima qilinsa,o‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun,”U ishxonamizda uchiga chiqqan xasis, bir tiyinning ustida tik turadi”deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

今天是什么日子啊?你这个铁公鸡怎么会抢着付钱呢? Jīntiān shì shénme rì zi ā? Nǐ zhè gè tiě gōng jī zěnme huì qiǎng zhe fù qián ne?- Bugun kun qayoqdan chiqdi? Qanday qilib,temir xo‘roz pul to‘lashga shoshilyapsiz?

“*Eshakni eslasang qulog‘i ko‘rinadi*” iborasining xitoycha muqobili “说曹操, 曹操到 shuō cáocāo, cáocāo dào-Saosaoni gapirib tursang, Saosao yetib keladi”. Bu ibora haqida xitoyliklarda bunday gap ham bor: 说曹操, 曹操到，孙悟空都没有这么快. Sáocāo ni eslasang, u bir pastda yetib keladi, hatto Sūn Wùkōng ham, bunday tez kela olmaydi.

“*Eshakka kuching yetmasa ur to‘qimini*” degan iboraning xitoycha ekvivalenti “打不动牛打 dǎ bú dòng niú dǎ chē(*sigirni urib yurgaza olmasang, ur aravani*)”. O‘zbek xalqi kundalik turmush hayotida eshakni ishlatib tirikchilik qilgan, eshakning o‘jarligi tutib qolsa yurmasdan, egasini qiynagan, shuning uchun o‘zbeklar biror ishni qila olmasa ushbu iborani qo‘llaydi. Xitoyliklar esa kundalik turmush hayotida sigirni ishlatib tirikchilik qilgan, sigir charchaganda egasiga quloq solmasdan, ishni bajarishdan bosh tortadi, o‘shanda egasi jahli chiqib aravani urib uni haqoratlagan. Bu ibora gapga quloq solmay, berilgan ishni bajarmay o‘zi bilganini qiladigan, o‘jar odamlarga nisbatan qo‘llaniladi. Yana, biror kishi begunoh odamdan alamini olishga harakat qilsa yoki alamini olsa, shunda, begunoh odam, shu kishiga nisbatan bu iborani aytadi.

“Otiga kuchi yetmagan-shotini tepkilaydi” [5,326.] - Bu ibora majoziy ma’noda o‘zidan zo‘rlarga gapini o‘tkaza olmagan, ulardan gap eshitgan yo zarb yegan odam buning alamini o‘zidan kichik, ojiz bo‘lgan odamlardan olsa, ularning aybi bo‘lmasa ham so‘ksa, koyisa, ursa achchiq kinoya tarzida qo‘llaydilar.

Tarjimada birikmaning ob’ektini o‘rganish uni qaysi yo‘l bilan tarjima qilish lozimligini belgilovchi omillardan biridir. Chunonchi, uni so‘zma-so‘z tarjima qilish kerakmi, o‘zbekcha ekvivalenti yoki muqobili bilan

almashtirish lozimmi, yoki boshqa yo‘llar bilan aks ettirish ma’qulmi degan masalalarni hal etishda birikma ob’ektining ahamiyati katta.

“Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit” “杀鸡骇猴 shā jī hài hóu-tovuqni so‘yib, maymunga ko‘rsatmoq”; “指桑骂槐 zhǐ sāng mà huái- tut daraxtini ko‘rsatib safora daraxtini so‘kmok”[9,88.].

Iboralar har bir millatning yashayotgan muhiti, o‘rmon, tog‘, daryo, qush, jonzotlar bilan ham bog‘likdir. Bunday iboralarni tarjima qilishda ularning yashash tarzi, jug‘rofiyasiga ham e’tibor bermoq zarur.

Xitoy sariq daryosining suvi sariq loy, ichishga yaroqsiz bo‘lganligi sababli iboralarda salbiy ma’noda keladi.

跳进黄河洗不清 tiào jìn huáng hé xǐ bù qīng - so‘zma- so‘z tarjimasi: “Sariq daryoga tushib ketsa, yuvinsa ham toza bo‘la olmaydi”. O‘zbekcha muqobili: “quruq to‘hmat; o‘zini oqlay olmaslik”.

不到黄河心不死 bú dào huáng hé xīn bù sǐ- so‘zma- so‘z tarjimasi: “Sariq daryoga bormaguncha ko‘ngli orom topmaydi”. O‘zbekcha muqobili: “Burniga yemagunicha niyatidan qaytmaslik”.

他自己心里何尝不明白呢，不到黄河心不死罢哩！U o‘zi nega tushunmaydi, burniga yemaguncha to‘xtamaydi!

3.Hayvonlar bilan bog‘liq iboralarning tarjimasi:

乌白马角 wū bái mǎ jiǎo [10,35.] (马角乌白 mǎ jiǎo wū bái - Qarg‘a oqarib, otning shoxi o‘skanda (amalga oshmaydigan ish). O‘zbekchada “Tuyaning dumi yerga tekkanda”.

对牛弹琴 duì niú dàn qín- Sigirning qulog‘iga g‘ijjak chalmoq (Eshakning qulog‘iga tanbur chertmoq).

打马虎眼 dǎ mǎ hǔ yǎn-Otni yo‘lbarsning ko‘z oldida urmoq (Ayyorlik qilmoq; qo‘rqitmoq).

Xitoy va o‘zbek tillarida yomon niyatlik, ichi qora odamlarga nisbatan it obrazi ishtirokida yaratilgan iboralar ko‘p uchraydi. It ishtirokidagi xitoycha iboralar do‘stlik ma’nosida ishlatilmaydi, o‘zbek tilida it insonning do‘stligi haqida iboralar kam uchraydi.

O‘zbek tilida: it azobida; itdan olib, itga solmoq; it kunini boshiga solmoq; it fe’l; itday charchadim; it ham, bit ham; it otasini tanimas; it talashmay ish bitmas; it cho‘ponning qo‘ldoshi, yolg‘izlikda yo‘ldoshi; it vafo xotin jafo; itdek vafodor bo‘lmoq;

So‘zlashuvda “it” so‘zi ko‘proq haqoratlashda qo‘llanadi:

狗嘴里吐不出象牙 gǒu zuǐ lǐ tǔ bù chū xiàng yá- It og‘zidan filning tishi chiqmas (yomonning og‘zidan yaxshi gap chiqmas);

狗腿子 gǒu tuǐzi -Itning oyog‘i (laganbardon; axmoq)

癞皮狗 lài pí gǒu- Pastkash; nomussiz; sharmanda

狗屁不通 gǒupì bù tōng- Hech narsa bilmaslik

狗咬狗 gǒu yǎogǒu- It it bilan urishdi

人不如狗 rénbùrúgǒu-Itdan battar odam

狗眼看人 gǒu yǎn kàn rén- Itning ko‘zi bilan qaramoq(yomon ko‘z bilan qaramoq)

人面狗心 rén miàn gǒu xīn- Qora niyat ; it fe’l

Xitoyning faqat Guylin shahrida tub aholisigina o‘ziga yaqin do‘stini “狗 gǒu -it (do‘st) ”, “狗过来 gǒu guò lái -it bu yoqqa kel (deb do‘stiga murojat qilishadi, begonalarga bu so‘z aytilmaydi)” .

4. Qush nomlari bilan keladigan iboralar tarjimasi.

Qush nomlari bilan bog‘liq iboralar o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Botirlik, jasurlik- burgut timsolida; yuvoshlik, beozorlik – musicha timsolida; yomonlik, niyati qora- qarg‘a timsolida; birovga taqlid qiladigan odamlarga –to‘ti timsolida; tinchlik -kabutar timsolida keladi.

惊弓之鸟 jīng gōng zhī niǎo- Kamondan hurkigan qush (qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinmoq).

笨鸟先飞 bèn niǎo xiān fēi- Axmoq qush birinchi uchadi (tirraqi buzoq podani bulg‘aydi).

天下乌鸦一般黑 - Osmondagi qarg‘alar odatda qora bo‘ladi (qayerga borsang, qozonning qulog‘i to‘rt; qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi).

5. Odam ismlari bilan bog‘liq iboralar tarjimasi:

Odam ismlari bilan keladigan iboralarni tarjima qilish uchun frazeologik lug‘atlarga yoki iboraning kelib chiqish tarixini va ibora haqida yozilgan hikoyani o‘qib tarjima qilib tushungandan so‘ng tarjima qilish mumkin. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa ma’noni tushuna olmaymiz.

冬烘先生 Dōng hōng xiān sheng-Dōng hōng janoblari (tanimaslik; odobsizlik qilmoq).

叶公好龙 Yè gōng hào lóng- Yè gōng ning ajdarni yaxshi ko‘rishi (yolg‘on xushtorlik).

狗咬吕洞宾 gǒu yǎo Lǚ dòng bīn- Lǚ dòng bīn ni it tishladi (odam tanimaydi; odobsizlik qilmoq ; ko‘zini moy bog‘lamoq).

东施效颦 Dōng shī xiào pín- Dōng shī ga taqlid qilaman deb kulgiga qolmoq (taqlid qilaman deb kulgiga qolmoq). 东郭先生 Dōng guō xiānsheng-Dōng guō janoblari (yaxshilikka yomonlik). 情人眼里出西施 qíng rén yǎn lǐ chū xī shī – sevgan yoriga Xī shī ko‘zi bilan qaramoq (chiroyli chiroyli emas, sevgan chiroylik;sevgining ko‘zi ko‘r).

Xulosa. Iboralarga har bir xalqning madaniyati va urf-odatlari singgan bo‘lib, tarjima qilayotganda o‘sha millatning o‘ziga xos milliy ruhiyatini bi-

lish zarurdir. Xitoy tilidagi frazeologik birliklar murakkab, sermunozara birikmalar bo‘lib, ularni tarjima qilishda bizdan ko‘p izlanishlarni talab qiladi. Tilshunoslikda badiiy ijodiyatda xalq iboralarining qanchalik qimmatli ekanligi, ularsiz nutq quruq va mazmunsiz bir holga tushib qolishiga hech shubhasiz amin bo‘lamiz. Iboralar tilning qadimiy va eskirmas mahsuli sifatida o‘rganib kelingan bo‘lsa-da, hali ularning tadqiq qilinadigan qirralari ko‘pdir. Xitoycha iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qilib yetkazib berish bizning talabalarimizning xitoy tilini mukammal o‘rganishiga ko‘mak beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. 1. Го Синь-и. “Телесный код в китайской фразеологии и его русское соответствие”, Автореферат кандидатской диссертации. –М., 2004. –С.4.

2. Маматов А.Э. “Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари”. Тошкент, 1991й.- 212бет.

3. Маслова В.А. “Введение в лингвокультурологию”, М., 1997. – 80с.

4. Саломов Ғ. “Тил ва таржима”, “Фан” нашриёти 1966й. 248-249-бетлар.

5. Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов “Ҳикматнома” Тошкент, 1990й- 326 бет.

6. Ҳамидов Х.Х. “Турк фразеологияси масалалари”. Тошкент 2019й.- 13бет.

7. 孙维张“汉语熟语学”吉林教育出版社 1989 年 75 页. Sūn Wéizhāng “Хитой тилидаги ибораларни ўрганамиз”, Jílín таълим нашриёти, 1989й. -75 бет.

8. “汉语成语大全 ” 北京 2017 年 614 页. “Хитой тилидаги фразеологик иборалар қомуси” Пекин 2017й.- 1473 бет.

9. 李雅梅, О.Очилов “Ўзбекча- хитойча хитойча- ўзбекча мақол, матал ва иборалар луғати” Пекин халқ нашриёти 2011й.-88бет.

10. 侯君明 “成语典故歌” 金盾出版社 北京 2017 年 35 页. Hóu Jūnmíng “Қўшиқлардаги иборалар” Jīndùn нашриёти Пекин 2017й-35 бет

11. 王若玉“佛教成语的意义变化”第四 届中华成语文论论坛交流论文汇编 2014 年 11 月 苏州大学 84 页.Wáng Ruòyù “Будда динидаги иборалар маъноларининг ўзгариши” Хитой 14чи иборалар матбуот анжумани мақоллар тўплами ноябр. 2014й. -84 бет.

ZAMONAVIY NASR VA SHE’RIY TARJIMA MUAMMOLARI. LINGVOPOETIK TAHLIL MASALALARI (xitoy she’riyati talqinida)

***Dilafruz SADIKOVA**, TDShU, o‘qituvchi*

Badiiy matnda badiiy adabiyotning barcha janriy rang-barangligi aks etadi. Unda hissiyot va estetik did hukmron bo`lib, bayon shakli katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyotda voqelikni mantiqiy idrok etishdan ko`ra, badiiy va hissiy emotsional qabul qilish kuchliroq. Mazmunning qanday shaklda va qay tarzda bayon qilinishga qarab, asarning o`quvchiga ko`rsatadigan hissiy ta`siri va estetik qimmati yuqori bo`ladi. Ushbu omillar tar-

jimondan badiiy asar janri talablariga mos ravishda harakat qilishni, ayniqsa, she`riy matn tarjimasiga katta mas`uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Badiiy matnga lingvopoetik yondashish orqali matnni takrorlanmas, bir butunlik sifatida o‘rganib, so‘z badiiyatining tahlilini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Lingvopoetika sohasi badiiy matnda qanday til vositalari yordamida fikrlar ifodalanishini va o‘quvchiga qanday emotsional-estetik ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Bunday tahlilda asarning syujet-kompozitsion qismi e’tiborga olinishi kerak va matn ortidagi o‘ziga jalb qiluvchi ma’lumotning hajmi matnni izohlash vazifasida keladi. Tadqiqotchi mazmundan shakl tomonga, undan esa, yana mazmun tomonga intilar ekan, badiiy matnda lingvopoetik tahlil metodi qayiq vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyot detallar bo‘yicha jiddiy lingvostilistik tahlilni talab qiladi. Badiiy asar tabiatini aspektlar bo‘yicha va darajama-daraja o‘rganib, kompleks tahlil qilish zarurati bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. *Lingvostilistika* sohasi o‘z metodlari va bajaradigan vazifalariga qarab, badiiy asarning obrazliligini to‘laligicha ifodalash va izohlashga qodir emas. Badiiy asarda so‘z-gap strukturalarini va badiiy-kompozitsion ifodalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur o‘rganish lozim. Buning uchun esa yangi lingvopoetik tahlil qilish bosqichiga o‘tish lozim. Bu bosqichda badiiy matnda til birliklarining metasemiotik xususiyatlaridan foydalanish usullari, ularning muallif fikridagi va asar g‘oyaviy mazmunida tutgan o‘rni haqida tahlil olib boriladi. Bunda lingvostilistikadagi kabi har qanday matndan olingan har qanday parcha tahlilga tortilavermaydi, balki asar butunligicha o‘qib, his qilib bo‘lingachgina uni tahlil qilish jarayoni boshlanadi. Bu tadqiqotchidan madaniy, filologik munosabatda badiiy fikrlash, yozuvchining g‘oyaviy dunyosiga chuqur kirib, uning estetik dunyoqarashi bilan yaqindan tanishishni talab qiladi. Lingvopoetik tahlil o‘tkazishdan maqsad, qanday qilib u yoki bu til birligi(so‘z, so‘z birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallif tomonidan so‘z-badiiylik jarayoniga kiritilishi va qay tarzda u yoki bu o‘ziga xos til birliklari birlashib, estetik ef-fektni hosil qilish holatlarini o‘rganishdan iboratdir.

She`rning ohangdorligi badiiy matn musiqiyligini ta`minlovchi mu-him omildir. Shu nuqtai nazardan she`r arxitektonikasi badiiy matnning janriy mansubligidan xabar beruvchi birinchi ko`rsatkichdir. She’r tarjimasida matnni tashkil etuvchi uch asosiy vosita – vazn, qofiya va ifodalilik musiqiy ohang tufayli o`quvchini o`ziga rom etadi, unga kommunikativ ta`sir ko`rsatadi. Badiiy tarjima nazariyasida ohangni uzatish jarayoni eyfoniya (ohang jilosi), ohang tasviri (suv jildirashi, qo`ng`iroq ovozi, ummon to`lqinlari zarbi kabi tovushli obrazlarni

tasvirlash) va muayyan kayfiyatni hosil qilish vositalari orqali yetkazilgan badiiy zavqni tuyishdan boshlanadi.

Quyida ana shu tobora rivojlanib kelayotgan lingvopoetika sohasiga doir tahlil namunalarini Xitoy she'riyatidan qilingan muallif tarjimalari misolida ko'rib chiqamiz.

"早发白帝城[29]" 李白 Zao fa bai di cheng

朝辞白帝彩云间[30]， Zhao ci Bai di cai yun jian

千里[31]江陵[32]一日还[33]， Qian li Jiang ling yi ri huan

两岸猿声啼不住 Liang an yuan sheng ti bu zhu

轻舟已过万重山。 Qing zhou yi guo wan chong shan

Erta tongdan Baididan yo'l olaman.
Erta tongdan serbulut Baidini tark etaman.
Jiang lingga qaytishchun- oldinda bir kunlik yo'l
Maymun yig'isi tinmas har ikkala tomondan
O'tib bo'ldim o'n minglik og'ir tog'lar yurtidan*.

Bu she'r Xitoyning ma'lum va mashxur shoiri, Tan davrining yirik namoyondasi Li Bo (mil.701-763yy) qalamiga mansub. She'rda erta tong manzarasi, undagi shoirning ko'tarinki kayfiyati namoyon bo'lgan.

早发- zao fa- erta tongdan yo'l olish. 早- zao- tong, erta, juda vaqtli yoki oldindan, uzoq vaqtga degan ma'nolarni anglatadi. U 早晨 (zao chen) ravishi bilan ma'nodosh. 发 fa 出发(chu fa) fe'lining qisqartirilgan shakli. 发 fa yo'l olmoq, otlanmoq, safarga chiqmoq, tayyorgarlik ko'rmoq degan ma'nolarini anglatadi. Zao+fa ravish+fe'l birikmasidan erta otlanmoq murakkab fe'li yasalgan.

---

[29] 白帝城 Bai di cheng – avvalgi Si chuan viloyati sharqida joylashgan, Baidi 白帝山 tog'idagi hudud, hozirgi 重庆 Chong qingdagi, Yanszi daryosining shimolidagi shahar. Bu shahar nomi bai –oq, toza, musaffo, di- Hudo, iloh, cheng-shahar so'zlaridan kelib chiqqan.

[30] 彩云间 Cai yun jian- pushti rangli bulutlar orasida. Chunki Baidi shahrining yeri asosan balandliklardan iborat bo'lib, u yerga borgan odamga huddi bulutlar orasida suzib yurgandek tuyuladi.

[31]千里 Qian li- ming li, bu masofa bildiruvchi so'z bo'lib, Baididan Jiang linggacha bo'lgan uzoqlikni ko'rsatadi. 里 Li Xitoy an'anaviy uzunlik o'lchov birligi bo'lib, u tahminan 0.5 kmga tengmasofani tashkil etadi. Shimoliy Wei sulolasi (386-534) davrida yaratilgan. Shui jing zhu "水经 注"(ma'nosi suv kanaliga quyilish)asarida aytilishicha, ba'zida erta sahardan Baidiga yo'l olganda qosh qorayganida Jiang lingga yetib borilgan. Ular orasida 200 li masofa bo'lgan deyiladi bu kitobda, hozirda esa 700 lidan uzoq masofa bor.

[32] 江陵 Jiang ling. Jiang –daryo, ling - tepalik, maqbara degani. Bu hozirgi kunda Hubei 湖北 viloyatidagi Jiang ling xian.

[33] 还 huan- 返回 fan hui- ortga qaytish. Milodiy 759-yil(唐肃宗 Tang su zong- taxtga Li Heng nomi bilan o'tirgan tan davrining 8- imperatori Su zun(711-762) hukmronligining 2-yili)) shoir Ye lang(hozirgi Gui zhou viloyati Zun yi yaqinida)ga surgun qilinadi. Lekin jazolanishga ketayotgan vaqtda avf etiladi, Baididan ortga Jianglingga qaytadi.

*Muallif tarjimasi

朝 zhao - 早晨(zao chen) erta tong so‘zining sinonimi, 早 zao va 朝 zhao birgalikda sinonimik qatorni hosil qilgan.

两岸猿声 Liang an yuan sheng - ikki tomondan(qirg‘oqdan) maymunlar tovushi kelishi- bu gapda Chang jiangdagi San Xia 三峡(Yanszi daryosida joylashgan uch tog‘)ning har ikki tomonidan tog‘lar orasidan maymunlar yig‘isi eshitiladi. Bu yerda o‘sha manzara tasvirlangan. Baidi shahrini odamlar “maymunlar shahri” deb atashgan.

啼不住 ti bu zhu ,啼 ti- qichqirmoq, baland ovozda yig‘lamoq, yoki qushlarning kukulashi degan ma’noni bildiradi. 不住 bu zhu esa harakatning davomiyligini, beto‘xtovligini ifodalaydi. Xitoy tilida yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, qo‘shimchalar so‘z oldidan qo‘shiladi. Bu yerda ham to‘xtamoq fe’li 住 zhu oldidan “不 bu” inkor qo‘shimchasi qo‘shilishi tufayli to‘xtamay ravishi yasalgan. 不+住 beto‘xtov, tinmay ravishiga 啼 ti fe’li qo‘shilishidan 啼不住 tinmay yig‘lamoq murakkab fe’li yasalgan.

轻舟- qing zhou - 轻 qing- yengil,kichik, oz miqdor, yorug‘ kabi sifatlarni bildiradi. 舟 Zhou bilan kelganda qayiqcha ma’nosini ifodalagan. 已过 yi guo fe’li hol+fe’l birikishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, allaqachon o‘tib bo‘lmoq mazmunida kelgan.

万重 wan zhong ravishi o‘nminglab og‘irlikdagi ma’nosini bildiradi, hamda u 山 shan to‘g‘ so‘ziga nisbatan aniqlovchi vazifasida kelgan. 万重山 wan zhong shan metaforasi bu yerda juda o‘rinli qo‘llanilgan. 轻舟 qing zhou metaforasi orqali muallif o‘zini nazarda tutadi. Qayiqcha bu yerda konnotativ ma’noda qo‘llanilgan. Kichraytirish ma’nosini ifodalovchi 轻 qing so‘zi she’rning morfologik xususiyatlarini o‘zida aks ettirib, shoirning estetik maqsadini ifodalagan.

She’rda uning yolg‘iz o‘zi chamasi o‘nminglab og‘irlik yukidek keladigan qancha-qancha tog‘lardan o‘tib borayotganini surgunlikda boshidan o‘tkazgan rutubatli kunlariga qiyoslab ifodalagan. Shu birgina 已过万重山 yi guo wan zhong shan – badiiy tasviri orqali u o‘zining naqadar azoblanganini o‘quvchiga bildirmoqchi bo‘ladi. Li Bo 轻舟 Qing zhou va 万重山 wan zhong shan so‘zlarini o‘zaro qarshilantirish orqali ham tabiat tasvirini, ham fikrning teran va mantiqiyligini juda go‘zal tarzda ifodalab bergan.

Bu she’rda shoir qayig‘ining tezligi va yo‘l manzarasi tasvirlangan. She’rning avvalgi satrlarida shoirning ko‘tarinki kayfiyati namoyon

bo‘lgan. Bunda avval yo‘lga otlanish vaqti, holati haqida bayon qilingan. Shoir 彩云间 Cai yun jian - pushti rangli bulutlar badiiy o‘xshatmasi orqali - Baidi shahrining geografik holatini ko‘rsatish bilan birga, bu kenglikning tonggi gullarga to‘la manzarasini- qalbining shodlikdan hayqirib ketayotganiga qiyoslaydi- 心花怒放 (xin hua nu fang). She’rda ortga qadrdon uyi Jiang lingga qaytishidagi tezligi, shoirning bu shoshilinchdagi tuyg‘ulari bayon etiladi.

She’rda xitoy an’anaviy she’riyatida ifodalanuvchi tasvir ifodalarini ko‘rishimiz mumkin. Bu hayvonot, nabotot olamining jonlanishi. Li Boning aksariyat she’rlarida maymun obrazi qo‘llanilgan. O‘zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, atrof-muhit tasvirini berishda qadimdan qushlar tasviri asosan “bulbul” obrazi qo‘llanilganiga bevosita guvoh bo‘lamiz. Bu yerda maymun obrazi nafaqat Xitoy geografiyasi balki, mentalitetini ifodalovchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘lgan. Bu she’r bir maromda o‘qiladigan, jonli ritmga ega, yozuvchining go‘zal badiiy san’at asarlaridan biridir.

征汪伦[34] Zheng Wang Lun

李白乘舟将欲行， Li bai cheng zhou jiang yu xing

忽闻岸上踏歌[35]声， hu wen an shang ta ge sheng

桃花潭水[36]深千尺，tao hua tan shui shen qian chi

不及汪伦送我情。Bu ji Wang Lun song wo qing

Wang Lunga tuxfa

- Langar ko‘tarib Li Bo qayiq ustida…
To‘satdan eshitdi- “qadamlar raqsin,”
“Shaftoli gul ko‘lmak”- “ming chi”lar chuqur,
-Wang Lun va qalb tuyg‘umning topmam qiyosin*.

Bu she’rning avvalgi qatorlaridayoq shoir holati tasvirlanadi. Shoir ham qayiqni boshqarib, ham odamlarning oyoq raqsi ijrosini maroq bilan

---

[34]汪伦 Wang Lun–Anhui（安徽） qishlog‘ining aholisi, bu she’r Li Baining zavqlanib yozgan ijodi mahsuli. Aslida Anhuiliklar savdogar qishloq ahli bo‘lib, bu she’r shoirning chuqur hissiyotlari ifodasi.

[35] 踏歌 ta ge-“Oyoq raqsi”- qadimiy ham qo‘shiq, ham raqs ijrosidagi san’at turi hisoblanadi. Bunday raqsda ko‘pchilik qatnashadi va hatto qo‘llari bilan oyoqlarini hamohang harakatlantiradilar. (踏 ta yurish, qadam bosish, 歌 ge qo‘shiq, ashula aytmoq)。踏歌 声 ta ge sheng oyoq raqsi tovushi. Li Bo nogahon odamlarning ijro qilayotganlari tovushini eshitib qoladi.

[36] 桃花潭水 tao hua tan shui “Shaftoli gulli ko‘lmak” - Shanxi viloyatidagi （陕西省） Anhui qishlog‘ining janubi-g‘arbida joylashgan. 潭水 tan shui tan- chuqur, shui esa suv havzasi degani. Bu yerda 桃花- ham ot ham aniqlovchi bo‘lib keladi: shaftoli gul va gullagan shaftoli.

tinglaydi. Bu vaqtda shoir e'tibori shaftoli gul ko'lmakka tushadi. Li Bo o'tkir zehn va mahorat bilan do'stona, samimiy tuyg'ularini tasvirlaydi. Shu bilan birga mamnun kayfiyatda murojaat etadi. Bu she'r tushunarli, sodda tilda yozilgan, toza va musaffo tabiat manzarasini ko'z o'ngimizda namoyon qiladigan, xalq qo'shiqlarining shirin ta'mi yashirin, go'zal badiiy asar namunasi. Bu yerda Anhui va qishloq aholisining mehmondo'stligi ifodalangan. Ular Li Boni izzat-ikrom bilan mehmon qilganlari shoirni juda ta'sirlantiradi. Shoir hayrlashuv chog'ida Wang Lun-ya'ni qishloq aholisi oyoq raqsini ijro etib uni kuzatib qo'yishlari haqida ushbu she'rni yozib, uni Anhuiliklarga tuxfa qiladi. Bu she'r Anhuiliklar va ularning avlodlari uchun noyob hazinadir. She'rdagi "踏歌 ta ge" *lingvokulturologik birlik* bo'lib,Tan davri madaniy hayoti, xitoy xalqining udumlarini ifodalab kelgan.

"Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bunday ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan, *alliteratsiya*(undoshlar takrori),*assonans*(unlilar takrori), *geminatsiya* (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi" deb alohida ta'kidlab o'tgan edi, mashhur o'zbek tilshunos olimlaridan Ma'rufjon Yo'ldoshev[37].

Shoir o'zining qalbida kechayotgan his- hayajonlarini, qishloq ahlidan minnatdorlik tuyg'ularini ana shu -不及汪伦送我情! Bu ji Wang Lun song wo qing! "Wang lun va qalb tuyg'umning topmam qiyosin!" jumlasida ifoda etgan. Shuning uchun ham bu gap emotsional gaplarga misol bo'la oladi. Bu yerda ellipsis[38] hodisasi ham kuzatilgan

Xitoy Tan davri she'riyati va ayniqsa Li Bo va Du Fu she'rlari kishini mantiqan mushohada qilishga chorlaydi. Bir oddiygina so'z zamirida olam-olam ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Har bir she'rda qandaydir jumboq yashiringan bo'ladi va uni o'quvchi sinchiklab o'qimagunicha tag ma'nosiga yeta olmaydi. Faqat oddiy shoirtabiat o'quvchi uchungina emas, hatto mahoratli mutahassis uchun ham bu she'rlar avval boshida sodda jo'ngina tuyulgani bilan, ohir-oqibat she'rlar to'plami emas, "sirlar to'plami" bo'lib ko'rinishi shubhasiz.

---

[37] Йўлдашев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. –Т: «Алишер Навоий » номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. –111 бет.

*muallif tarjimasi

[38] Ellipsis bu gapda, nutq jarayonida gap bo'laklarining qandaydir maqsadda tushib qolishi hodisasidir. Bunda lingvistik iqtisod tamoyili qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар//ЎТА. –Т., 2003. -№2(4).-Б. 84-86.
2. Рихсиева Г. Нисбат шаклларининг лингвопоэтик тадқиқига доир//ЎТА. –Т., 2004. -№2.-Б.73-75.
3. Йўлдашев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили.-Т: «Алишер Навоий » номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. 111 бет.
4. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари.-Т.: “Фан” нашриёти, 2005.-162 б.
5. 李本寨。新编唐诗三百首。北京少年儿童出版社。-北京。1997 年 614。

HIKOYA TARJIMASIDA PERSONAJLAR NUTQIDAGI DIALOGLARNI BERILISHI

***Gulnoza NAZRULLAYEVA**, TDShU, o‘qituvchisi*

Asarlarda dialoglarning keltirilishi, bu personajlarning nutqi jonli ekanligini, davrlar orasidagi tafavutni, nutq orqali shaxsning xarakteri, uning egallagan mavqeini bilib olish mumkin bo‘ladi[39].

Q.Musayevning ta’kidlashicha: “Agar bu dialog uslubini shartli ravishda bir idish deb olinsa-yu, uning ichidagi she’riy eliksir o‘rniga oddiy suv to‘ldirilsa, ma’no butunlay o‘zgarib ketadi: jiddiyat yo‘qoladi, oliyjanob his-tuyg‘ular, g‘urur, ishonch, e’tiqod o‘rnini qandaydir ezmalik, bachkanalik egallaydi”[40].

Dialogik nutq-shaxslarning jonli obrazini yaratish, ularni individuallashtirishda, xarakterlarning psixologik belgilarini aks ettirishda, voqealarning rivojida asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Inson nutqi ko’rinishlari sifatida dialogik nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o’rtasida amalda bo’lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo’ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanishdagi til xususiyatlari va tildan tashqarida bo’lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o’rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e’tirof etish mumkin[41]. Quyidagi masalalarni ko‘rib chiqishda hind yozuvchisi K.Chandarning “Dadar ko’prigidagi bolalar” asari tanlab olindi. Taniqli tarjimon Ansoriddin Ibrohimov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

'अब क्या होगा?' मैंने पूछा।

[39] Hasanova Sh. Badiiy tarjimada personajlar nutqining berilishi//Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент, 2014. Б. 223-227.
[40] Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. - B. 145.
[41] Referat.arxiv.uz/index.php

'तुम दोनों को टोले में शामिल किया जाएगा।'

'कैसे?' भगवान् ने पूछा।

'इसकी तो टांग तोड़ी जाएगी मेरी तरह।' भीकू ने प्रसन्नता के स्वर में मेरी ओर संकेत करते हुए कहा।

'और दादा कहता है कि तुम.....(भगवान् की ओर इशारा करके) तुम.....बड़े भोले और मासूम दिखाई देते हो। इसलिए तुम्हारी आंखें अन्धी की जाएंगी।

'मेरी टांग तोड़ी जाएगी?'.....भगवान् घबराकर चिल्लाए।' क्यों?'

'इसलिए कि लोग स्वथ्य बच्चों को भीख नहीं देते। साबुत और पूर्ण बच्चों पर किसी को तरस नहीं आता। हां.....यदि किसी बच्चे की टांग टूटी हो या बाजू गायब हो या धड़ पर नासूर का घाव हो या आंखें अन्धी हों तो लोग तरस खाकर पैसे दे जाते हैं। .....ऐसे भिखारी बच्चे बहुत कमाते हैं.....इसलिए तुमको अन्धा किया जाएगा और उसकी टांग तोड़ी जाएगी। और फिर तुम लोग हमारे टोले में शामिल हो जाओगे।'[42]

- Endi nima bo'ladi? – so'radim men.

- Ikkovingni guruhga qo'shadi.

- Qanaqa qilib? – qiziqdi ma'bud.

- Buning oyog'i ham menikiga o'xshab sindiriladi, - javob berdi Bhiku quvnoq ovozda meni ko'rsatib. – Dada aytayaptiki, sen (ma'budga ishora qildi) sening ko'rinishing juda mo'min-qobil va mas'um ekan. Shuning uchun sening ko'zingni ko'r qilishmoqchi.

- Mening oyog'imni sindirishadi, deysanmi? – chinqirib yubordim men.

- Mening ko'zimni ko'r qilishmoqchi, deysanmi? – jonholatda qichqirib yubordi ma'bud. – Nega endi?

Shuning uchunki, odamlar sog'lom bolalarga sadaqa bermaydi. Butun va barkamol bolaga hech kimning rahmi kelmaydi. Lekin bola cho'loq yo qo'lsiz bo'lsa yoki badani yara-chaqa bo'lsa, ko'r bo'lsa, unda odamlarning rahmi keladi, sadaqa beradi. Xuddi shuning uchun ham sening ko'zingni ko'r qilinadi, buning esa oyog'i sindiriladi. Shunday qilib, senlar bizning guruhga a'zo bo'lasanlar[43].

Ushbu misolimizdan ko'rinib turibdiki, tarjimon ma'bud personajining nutqi orqali uning ichki dunyosi, ya'ni qalbi tozaligi, odamlarga nisbatan mehribonligi, qo'lidan kelgancha odamlarga yaxshilik qilishi, odamlarni yomon narsalar qilishdan qaytarishi kabi fazilatlarini yoritib bermoqda. Ko'rib turganimizdek, mutarjim A.Ibrohimov bu personaj

[42] कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013। पेज-78।

[43] Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, "Жаҳон адабиёти" журнали, 1999, 2-сон. – 39 б.

nutqini o’zbek tiliga muallif uslubiga putur yetkazmay o’girgan. Masalan, साबुत और पूर्ण बच्चों पर किसी को तरस नहीं आता। (Butun va to’liq bolalarga hech kimning rahmi kelmaydi) jumlalarini tarjimon “Bus-butun va barkamol bolaga hech kimning rahmi kelmaydi” deb o’zbek tiliga o’giradi. Yozuvchining uslubini saqlash maqsadida tarjimon muallif uslubiga hamohang bo’la olgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Mutarjim “bus-butun, barkamol” so’zlarini mahorat bilan bera olgan.

'नहीं, नहीं। हम दादा के पास नहीं जाएंगे।' भगवान् ने विरोध करते हुए कहा।

'चलो यहीं से भागें।' मैंने भगवान् का हाथ पकड़कर कहा।

जब हम भागने लगे तो चारों ओर हल्ला मंच गया। अन्धेरे में पकड़ो-पकड़ो की आवाजें गूंज गईं।

इस बार दौड़ में मेरा हाथ भगवान् के हाथ से छूट गया और मैं छलांग लगाकर अंधेरे में रास्ता टटोलते हुए आंगन से बाहर निकल गया। किन्तु भगवान् वहीं घेरे में आ गए।

मेरी आधी सांस अन्दर थी, आधी सांस बाहर। और मैं एक कोने में दुबका हुआ पुरानी लकड़ी के तख्तों की टूटी हुई दीवार की एक दरार में आंगन के अन्दर देखने लगा।.....[44]

- Yo’q, yo’q, biz Dadaning oldiga bormaymiz, - deb turib oldi ma’bud.

- Yur, qochdik, - dedim men uning qo’lidan ushlab. Qorong’ulik “qochdi, qochdi, ushla! Ushla!” degan hayqiriqlarga to’lib ketdi. Shamol-day chopib ketayotganimizda mening qo’lim ma’budning qo’lidan chiqib ketdi. Men qorong’ida bir amallab timirskilab yo’l topdim-da, devordan bir sakrab ko’chaga oshib tushdim. Lekin ma’bud o’tolmaydi, qo’lga tushib qoldi.

Azbaroyi tez chopganimdan va o’takam yorilganidan nafasim bo’g’-zimga tiqilib qoldi. Bir burchakka biqinib oldimda, eski taxta devordan ichkariga mo’ralay boshladim[45].

Ushbu dialog his-hayajon bilan tarjima qilingan. Chunki bu yerda Bhagvan bilan bolakay Dadadan qo’rqib qochish sahnasi keltirilgan. Am-mo Bhagvan qocha olmaydi.

Dialogimizning ikkinchi satriga qarasak asliyatdagi gap to’liq beril-gan ya’ni “'चलो यहीं से भागें।” (Yur bu yerdan ketaylik). Tarjimon esa ushbu jumlani qizqartirib o’zbek tiliga o’giradi ya’ni “Yur, qochdik”.

Dialogimizning uchinchi satriga e’tibor bersak “अन्धेरे में पकड़ो-पकड़ो की आवाजें गूंज गईं।” (Qorong’uda qoch-qoch ovozlari aks sado qildi.) gapini

[44] कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013। पेज-79।

[45] Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнали, 1999, 2-сон. – 39 б.

“Qorong’ulik “qochdi, qochdi, ushla! Ushla!” degan hayqiriqlarga to’lib ketdi.” deya mohirona tarjima qilgan. Chunki mutarjim his-hayonlarga to’la sahnani kitobxonga yetkazib bera olgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

अचानक दादा ने एक बच्ची को जोर से थप्पड़ मारा, 'आज दस पैसे कम क्यों लाई है?.....'

जच्ची थप्पड़ खाकर दूसरे बच्चे पर जा गिरी। वह दूसरा बच्चे भी जमीन पर लुढ़क गया। दोनों बच्चे रोने लगे।

'निकाल बाकी के दस पैसे।'

'मेरे पास नहीं हैं।' बच्ची ने सहमकर कहा।

दादा ने आंख के इशारे से अपने एक सह-अधिकारी को संकेत किया। उसने मार-मारकर बच्ची से दस पैसे उगलवा लिए, जो उसने अपने गले में छुपा रखे थे[46]।

Kutilmaganda Dada bir qizchani quloq-chakkasiga tortib yubordi.

- Nega bugun o’n paysa kam opkelding? Gapir? – o’shqirdi Dada.

Kaltak yegan qiz bir bolaning ustiga uchib tushdi. Ikkalasi yerga qulab yig’lay boshladi.

- Qani, chiqar bu yoqqa o’n paysani!

- Menda boshqa pul yo’q, - dedi qiz qo’rqa-pisa.

Shunda Dada ko’zi bilan yordamchisiga ishora qildi. U qizni obdon do’pposlab, qiz lunjiga berkitib olgan tangani axiri chiqarib oldi[47].

Mazkur dialogning birinchi satriga ahamiyat bersak tarjimon “Quloq-chakka” so’zini o’zidan qo’shib Dadaning qanday paskash insonligini kitobxonga kuchaytirib yetkazib bergan. Asliyatta bu so’z “थप्पड़ मारा” (Urdi) so’zlari bilan berilgan. Bizningcha mutarjim ushbu jumladagi gapni kuchaytirib yuborgan.

Dialogimizning uchunchi satrida asliyatdagi uchta gapni hajmini kichraytirib ikkita gap qilib tarjima qiladi. Keyingi satrimizda “सहमकर” (Qo’rqib) fe’lini tarjimon “Qo’rqa-pisa” so’zi bilan bergan.

मेरी खोली में लेटे-लेटे भगवान् ने मुझसे पूछा-

'सोते क्यों नहीं हो ?'

'नींद नहीं आती।'

'क्यों नहीं आती ?'

'भूख लगी है।'

---

[46] कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013। पेज-77।

[47] Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнали, 1999, 2-сон. – 38 б.

'तो तंदूरी मुर्ग खाओ, पुलाव खाओ, बिरयानी खाओ, चिकन कबाब खाओ। किसी ने मना किया है।' भगवान् मुस्कराते हुए बोले। 'बम्बई के सैकड़ों रेस्तरां हैं जहां सब कुछ मिलता है।'

'मगर बिना पैसे के कुछ नहीं मिलता है तेरी दुनिया में....तो बता फिर हम क्या खाएं ?' मैंने जलकर पूछा।

'तो हवा खाओ। मैंने हवा सबके लिए मुफ्त कर दी है।' भगवान् हंसकर बोले।

'ठीक है।' मैंने दांत पीसकर कहा। 'आज रात हवा ही खाएंगे। चलो, मेरे साथ।'

'नहीं, मुझे नींद आ रही है।'

'और मुझे नहीं आ रही है। इसीलिए तुम्हें मेरे साथ चलना होगा।'

'कहां ?'

'हवा खाने। उठो, चले।' मैंने भगवान् को चटाई से घसीटकर खड़ा कर दिया।

'सोने दो मुझे।'

'जब तक मुझे खाना नहीं मिलेगा, तुम्हें नहीं सोने दूंगा।' मैंने जिद करते हुए कहा।

'भगवान्, मेरे साथ खोली से बाहर चलिए।'[48]

Hujrada yotgan joyida ma’bud mendan so’rab qoldi:

- Ha, nega uxlamay yotipsan?

- Uyqum kelmayapti.

- Nega?

- Qornim ochligi uchun.

- Qorning och bo’lsa, ana borib tandirda yopilgan tovuq go’shti ye, palov ye, biryoniy ye, yoki bo’lmasa, ana, jo’ja kabob ye. Kim seni yema deyapti, - dedi ma’bud kulib turib. – Bombayda nima ko’p, restoran ko’p. nima yeyman desang, hammasi topiladi.

- E-e, bu sen yaratib qo’ygan dunyo shunaqa dunyoki, puling bo’lmasa, hech vaqo ham ololmaysan. Pul bo’lmasa, nimani yeyman? – dedim men jizg’anagim chiqib.

- Puling bo’lmasa, to’yib-to’yib havodan tanovul qil. Havoni hammaga tekin qilib qo’yibman, - dedi yana kulib ma’bud.

- Bo’pti, - dedim g’ijinib. – Bugun havo yeb yotaqolamiz. Qani, yur men bilan.

- Yo’q, hech qayoqqa bormayman. Uyqum kelayapti.

- Sening uyqung kelayotgan bo’lsa, meniki kelmayapti. Xuddi shuning uchun men bilan birga yurishing kerak.

- Qayoqqa?

- Havo yegani. Qani, tur o’rningdan, - men ma’budni qo’lidan tortib, karavotidan turg’azdim.

---

[48] कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013। पेज-66।

- Qo’yvor meni, uxlayman dedim-ku.

- Mening qornim to’ymaguncha seni uxlatib bo’pman, - dedim men ham o’chakishib. – Xudoyim, qani yuring endi men bilan tashqariga[49].

Mazkur dialogimizni tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik. Tarjimon dialoglarni to’g’ri va o’zbek kitobxoniga tushunarli qilib tarjima qilgan. Gapning ma’nosini ta’sirchanligini oshirib o’zidan so’zlarniqo’shib o’quvchilarga yetkazib bera olgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Misol uchun asliyatdagi “तो तंदूरी मुर्ग खाओ, पुलाव खाओ, बिरयानी खाओ, चिकन कबाब खाओ।“ gapini tarjimon quyidagicha tarjima qilgan “Qorning och bo’lsa, ana borib tandirda yopilgan tovuq go’shti ye, palov ye, biryoniy ye, yoki bo’lmasa, ana, jo’ja kabob ye”. Bu yerda ko’rishimiz mumkin, “Qorning och bo’lsa, ana borib…..”gapini o’zidan qo’shib ma’nosini kuchaytirib bera olgan. “हवा खाने। उठो, चले।' मैंने भगवान् को चटाई से घसीटकर खड़ा कर दिया।“ jumlamizdagi “चटाई[50]” so’zini tarjimon “Karavot” deb beradi. Ammo ushbu so’zning tarjimasi bo’yra. “Bo’yra tozalangan qamish cho’pidan to’qilgan to’shama[51]”.

Personaj nutqining obrazini yaratish usullari turlicha bo‘lib, bu asarning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi bilan belgilanadi. Bularga qahromonning tashqi ko‘rinishini belgilovchi sifatlashlar, tashqi qiyofasi va xarakterining bir-biriga mosligi yoki nomutanosibligi, personaj obrazining bo‘yoqdorligi, hatto maqol va matallarning tashqi xarakteristika elementi sifatida qo‘llaninshi ham kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanova Sh. Badiiy tarjimada personajlar nutqining berilishi//Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент, 2014.

2. Musayev Q. Tarjima nazariяsi asoslari. – T.: Fan, 2005.

3. कृश्न चन्दर। दादर पुल के बच्चे। नई दिल्ली-2013।

4. Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнали, 1999, 2-сон.

[49] Кришан Чандар, Дадар кўпригидаги болалар, ҳикоя, ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси, “Жаҳон адабиёти” журнали, 1999, 2-сон. – Б. 32-33.

[50] Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М., 1972. – Б. 511.

[51] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 405.

YAPON TILIDAN BADIIY TARJIMADA PERSONAJ PORTRETINI QAYTA YARATISH MASALASI

***Diyora ABDURAHIMOVA**, TDShU, o‘qituvchi*

Asliyatdagi personajlar portretini tarjimada qayta yaratish masalasi tarjimashunoslikda har doim dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. Agar badiiy asarlarda portret xarakteristikasi psixologik tahlil vositasi sifatida olinsa, tarjimada uning qayta yaratilishi tarjimon mahorati qirralarini ko‘rsatuvchi mezon sifatida qaralishi mumkin.

Adiblar tashqi qiyofani batafsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog‘liq holda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aynan aks ettiradilar. Masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek va hk. XIX asrda portretning ichki yoki psixologik-ruhiy portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri – belgilari va ruhiy kechinmalari majmui ochib beriladi (Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov). Romandagi portret tasviri markaziy qahramonning ruhiy dunyosidagi holat, o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun muhim rol o‘ynaydi. Uning badiiy obrazini yaratishda yozuvchi hayotning rang-barang manzaralardan foydalanadi.

“Qahramon portretini tarjimada to‘laqonli tasvirlab berish uchun tarjimon portret yaratishda asar muallifi qo‘llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, har bir portret tasvirining xarakterga aloqador nuqtalari, milliy xususiyatlariga diqqat qaratishi, portretdagi har bir detalning mazmun-mohiyati va vazifalarini aniqlashi kerak bo‘ladi”[52].

“Portret tavsifi asarda turli vazifalarni bajaradi. Bulardan asosiylari tarixiy, milliy va badiiy vazifalardir. Voqea kechayotgan davr, ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, maishiy shart-sharoitlar haqida kitobxonda tasavvur uyg‘otish portret tavsifining tarixiy vazifasiga kiradi. Qahramonlarning milliy xarakterlari, qaysi millatga mansubligini ko‘rsatuvchi jihatlarning ochib berilishi milliy vazifaga kiradi. Asar tilining spesifik qirralarini aks ettirish, uslubiy o‘ziga xoslikning ma’lum belgilarini ko‘rsatish, asar badiiyatining estetik-emotsional jihatidan to‘laqonli bo‘lishini ta’minlash portretning badiiy vazifasi hisoblanadi. Zero har qanday badiiy asarda tarixiylik, milliylik, badiiylik, ma’rifiylik va boshqa belgilar mujassam bo‘ladi”[53].

Ushbu maqolada yapon adabiyoti namunalarida berilgan portret tasvirlari va ularning tarjimada qayta yaratilishi masalasi ustida muxtasar to‘xtalamiz. Yapon adiblari ham o‘z asarlarida insonning ichki va

[52] Иброҳимова Ш., Бадиий асарлар таржимасида қаҳрамон портретининг берилиши // Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Т: Муҳаррир, 2012. – Б. 96.

[53] Ҳамидов Хайрулла, “Ўзбек-турк таржимачилигининг долзарб муаммолари (1991-2017 йиллар)”. 1-қисм. Абдулла Қодирий асарлари турк тилида. − Т., 2019. − 120 б.

tashqi dunyosi kabi tashqi ko‘rinishlari, portretlari ham keng tasvirlaydilar. Bu bilan ular asar qahramonlarining ma’naviy dunyosi va ijtimoiy hayotdagi mavqeini aks ettiradilar.

Ma’lumki yapon xalqi o‘ziga xos an’anasi, urf-odati, kiyinishi madaniyatiga ega bo‘lgan xalq. Bundan tashqari ular har bir davrning o‘ziga xos kiyinish madaniyatiga ham ega. Adabiy portret yaratishning ahamiyati obrazning tashqi qiyofasini konkretlashtirishga yordam berish, kitobxon ko‘z o‘ngida harakatdagi, jonli qahramonni gavdalantirish bilan cheklanmaydi. Mahorat bilan yaratilgan portret tasvirida personajning yoshi, qaysi ijtimoiy tabaqaga xosligi, kasbi, mashg‘uloti, madaniy darajasi, xarakteri, odobi, psixikasi hattoki qaysi davrga mansubligi ham o‘z ifodasini topadi.

Taniqli yapon yozuvchisi **Kobo Abe** (yap. 安部公房 *Abe Ko:bo*)ning asarlari personaj portretlari ko‘pligi bilan ham butun boshli galereyani tashkil etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki u o‘z asarida so‘z yuritgan har bir qahramon, obrazga “erinmasdan” ta’rif berar ekan, dastavval uning so‘zli portretini chizadi. Portret tavsifi orqali qahramon yoki istalgan personajning qaysi tabaqaga tegishli ekanligi, moddiy ahvoli, fe’l-atvori, voqea kechgan davr haqida kitobxonda keng tasavvur uyg‘onadi:「それより婆さんなどというから、よほどの年寄りかと思っていたのが、ランプを捧げて迎えてくれた女は、まだ三十前後の、いかにも人が好きそうな小柄の女だったし、化粧をしているのかもしれないが、浜の女にしては、珍しく色白だった。それに、いそいそとよろこびを、かくしきれないといった歓迎ぶりが、まずなによりも有難く思われた」[54]。Yozuvchi personaj portretini yaratar ekan, unga xos xususiyatlarni tasvirlanayotgan voqelikdan kelib chiqqan holda uyg‘unlashtirganini tarjimon sezgirlik bilan ilg‘ab olishi kerak bo‘ladi. Tarjimasi: *“Uni fonar bilan kutib olgan xotinni kampir deb atashgan, u ham keksa bir xotinni ko‘raman, deb o‘ylagan edi, ayol esa yosh o‘ttizlarga borgan, o‘rta bo‘yli, yoqimtoygina juvon ekan. Xotin upa qo‘ysa kerak uning yuzi dengiz bo‘yida yashaydigan ayollarning yuzlariga nisbatan oq edi. Umuman xushnudlik bilan, samimiy kutib olgani uchun xotindan minnatdor edi”.*[55]

「困ったように笑うと、左の頬にえくぼが浮かんだ。目つきをべつにすれば、なかなか愛嬌のある顔だと思う。しかしその目つきも、おそらく眼病のせいだろう。赤くただれた眼のふちだけは、いくら化粧してもかくせない」[56]。*«Xotin gunohko-*

[54] **安部公房全集** 16 [1962.4–1962.11] **東京、新潮社**、1998, p.128.

[55] Кобо Абэ. «Қумдаги хотин» //Рус тилидан Ваҳоб Рўзиматов таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.1968, 18-бет.

[56] **安部公房全集** 16 [1962.4–1962.11] **東京、新潮社**、1998, p.128.

rona jilmaydi, chap yuzida kulgich paydo bo‘ldi. Agar ko‘ziga e’tibor berilmasa, yuzi juda ko‘xlik ekan, deb o‘yladi erkak. Balki, bunday boqishi ko‘zlarining og‘rig‘idandir. Yallig‘lagan mijjalarini hatto upa ham yashirolmabdi»[57].

Parchada ayol portreti vositasida uning ichki dunyosi badiiy mahorat bilan ochib berilgan bo‘lsa, tarjimada bu narsa ishonchli berilgan. Yozuvchi o‘z qahramonlari, xususan, asardagi ijobiy xarakterlarni yaratar ekan romantik san’at an’analaridan keng foydalanadi. Buni adib uslubiga xos rang tanlash, yorqin portret yaratish o‘rnaklaridan sezish mumkin. Ma’lumki, “...portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba’zan shaxsning tashqi qiyofasi va xatti-harakati juda batafsil tasvirlansa, ba’zan obrazning yo tashqi qiyofasiga yoki uning xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali ham berilishi mumkin. Portret obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir”[58].

Yana misollarga murojaat qilamiz: 「…顔は一面むらだらけで、砂に包まれた体と比べると、不気味なくらい、生々しかった。昨夜ランプの光でいやに色白に見えたのは、やはり化粧のせいだったらしい。その白いものがぼろぼろになって、はげかけている。そのはげかたはちょうど卵を使っていない安物のカツレツの感じで、案外その白いものは、本物の小麦粉だったのかもしれない」[59]。Tarjimasi: *«Yuzi dog‘ qoplagan, dag‘al, xunuk, qum bosgan tanasiga sira o‘xshamasdi. Erkakni chiroq yorug‘ida mahliyo qilib qo‘ygan oppoq yuzi muqarrar upa bilan oqartirilgan ekan. Hozir ba’zi joylaridagi upa ketib, parcha-parcha dog‘lari ko‘rinib qolgan edi. Erkakning yodiga tuxumsiz pishirilgan jo‘n kotlet tushdi, ularda bug‘doy un gardlari xol-xol bo‘lib turadi»*[60].

Abe Koboning personajlar yaratishdagi asosiy xususiyatlaridan biri unda tabiiylikga alohida e’tibor berilishidadir. O‘zbek adabiy merosimizda ayol portretini yaratishda ularning go‘zalligiga alohida urg‘u berilib tasvirlanishi kuzatilsa, Abe Koboda ayolning tashqi qiyofasini tasvirlash jarayonida kundalik turmush tashvishlaridan uzilmaganlik holatini kuzatishimiz mumkin. Xuddi shu holat yuqorida berilgan personaj portretida ko‘zga tashlanadi. Ilk bor ayolni uchratgan vaqtidagi holat bilan biroz

[57] Кобо Абэ. «Қумдаги хотин» //Рус тилидан Ваҳоб Рўзиматов таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.1968, 19-бет.

[58] Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983, 252-б.

[59] 安部公房全集 16 [1962.4–1962.11] 東京、新潮社、1998, p.142.

[60] Кобо Абэ. «Қумдаги хотин» //Рус тилидан Ваҳоб Рўзиматов таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.1968, 34-бет.

vaqt o‘tgandagi holat orasidagi tafovutdan biz so‘z bilan yozilmagan turmush tashvishlarining aksini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Tarjimon asarni qayta yaratish jarayonida tarjimon tasvirni yanada jonli, yanada tushunarli bo‘lishi uchun o‘zidan qo‘shimcha qilish holatlari ham mavjud. Tarjimada *“Erkakni chiroq yorug‘ida mahliyo qilib qo‘ygan oppoq yuzi muqarrar upa bilan oqartirilgan ekan.*” deb berilgan qismini misol qilib olsak, asliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilganda, *“Qorong‘ulikda chiroq yorug‘ida o‘ta darajada oppoq ko‘ringanning sababi pardozida ekan.”*, ya’ni bu yerda *“Erkakni ...mahliyo qilgan”* degan qismi tarjimonning badiiy ijodi namuna desak bo‘ladi, hamda asarni yanada chiroylik tarjima qilishga yordam beradi.

Dastlabki taassurotning navbatdagi tasavvur bilan solishtirish… Go‘yo voqealar rivoji kabidir, ya’ni haqiqat bekitilgani bilan vaqt o‘tib Nikiga ma’lum bo‘ladi. Ayol portreti bu yerda badiiy o‘xshatishlar yordamida ifodalangan. Ayolning tashqi ko‘rinishi dastlabki taassurotdan ancha yiroqligi aks ettirildi. Asarning yana bir qahramoni ayolning xolatini ham erkakning xolatini yoritishda qo‘llagan usulidan foydalangan, ya’ni ayolning portretini yoritishda iqlim havosining noodatiy ko‘rinishi aks ettirilgan.

Xulosa. Sharq, jumladan yapon adabiyotida ayol go‘zalligini portret vositasida madh etishga katta ahamiyat beriladi. Eng mukammal, original tasviriy-ifodaviy vositalar ayollar portretini yaratishga xizmat qiladi. Agar mumtoz asarlarda go‘zallik ayolning tashqi ko‘rinishini aks ettirish vositasi bo‘lsa, Kobo Abe asarlarida go‘zallik xotin-qizlarning tashqi ko‘rinishini aks ettirishdan tashqari, o‘zining realistik mazmuni bilan qahramonning ichki dunyosini ham ochib berishga xizmat qiladi.

BADIIY TARJIMA – XALQLARNI BIRLASHTIRUVChI KUCH (Zamonaviy fors she’riyati misolida)

***Dinora YUSUPOVA**, TDSHU, o‘qituvchi*

“Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida har bir milliy adabiyotning boshqa xalqlar adabiyoti yutuqlaridan bebahra yashashi amri mahol. Hatto aytish mumkinki, har bir milliy adabiyotning taraqqiyoti jahon adabiyotida paydo bo‘layotgan yangi badiiy g‘oyalar va yangi badiiy-uslubiy izlanishlarni kuzatib borishi, o‘rganishi va ulardan bahramand bo‘lishiga bog‘liq” deb ta’kidlagan edi [1,72].

Darhaqiqat, XX asrning deyarli sakson yili o‘zbek o‘quvchisi qardosh va xorij xalqlarining adabiyoti bilan aksariyat rus tilidan tarjima

orqali kirib kelgan namunalari bilan tanishish imkoniga ega bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillik tufayli bu manzara o‘zgardi. Endi o‘zbek sharq-shunoslari, filolog olimlari tomonidan jahon xalqlarini adabiyotini asliyatdan, milliy tildan qilingan tarjimalari orqali o‘qish baxtiga musharraf bo‘ldi. O‘zbek sharqshunos filologlari oldida endi bu asarlarni faqat tarjima qilibgina emas, balki ularning mohiyatini, badiiy qimmatini aniqlash, ilmiy-nazariy tahlilini amalga oshirish vazifasi kun tartibiga chiqdi.

Yigirma yildan oshiq muddat ichida badiiy tarjima sohasi ma’no va mohiyat jihatdan yangilanishlar sari yuz tutdi, turfa xalqlarning badiiy adabiyotlari, ular xoh nasrda bo‘lsin, xoh nazmda adabiyotshunoslar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va bu faoliyat hozirda ham davom etib kelmoqda. Sharq xalqlari, xususan Eron adabiyoti misolida olib qaraydigan bo‘lsak, bu sohada juda ko‘pdab tarjima ishlari amalga oshirildi. Mumtoz fors adabiyotining nodir durdonalaridan tortib, zamonaviy davr adabiyotiga oid asarlarning o‘zbek tilidagi mohirona tarjimalari bugun o‘zbek xalqining ko‘nglidan chuqur o‘rin egallab bormoqda. Xususan, Umar Hayyom ruboiylari, Firdavsiy “Shohnoma”si, Rumiyning “Masnaviye ma’naviy”si kabi bebaho asarlarning o‘zbek tilidagi tarjimalari adabiyot ixlosmandlari tomonidan ijobiy kutib olindi. Bu to‘g‘risida juda ko‘plab manbalarda, tadqiqot ishlarida, qolaversa il-miy anjumanlarda ko‘p marotaba aytib o‘tilgan. Mana shu yutuqlarning davomi sifatida bugun ham samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Fors adabiyotidan namunalar Asqar Mahkam, Ergash Ochilov, Ja’far Muhammad kabi o‘zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan mohirona tarjimalar amalga oshirilmoqda. Mushohada doirasi va ilmiy fikrlash ko‘lami keng bo‘lgan mazkur olimlar ham mumtoz, ham zamonaviy fors she’riyat sohasida samarali tarjima ishlarini adabiyotshunoslar e’tiboriga havola etib kelmoqdalar.

Adabiyotshunos olim, mutarjim Asqar Mahkamning tarjimachilik faoliyatida mumtoz fors she’riyatiga katta o‘rin egallaydi. Xususan, uning J.Rumiyning “Ma’naviy masnaviy” sini (1-daftar), Shams tabriziyning g‘azallari hamda forsiy tildagi she’rlardan namunalar tarjima qilgan. Quyida olim tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan Hofiz Sheroziy she’ridan namuna keltiramiz:

جان بی حال جنان میل جهان ندارد
بر کش که این ندارد حقا که آن ندارد
با پنج کس نشانی ز آن دلستان ندیدم
یا من خبر ندارم یا او نشان ندارد
هر شبنمی در این ره صد بحر آتشین است
در داکه معما شرخ و بیان ندارد

Mazmuni:

Jonkim jamoli yorsiz, mayli jahoni yo‘qdir,
Kimniki yori yo‘qdir, haqqoki joni yo‘qdir.
Ul dilsiton nishonin hech kimsada topolmam,
Yo menda yo‘q xabar, yo oning nishoni yo‘qdir.
Bu yo‘lda qatra shabnam yuz bahri otashindir,
Dardoki, bu muammo sharhu bayoni yo‘qdir.....

Asqar Mahkam ushbu parchada o‘zbek tili leksikasining boy imkoniyatini namoyon qilish bilan bir vaqtda, asliyatdagi she’riy matnning poetik xususiyatini ham saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki, mumtoz she’riyat va yangi davr she’riyatining o‘ziga xos mushtarak tomonlari mavjud bo‘lgani holda, keskin farq qiluvchi jihatlarga ham ega. Maqola ob’ektidan kelib chiqib, Eron yangi she’riyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning tematikasi, uslubi va shakliy rang-barangligi ko‘plab tadqiqotchilarning e’tirofiga, bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda [2,72].

Jumladan, tarjima jarayonida ham yangi she’rlar o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. *Asqar Mahkam* o‘z tarjimachilik faoliyati davomida mazkur davr she’riyatini ham nazardan chetda qoldirmadi. Xususan, Umid taxallusi bilan ijod qilgan Maxdiy Ahavon Solis[61] ijodidan namunalarni o‘zbek tiliga mohirona tarjima qildi.

سلامت را نمی خواهند پاسخ گفت
سر ها در گریبان است
کسی سر بر نیارد کرد پاشخ کفتن و دیدار یاران را
نگه جز پیش پارا دید، نتواند
که ره تاریک و
لغزان است

Mazmuni:

“Salomingga javob berishni istamaydilar,
Boshlar yoqalar ichida.
Hech kim bosh ko‘tarib javob aytolmas
Va do‘stlar diydoriga boqa olmaydi.
Ko‘zlar faqat oyoqlar ostida,
Yo‘l qorong‘i va sirpanchiq..... ”

Axavon Solisning “Zimiston” nomli mazkur she’ri o‘z davrining jonli manzarasi sifatida qadrlanadi. Mazkur she’r oradan yillar o‘tishiga qaramasdan hamon o‘zining go‘zalligini saqlab qolgan. Fors she’riyatining jilvasi va ohangini dildan his qila olgan yana bir adabiyotshunos olim *Ergash Ochilov*dir. Tarjimon tomonidan ko‘plab fors klassiklarining she’rlari o‘zbek kitobxonlari e’tiboriga havola etib kelinmoqda. Quyida

[61] Ахавон Солис (1929-1990) ўз даврининг идтимоий-эпик янги шеъриятининг пешвоси. Арғувон”, ““Зиисто”, “Охире Шоҳноме, “Аз ин Авесто”” каби шеърий тўплпмлар муаллифи.

fors she’riyatining yirik namoyandasi Sa’diy Sheroziy qalamiga mansub g‘azalining o‘zbek tilidagi tarjimasiga e’tibor qaratamiz:

“Dilim to bo‘ldi oshiq bir nafas beg‘am bo‘lolmasman
Bu olamda dili g‘amsiz biror odam topolmasman.

Yonimda hamdamim yo‘q, bir nafas xurram nafas olmam,
Nafas jonim bilan chiqsin, agar hamdam topolmasman.

Dilimda bir sirim bordir, ko‘zim qoni aro o‘sgan,
Bu sirni kimga aytay men, biror mahram topolmasman?....”

Ergash Ochilovning ham tarjima jarayonida she’riyatga xos bo‘lgan so‘zlardan foydalandi, shu bilan birga asliyatdagi she’riy matnning poetik xususiyatlarini saqlab qola oldi.

Ergash Ochilov tarjima ko‘lami nihoyatda rang barang bo‘lib, olim fors she’riyatining ko‘p tarqalgan g‘azal, ruboiy va boshqa she’riy shakllarini qamrab olgan. Xususan, Xoja Abulvafo Xorazmiyning ruboiylarining o‘zbek tilidagi tarjimasi fikrimiz dalilidir:

“Ham yor O‘zing, ham ag‘yor o‘zing,
Begona O‘zing, mahrami asror O‘zing.
Dard berguvchi zor dilga dilafgor O‘zing,
Ham sihhati jonu dili bemor O‘zing”

Ja’far Muhammad Termiziy taxallusi bilan nom qozongan, ham forsiy, ham o‘zbek tilida qalam tebratadigan zullisonayn shoir Ja’far Xolmo‘minov ham o‘z ijodi davomida fors she’riyatidan namunalar tarjima qildi. Quyida Ja’far Muhammad tarjimalaridan bir namuna ko‘rib o‘tamiz:

نور را پیمودیم، دشت طلا را در نوشتیم.
افسانه را چیدیم، و پلاسیده فکندیم...
...سکوت ما بهم پیوست، وما، "ما" شدیم.
تنهایی ما تا دشت طلا د امن کشید.
آفتاب از چهرهٔ ما ترسید.
در یافتیم، و خنده زدیم.
نهفتیم، و سوختیم.
...از ستیغ جدا شدیم:
من به خاك آمدم و بنده شدم.
تو بالا رفتی، وخدا شدی.

Nurni bosib o‘tdik,
Oltin dashtni yozib tugatdik.
Ertakni terdik va horg‘in sochdik...
...Sukutimiz qo‘shilib ketdi
va biz «Biz» bo‘ldik.
Yolg‘izligimiz

Oltin dashtgacha cho‘zilib ketdi.
Chehramizdan seskandi quyosh.
Topdigu kuldik.
Yashirdik, kuydik...
Yuqorida ajraldik:
Men yerga tushdimu banda bo‘ldim,
Sen ko‘kka yuz tutding, Xudo bo‘lding

So‘nggi yillarda forsiy tildan she’riy hamda badiiy tarjimalar yosh tadqiqotchilar tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Nargiz Shoaliyevning zamonaviy fors she’riyatining ilg‘or shoirlaridan bo‘lgan Suxrob Sepehriy ijodiga oid tarjimalari diqqatga sazovordir. Ushbu yosh tadqiqotchining tarjimalaridan biriga e’tibor qaratamiz:

می روییید. در جنگل، خاموشی رویا بود.
شبنم ها بر جا بود.
درها باز، چشم تماشا باز، چشم تماشاتر، و خدا در
هر ... آیا بود؟
خورشیدی در هر مشت: بام نگه بالا بود.
می بوییید. گل وابود؟ بوییدن بی ما بود: زیبا بود.
تنهایی، تنها بود.
ناپیدا، پیدا بود.
"او" آنجا، آنجا بود.

O‘sadi. O‘rmonda sokitlik ruyo edi.
Shabnamlar joyida edi.
Eshiklar ochiq, tomosha ko‘zi ochiq, tomosha ko‘zi nam,
va Xudo har joyda... oyo edi?
Har mushtda bir quyosh: Nigohning tomi yuqorida edi.
Hidlardi. Gul ochilganmidi? Hidlash bizsiz edi: Go‘zal edi.
Yolgizlik tanho edi.
Ko‘rinmas paydo edi.
«U» u yerda, u yerda edi.

Shuningdek tarjimalar o‘zbek tilidan fors tiliga ham tarjima ishlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan quyida shoir Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’rlarning birini fors tilidagi tarjimasiga e’tibor qaratamiz:

.....Qalqoning bor, gar kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomio‘lar ruhi yor har o‘g‘loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lolmagay qo‘rg‘oninga.
Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Nech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!...

.....Gul ko‘ringan dashtingdagi giyoh – xasdir,
Soddadil-u ulug‘vorlik senga xosdir,

Sevamizki cho‘llaring ham bizga jannat,
Tuprog‘ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko‘rgaymiz seni, O‘zbekiston,
Nech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!...

داری سپر گر کسی حمله کند بر جان تو
روح الپامش یار است هر جوان مرد تو
نگه داری کنیم و مثل گل ببوسیم حتی گیاه تو
دشمن نمیتواند بیاید بر آستانه تو
جان مانرا فدا کنیم ، ازبکستان
به کسی نمی دهیم ازبکستان

گل که در دشت تو دارد – گیاه است
دل ساده ای و عظیمی برای تو خاص است
دوست داریم که دشت تو هم مثل بهشت
حاک تو هم مثل مکه مقدس است
مثل مادر دوستت داریم ازبکستان
به کسی نمی دهیم ازبکستان[62]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uzoq yillar davomida fors nasri va nazmi turli tillarga tarjima qilinib kelinmoqda. Bu kabi tarjima ishlarining keng quloch yozishi mamlakatimizda tarjima san’atining taraqqiy etayotganidan nishonadir. So‘nggi yillarda o‘zbek kitobxonining fors, xitoy, yapon, koreys, arab, hind, turk kabi sharq xalqlari adabiyotini o‘tgan asrdagi singari aksariyat hollarda rus tilidan qilingan tarjima orqali emas, balki asliyatdan qilingan tarjimalarda o‘qish imkoniyati tobora oshib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek sharqshunoslari oldiga bu adabiyotlarni faqat tarjima qilibgina cheklanib qolmasdan, balki ularning chuqur badiiy tahlilini amalga oshirish, ularnig badiiy-estetik qimmatini aniqlash kabi vazifalar sari olg‘a intilishga chorlaydi. Fors she’riyati borasida adabiyotshunos olimlar tomonidan olib borilayotgan tarjima ishlari bugun o‘z samarasini ko‘rsatmoqda va yosh tadqiqotchioarni ham bu sohaga jalb etib kelmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan tarjima ishlari tarjimachilik an’anasi bugungi kunda ham davom etayotganligining yorqin isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Karimov. N. “Oltin ko‘priklarjozibasi”// Ozod Vatan saodati. 5 - j T., 2013
2. محمد خقوقی : "شعر نوع از آغاز تا امروز". تهران، جلد دوم، 1996
3. دستغیب 1960 پیامنوین "بررسیاجمالیدربارهشعرنو" عبدوعلی

[62] Таржима мақола муаллифиники

ROMANTIZMNING DASTURIY TALABLARI A.SHLEGEL QARASHLARIDA

Shahnoza RUSTAMOVA, *JDPI, tayanch doktarant*

Romantizmning dasturiy talablari ayniqsa o‘z zamonasining ma’rifatli kishisi bo‘lgan Avgust Shlegel (1707-1845)ning tarjimonlik faoliyati va nazariy xulosalarida yanada batafsilroq va mukammalroq ifodalanganini kuzatamiz.

A.Shlegel nemis she’riyatining o‘rta nemis lirikasi bilan juda yaxshi tanish edi. Tarjimon sifatida A.Shlegel o‘z nazariy qarashlarida Shtolberg va Fosslarning Gomer asarlari tarjimasini, Viland va Eshenburg tomonidan qilingan Shekspir asarlari tarjimasini o‘rgandi va o‘z tarjima amaliyotida Dante va Shekspir asarlari tarjimasi misolida bu boradagi qiyinchiliklarni shaxsan his qildi. Masalan, u Servaantes tarjimoni Lyudvig Tikka maktab sifatida «Jazavali Rolland»ning 11 ko‘shig‘i tarjimasiga yozgan so‘ng so‘zida Shlegel tarjima muammolariga doir dadil reja va fikrlarini ilgari suradi. Vinfrid Sdun Shlegelning so‘ng so‘zini «eng muhim fikrlar» sifatida qayd etadi [Sdun W. 1967.]. Ularda xorijiy adabiyotning poetik tarjimasi, shuningdek tarjimonlarning bir necha avlodlari rioya qilib kelgan asliyatga munosabatiga doir qoidalar o‘z aksini topgan. Yaxshi tarjimaning birinchi omili A.Shlegel fikricha uning o‘z «meni»ni inkor qilishgacha bo‘lgan ta’sirchanligidir. Bu talab nafaqat Shlegelning o‘z talablariga, balki ko‘p qirrali va jahonshumullikni nazarda tutuvchi davr romantizmining ruhiga ham mos kelardi. U tarjimaning ikkinchi tayanch nuqtasi sifatida o‘z ona tilini va xorijiy tilni nazariy hamda amaliy jihatdan to‘liq egallab olishda deb tushunadi. Uchinchidan, u bevosita mashqlardan to‘g‘ri nazariyalar vujudga keladi degan fikrni oldinga suradi. Olim nazariya bilan amaliyotning birlashuvi tarjimada birmuncha ilgari siljishlarga olib kelishini ham alohida ta’kidlab o‘tadi. «Darhaqiqat tarjima san’atini egallab olmagan kishiga nazariya hech qanaqa yordam bera olmaydi. Shu sababli men bu sa’natni egallab olishga tirishaman. Men asliyatning barcha o‘ziga xosliklarini poetik tarjimada tiklash niyatidaman. Men antik adabiyotni ham, zamonaviy adabiyotni ham, klassiklar asarlarini ham aynan shu talab asosida tarjima qilish tarafdoriman» [Schelegel A., Athenaeum., Darmstadt 1960: 280 -281].

Avgust Shlegel uchun tarjimada eng muhimi nafaqat asarning mazmunini qayta tiklash, balki uning badiiy jihatlarini ham qayta tiklashdan iborat edi. Uning uchun ana shundagina asar badiiy tarjima qilingan hisoblanardi. U bu usulni Dante, Shekspir, Kalderon asarlarini tarjima qilishda qo‘lladi. Uning tarjimasi so‘zma-so‘z tarjima emas nutqiy balki, taktni nutqiy takt bi-

lan, frazaformani frazaforma va uslubiy figurani uslubiy figura bilan almashtirishga asoslangandi. Bunda u stilistik iboralarni aynan she’r tarzida tarjima qilishga erisha oldi. Shunday qilib tarjimon originalga muqobil bo‘la oladigan lisoniy shakllarni topadi va ularni tarjimada qo‘llashga urunadi. Shlegel Shekspir asarlarida qo‘llagan usullarini boshqa tarjimonlarga ham taklif qilgan holda ularni o‘z amaliyotida ham ijodiy qo‘llay oldi. «Agar fraza o‘z mohiyati bilan chalkash fikr uyg‘otayotgandek tasavvur paydo qilsa, nemis kitobxonini uni fikrlash orqali tushunish zaruratidan mahrum qilib qo‘ymasligimiz lozim[A.Schlegal., SamticheWerke, hrsg., V.Boching; 63]. Bu holat Shekspir va Kalderon asarlarida ayniqsa antiteza, alliteratsiya, assonans, rifma va so‘z o‘yinlarida, ya’ni ritorik figuralar va ohang tasvirida ko‘p uchraydi. Va bularning hammasi Shlegel tarjimalarida muvaffaqiyatli o‘girilgani kuzatiladi. A.Shlegel o‘z tarjima amaliyotida har doim o‘zi ilgari surgan quyidagi ta’kidga sodiq qoladi: «Har qanday poeziya bu tarjimadir, qolaversa real poetik tarjima bu hatto haqiqiy poeziyadir, umuman inson ongi faqat bir narsaga qobil-bu tarjimadir»[Schlegal A.,Athenaeum.,Darmstadt 1960; 280].

Darvoqe, “Romantizm bu tarjima demakdir”, deb yozgan edi Brentano (1778-1842) o‘zining «Godvi» asarida. Romantiklar o‘zlarini tarjimonlar deb hisoblashar va ular barcha asarlarni tarjima qilishga urunar edilar. Nemis romantizmi daholaridan biri Novalis (1772-1807) ham tarjima muammolariga anna shunday universalizm pozisiyasidan turib yondashgan edi. Novalis tarjimaning uch turi mavjudligini tan oladi: grammatik, modifikatsiyalashgan va mifik tarjima. Mifik tarjimani u tarjimaning oliy turi deb hisoblagan: «Bunday tarjima individual asar haqida sof va mukammal taassurot uyg‘ota oladi. Bunday tarjima biz uchun aniq bir asarning bizning tilimizdagi ifodasi emas, balki bu asarning badiiy idealini qayta tiklashi lozim. Ammo, nazarimda bunday tarjimalarning namunasi haliga qadar yaratilgan emas. Ularning ayrim qirralarini ba’zi taqrizlar va san’at asarlarining izohidagina ko‘rishimiz mumkin. Milliy e’tiqodga loyiq tarjima namunasi sifatida yunon mifologiyasini misol qilib keltirish mumkin»[Novalis., Athenaeum., Dormstadt 1960; 68].

Bundan tashqari Novalis keyinchalik yetakchiga aylangan tarjima muammosini muloqotning bir turi ekanligi haqidagi fikrni ilgari surdi. Darhaqiqat, oddiygina badiiylik yoki kongeniallik talablar go‘yo mexanik bukvalizm sifatidagi talab singari agar ular nazariy tayanchga ega bo‘lmasalar, A=A (Breytinger) formulasining amalda bir xilda bo‘lishligini ta’minlay olmasalar undan kutiladigan samara juda kam bo‘ladi. Novalis tarjima haqida gapirar ekan uni kommunikativ muammo sifatida tushunadi: tarjimon ham muallif ham bu o‘rinda «uni o‘z tili doirasida va o‘z g‘oyalarining shoiri sifatida» bir xil ohangda bir narsani gapirishlari lozim va shunday qilib bu

ijodiy, germenevtik va talqin qilishni talab etadigan muammodir. Qisqasi bu til va nutq muammosidir. Novalis badiiy tarjimaning rolini Germaniya uchun naqadar yuksak baholagan siymolardan biri edi: «Rimliklardan so‘ng biz tarjimaga benihoya qiziqish bilan qaraydigan yagona millatmiz, binobarin, tarjima adabiyoti bizga bergan sabog‘i uchun undan cheksiz ravishda qarzdormiz» [Das Problemdes Uberssetzens., V.Hans Joachim Storig., Stuttgart 1963; 38]. Bu davrda tarjima haqidagi fikrlarning uchinchi va oxirgi kulminatsiyasi Germaniyada Gyote, Shleyermaxer, Gumboldt, Yakob Grim va boshqalarning tarjimonlik faoliyati va nazariy qarashlari, Gerder va romantiklarning navbatdagi yutuqlari, shuningdek ular tomonidan ilgari surilgan samarador g‘oyalar va ularning keyinchalik Shopengauer, Fosslerlar tomonidan nafaqat Germaniyada balki xorijdagi ko‘plab tarafdorlari tomonidan davom ettirilganligi tufayli sodir bo‘ldi.

Buyuk olmon adibi Iogann Volfgang Gyote (1749-1832) nafaqat nemis mumtoz adabiyotining, balki badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotining ham genial vakillaridan biri edi. Gyote Didroning «Ramo jiyan», italyan tilidan o‘girilgan «Chellinining aftobiografiyasi» va ingliz tilidan o‘girilgan ajoyib tarjimalarini amalga oshirdi. Yuqoridagi ikki asar tarjimasini baholab Alfred Kurella quyidagilarni yozadi: «Ta’kidlash joizki, asliyatga nihoyatda yaqin bo‘lgan va nemis tilining boy imkoniyatlarini o‘zida mujassam qila olgan bu ikki tarjimani klassik darajada amalga oshirilgan ish deb atash mumkin; qolaversa Gyotedek klassik adibdan boshqacha natijani kutish ham mumkin emas edi» [A. Kurella 1959; 409].

Xulosa qilib aytganda olimlarimizning romantizmda tarjimonlik haqidagi ilmiy va nazariy fikrlari, qarashlari bu sohaning keyingi vaqtda rivojlanishi uchun keng miqyosda hissa qo‘shgan va qo‘shib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Курелла А. Теория и практика перевода. В сб.: «Мастерство перевода», М. 1959. С.409.

2. Das ProblemdesUberssetzens, hrsg. V. Hans Joachim Storig. Stuttgart,1963. p.38.

3. Novalis. Athenaeum. Dormstadt.1960. T 2., p.68.

4. Sdun W. Problem undTheorien des Ubersetzens. Munchen,1967.

5. Schelegel A. Athenaeum. Darmstadt. 1960. B.П., P. 280 -281.

6. Schlegal A. SamticheWerke, hrsg. V. Boching, B III., p.63.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASI AMALIYOTIDAN (“DUNYONING ISHLARI” ASARINING XITOY TILIGA TARJIMASI MISOLIDA)

***Noiba VALIEVA**, TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti, o'qituvchi*

So‘nggi o‘n yilda millatlar madaniyatlariaro aloqasi kundalik holatga aylangani hech kimga sir emas. Bu esa albatta, dunyo tarjimashunoslik birliklarini,lingvistik manzarasini zamon shiddatiga xos tarzda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ma’lum bir millatga xos frazeologik birliklar,maqollarning ham muqobil tarjimasiga talab oshdi. Biroq, frazeologik birliklar,turg’un iboralar, maqollar har bir xalqning yillar davomida orttirilgan tajribasi, dunyo manzarasi haqidagi tasavvurlari asosida yaralgani sababi, ularning tarjimasida mutlaq muqobil ekvivalenti bo‘lmaydi. Shu sababdan ham aynan tarjima jarayonida ikki xalqning dunyo manzarasi haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Insoniyat yaralib, tili so‘zga kelib,bir-biri bilan muomala qila boshlagandan boshlab hikmatli so‘zlar, maqol-matallar va frazeologik iboralardan foydalanyapti[4,3].

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi, shundan so‘ng ko‘plab tilshunoslar tomonidan frazeologik birliklar, ularning tarixi,leksik tahlili o‘rganila boshladi.

Ma’lumki, frazeologizm deganda, ko‘chma ma’no anglatadigan, ibora yoki turg’un so‘z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma‘no uning tarkibidagi so‘z komponentlariga xos leksik ma‘nolarning oddiy yig’indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma‘nosi umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi[2,3] . Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi va h[3,129].

Shu narsaga e’tibor berish zarurki, frazeologizmning semantik – grammatik modellashtirilishida uning ayrim lug’aviy birliklari muhim ahamiyat kasb etadiki, ularni inkor etish to‘g’ri bo‘lmaydi. Bunday lug’aviy birliklarning frazeologizmga bo‘lgan munosabati grammatik xarakter kasb etib, ularning leksik ahamiyati kuchsizlashadi. Shuni alohida e’tirof etish zarurki, frazeologizmning semantik qurilishida so‘zlarning denotativ ma’nolari emas, balki ularning ma’lum bir lug’aviy guruhga xoslangan konnotativ ma’nolari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki

frazeologizm semantik qurilishida so‘zlarning denotativ ma’nolari so‘-nib, konnotativ ma‘no qiymati kasb etish hollari ko‘p uchraydi. Fraze-ologizm semantikasi turli sabablar bilan bog’lanuvchi murakkab qurilma bo‘lganligi uchun frazeologizmning grammatik va semantik jabhasida muttasil ravishda nomuvofiqliklar yuz berib turadi[5,84].

Frazeologizmlar struktural,semantik, funksional- uslubiy jihatlari bi-lan murakkab hodisa bo‘lganligi uchun u o‘ziga xos shakllanish qonuni-yatlariga ega[6,32]. Frazeologizmlar narsa-hodisalar, voqealar, xarakter-larni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Fraze-ologizmlarni paydo bo‘lishi va shakllanishi muayyan tarixiy jarayon-lar,ijtimoiy muhit,o‘zbek turmushidagi hayotiy voqelikni va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador [6,49].

O‘zbek tilshunosligida ko’pgina olimlar ushbu mavzuda ilmiy izla-nishlar olib borishgan. Masalan, A.Mamatov,K.Bozorboyev,Sh. Rah-matullayev kabilardir. Ularning ilmiy ishlari frazeologik birliklarga bag’ishlangan bo’lsada, lekin fikrlar va qarashlar bir-biridan farqli.

Xitoy tilida esa frazeologik birliklar,matal va maqollar biroz o‘zbek tilidan tasnifi bilan ajralib turadi. Albatta, ikki tilning turli tillar oilasiga kirishini ham hisobga olsak, xitoy tilida asosan 4 ta iyeroglifdan iborat bo‘ladi.Dono fikrini, o‘tkir haqiqatini,teran mazmunni o‘zida mujassam etgan frazeologik iboralar nutqimizning ekspressiv (ya’ni ta’sir etuvchi,his-hayajon uyg’otadi) vositalari orasida eng ta’sirchan, kishini o‘ylashga, fikr mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir. Xitoy tilidagi 熟语 shuyu frazeologik iboralarga - 成语 chengyu-turg’un birikmalar;谚语 yanyu-maqollar;俗语 suyu(俗话 suhua)-matallar; 格言 geyan-hikmatli so‘zlar; 歇后语 xiehouyu ishora, oxirigacha aytilmagan so‘z, ya’ni topishmoq shaklida keladi (盲人骑瞎马 mang ren qi xia ma ko‘r so‘qir otga mingandek;xatarli); 惯用语 guanyongyu-ko‘p qo‘llaniladigan so‘z birikmalari, uch iyeroglifdan tashkil topgan, odatda og’zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi (走后门 zou hou men –orqa eshikdan chiqmoq;pora olmoq, 吹牛皮 chui niu pi lof urmoq;katta gapirmoq) lar kiradi. 成语 chengyu- tildan-tilga o‘tib sayqal topgan pand-nasihat ruhidagi chuqur mazmun,ixcham shakl, ta’sirchan ifodaga ega bo‘lgan xalq hikmatidir. Xitoy tilidagi turg’un iboralar yozuvda asosan 96% to’rt iyeroglifdan tashkil topgan, 4% esa 3-14ta iyeroglifdan tashkil topgan topgan bo‘ladi[8,21].

Asar muallifi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘.Hoshimov qahramon-larning bir – biriga bo‘lgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan

frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi so‘zlarning ma’nosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan va qahramonlarning fe’l-atvorini, dunyoqarashini ko‘rsatgan. Shunday ekan, biz ham xitoylik kitobxonlarga birlamchi ma’noni yetkazishga harakat qildik. Xususan, asardagi «Mening Acha xolam» novellasini ko‘rib chiqsak:

Hoji buvining ko'zlarida, hamisha ma'yus boquvchi ko'zlarida cho'g' yaraqlab ketgandek bo'ldi.

— O'zi tirikmi axir? — u ingragudek ohangda lo'li tomon talpindi. — Uch yildan buyon na o'ligini bilaman, na tirigini. Joni omonmi ishqilib?

但豪吉奶奶的目光中却闪过一丝愉快。

“他还活着是吗？已经三年石沉大海。”

Dàn háo jí nǎinai de mùguāng zhōng què shǎnguò yīsī yúkuài.

“Tā hái huózhe shì ma? Yǐjīng sān nián shíchéndàhǎi.”

Ushbu jumladagi “*na o’ligini bilaman, na tirigini*” xitoy tilida “*石沉大海*” deb berdik. *石沉大海Shíchéndàhǎi*- xat ham, xabar ham yo‘q[4,240].

石 shi （***石***头）tosh m.~*桥* qiao tosh ko‘prik.

沉 chen ①(***沉没***) cho‘kmoq; (***沉入***) sho‘ng’imoq : ***沉入水中*** *Chén rù shuǐzhōng*-suvga sho‘ng’imoq ; ②(***抑制***)***沉下心来，不要***发慌 *Chén xiàxīn lái, bùyào fāhuāng*-tinchlaning va vahima qilmang ; ③(***程度深***) chuqur: ***睡得很沉*** *Shuì dé hěn chén* –chuqur uyquda uxlash; ④(***分量重***) og’ir, og’irlik: ***沉得拿不***动 *Chén dé ná bù dòng*- og’irligidan ko‘tara olmaslik; ⑤(发沉) og’irlashmoq: *头沉 tóu chén*-boshi og’irlashishi;

大da ①(不小) katta *大树Dà shù* – katta daraxt; ②(*大小*) o‘lcham …

海hai ①(*海洋*) dengiz . *大海*-ochiq dengiz ;

Tarjima jarayonida “*na o’ligini bilaman, na tirigini*”ni xitoy tiliga *“石沉大海” “shí chén dàhǎi”* so‘zma-so‘z toshni ochiq dengizga cho’k-tirish ya’ni nom-nishonsiz, mavhum deganidir, aynan shu sababdan ham xitoychada tarjimasini ushbu frazeologizmni oldik. Xitoy tilidagi misolni ham ko‘rib chiqsak:

至第三日，又带了几个水手，分头寻找，也是枉然。一连找了数日，竟似石沉大海。《清李汝珍《镜花缘》第三十二回》

zhì dì sān rì, yòu dàile jǐ gè shuǐshǒu, fēntóu xúnzhǎo, yěshì wǎngrán. Yīlián zhǎole shù rì, jìng shì shíchéndàhǎi.(Qīng·lǐrǔzhēn “jìng huā yuán” dì sānshí'èr huí) Uchinchi kuni men yana bir necha dengizchini bilan birgalikda ularni alohida qidirdim, bu behuda edi.Bir necha kun qidirdik, xuddi ochiq dengizga cho’kib ketgandek (ulardan xat ham, xabar ham yo’q). (Tsin Li Ruzhenning “Oyna va gullar” 32-bobi).

Misollardan ko‘rinib turibdiki, *石沉大海 híchéndàhǎi* frazelogiyasi o‘zbek tilidagi “*na o’ligini bilaman, na tirigini*” tarjimasiga mos keladi, ikki tilda ham ma’no va mohiyati mavhumlikni, noaniqlikni ifodalamoqda.

«Oy quyoshdan nur oladi» novellasidagi tarjimani ko‘rib chiqsak:

Ammamning hamma gapini tushunmasam ham, Risolat opani yomonlayotganini his etib turardim. Yo'q, o'qituvchim yomonmas. Maktabdagi eng yaxshi o'qituvchi — o'zimizni opamiz. Hatto ikkinchi «B»dagilar ham bizga havas qilishadi. Ularning o'qituvchisi yomon.

*我虽然不明白姑姑说话但觉得她在传播我老师的**流言蜚语**。**我老**师在**学校最好的**，连二年级的学生也羡慕。**他**们的老师不好。*

Wǒ suīrán bù míngbái gūgū shuōhuà dàn juédé tā zài chuánbò wǒ lǎoshī de liúyán fēiyǔ. Wǒ lǎoshī zài xuéxiào zuì hǎo de, lián èr niánjí de xuéshēng yě xiànmù. Tāmen de lǎoshī bù hǎo.

Yuqoridagi “*yomonlayotganini”* xitoy tilida quyidagicha tarjima qildik*:* *流言蜚语Liúyán fēiyǔ*- yolg'on mish-mish bo‘htonlar. [4,199]

流 liu ①oqmoq, oqim. *鼻子里流血 bízi lǐ liúxuè* burndan qon oqmoq; ②(kimdir)sifatida bo‘lmoq,(kimga)aylanmoq. *流为盗匪 Liú wéi dàofěi* qaroqchi bo‘ldi (aylandi) va h.k.

言yan ①so’z . *一言以行 yī yán yǐ xíng* har bir so‘z,har bir amal; ②gapirmoq. *换言之 huànyánzhī* boshqacha aytganda; ③iyeroglif, so‘z. *全书近二十万言 Quánshū jìn èrshí wàn yán* butun kitobda ikkiz yuzmingga yaqin iyerogliflar bor.

蜚语 feiyu mish-mish,ig'vo.

Ushbu novellani tarjima jarayonida ko‘pgina qiyinchilikka duch keldik, sababi lakunalar, frazeologizmlardir. Ushbu gapda o‘quvchiga so‘zlovchining ammasi aynan yolg'on mish-mishlar tarqatayotganini anglatish uchun*流言蜚语liúyán fēiyǔ*

frazeologiyasini qo‘lladik. Xitoy tilidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

*村里人传开了**流言蜚语**，说什么夏家的寡妇不正派，伤风败俗。（杨朔《渔笛》）*

Cūnlǐ rén chuán kāile liúyán fēiyǔ, shuō shénme xià jiā de guǎfù bù zhèngpài, shāngfēngbàisú.(Yáng shuò “yú dí”)

Qishloq aholisi Xia oilasining beva ayollari odobli emasligini aytib, achhiqlanib, mish-mish tarqatishdi. (Yang Shuo "Baliq naychasi")

Adibning yana bir «Haqqush» nomli novellasida “ko'nglini olaman” iborasini xitoy tilida yarashish, kelishish kabi ma’noni anglatuvchi *言归于好 yán guī yú hǎo* frazeologiyasini qo'lladik.

Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisiniki Ishoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil

ekan. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'pti. 很久以前有一对兄弟。老大叫伊力哈克，老二叫伊斯浩克。他们互相憎恶、敌视。他们妈妈为了让兄弟言归于好想尽了各种各样的办法也没奏效。

Hěnjiǔ yǐqián yǒuyī duì xiōngdì. Lǎodà jiào yī lì hā kè, lǎo èr jiào yī sī hào kè. Tāmen hùxiāng zēngwù, díshì. Tāmen māmā wèile ràng xiōngdì yánguīyúhǎo xiǎng jǐnle gè zhǒng gè yàng de bànfǎ yě méi zòuxiào.

言归于好 yán guī yú hǎo –yarashish , kelishish [4,258]

言 yán ①so'z . *一言以疔 yī yán yǐ xíng* har bir so'z,har bir amal; ② gapirmoq. *换言之 huànyánzhī* boshqacha aytganda; ③iyeroglif, soz. *全书近二十万言 Quánshū jìn èrshí wàn yán.归 guī* ①qaytmoq,qaytish. *归国 guī guó* Vatanga qaytish va boshqa ma'nolari mavjud.

于 yú ①da, dagi. *于今年二月间 yú jīnnián èr yuè jiān* shu yilning fevral oyida va boshqa ma'nolari mavjud.

好 hǎo 1yaxshi,mehribon. *好思想 hǎo sīxiǎng* yaxshi ideologiya; *好马 hǎo mǎ* mehribon ot; ②yaqin,do'stona. *好朋友 hǎo péngyǒu* yaqin do'st va boshqa ma'nolari mavjud.

奉教撤兵，言归于好。(明冯梦龙《东周列国志》第五回)

Fèng jiào chèbīng, yánguīyúhǎo.(Míng·féngmènglóng "dōngzhōu liè guózhì" dì wǔ huí)

Qo'shinni to'xtating va yarashinglar (kelishinglar) (Ming· Feng Meng Longning "Sharqiy Chjou sulolasi" 5-bob).

Yuqorida xitoy tilidagi misoldan ham ko'rish mumkinki, *言归于好 yán guī yú hǎo* frazeologiyasi kelishish, yarashishi, ikki tomonni ko'nglini olishni ifodalamoqda. Shu sababdan ham tarjima jarayonida kitobxonda tushunarli bo'lishiga harakat qilgan holda, *言归于好 yán guī yú hǎo* frazeologiyasini qo'lladik.

Frazeologik birliklar eng ko'p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy – ommabop matnlarda qo'llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o'rni muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda quyidagi maqsadlarda foydalanishadi:badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: o'zbek tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy ma'no – mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki so'zlovchining shodligi, g'azabi, nafrati, o'kinchi, qo'rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. *Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'pti* (O'.H. Dunyoning ishlari, 9.). Yuqorida berilgan gaplarning tarkibidagi leksik va grammatik vositalar matnning ekspressivligini oshirishga xizmat qilmoqda. Gaplarda berilgan frazeologik birliklarning semantik strukturasidagi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko'rsatishga vosita bo'ladi[5,7].

Frazeologik birliklar ma’no jihatidan yuzaga kelgan hodisa bo‘lib, ular sintaktik jihatidan sodda gapga tengdir.Shunday ekan frazeologik birliklarni ham ma’no jihatidan , ham tarkibidagi sintaktik jihatdan shakllangan o‘zaro alohida bo‘laklarni o‘rganish amaliy va nazariy jihatdan ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- har doim ham tarjima qilinayotgan gapda frazeologik birlik bo‘lishi shart emas, ba’zan kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun so‘zning ma’nosiga muqobil frazeologik birlik ham qo‘llash mumkin (so‘z=frazeologik birlik);
- ikki tilda ham frazeologik birliklar ma’no jihatidan mutlaq sinonim bo‘lmaydi;
- kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun tarjima qilinayotgan tildagi urf-odatni, an’analar o‘zida aks etgan frazeologik birliklarni qo‘llasak maqsadga muvofiqdir;
- matnning ekspressivligini oshirish maqsadida soda gapni ikkinchi tildagi frazeologik birlikni qo‘llagan holda tarjima qilish mumkin (soda gap=frazeologik birliklar);
- frazeologik birliklarni konnotativ va denotativ ma’no, mohiyatini o‘rganish tarjimani asl matniga yanada muqobil bo‘lishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”, “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, bosh tahririyat, Toshkent-2005.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug’ati.-Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
3. Sayfullayev R.,Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent:Fan va texnologiya, 2009.
4. Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug’at.-Toshkent:Fan va texnologiya,2002.
5. Bozorboyev K. O‘zbek so’zlashuv nutqi frazeologizmlari:Filol.f.nomzodi.diss.-Samarqand, 2001.
6. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol.f.nomzodi diss. –Toshkent,1999
7. Nosirova S.A. “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalarning leksik-semantik va struktural tahlili ” (Lexic-semantic and structural analysis of modern chinese diplomatic language) nomzodlik dissertatsiya-Toshkent, 2007.
8. T.Akimov Xitoy tilidagi iboralar va ularni klassifikatsiya qilish “Sharq Mash’ali” 2019-№3
9. Kitaysko-russkiy slovar(Chinese-Russian dictionary).Sost.Fu Chong-Shanghai,2004.p 1249
10. O‘zbek tilining izohli lug’ati(Explanatory Dictionary of the Uzbek Language). “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5jild. Toshkent 2006-2008.
11. Cihai (dictionary)Beijing, 1979. p 2215.

NASRIY VA SHE'RIY MATNLAR TARJIMASIDA ADAPTATSIYA

***Dildora RAHMONOVA**, TDShU 2-bosqich magistranti*

Adaptatsiya keng tushuncha sanalib, uni turli fan tarmoqlarida uchratish mumkin, xususan, psixologiya, sotsiologiya, anatomiya, adabiyot, lingvistika va b. U tarjimashunoslikka ham xos bo‘lgan muhim terminlardan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslik terminlari lug‘atida unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Adaptatsiya – tarjima jarayonida an’anaviy qo‘llanuvchi atama bo‘lib, maxsus auditoriyani (asosan bolalar) inobatga olgan holda yoki tarjima ortidagi biror maqsadni ko‘zlab, tarjimada asliyat matniga kiritilgan o‘zgarishlarni ifoda etadi”. Nida va Taber bo‘lsa adaptatsiyani madaniyat tarjimasi bilan teng baholaydi. Shuningdek, adaptatsiya borasida Mark Shatlorz va Moira Koviylar nashr etgan tarjimashunoslik lug‘atida shunday deyiladi: “Vinay va Darbelnet adaptatsiyani tarjimaning yetti protsedurasidan biri sifatida baholaydi. Adaptatsiya bir yoqlama tarjima turi sifatida tarjima matnining asliyat matni bilan struktural va kontseptual parallelligiga suyanmaydi. Adaptatsiya vaziyat talab qilsa, asliyat matni tarjima qilinayotgan xalq madaniyatida mavjud bo‘lmaganda foydalaniluvchi strategiya sanaladi. Masalan, Angliyadagi mashhur kriket o‘yini matnda mashhurligiga urg‘u ketsa, fransuzcha tarjimada uni Tur de frans poygalari bilan almashtirilishini misol sifatida keltirish mumkin”[63] .

Mahmud Ordudari o‘zining “Tarjima protseduralari, strategiyalari va metodlari” nomli maqolasida Nyumarkning 1988 yilda tarjima metodlari tasnifini keltirib o‘tadi hamda unga ko‘ra: “Adaptatsiya: bu tarjimaning eng erkin shakli bo‘lib, asosan, pyesalar (komediyalar) va she’riyat tarjimasida, asliyatdagi asosiy mavzu, xarakter, mazmun-mohiyati saqlangan holda asliyat madaniyatining ko‘zlangan tarjima tiliga moslab konvertatsiya bo‘lishini anglatadi”[64] .

Bahlul Salmoniy hamda Mehdi Asgari o‘zlarining “Cultural context adaptation in translation of childrens short stories from English to Persian” nomli maqolasida tarjimani mutolaa etayotgan oddiy kitobxon asliyat tili egalarining madaniyati, dini, tarixi, siyosatidan bexabar bo‘lishi mumkin. Tarjimon esa bu holatlarni oydinlashtirishi, tushunarli qilishi lozim bo‘ladi. Bir tarafdan kitobxonni (ayniqsa bolalarni) boshqa madaniyatning qarama-qarshi qarashlari ta’siridan himoyalash lozim

[63] *Mark Shuttleworth & Moira Cowie*. Dictionary of Translation Studies., Routledge., New York., 1997., p – 5.

[64] Mahmoud Ordudar. Translation procedures, strategies and methods., Translation Journal and the Author.,Oslo., 2007, P-3

bo‘lsa, boshqa tarafdan o‘sha madaniyat o‘ziga xosliklari bilan tanishtirish muammosi turishini ta’kidlaydi[65] .

Tarjima texnikasi sifatida adaptatsiya texnik va obyektiv tarzda ta’riflanishi mumkin. Eng mashhur ta’rifni Vinay va Darbelnet (1958) beradi, ular adaptatsiyani tarjimaning protsedurasi sifatida baholab, tarjima jarayoni talab qilganda asliyat mazmunida mavjud bo‘lmagan madaniy yoki boshqa birlikni qo‘shish yoki qayta yaratish jarayoni deb hisoblaydi. Ushbu keng tarqalgan tushunchalar madaniy mos kelmaydigan har qanday holatlarda vaziyatlarning ekvivalentligini ta’minlash uchun foydalaniladigan tartib-qoidalar sifatida moslashadi.

Adaptatsiya ba’zan ma’lum janrlarga, ayniqsa, kinoda dramaga xos bo‘lgan tarjima shakli sifatida qaraladi. Darhaqiqat, undan dramani ekranlashtirishda tomoshabinlar auditoriyasini ta’sirli ushlab turish yohud film davomiyligini qisqartirish yoki kamaytirish maqsadida keng foydalaniladi. Ergash Ochilov tarjimada adaptatsiyaga qisqacha shunday ta’rif beradi: “Adaptatsiya – yengillashtirish, soddalashtirish, milliylashtirish. Tarjima tarixida uning bir necha ko‘rinishlariga duch kelamiz: 1) qisqartirib tarjima qilish; 2) muayyan darajada milliylashtirib tarjima qilish; 3) yirik she’riy asarlarni nasrda tarjima qilish; 4) ayrim milliy so‘z va tushunchalar, urf-odat va marosimlarni milliylashtirib tarjima qilish; 5) jahon adabiyoti durdonalarini bolalarga moslab qisqartirib tarjima qilish”[66]

Adaptatsiya shuningdek, reklama va kino janrlari subtitrlari bilan bog‘liq. Bu yerda ta’kidlash kerakki, asl matnning xususiyati va funksiyasini saqlab qolish lozim, shakl esa yangi auditoriya uchun moslanadi.

Tarjima tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, adaptatsiya ya’ni moslashuvning bir necha ko‘rinishlariga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Shohnoma”, “Masnaviyi ma’naviy”, “Guliston” kabi asarlarning ixchamlashtirib qilingan tarjimalari yoki ularning muayyan olingan qismlari tarjimasi. Masalan, Eron va Turon xalqlarining qariyb to‘rt ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan badiiy talqin qilingan 60 ming baytdan iborat “Shohnoma” ustida Firdavsiy 35 yil ter to‘kadi. “Shohnoma” o‘zbekchaga Shoh Hijron, Xomushiy (XVIII), Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy (XIX), H. G‘ulom, Nazarmat, J.Jabborov, Sh.Shomuhamedovlar (XX) tomonidan tarjima qilingan bo‘lsa-da, bu tarjimalarning birortasi to‘liq emas. Chunki 120 ming misradan iborat bu muazzam she’riy asarni boshqa tilga tarjima qilishning o‘zi bo‘lmaydi.

[65] Cultural context adaptation in translation of children’s short stories from English to Persian., Theory and practice in language studies., Tehran., May 2016., Vol. 6, No. 5, P- 565.

[66] Ochilov E, Tarjima nazariyasi., Toshkent.,2014.,120-bet

Shuning uchun ham asrlar davomida uning muxtasar nasriy, ba’zida nasr va nazm aralash tarjimalari amalga oshirilib kelgan. Yoki epopeyadagi “Rustami doston”, “Zol va Rudoba”, “Bijan va Manija”, “Isfandiyor”, “Shog‘od”, “O‘n ikki muhoraba” , “Siyovush” kabi dostonlar alohida-alohida tarjima qilingan.

O‘quvchilar talab va ehtiyojlarini hisobga olib, yirik she’riy asarlarni nasrda tarjima qilish. “Shohnoma”, “Masnaviyi ma’naviy”, “Ilohiynoma”, “Hasht bihisht” asarlarining nasriy tarjimalari. She’riy asar tarjimasi avvalo muayyan qiyinchiliklarga ega bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘quvchisi kam bo‘ladi. Bu ikki omil ba’zida she’riy asarlarni nasriy tarjima qilishga sabab bo‘ladi. Masalan, Muhammadrizo Ogahiy Amir Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”) dostonini nasriy tarjima qilgan edi. Hozirgi davrda esa taniqli tarjimashunos olim Najmiddin Komilov keng o‘quvchilar ommasining talab va istaklarini hisobga olib, mashhur mutasavvif shoir Farididdin Attorning “Ilohiynoma” va “Mantiq ut-tayr” dostonlarini nasriy tarjima qildi.

Tarjimon har bir badiiy asarni tarjima qilishga kirishar ekan, xoh nazmda, xoh nasrda yozilgan bo‘lsin, uning barcha umumiy xususiyatlarini ko‘zda tutish bilan birga, ish davomida asarning muayyan bir yaxlitlikdan iborat ifoda birligiga suyanadi.

She’rdagi ifoda birligi nasrga qaraganda boshqacharoq. Bunda mantiqiy-grammatik tugallikdan tashqari, ritmik intonatsion tugallikni ham hisobga olish zarur. Har bir she’riy asarning kichik birligi, tur va janriga qarab, uning turli qismlariga to‘g‘ri keladi. Masnaviyda tarjima uchun eng kichik mustaqil bo‘lak bayt hisoblanadi.

“Guliston”dagi masnaviy tarjimonlari har bir baytni alohida nazarda tutib, uning vazni, qofiyasi, radifi, ichki ohangdoshliklari, so‘z-obrazlari, mazmun-ma’nosi – hammasini bir paytning o‘zida hisobga olgan holda tarjima qilishga harakat qilishgan. Shu asnoda u har bir baytning qaysi jihatini olib qolish, qaysi qismini qurbon qilish, qanday qilib asl nusxaga muvofiq keluvchi bayt yaratishni uzil-kesil hal qilib oladilar. Shunday qilib, “Guliston”ning o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalarida deyarli barcha tarjimonlar qo‘l urgan o‘zgarishlar, “qurbon”lar har bir bayt doirasida amalga oshadi, ko‘p hollarda esa adaptatsiya ko‘rinishlariga duch kelishimiz mumkin, ya’ni alohida kelgan ikki masnaviy baytini mazmunan qo‘shib bitta qilish yoinki she’riy misralarni butunlay nasrda tarjima qilish hollari ko‘p amalda qo‘llanilgan. To‘g‘ri,bir misoldagi o‘zgarish barcha tarjimalarda bir xil deb bo‘lmaydi, sababi biror tarjimon bir misolda o‘zgarish qilmagan bo‘lsa, boshqasida albatta o‘zgarish mavjud. Biroq mazkur tarjimalarda adaptatsiyaning umumiy jihatlari yo‘q emas.

Muayyan darajada milliylashtirib tarjima qilish. Masalan, “Kalila va Dimna”ning o‘zbekcha tarjimalarida hindlarning milliy urf-odatlari va diniy marosimlari tasviri qisqartirib ketilgan yoki milliylashtirib olingan. Bu holni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus va yevropa adabiyotidan rus tili orqali amalga oshirilgan tarjimalarda ham ko‘ramiz.

Ayrim milliy so‘z, atama va tushunchalarni milliylashtirib tarjima qilish. Masalan, “Kalila va Dimna” tarjimasida o‘zbek o‘quvchilariga notanish bo‘lganligi uchun delfin obrazi toshbaqa bilan almashtirilgan. Rus va yevropa adabiyotidan tarjimalarda ko‘pincha “pirog” − “somsa”, “pasxa” − “ro‘za”, “cho‘qintirish” − “azon aytish”, “rojdestvo” − “yangi yil”, “hayit”, “navro‘z” deb tarjima qilib ketilaveradiki, bularning barchasini ham oqlab bo‘lmaydi.

Jahon adabiyotining durdona asarlarini bolalarga moslab qisqartirib tarjima qilishda adaptatsiyaning yana bir ko‘rinishini ko‘rish mumkin. Masalan, Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asarining ixchamlashtirilgan tarjimasi va boshqalar.

Murakkab uslubdagi asarlarni bir qadar soddalashtirib tarjima qilish ham adaptatsiyaga misol bo‘la oladi. Buyuk rus adibi Lev Tolstoybir-bir yarim sahifaga cho‘ziladigan gaplar tuzadi, manzaralar yaratadi − jumlalar o‘zaro bir-biriga ulanib, “mindi-mindi” bo‘lib ketadi.

Bunday keng, yoyiq, uzundan-uzun jumlalarini tarjimada qayta yaratishdan qiyini yo‘q. Ba’zi tillar grammatik tuzilishiga ko‘ra bunga hatto imkon bermaydi. Aytaylik, turkiy tillarning tabiati uzun gaplarni ko‘tarmaydi.Shuning uchun ular o‘zbek tiliga (boshqa turkiy tillarga ham) ko‘pincha sindirib, bir necha gaplarga bo‘lib tarjima qilinadi. Adib asarlari fransuz tiliga ham kichik-kichik jumlalarga bo‘lib tarjima qilingan. “Urush va tinchlik” tarjimasida atoqli turk shoiri Nozim Hikmat ham uning uslubini saqlashga harakat qiladi, lekin hamisha ham buning uddasidan chiqolmaydi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Men faqat originalning ruhinigina emas, balki muallif uslubining o‘ziga xosligini ham saqlash va aks ettirishga intildim. Esimda, Tolstoy davri haqida xulosa chiqaruvchi ko‘p gaplardan iborat katta, yoyiq jumlalar meni boshi berk ko‘chaga keltirib qo‘ygan edi. Bu jumlalarni fransuz tarjimonlaridek kichik-kichik jumlalarga bo‘lib yuborish menga g‘alati tuyuldi, chunki bunday yo‘l tutilsa, Tolstoy uslubining o‘ziga xosligi va xarakterliligi yo‘qoladi. Tolstoy jumlalarini o‘zicha saqlab qolish ham mumkin emas − bu qo‘pol tarjima bo‘lib, turk tilida o‘qish uchun ancha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun men o‘rtacha bir yo‘l topishga harakat qildim, bu yo‘l hamisha ham birdek muvaffaqiyatli chiqqan deb bo‘lmaydi”[67] .

[67] Ko‘chirma quyidagi maqoladan olindi: Hazratqulov M. Uslub va tarjima ba’zi kuzatishlar. 269-270-b.

Sharq adabiyoti namunalarida Qur’oni karim va Hadisi sharifdan olingan iqtiboslar ham ko‘pincha muxtasar shaklda beriladiki, bu ham tildagi adaptatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Masalan, mashhur fors-tojik adibi Sa’diy Sheroziyning mashhur “Guliston” pandnomasida oyat va hadislarni turli maqsadlarda keltirishda uch usul qo‘llangan: ular goh to‘liq, goh qisqartirilgan tarzda keltirilgan bo‘lsa, goh ma’lum bir so‘z yoki jumla orqali ularga ishora qilib ketilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adaptatsiya tarjima amaliyotida unumli foydalaniladigan bir tarjima usuli bo‘lib, u murakkab asarlarni kitobxonga osongina yetqazib bera oladigan kuchga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Mark Shuttleworth & Moira Cowie*. Dictionary of Translation Studies., Routledge., New York., 1997

2. Mahmoud Ordudar. Translation procedures, strategies and methods., Translation Journal and the Author.,Oslo., 2007

3. Cultural context adaptation in translation of children’s short stories from English to Persian., Theory and practice in language studies., Tehran., May 2016., Vol. 6, No. 5

4. Ochilov E, Tarjima nazariyasi., Toshkent.,2014

5. Hazratqulov M. Uslub va tarjima ba’zi kuzatishlar (maqola)

O’ZBEK VA XITOY TILLARI ORASIDA TARJIMA JARAYONIDA DUCH KELINADIGAN LEKSIK MUAMMOLARGA DOIR

***Iroda SAFAROVA**, TDSHU, 1-bosqich magistranti*

Xitoy tili eng qadimiy tillardan biri bo’lib, ushbu tilda yozilgan yodgorliklar jahon madaniy ahamiyatiga ega bo’lishi bilan bir qatorda, bu tilning dunyo miqyosidagi dolzarb ahamiyati - iqtisodiyot, madaniyat va dunyo bo'ylab aloqalar tobora rivojlanayotganida guvohi bo’lamiz. Xitoy tili, aksariyat boshqa xitoy-tibet tillari singari, ohanglarning mavjudligi, deyarli barcha oddiy so'zlarning monosillabligi va bu oilaning boshqa tillariga qaraganda ko'proq fleksion qo'shimchalarning deyarli yo'qligi bilan ajralib turadi. Xitoy nutqining yuzaki sintaksisi asosan psixolingvistik jarayonlar va tuzilmalarni aks ettiradi yoki modellashtirishga imkon beradi. Xitoy tili to'q-qizta katta dialektal guruhga bo'lingan. Dialekt guruhlarining har biri o'z navbatida ko'plab lahjalar va mahalliy shevalarga bo'linadi. Lahjalar orasidagi tafovutlar shunchalik sezilarliki, shevada so'zlashuvchilar o'rtasidagi aloqada odatda farqlanuvchi jihatlari seziladi. Ayniqsa, shimoliy va janubiy

lahjalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Yuqorida keltirib o’tilgan ma’-lumotlar aynan tarjima jarayonida ba’zan xatoliklarni yoki qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan omillar hisoblanadi. So'zlarni tarjima qilishdagi ba'zi xatolar tarjima amaliyotida xitoy va o’zbek tillarining leksik tizimlarida so'zning semantik tuzilishi turida yuzaga keladigan nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi. Har qanday so’z, ya’ni leksik birlik tilning leksik tizimining bir qismidir. So'zning turli tillardagi ma'nosida bir xil hodisa yoki tushunchaning turli xil belgilari ko'pincha ajralib turadi, bu ma'lum bir tilga xos bo'lgan dunyoni, aniqrog’i, ushbu tilda so’zlashuvchilarga tarjima qilishda qiyinchiliklar tug’diradigan ko’rinishni aks ettiradi. Tarjima qilingan matnda so'zning ma'nosini to’liq yetkazish uchun so’zni to'g'ri tanlash tarjimaning asosiy va eng qiyin vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifaning qiyinligi so'zning murakkab xususiyati, uning ko'p qirraliligi va semantik boyligi bilan bog'liq. Xitoy va o’zbek tillarida leksik birlik sifatida so'z har doim ham mos kelavermaydi, ko’pincha xitoy tilidagi bitta so'z qo'shma so'z yoki butun iboraga to'g'ri keladi. Rus xitoyshunosi va ketma-ket tarjimaning mohir tarjimoni Borisova L.I. “Leksik tarjima bilan bog'liq qiyinchiliklar” nomli qo’llanmasida ushbu misolni keltirgan: 宪法是母法 ,**普通法是子法**. **母法** mufa so’zi – “birlamchi qonun” yoki “boshlang'ich qonun” tarzida emas, balki “qonunlarning onasi” deb tarjima qilingan va qonunchilikda so'z qo'llashda qo'pol xatolikka yo'l qo'yilgan[68]. So'zning semantik tuzilishi uning kontekstda foydalanish imkoniyatini oldindan belgilab beradi va so'zning kontekst ma'nosini tarjima qilish oson muammo emasligi barchamizga ma’lumdir. So'zning kontekst ma'nosi ko'p jihatdan semantik kontekstning xususiyatiga, so'zlarning semantikasiga bog'liq.

She'riyatda yoki badiiy adabiyotda so'zni kontekstual ishlatilishini tarjimon mahorati oraqali har bir so'zning paradigmatik va semantik aloqalar bilan ajralib turishi va leksik imkoniyatlari ikkala holatda ham ochib beriladi biroq, ushbu ma'nolarni aniqlash har bir tilning leksik va ekstralingvistik jihatlarining o'ziga xosligi bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun tarjimada so'zlarning kontekst ma’nosini yetkazish qiyin, so'zning semantik hajmi qanchalik keng bo'lsa, uning muvofiqligi shunchalik keng bo'ladi.

Shuningdek, lug’atlarning turli qatlamlariga mansub so'zlarni tarjima qilish masalasini ko'rib chiqishda mahalliy lahjalar va jargon so'zlarini ham eslatib o'tish lozim. Mahalliy lahjalarni tarjima qilishda tarjima qilinayotgan tilning shevalaridan deyarli foydalanmaslik kerak, chunki bu mutlaqo noto’g’ri ma’noli qo’shma so’zlar va begona milliy ta'mni keltirib chiqaradi. Mahalliy lahjalarni tarjima qilish murakkab vazifa bo'lib, uni faqat mos ekvivalentlar bilan hal qilish mumkin. Shuning uchun tarjimon beril-

[68] Borisova L.I. Leksik tarjima bilan bog'liq qiyinchiliklar. - M.:, 2000 yil.-350 b

gan so'zning uslubiy ma'noga ega yoki adabiy, she'riy, dialektal va jargonga tegishli ekanligini aniqlashi kerak. Xitoy tilidagi og'zaki tarjima tarjimondan tilni yaxshi bilishdan tashqari maxsus mahorat talab qiladi. Notiq har bir gapdan keyin to'xtab qolishi yoki nutqini mantiqiy qismlarga ajratishi mumkin, o'zbek tilidan og'zaki xitoy tiliga tarjima qilish juda qiyin. Tarjimon doimo diqqatni jamlashi, xotirasini kuchaytirishi, eshitish qobiliyatini jamlashi kerak. bundan tashqari, xitoy tiliga tarjima qilish ko'plab lahjalarning qo'llanilishi bilan murakkablashadi. Har bir dialekt fonetikasi, so'z boyligi va faqat o'ziga xos bo'lgan grammatik qoidalari bilan ajralib turadi. Umuman olganda, tarjimon har qanday berilgan tarjima mavzusidan xabardor bo'lish, balki asosiy tushunchalar bilan ham yaqindan tanishishi maqsadga muvofiqdir. Xitoy tili asosan omonim so'zlari mavjudligi sinxron tarjima faoliyatida navbatdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xitoy tilida aynan omonimlar ishlatilinganda tarjimondan har doim hushyorlik bilan birga, so'zlar ohangiga ham e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Misol tariqasida quyidagi so'zlarni keltirib o'tamiz, xitoy tilidan o'zbek tiliga "jismoniy kuch" 力气 liqi hamda "og'ir qurol"利器 liqi deb tarjima qilunuvchi ikki so'z bir xil ohang, omonim so'z biroq ma'nosi jihatdan mutloq ikki xil so'z, bu esa tarjimonga kontekst orqali namoyon bo'ladi. Ketma-ket va hatto sinxron tarjima paytida ma'lum omonim so'zlarning ishlatilishi nafaqat so'z turkumlari doirasida balki, joy nomlarni qo'llashda ham kuzatiladi.

Xitoy tilida iboralar ham keng tarqalgan bo'lib, ular o'zbek tiliga ba'zan faqat bitta so'z bilan yoki o'zbek tilidagi mavjud ibora orqali ham tarjima qilinadi. Masalan, 积极 分子 jiji fenzi iborasi xitoy tilidan o'zbek tiliga "faol" tarzida tarjima qilinsa,一团和气 yituan heqi iborasi esa "xayrixohlik" ko'rinishida tarjima qilinishi bilan kifoyalanadi. Frazeologik birliklar keng qo'llanilishi xitoyliklar og'zaki nutqida har doim kuzatiladigan holat bo'lganligi bois, o'zbek - xitoy tili tarjimonidan xitoy tilidagi iboralarni yaxshi o'zlashtirilishi ham talab sifatida keltiriladi, shunda xitoy tilidagi ushbu iboralarga mos keladigan aniq ekvivalentni berish muamosi bartaraf etiladi. So'zimizning isboti sifatida quyidagi iboralar va ularning tarjimalarini keltirib o'tamiz, "咬字 眼儿" iborasi o'zbek tilida "har bir so'zdan xato qidirish" tarzida tarjima qilinadi, agar so'zma-so'z tarjima qilsak, "iyeroglifga yopishgan ko'z" sifatida tarjima jarayonida noaniqlik vujudga keltiradi. Keying ibora "哭丧着脸" "g'amgin yuz" so'zigina orqali tarjima qilinadi.

Xitoy tilining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarining o'ziga xosligi tarjimondan nafaqat xitoy tilini mukammal bilishini, balki mamlakat tarixi va zamonaviy hayotidan ham xabardor bo'lishini talab qiladi. Xitoy tilidagi matnlarning tarjimasi aniq va to'liq bo'lishi atamalarning ma'nosi yo'qolmasligi albatta, matnning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Ilmiy, axborot, badiiy, diniy nashrlar turli xil uslublarga ega, turli xil vositalardan keng foydalanilishi bilan ajralib turadi. Tarjima jarayonida biz doimo grammatik va leksik o'zgarishlarga murojaat qilishimiz, leksik tizimlarida ham nomuvofiqliklar mavjudligi inobatga olinilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni keltirib o'tamanki, yigirma birinchi asrni xalqaro konferensiyalar, simpozium, anjumanlarsiz va shu o'rinda sinxron tarjimasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, sinxron tarjimani bizning davrimizdagi dolzarbligi ham shubhasizdir. Sinxron tarjimon eng avvalo ham professional ham umumiy talab etiladigan kompetensiyalarga ega bo'lishi, ovoz tempi va dinamikasi to`g`ri shakllanishi bilan bir qatorda, asosiy xususiyati - ma'ruzachi nutqini parallel ravishda qabul qilish hamda tajribasidan kelib chiqqan holda mohirona tarjima qilishdan iborat hisoblanadi. Tarjima faoliyatining barcha turlari orasida sinxron tarjima vaqtning eng cheklanganligi bilan ajralib turadi va axborotni qayta ishlash va ko'paytirish tezligini tanlash uchun eng kam imkoniyatlarni taqdim etadi. Sinxron tarjimon barcha xabarlarni to'liq idrok eta olmaydi va shundan keyingina tarjima yechimini izlay boshlaydi. U qisqa muddatli xotirasi imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan ma'ruzachi bilan hamqadam bo'lish uchun matnni kichik qismlarga yo'naltirgandan so'ng darhol buni qabul qilishga majbur boladi, odatda tayyorgarlik materiallari har doim ham oldindan ta'minlanmaydi, shu sababli tarjimon kengroq kontekstni olish uchun bir necha soniya to'xtab qoladi, aks holda noto'g'ri grammatik va sintaktik xatoliklar kuzatilishi ehtimoli katta. Tanaffus sinxron tarjimonga dastlab vaziyatni to'g'ri baholashi va yetarli darajada tarjima qilish imkoniyatini beradi, tanaffus paytida esa yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydigan takroriy tematik ma'lumotlarga murojaat qilish holatlari kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan omillarda xatolikarga yo'l qo'ymaslik o'zbek tilidan xitoy tiliga yoki aksincha xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida duch kelinadigan leksik va ekstralingvistik muammolarni bartaraf etishda ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Borisova L.I. Leksik tarjima bilan bog'liq qiyinchiliklar. - M.:, 2000 yil.-350 b. (Veyze A.A., Konysheva A.V).
2. 朱德藩。现代汉语语法研究。商务印书馆，2007 年
3. Nosirova S. Xitoy tilining ijtimoiy –siyosiy va diplomatic terminologiyasi. – T.:Yangi asr avlodi, 2011. – 150 б.
4. 任学良.汉语选词法.- 北京, 1981.
5. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. М.:2000.

MADANIYATLARARO MULOQOT VA BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

TARJIMA MADANIYATLARARO MULOQOT VOSITASI SIFATIDA

F.f.d. ***Zilola XUDAYBERGENOVA***
Bartin universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Tarjimani tadqiq etishning muhim asoslaridan biri tillararo muloqot kommunikantlarini ma'lum bir lingvo-ijtimoiy-madaniy jamoaning vakillari, ma'lum bir milliy madaniyatning sub'ektlari sifatida qabul qilish va bu muloqotni madaniyatlararo, shaxslararo o'zaro ta'sir ekanligini anglash hisoblanadi. Tarjima esa, tabiiy ravishda, vositachilikning bir turi o'laroq nafaqat tillararo, balqi madaniyatlararo muloqotning vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Tarjimani madaniyatlararo muloqotning vositasi sifatida qabul qilish, tilni yagona ijtimoiy-madaniy butunlik bo'lgan madaniyatning uzviy unsuri tarzida tushunishdan kelib chiqadi. Zero, madaniyat ma'lum bir millatning qo'p qirrali tarixiy, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlari, milliy an'analari, qarashlari, institutlari, axloq-odob qoidalari, maishiy hayoti, shart-sharoitlari, bir so'z bilan aytganda, uning ijtimoiy borlig'i va ijtimoiy ongi, jumladan, tilni o'z ichiga oluvchi jamiyatning moddiy va ma'naviy yutuqlarining yig'indisidir.

Tarjima jarayonida faqat ikki til emas, balki umumiy va xususiy belgilarga ega ikki madaniyat o'zaro ta'sirga kirishadi. Ular o'rtasidagi umumiylik, baynalminallik, umuminsoniylik hamda xususiylik, spesifiklik, milliylikni aniqlash madaniyatlararo muloqotning eng muhim xossalaridan biri hisoblanadi. Umuminsoniylik va milliylik-spesifiklikning yuzaga kelishining manbalari "sotsiumning konseptual va dunyoning lisoniy manzarasi" kabi tushunchalarning tadqiqida o'rtaga chiqadi[69].

Dunyoning lisoniy manzarasi "dunyo manzarasi"ning bir parchasi bo'lib, dunyo manzarasi lisoniy belgilar va hattoki, til, til birliklari, til qoidalari va ularning mazmunini bilish orqali shartlangan holda namoyon bo'ladi[70]. Lisoniy manzarani avloddan avlodga verbal kod orqali saqlanib o'tadigan bilimlar, mutanosib madaniy qiymatga ega ahamiyatli ma'lumotlarni verballashtiruvchi mexanizmlar yordamida faollashuvchi

[69] Валеева, Н.Г. Перевод – языковое посредничество, способ межкультурной и межъязыковой коммуникации. http://perevod.vlz.ru/5.htm

[70] Серебренников Б.А., Кубрякова Е.С., Постовалова В.К. - Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира . М., 1988. -144С.

dunyo haqidagi ma’lumotlarning yig‘indisi sifatida sharhlash mumkin. Dunyoning lisoniy manzarasini olam haqidagi ma’lumotlarni verbal-lashtirish, so‘z orqali ifodalash mexanizmlari yig‘indisi deb ham izohlash mumkin. Umuminsoniy xususiyatlarning mavjudligi turli tillarda so‘zlashuvchi insonlarning mushohada shaklidagi o‘xshashlik yoki bir xillik bilan belgilanadi. Bu holat esa insonning jismoniy tabiati, uning bosh miyasi vazifalari, oliy nerv tizimi bilan sharhlanadi. Bunday mushtaraklik barcha xalq va elatlar yashaydigan dunyoning ob’ektivligi va birligiga yo‘l ochadi.

Bu dunyodagi ko‘p sonli xalqlarning milliy tillari - reallikni ruhiy-aqliy o‘zlashtirishning turli usullari va yo‘llaridir. Bunday o‘zlashtirish inson mushohada tarzining ayni tamoyillariga asoslanadi va real dunyoni adekvat anglash sari yetaklaydi. Tashqi dunyoni ob’ektiv aks ettiruvchi inson mushohadasining mantig‘i odamlar qaysi tilda gaplashishidan qat’i nazar yagona va umumiydir. Hayotning tashqi shart-sharoitlari, moddiy reallik insonlar ongi va ularning xulqini belgilaydi, dunyo manzarasini shakllantiradi. Inson ongida in’ikos etgan dunyo manzarasi ob’ektiv dunyoning ikkilamchi mavjudlik shakli bo‘lib, o‘ziga xos moddiy shaklda reallashadi va mustahkamlanadi. Ushbu moddiy shakl til va dunyoning lisoniy manzarasidir. Aynan shu ma’noda tilni anglash yagona va ob’ektiv dunyoni egallash, o‘zlashtirishning shakli sifatida maydonga chiqadi.

Dunyo manzarasining shakllanishida til inson tomonidan nazariy va amaliy faoliyat jarayonida egallangan tushunchaviy (fikriy-mavhumiy) mazmunni ifodalash shakli vazifasini bajaradi. Til ob’ektiv dunyo bilan mutanosib bo‘lib, millatlar va xalqlarning milliy konseptual va lisoniy manzaralar o‘rtasidagi farqlar ayni bir dunyoni o‘zlashtirish jarayonidagi turli tajribalaridan kelib chiqadi.

Alohida til modellari o‘z tuzilmasiga ko‘ra bir-biridan farqlansa-da, pirovard-natijada ularning barchasi inson ongidagi atrof dunyoning in’i-kosi bo‘ladi. Ayni paytda alohida bir millat yoki xalqning mavjudlik shaklining aniq tashqi shart-sharoitlari (jo‘g‘rofiy, jismoniy-antropologik xususiyatlari, madaniy-maishiy an’analari va b.) dunyoning milliy lisoniy manzarasi va dunyoning milliy konseptual manzarasi asosini belgilovchi tasavvurlar yig‘indisi va spesifik xususiyatlarini shakllantiradi.

S.G.Ter-Minasova dunyoning manzarasiga tilning ta’sirini obrazli shaklda quyidagi tavsiflaydi: «Har bir xalq xuddi rassomchilikning alohi-da yo‘nalishlarida bo‘lgani kabi, dunyoni madaniy shaklda o‘ziga xos ko‘rish shakliga ega. Real dunyoda ayni bo‘lgan pichan g‘arami realist,

impressionist, kubist, abstraksionist tomonidan turli shaklda chiziladi. Tilni rassomning mo‘yqalami bilan qiyoslash mumkin. Rassom real naturadan chizadi, ammo uni dunyo manzarasini shakllantiruvchi badiiy ongi prizmasidan o‘tkazadi. Dunyoning tildagi in’ikosi bu tilda so‘zlashuvchi xalqning kollektiv ijodi bo‘lib, har bir yangi avlod ona tili bilan birgalikda milliy xarakter, dunyoqarash, axloq qoidalari va b.lar singdirilgan madaniyat majmuasini qo‘lga kiritadi»[71].

Bugungi kunda hech kim tillar reallikni turlicha, asimmetrik shaklda aks ettirishiga shubha bildirmaydi. Tarjima jarayonida tillar o‘zaro aloqaga kirishadi, reallikning ma’lum bir parchasi xossalari tavsiflashda, bir tilni boshqa til bilan solishtirishda, ya’ni asimmetriya orqali nisbatan aniq ko‘zga tashlanadi.

Tillarni solishtirish jarayonida, turli tillar vakillari reallikni farqli ravishda bo‘laklarga ajratadi, ayni bir hodisa va narsani turlicha tavsiflashadi, bu narsalar va hodisalarning turli belgilariga diqqat qaratishadi. So‘zning semantikasi ma’lum bir til tashuvchisining dunyoqarashini ifoda etadi. Nominatsiya asosida turli tillarda farqlanuvchi biron-bir belgilar yotadi. Masalan, o‘zbek va turk tillaridagi “ko‘zoynak” – “gözlük” so‘zi “ko‘z” – “göz” so‘zidan yasalgan, ya’ni ko‘zga taqiladigan aksessuar yoki jihoz nima uchun mo‘ljallanganligiga qarab nomini olgan. Ingliz tilida bu so‘z uchun "glasses" so‘zi ishlatiladiki, u ko‘zoynakning “oyna”dan yasalganligiga ishora qiladi. Yoki o‘zbek tilida “kamalak” so‘zi tabiat hodisasining rang-barangligiga ishora qiladi. Turk tilida “gökkuşağı” so‘zi ishlatiladiki, bu so‘z “osmon belbog‘i” deb tarjima qilinadi. Ingliz tilida bu ma’noda “rainbow” – “yomg‘ir kamoni” so‘zi ishlatiladi. Har ikki holda ham kamalakning tuzilishiga ishora qiluvchi “belbog‘”, “kamon” so‘zi qo‘llanilgan, turk tilida kamalakning hosil bo‘lish o‘rniga ishora qilinadi, ingliz tilida kamalakning yomg‘irdan keyin paydo bo‘lishiga e’tibor qaratiladi[72].

Shu tariqa, tashqi o‘xshashlikni namoyon qiluvchi dunyo lisoniy manzarasining simmetrik bo‘lgan qismiga, ya’ni aslida noekvivalentlikka duch kelamiz. Bu noekvivalentlik insonning turli darajadagi mavhumlashtirishga asoslangan kognitiv faoliyatidagi umumiylik va xususiylik muxolifatini aks ettiradi. Bu holat har bir millatning dunyo haqida, moddiy,

[71] Тер-Минасова С.Г.Язык и межкультурная коммуникация. М., 2000.

[72] Абдулмянова, И. Р. Проблема формирования профессиональной языковой личности переводчика при обучении иностранным языкам [Текст] / И. Р. Абдулмянова // Исследования молодых ученых : сб. ст. аспирантов / отв. ред. А. В. Зубов / Минск. гос. лингв. ун-т – Минск, 2006. – С. 199-203 (0,5 п.л.).

ma’naviy, tashkiliy va xulqiy sohalardagi madaniyatning umumiy hodisalari haqida o‘z tasavvurlariga egaligi bilan aloqador.

Gap bu o‘rinda nafaqat ma’lum bir etnik madaniyatda mavjud bo‘lmagan, boshqa madaniyatga xos bo‘lgan xususiyatlar haqidagina emas, balki umuminsoniy madaniyatda mavjud bo‘lgan u yoki bu ob’ektlarga bo‘lgan turlicha munosabatlar haqida ketadi. Bu ob’ektlar ma’lum bir xalqning madaniy tajribasiga ko‘ra turli assotsiatsiyalarni uyg‘otishi mumkin. Masalan, janublik xalqlar uchun qor nodir tabiat hodisasi, janub hududlarida qorning yog‘ishi ekzotik ko‘rinishi, cho‘chitishi, hattoki ishlarning to‘xtashiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayni paytda qor ko‘pchilik uchun Yangi yil belgisi. O‘rta hududlarda yashovchi xalqlar uchun qor odatiy kutilgan tabiat hodisasi bo‘lib, unga tayyorgarlik ko‘riladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Alyaska eskimoslari tilida qorni turli holatlarda tavsiflovchi yigirmadan ortiq so‘z bor. O‘zbek va turk tillarida bir necha so‘zlar bilan ifodalanuvchi qor tushunchasining bu qadar ko‘p sonli so‘zlar orqali ifodalanishi eskimoslar uchun qor shunchaki tabiatning uzviy parchasi emas, balki eskimoslar madaniyatining ko‘p unsurlari uchun muhim bo‘lagi ekanligini ko‘rsatadi[73] .

Turli madaniyat odamlari quvonch va g‘am, sevgi va nafrat kabi tuyg‘ularni o‘zgacha ifoda etishadi, ular uchun vaqt turlicha kechadi, dunyo farqli ranglarda va tovushlarda namoyon bo‘ladi. Ba’zi xalqlarda ayrim predmetlar bor, boshqa xalqlarda esa ular yo‘q, ba’zilar ba’zi predmetlarni faol qo‘llashadi, boshqalar esa ularni iste’moldan chiqarib yuborishgan. Turli sotsiumlarning mushohada tarzi mantiqiy asoslariga qo‘ra bir xildir, ammo reallikni emotsional-obrazli in’ikos ettirish, g‘ayrimantiqiy baholash va hissiyotlar turli millatlar vakillarida turlicha kechadi va ularni umumiylashtirib bo‘lmaydi. Turli lingvomadaniy sotsiumlarning vakillari turlicha baholashadi va his qilishadiki, bu holat dunyoni his qilishning takrorlanmas shakl olishiga sabab bo‘ladi.

Dunyoning lisoniy manzarasida hissiy, baholash, stilistik bo‘yoq kabi konnotativ xususiyatlarga ega reallikni hissiy-obrazli in’ikosini ifoda etuvchi so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar qatlami mavjud[74]. Tarjimada ma’noning hissiy, uslubiy va obrazli aspektlarini tarjimada berish predmetli-mantiqiy mazmunni yetkazish qadar muhimdir. Masalan, “quyosh”, “oy” so‘zlari ko‘pchilik xalqlarda ijobiy xarakteristikaga ega. Shimoliy xalqlarda quyosh hayot manbai, tug‘ilish, quvonch sifatida qabul qilinadi. Xususan, ularda “solnse moyo”, “solnishko» shaklidagi muroja-

[73] Садохин, А.П. Межкультурная коммуникация. М., Альфа-М, 2006.

[74] Валеева, Н.Г. Перевод – языковое посредничество, способ межкультурной и межъязыковой коммуникации. http://perevod.vlz.ru/5.htm

atlar xuddi shu ma’noda qo‘llaniladi. Janubiy hududlarda yashouvchi xalqlarda analogik konnotatsiya “oy” so‘zida kuzatiladi. Misol uchun, mumtoz o‘zbek she’riyatida qizning yuzini oyga tenglashtiriladi. O‘zbek tilida shu ma’noda “oy” so‘zlari bilan yasalgan ismlar ham ko‘p: Oypari, Oygul va b. Bundan tashqari, o‘zbek mumtoz adabiyotida “oy” ma’nosida qo‘llanilgan “moh” so‘zi ham “oy” (vaqt), sayyora (yerning yo‘ldoshi) so‘zlari “go‘zal” mazmunini ifoda etadi va shu sababli Mohichehra, Mohira, Mohlaroyim kabi ismlarni yasashda ishlatilgan.

Bir tomondan, ob’ektiv tizim , ikkinchi tomondan, xalqning hissiy-ruhiy ijodi natijasi bo‘lgan tillar xalq dunyoqarashining xususiyatlarini qayd etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida fundamental hayotiy muhim obrazlar tilda qayd etiladi va keyingi avlodlarga verballashgan shaklda o‘tadi. Xalq mavjudligining tashqi moddiy shart-sharoitlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, ammo tillar orqali o‘tib boruvchi milliy mentalitet xususiyatlari keyingi avlodlarda ham o‘zgarishda davom etadi. Ya’ni til uning tashuvchilariga reallikni baholash va qabul qilishning tayyor shakllarini taklif etadiki, ular mazkur sotsium madaniyatining sub’ektlari sifatida xalqning mavjudligi dastlabki bosqichida tashqi muhitni yaratadi, uning nutqiy va nonutqiy xulqini modellashtiradi. Avvalboshda ushbu tayyor qoliplarni qo‘llagan xalq madaniyatlararo muloqot natijasida bu xulq qoliplarini zamonaviylashtiradi va o‘zgartiradi.

Bilingvist-tarjimon “ikkilangan” lisoniy shaxs hisoblanadi. U chet tilidagi matniy faoliyatni chet tillik sotsiumning lingvomadaniyati nuqtai nazaridan qabul qiladi. Undan keyin ona tilidagi birlikni tashkil etgan lisoniy va ijtimoiy-madaniy kodlariga o‘tkazadi.

Tarjimonlarning bilingvizmi, birinchidan, odatda, asimmetrik xarakterga ega. Ko‘pchilik tarjimonlarda ona tili va ona tili bilan kirib kelgan madaniyat yetakchilik qiladi. Bu til va madaniyat tarjimon duch keladigan chet tili va chet madaniyatini ona tili va ona madaniyatiga bo‘ysundiradi. Yetakchi til va yetakchi madaniyat prizmasi orqali chet tilidagi nutqiy asarlarda ifodalangan boshqa tildagi boshqa madaniyat dalillari tushuniladi. Ikkinchidan, tarjima jarayonida har ikki til nutq aktida mavjud bo‘ladi va bir paytda faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli tarjimon doimiy ravishda tillar va madaniyatlar interferensiyasini yengib o‘tishga majbur bo‘ladi[75] .

Bir necha interferensiya turlari mavjud: fonetik, grammatik (morfologik, sintaktik, punktuasion, orfografik), leksik, semantik, stilistik inter-

[75] Введение в переводоведение. - М.: Изд-во РУДН, 2006.

ferensiyalar. Ish jarayonidagi boshlovchi tarjimon tarjimasining deyarli barcha bosqichlarida bu intereferensiyalar namoyon bo‘ladi.

Dunyoning milliy lisoniy manzaralaridagi o‘ziga xoslik va madaniyatlarning ko‘pligi xalqlarning o‘zaro bir-birini tushunishida to‘sqinlik yaratmaydi va tarjima jarayonida bartaraf etiladi. Mantiqiy va lisoniy tizimlar, ularning bilishga asoslangan mohiyatining o‘zaro mutanosibligining muhim va hal qiluvchi dalillari bir tildan ikkinchi tilga tarjima asosidagi xalqlarning o‘zaro anglashiga isbot hisoblanadi. Tarixga diqqat qaratsak, turli davrlarda, farqli ijtimoiy sharoitlarda yashagan xalqlarning o‘zaro muloqoti uchun lisoniy to‘siqlar hech bir zamon xalaqit bermagan. Biroq madaniyatlararo muloqot faqat turli madaniyatlar va tillarning vakillari bo‘lgan kommunikantlarning har biri “o‘zgacha” ekanligini, boshqa madaniyat vakilining “begona” ekanligini anglagandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi. Binobarin, boshqa madaniyatlar bilan tanishish tarjimaning muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Введение в переводоведение. - М.: Изд-во РУДН, 2006.
2. Тер-Минасова, С.Г.Язык и межкультурная коммуникация. М., 2000.
3. Садохин, А.П. Межкультурная коммуникация. М., Альфа-М, 2006.
4. Абдулмянова, И. Р. Проблема формирования профессиональной языковой личности переводчика при обучении иностранным языкам [Текст] / И. Р. Абдулмянова // Исследования молодых ученых : сб. ст. аспирантов / отв. ред. А. В. Зубов / Минск. гос. лингв. ун-т – Минск, 2006. – С. 199-203 (0,5 п.л.).
5. Валеева, Н.Г. Перевод – языковое посредничество, способ межкультурной и межъязыковой коммуникации. http://perevod.vlz.ru/5.htm

ОБРАЗ ГОРАЦИО И ЕГО РОЛЬ В ПОНИМАНИИ АВТОРСКОГО ЗАМЫСЛА ТРАГЕДИИ ШЕКСПИРА «ГАМЛЕТ»

к.ф.н. ***Канимкул ТАДЖИЕВ,*** доцент ГулГУ

Трагедия «Гамлет» считается одним из наиболее сложных для анализа и толкования произведений великого английского писателя Уильяма Шекспира. Это касается и анализа системы персонажей. Шекспир использует необычный приём – позиция каждого из героев в пьесе проверяется наличием своеобразного двойника. Сосуществование двух (а то и трех) персонажей и их самореализация происходит в постоянном диалоге. Драматург дает возможность читателю проследить процесс рождения и кристаллизации мысли, позиции, поступков героя. Но если изучению образов Гамлета, Офелии и

призрака отца Гамлета посвящено немало исследований [1; 3; 5; 6; 8; 11; 12; 13], то, по-нашему мнению, персонажу Горация уделено недостаточно внимания [9; 10; 15], особенно, принимая во внимание ту роль, которую играет данный персонаж в раскрытии собственно авторского понимания идеи и темы.

До сих пор для многих исследователей творчества Шекспира, Горацио – загадочная фигура трагедии. И, действительно, мы мало знаем, когда он появился в Дании, почему не предстал перед Гамлетом прежде, чем увидел призрака покойного короля, да и насколько были близки его отношения с принцем до известных обстоятельств, когда он становится, по сути, его единственным помощником и соратником в борьбе за торжество справедливости в прогнившем государстве. Горацио, как истинный ученый, в отличие от менее образованных компаньонов (и, естественно, современников Шекспира в целом), не верит в существование духов и поначалу весьма скептически настроен к самой идее, что и проявляется в ироничном оттенке следующей фразы: «*Да, так он вам и явится!*» [14].

Как мы знаем из пьесы, Горацио приехал из Саксонии с тем, чтобы принять участие в похоронах покойного короля, с чьим сыном он обучался в университете Виттенберга. Поскольку он владеет латынью, а по средневековым поверьям латынь была необходима для изгнания злых духов, он должен был знать о призраках больше остальных участников первой сцены. Именно поэтому ему отводится роль собеседника с тенью Короля, так как, согласно древнему поверью, призраки не могли заговорить первыми. На эту роль, по мнению стражников, лучше подходил Горацио.

Горацио считает это все
Игрой воображенья и не верит
В наш призрак, дважды виденный подряд.
Вот я и предложил ему побыть
На страже с нами нынешнею ночью
И, если дух покажется опять,
Проверить это и заговорить с ним. [14 Акт I, сцена 1]

Однако с появлением призрака Горацио цепенеет («*Я в страхе и смятенье!*») и его побуждают к разговору те, кого еще совсем недавно он не воспринимал всерьез (Марцелл: «*Ты сведущ - обратись к нему, Гораций*»; Бернардо: «*Он ждет вопроса*», и снова Марцелл: «*Спрашивай, Гораций*») [14]. Когда напуганный Горацио соприкасается со сверхъестественным, в его обращении звучит заклинание:

Кто ты, без права в этот час ночной

Принявший вид, каким блистал, бывало,
Похороненный Дании монарх?
Я небом заклинаю, отвечай мне!
А также:
Стой! Отвечай! Ответь! Я заклинаю! [14 Акт I, сцена 1]

Любопытно, что в обсуждение поверий о духах живо включаются и другие свидетели описанных событий, и именно Марцелл, а не ученый Горацио говорит о том, что глупо было с их стороны понадеяться на то, что они могут остановить духа:

Мы раздражаем царственную тень
Открытым проявлением насилья.
Ведь призрак, словно пар, неуязвим,
И с ним бороться глупо и бесцельно. [14, Акт I, сцена 1]

Здесь Марцелл гораздо трезвее ученого Горацио, который впал в полнейший мистицизм:

Я слыхал,
Петух, трубач зари, своею глоткой
Пронзительною будит ото сна
Дневного бога. При его сигнале,
Где б ни блуждал скиталец-дух: в огне,
На воздухе, на суше или в море,
Он вмиг спешит домой. И только что
Мы этому имели подтвержденье. [14, Акт I, сцена 1]

Столкнувшись с тем, чего объяснить не может, Горацио пользуется религиозными формами призывов и заклятий. В нем естественным образом смешивается прежний научный опыт и суеверный трепет перед потусторонним:

Бернардо.
Ну что, Гораций? Полно трепетать.
Одна ли тут игра воображенья?
Как ваше мненье?
Горацио.
Богом поклянусь:
Я б не признал, когда б не очевидность! [14, Акт I, сцена 1]

Интересно, что происшедшее Горацио пытается объяснить не в схоластических терминах, а в суеверных истолкованиях примет:

Подробностей разгадки я не знаю,
Но в общем, вероятно, это знак
Грозящих государству потрясений. [14, Акт I, сцена 1]

Таким образом, уже в первой сцене первого действия трагедии появляется персонаж, который будет наблюдать за событиями на протяжении всей пьесы. Горацио, как тень, будет сопровождать

Гамлета. Первыми словами героя на сцене будет первая часть своеобразного пароля. На оклик Франциска «*Стой! Кто здесь?*» Горацио отвечает: «*Это друзья*» [14]. В этих словах сформулировано жизненное кредо молодого человека, который получил европейское образование мечтал о просвещенном монархе, который бы построил государство опираясь на право и закон. Таким королем в будущем Горацио хотел бы видеть принца. Объясняя Гамлету, почему он прибыл в Виттенберг, Горацио скажет; «*На похороны спешил – ваш отец умер*» [14]. Тем не менее, позднее читатель поймет, что в Данию его позвала не просто вассальская обязанность. Он ехал давать присягу на верность новому королю, а им должен был быть Гамлет. Мечта Горацио послужить молодому королю, принять участие в государственном строительстве на этот раз не осуществилась, тем не менее, надежды он не теряет.

В трагедии «Гамлет» Шекспир показал несовместимость высоких идеалов и возвышенной мечты с реальной действительностью. В образе Гамлета автор воплотил все характерные черты человека-гуманиста эпохи Возрождения, которому в одинаковой степени присуща гениальность и поиск истины путём проб и ошибок. Отметим, что Шекспир не ограничивается раскрытием только одной человеческой судьбы и одного характера – даже второстепенные герои отличаются жизненной правдивостью и уникальной индивидуальностью.

Общепризнано, что в своих пьесах Шекспир изображал современников и, вполне может статься, соотечественников, а не полулегендарных исторических личностей [цит. по 7, С.9]. Такими характерными образами могут быть и герои «*трагедии трагедий*», как в свое время называла «Гамлета» М.В. Юдина [цит. по 7, С.9]. Сам принц Датский и его ближайший друг Горацио – студенты Виттенбергского университета.

При анализе трагедии персонажу Горация обычно отводится мало места, да и говорят о нем, как правило, в последнюю очередь. Как мы видели, в Виттенберге Горацио усвоил передовые взгляды и не склонен верить в привидения. Вынужденный признать факт появления Призрака, Горацио тем не менее остается убежденным рационалистом. Он человек трезвого рассудка. Горацио возникает для нас как личность в той характеристике, которую ему дает Гамлет, а она полна глубокого значения:

Горацио, ты лучший из людей,
С которыми случалось мне сходиться.
... Нет, не подумай, я не льщу...

... Едва мой дух стал выбирать свободно
И различать людей, его избранье
Отметило тебя; ты человек,
Который и в страданиях не страждет
И с равной благодарностью приемлет
Гнев и дары судьбы; благословен,
Чьи кровь и. разум так отрадно слиты,
Что он не дудка в пальцах у Фортуны,
На нем играющей. Будь человек
Не раб страстей, - и я его замкну
В средине сердца, в самом сердце сердца,
Как и тебя. [14]

По словам А. Аникста, «*только наблюдатель, жизнь не поставила перед ним никаких задач, требующих напряжения всех душевных сил*» [2, С.39], как это происходит с Гамлетом. Но совершенно бездейственному персонажу, Горацио отведена в идейном замысле трагедии важная роль. Он, так же, как и Призрак, служит Шекспиру для выявления идеала человека.

Он не «*раб страстей*». Все другие лица трагедии в большей или меньшей степени подвержены страстям. Горацио человек спокойный, уравновешенный. Ему присущ рационализм, сказавшийся в его отрицании духов и призраков. Но главное, что в нем подчеркивает Гамлет, это его философский взгляд на жизнь. Из характеристики, которую дает ему принц, следует, что Горацио последователь стоицизма, древнего учения, возвращенного к жизни мыслителями эпохи Возрождения. Основанная еще древнегреческим философом Зеноном (334-262 до н.э.), философия стоицизма проповедовала подчинять поведение требованиям разума.

В трагедии Горацио – единый человек, который (не полностью, но как может) понимает принца и является верным охранником его сокровенных мыслей. Во второй сцене третьего действия Гамлет говорит: «*Горацио, из всех людей, с которыми я сталкивался, ты – наилучший*» [14]. Чем привлекает внимание к себе Горацио? Гамлет объясняет: «*Так как ты такой, что и в страданиях не страдаешь, ровно принимаешь благодарно внизу ласку и гнев*» [14]. Внутренняя независимость не демонстрируется, не выставляется героем. Для него Гамлет – «*храбрый… во всем мире известный за отвагу*» [14]. Проникаясь монументальностью прошлого, Горацио даже не замечает, что выставлять на одну ступень человеческую жизнь и имущество антигуманно и аморально, что убить «*по договору» - это все же таки убить*» [14]. Ренессансные идеи, поступление

ценностями человеческой жизни для Горацио не является основой сутью его мировосприятия.

Так, в начале произведения он предостерегает Гамлета не идти за Призраком, а потом советует королю и королю не отвечать откАзом сумасшедшей Офелии в аудиенции. «С ней нужно бы поговорить, так как она у мыслей неуверенных может лихие предположения посеять». Он видит в принце Гамлете короля своих мечтаний и восторженно перерывает его рассказ о подготовленной гибели Розенкранца и Гильденруля приподнятым восклицанием: «*Вот так король!*» [14]. Но другим вместе Горацио предостерегает принца против поединка с Лаэртом. Он боится за жизнь принца, однако не остановит его. Намереваясь покончить самоубийством, чтобы не пережить друга, Горацио восклицает: «*Я римлянин, не датчанин душою*» [14]. Горацио хочет подражать «*античным римлянам*», героям, которые бесстрашно бросались на меч, когда им ничего не оставалось в жизни, как это делают у Шекспира Брут в «Юлии Цезаре» и Антоний в «Антонии и Клеопатре». Но просьба Гамлета оставляет Горация живым. Со словами Гамлета возрождается для Горацио смысл жизни. Он остается жить, чтобы рассказать о событиях, свидетелем которых был. Теперь друг и вассал принца – творец и хранитель истории о Гамлете, датском принце, который так и не стал королем. Уже может осуществиться мечта жизни Горацио, поскольку первые государственные шаги нового монарха реализуются при его участии и за его рекомендациями. «*Спешим, пока пораженный народ, чтобы бедствий, и заговоров, и ошибок избегнут*», – скажет он Фортинбрасу [14]. В диалоге Гамлета с Горацио якобы утверждается бестолковость человеческой жизни: «*Великий Цезарь умер*» [14]. Тем не менее читатель понимает, что физическому небытию противостоят память, слава, великие и добрые действия. Подобные мысли могут спасти человека от пустоты и отчаяния. К разговору о вечном подключаются не только Гамлет и Горацио, а и читатели. Диалог превращается в полемику. Таким образом драматург расширяет территорию эмоционального влияния мысли, заставляя всех, кто попал в водоворот событий трагедии, стать активными соучастниками давней истории. Финал трагедии заставляет читателя возвратиться к началу. Вспомним, завязка действия состоялась с появлением Горацио, он же остается на сцене (рядом с Фортинбрасом), когда все кончилось. Главный герой погиб, но действие длится. И именно второстепенный

персонаж, Горацио, за волей драматурга, завершает историю, подталкивая читателей и зрителей к раздумьям.

Литература:

1. Акимова А.С. Гамлет В.Шекспира и Гамлет Б.Л.Пастернака // Материалы XVII Международной научной конференции «Литература Великобритании в контексте мирового литературного процесса. Вечные литературные образы». Орел: Рос. ассоциация преподавателей англ. лит-ры, 2007. С.79.
2. Аникст А. Творчество Шекспира. М.: Гос. изд-во худ. лит-ры, 1963. 615 с.
3. Баканов Д.В. Призрак Шекспира, или кто Гамлета зовёт // Мир науки, культуры и образования. 2014. №6(49). С.435-439.
4. Бахриддинова Б.Б. Перевод религиозно-мифологических своеобразий в произведениях Шекспира (на примере переводов трагедии «Гамлет» на узбекский язык) // Молодой ученый. 2014. №21(80). С.758-759. URL: https://moluch.ru/archive/80/14101/
5. Ермолаева С.С. Проблема восприятия образа Гамлета // Сборник статей по материалам VII Всерос. научно-практ. конференции «Русско-зарубежные литературные связи». Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского гос. пед. университета им. К. Минина, 2017. С.233-235.
6. Захаров Н.В., Луков В.А., Гайдин Б.Н. Гамлет как вечный образ мировой культуры // Сборник научных трудов «Тезаурусный анализ мировой культуры». Выпуск №16. М.: Изд-во Московского гуманитарного университета, 2008. С. 15-28. URL: https://www.mosgu.ru/nauchnaya/publications/2008/collections/TAMK16.pdf
7. Липгарт А.А. К проблеме интерпретации трагедии «Гамлет» Уильяма Шекспира // Stephanos. 2018. №3(29). С.9-15. DOI: 10.24249/2309-9917-2018-29-3-9-15. URL: http://www.stephanos.ru/izd/2018/2018-29-1.pdf
8. Мизрабова Ж.И. Воспроизведение образов в переводах трагедии «Гамлет» // Электронный инновационный вестник. 2019. №1(6). С.11-13.
10. Микеладзе Н.Э. Слово Горацио, или «Гамлет» как психодрама // Сборник докладов «XXVII Шекспировские чтения 2018». М.: Моск.гум. университет, 2018. С.10-11. URL: https://www.rus-shake.ru/file.php/id/f14467/name/Shakespeare-Readings-2018-Abstracts.pdf
11. Напцок Б.Р. Образ призрака в «Гамлете» У.Шекспира: на пути к «готической» литературной традиции // Вестник Адыгейского гос. университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2009. №1. С.37-42.
12. Портнягин Д.В., Достовалов С.Г. Черты личности в драматическом образе приведения (на примере призрака отца Гамлета) // Сборник научных докладов «Филологические и лингвистические аспекты межкультурной коммуникации. Курган: Изд-во Курганского гос. университета, 2010. С.103-106. URL: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_29411202_26715371.pdf
13. Шекспир У. Гамлет, принц датский / Пер. с англ. Б.Пастернака. Тверь: Изд-во «Мартин», 2018. 192 с.
15. Шнейдер В. Трагедия Гамлета, датского принца (размышления через четыреста лет после премьеры). СПб.: Изд-во «Ретро», 2003. 319 с.

ZOONIMIK KOMPONENTLI KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

***Nargiza ISMATULLAYEVA**, TDSHU, tayanch doktorant*

Ilmiy adabiyotda badiiy muqoyasa asosida paydo bo‘lgan barqaror so‘z birikmalari komparativ frazeologik birliklar deb ataladi. Bunday barqaror vositalar ingliz tilida asosan «as», «such as», «as if», «as though», «like», «same», rus tilida «-как», «точно», «словно», «будто», o‘zbek tilida «xuddi», «kabi», «bamisoli», «go‘yoki», «cingari», «-ga o‘xshab» kabi bog‘lovchilar hamda birliklarning obrazli asoslariga birikib keladigan «-day», «-dek» qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladi [1, 209].

Aynan xitoy tilida komparativ frazeologizmlarni shakllantiruvchi yordamchi vositalarga kelsak, bular 像 *xiàng,* 如 *rú,* 似的 *shìde* kabilardir. Turli tillar komparativ frazeologik birliklari tabiatini kuzatish xalqlarda umumiy va xususiy timsollar mavjudligini ko‘rsatadi. Umumiy timsollar u tilda ham, bu tilda ham bir xil xarakterni berganligi sababli, frazeologizmlar tarjimasida ham ekvivalenti mavjud bo‘lgan frazeologizmlarni topish mushkul emas. Shu sababli mavzumiz doirasidan chiqib ketmagan holda umumiy timsollar haqida to‘xtalmoqchi emasmiz.

Butun dunyoda kamyob hisoblanuvchi, faqat Xitoyning janub tomonlaridagi bambukzorlarda kun kechira oluvchi panda haqidagi frazeologizmlarni boshqa tillarga tarjima qilish bir oz mushkul. Chunki Xitoy uchun bebaho hisoblangan bunday ramziy mavjudot, boshqa millatlar uchun hech qanday ma’no kasb etmasligi mumkin. XXRda panda shunday qadrlanadiki, u yerda “Panda” markasidagi rangli televizor 熊猫牌彩色电视机 *xióngmāo pái cǎisè diànshì* va oq-qora televizorlar 熊猫牌黑白电视机 *xióngmāo pái hēibái diànshì jī*, avtomobil markasi 熊猫牌汽车 *xióngmāo pái qìchē* singarilar mavjud.

Kishilarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarni hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi, tabiat hodisalari bilan muqoyasa qilishlari natijasida yuzaga kelgan turg‘un birikmalarning obrazli asoslari aksariyat hollarda timsoliy mazmun kasb etadi. Jumladan, kishilar u yoki bu xislat timsoli sifatida muayyan bir hayvon yoki parrandani tanlar ekanlar, bunday paytda ular, shubhasiz, o‘sha jonivorning xulq-atvori, tashqi ko‘rinishi va hatti-harakatiga asoslanadilar. Shu tariqa muayyan shaxs yoki narsa va hodisaning o‘ziga xos an’anaviy sifat, harakat va holati tavsifi yaratiladi [1, 209].

Muayyan bir kontekstda sodda so‘z baho bruvchi mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Lekin har qanday tilda umumqabul qilingan ko‘chma

baholash mazmuniga ega so‘zlar ham bor. “Bunday so‘zlar aksariyat hollarda kundalik turmush buyumlari, taom, o‘simlik va hayvonot dunyosi nomlaridir”. Masalan, 菜包子 *cài bāozi* – “sabzavotli somsa” – “axmoq” , 尾巴 *wěibā* “dum” – “xushomadgo‘y”, 狐狸 *húlí* “tulki” – “badjahl ayol”, 猪猡 *zhūluó* “cho‘chqa” – “aqli kalta kishi” (o‘zbek tilidagidek “ochofat” va “isliqi” emas), 鼠子 *shǔzi* “kalamush” – “qo‘rqoq, nobakor”. Shuni anglab olish qiyin emaski, ko‘p hollarda ma’noning ko‘chishi o‘zbek tilidagidek sodir bo‘ladi. Lekin ayrim hollarda so‘zning ko‘chma ma’nosi muqobil o‘zbek tilidagi so‘zlarnikiga mos kelmaydi [2, 118].

Ba’zida ko‘chma ma’no xitoy tili va o‘zbek tilida mos kelishi mumkinu, biroq o‘zbek tilida muqobillari mavjud bo‘lmasligi mumkin. Masalan, 胆小如鼠 *dǎn xiǎo rú shǔ* “kalamushdek qo‘rqoq” ingliz tilidagi “as cowardly as a rat” frazeologizmiga muqobil; o‘zbek tilida esa muqobil sifatida “quyondek qo‘rqoq” iborasi namoyon bo‘ladi.

Bir xil hodisa va narsalar turli tillarda turlicha obrazli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, xitoylar tasavvurida zag‘izg‘on bu baxt keltiruvchi kush hisoblanadi. O‘zbek tilida esa bu qush obrazi (zag‘izg‘ondek shaqildoq) sergap odamga nisbatan ishlatiladi. Xitoy tilida baxtsizlik ramzi qarg‘a hisoblansa, rus, o‘zbek tillarida esa – qora mushuk. Shu munosabat bilan u yoki bu hayvon yoki qushlar savdo markasi sifatida tanlovi amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, xitoylar ko‘plab tovarlari uchun savdo masi sifatida ajdaho timsolidan foydalanishni yoqtiradilar. Chunki ajdaho kuch, obro‘-e’tibor, baxtning ramzi hisoblanadi. Lekin inglizlar uchun “dragon” – bu yovuzlik ramzi bo‘lib, bu holda savdo belgisi o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Darvoqe shuning uchun ham 望子成龙 *wàngzǐchénglóng* “o‘g‘lining ajdaho (ya’ni imperator, yuqori mansabli odam) bo‘lib yetishishini xohlamoq” frazeologizmini o‘zbek tilida so‘zma-so‘z emas, balki “o‘g‘ilning inson bo‘lib yetishishini umid qilmoq” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq.

Osiyoning to‘rt nafar tez rivojlanayotgan davlatlari uchun xitoyliklar 亚洲四条龙 *Yàzhōu sìtiáo lóng* “to‘rt nafar Osiyo ajdaholari” nomlanishi qo‘llanilib, ingliz tilidagi variantda esa ular “four Asian tigers” – “to‘rt nafar Osiyo yo‘lbarslari” nomi bilan ataladi. Xitoy millati tasavvurida yo‘lbars hayvonlar shoxi hisoblanib, u shafqatsiz xarakterga, katta kuchga ega. Shu bois u qo‘pollik, jasorat, qudrat va hayotiy kuch timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

Xitoy tilidagi 虎将 *hǔjiàng* “jasur jangchi” so‘z birikmasi, 虎背熊腰 *hǔbèi xióngyāo* “zabardast gavda” (*so‘zma-so‘zma.* yo‘lbars orqasi, ayiqning beli), 生龙活虎 *shēnglóng huóhǔ* “hayotiy quvvatga to‘la” (*so‘zma-so‘zma.* ajdahoday jo‘shqin, yo‘lbarsday jonli).

Biror-bir narsa yoki hodisalarga obrazli qiyoslashlar mavjud bo‘lgan frazeologizmlarni tarjima qilishda til tashuvchisi tasavvurida mazkur obraz qanday ma’noga egaligini hisobga olish kerak. Masalan, o‘zbek tilidagi “cho‘pday oriq” komparativ iborasini 骨瘦如耙 *gǔ shòu rú bà* (*so‘zma-so‘zma.* xaskashdek oriq) emas, balki 骨瘦如柴 *gǔ shòu rú chái* (*so‘zma-so‘zma.* cho‘pday oriq) sifatida tarjima qilinadi.

Yana xuddi shunday ingliz tilidagi “every dog has its day” frazeologizmini so‘zma-so‘z “每条狗都有他的日子” *měi tiáo gǒu dōu yǒu tā de rìzi* “har bir itning o‘z kuni bor” bu rus tilidagi “bizning ko‘chada ham bayram bo‘ladi” frazeologizmi ma’nosiga mos keladi. Mazkur o‘rinda tasviriy uslubda “人人都有自己的得意的时候” *rénrén dōu yǒu zìjǐ de déyì de shíhòu* “har bir kishining quvonchli kunlari bo‘ladi” [3, 9]. Bunga sabab shundaki, yevropaliklar it yoqtirib, ularning insonning vafodor do‘sti deb bilishadi. Xitoyliklar esa aksincha, itni hazar qilinadigan jonivor sifatida ko‘radilar. Shundan kelib chiqib ham xitoy tilida nafrat ohanggidagi bir qator iboralar mavjud:

狗腿子 *gǒutuǐzi* “laganbardor, xushomadgo‘y” (*so‘zma-so‘zma.* itning oyog‘i);

狗胆包天 *gǒu dǎn bāo tiān* “surbetlikda tiim bilmaslik”;

狗急跳墙 *gǒu jí tiào qiáng* “burchakka tiqilgan it devorga ham chiqib ketadi”;

狼心狗肺 *láng xīn gǒu fèi* “ma’lun (iblisona) xulq-atvor” (*so‘zma-so‘zma*. bo‘ri yurak, it o‘pka);

狗嘴吐不出象牙 *gǒu zuǐ tǔ bu chū xiàngyá* “it o‘g‘zidan fil tishi chiqmaydi”.

Ayrim hayvonlar haqidagi tasavvur turli xalqlarda butkul qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Masalan, 猫 *māo* “mushuk” xitoylarda mehr, iyishni keltirib chiqarib, bu 可爱 *kě'ài* “yoqimtoy” va 精灵 *jīnglíng* “ilohiy” mavjudot ramzi hisoblanadi. Inglizlarda esa “cat” – bu o‘rta asrlarda Yevropada hisoblanganidek, iblis timsoli, jodugarlar ruhi joy olgan mavjudotdir. Xitoylarda “qopdagi mushuk” degan tushuncha yo‘q. Shuning uchun ingliz tilidagi “let the cat out of the bag” – “qopdan mushukni bo‘shatib yubormoq” iborasi obrazli asosni saqlab qolmagan holda 泄露秘密 *xièlòu mìmì* – “sirni aytib qo‘ymoq” tarzida tarjima qilinadi [4, 15].

Shuningdek, ingliz tilidagi “she is a cat”, ya’ni “u janjalkash ayol” qiyosiy jumlasini xitoy tiliga 她是一只猫 *Tā shì yī zhǐ māo* deb tarjima

qilib bo‘lmaydi. Xitoy tilida ushbu mazmunga 母老虎 *mǔ lǎohǔ* “urg‘ochi yo‘lbars” tushunchasi to‘g‘ri keladi.

Ayrim o‘xshash inglizcha va ruscha obrazli iboralarni xitoy tiliga so‘zma-so‘z kal’ka usulida ham tarjima qilish mumkin. Masalan,

Like a barrel of herring – “bochkadagi sel’d baliqdek” – 象桶子里装满了的鲱鱼 *xiàng tǒng zi lǐ zhuāng mǎnle de fēiyú.*

As the toasted chease in a rat-trap – “sichqon qopqonodagi pishloqdek” – 像老鼠笼里的烤乳酪 *xiàng lǎoshǔ lóng lǐ de kǎo rǔlào*. Garchi xitoy tilida bochkadagi sel’d baliqqa yoki qopqondagi pishloqqa o‘xhsatish usuli mavjud bo‘lmasada,asarning ruxini yetkazib berish va xitoylarning yevropaliklarning odatlari bilan tanishtirish uchun tarjimada bunday qiyoslashlarni saqlab qolish zarur [5, 18].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, aksariyat hollarda xitoy tilidagi zoonimik komponentli komparativ frazeologik birlik, frazeologizmlarni o‘zbek tiliga muqobil variant tanlash yoki eng afzali tasviriy usulda tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. – Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2005.

[2]. – Котов А.М. Об экспрессивности в китайском языке// Система языка и перевод. – М.: МГУ, 1983.

[3]. – 潘红。商标翻译要求神似。中国翻译。1996。6 期。

[4]. – 包振南。试论可译性的限度。翻译通讯。1983, 5 期。

[5]. – 严维明。谈谈文学作品中比喻的翻译。翻译通讯。198510 期。

KOREYS TILIDA MUROJAATLAR (ANTROPONIMLAR MISOLIDA)

***Dilorom ASHIRBAYEVA**, TDShU, o‘qituvchi*

Ma’lumki, antroponim (yunoncha: antropos - antropos +onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biridir [1,13]. Ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi antroponimiya deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir.

Koreys tilida suxbatdoshiga ism bilan murojaat qilishi «ismiy murojaat» deb nomlanadi. [5,188] Ism bilan murojaatlar - familiya va ism bilan murojaat qilish holatlari, faqat ism bilan murojaat qilish holat-

lari, faqat familiya bilan murojaat qilish holatlariga tasniflanadi. Koreys tilida faqat ism bilan murojaat etishdan ko‘ra «아/야» *«a/ya»* chaqiruv kelishigi (koreys tilidagi maxsus kelishik bo‘lib, kishilarni chaqirganda yoki e’tiborini tortmoqchi bo‘lganda qo‘llaniladi) dan yoki bo‘lmasa hurmatni ifodalovchi «씨» *uị*, «양» *yang*, «군» *gun* affikslaridan foylanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu qo‘shimchalardan foydalanish adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatlarni qanchalik do‘stona yoki rasmiy ekanligini bildiradi. Koreys tili ismiy murojaatlarida «성+씨» *familiya+씨*, «이름+씨» *ism+씨*, «성+이름+씨» *familiya+ism+씨*, «성+이름+님» *familiya+ism+님 hurmat affiksi*, «성+군» *familiya+군*, «이름+군» *ism+군*, «성+이름+군» *familiya+ism+군*, «성+양» *familiya+양*, «이름+양» *ism+양*, «성+이름+양» *familiya+ism+양* kabi ko‘rinishlari mavjud. [4,78] Masalan, 이 씨 *janob Li*, 광수 씨 *janob Gvang Su*, 이광수 씨 *janob Li Gvan Su*, 이광수 님 *hurmatli Li Gvan Su*, 이 군 *Li janoblari (* 군 affiksi yosh erkaklarning ism yoki ism va familiyasidan so‘ng qo‘shilib, tinglovchining xurmatini oshirish maqsadida qo‘llaniladi*)*, 광수 군 *Gvan Su janoblari*, 이광수 군 *Li Gvan Su janobalari*, 김 양 *Kim xonim (*양 affiksi ayollarning ismi yoki ismi va familiyasidan so‘ng qo‘shiladi va tinglovchiga bo‘lgan xurmatni ifoda etadi*)*, 영희 양 *Yong Xi xonim*, 김영희 양 *Kim Yong Xi xonim* va hk. Mazkur qo‘shimchalar qo‘llanilish holatlari quyidagicha:

1. «-씨» hurmat qo‘shimchasi. «씨» hurmat qo‘shimchasi «familiya+ism+씨» va «ism+씨» ko‘rinishida adresant va adresat munosabatlarining o‘zaro yaqin bo‘lmagan va subordinatsiyani saqlash holatdarida foydalaniladi. [4,76] «familiya, ism, familiya va ism»ga «씨» hurmat qo‘shimchasini qo‘shib, foydalanish xolatlari quyidagicha:

- Agar tinglovchining yoshi katta bo‘lsa;
-Tinglovchi va so‘zlovi o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lmaganida;
-Lavozimga ega bo‘lmagan yosh xodimga murojaat qilinganida.

안영이: ***장그래 씨*** 이제 그만하시죠! 제 업무도 바쁘거든요.

An Yongi: ***Janob Chan Gi Re*** endi bas qiling! Mening ham o‘z ishlarim bor.

장그래: 죄송합니다. (미생 -4회 도라마)

Chan Gi Re: Kechirasiz. (Omadsiz hayot, 4 qism)

Mazkur misola ish joyidagi xodimlarning o‘zaro munosabati aks ettirilgan bo‘lib, xodimga nisbatan «성+이름+씨» *familiya+ism+씨* qolipidagi rasmiy murojaatdan foydalanilgan.

2. «성+이름+님» familiya+ism+님 ,«성+이름+님» familiya+ism+씨 hurmat affiksi. «-씨» *uị* va «-님» *nim* ismdan keyin keluvchi xurmatni

ifodalovchi affislardir. «님» *nim* affiksi odatda kasb va lovozimga qo‘shilib, suxbatdoshga xurmat ko‘rsatish vazifasini o‘tab kelgan bo‘lsada bugungi kunda ismlarga qo‘shilib murojaat vazifasini o‘tamoqda.

«님» *nim* affiksi «씨» *uɻi* affiksidan farqli ravishda albatta «성+이름+님» familiya+ism+님 ko‘rinishida kelib, «씨» *uɻi* affiksiga qaraganda bir pog‘ona yuqorida turadi. «성+이름+님» familiya+ism+님 va «성+이름+씨» familiya+ism+씨 asosan jamoat joylarida xizmat ko‘rsatish markazlaridagi xodimlar mijozlarga murojaat qilayotganlarida foydalaniladi. [4,77] Bugungi kunda ko‘plab kafelarda navbatni bildiruvchi «**번 손님» ** *sonli mijoz*, «손님» *xurmatli mijoz*, «** 고객님» ** *xurmatli mijoz»* kabi murojaatlar mavjud. Bunday xollarda quyidagicha ko‘rinishda murojaat qilinadi:

가. 이철수 ***님,*** 이철수 ***씨***, 106***번 손님***, ***손님***, 이철수 ***고객님***

A : Janob Li Chol Su, xurmatli Li Chol Su, xurmatli mijoz Li Chol Su. Ushbu jumlada ko‘proq mijozlarga nisbatan qo‘laniladigan murojaat shakli keltirilgan.

나. 선보는 남자: ***서이수 씨***, 오늘 보기로 하였는데... (신사의 품격4회)

B: Uchrashuvga chiqqan yigit : ***So I Su xonim*** bugun uchrashmoqchi edik...(Djentelmenning qadr qimmati, 4 qism)

Bu gapda uchrashuvga chiqqan yigit qizga nisbatan murojaati «성+이름+씨» *familiya+ism+ 씨* qolipidagi murojaat shakli keltirilgan.

«성+이름+씨» *familiya+ism+ 씨* ish joyida kasbdoshlariga murojaat qilinganida ham foydalaniladi. Yoshi va lavozimi bir xil bo‘lgan yoki yaqin munosabatda bo‘lmagan kasbdoshlar orasida xurmat yuzasidan mazkur qolipdagi murojaat ishlatiladi.

3. «이름+씨» ism+씨. Bu familiyasiz shakldagi murojaat bo‘lib, rasmiylik shakli yuqori emas. Asosan bir ish joyida ishlaydigan o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan xamkasblar orasida qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda unashtirilgan yoshlar ham o‘zaro shu qolipdagi murojaat shaklidan foydalanadilar va bu murojaat turmush qurilgandan keyin «여보» yo‘bo (azizim/azizam) shakliga o‘zgaradi.

1)서이수: *태산 씨*, 어쩐 일이세요?

So I Su: *(xurmatli)Tesan*, nima bo‘ldi?

2)임태산: *이수 씨*, 다음에 뵈어요. (---1회)

Im Tesan: ***I Su (xonim)*** keyinroq gaplashamiz. (Djentelmenning qadr qimmati 1 qism). Yuqorida keltirilgan har ikkala misollarda suxbatdoshga «이름+씨» *ism+ 씨* qolipidagi murojaat qo‘llanilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Kishilar oila a’zolariga hamda juda yaqin munosabatda bo‘lgan insonlargagna faqat ism bilan murojaat qilishlari mumkin:

-Chunxyang, g‘am yema. Insonning hayot rishtalari osmonda bog‘lanadi, sen o‘lmaysan. [3,99]

Keltirilgan ushbu misol koreys adabiyotining eng yorqin va sadoqat ramzi xisoblanmish «Chunxyang» ismli qiz haqidagi qissadan olingan bo‘lib, mazkur holat o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan kishi tomondan ism bilan murojaat qilinganligini ko‘rsatadi.

4. «양/군» *yang/gun* tobe oti. «양» tobe oti ayol tinglovchiga, «군» tobe oti esa erkak tinglovchiga qaratilgan murojaatlarda foydalaniluvchi tobe ot hisoblanadi. «양» va «군» «familiya, familiya+ism, ism»ga qo‘shilib kela oladi. «미스터/미스» *mister/miss* (janob / xonim) holatlarida «미스터» *mister* (janob) erkak tinglovchiga , «미스» miss (xonim) ayol tinglovchiga qarata murojaat qilinuvchi ingliz tilidan o‘zlashgan o‘zlashma murojaatdir. Familiyadan oldin ke-lib murojaatni shakllantiradi. [79]

a. *미스터 김,* 해외 출장중입니다.

Mister Kim (janob Kim) hozirda xizmat safaridalar.

b. **미스 김,** 오늘 퇴근하시고, 쇼핑하러 가신대요.

Miss Kim (Kim xonim) ishlarni tugatib xarid qilishga ketdim deb aytdilar.

Har ikkala misolda ham o‘zlashmalar koreys nutqiy muloqotiga ancha ta’sir o‘tkazib, ushbu murojaat ko‘rinishlari kundalik hayotda faol foydalanilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

5. «아/야» *a/ya* chaqiruv kelishik qo‘shimchasi

Koreys tilida ismiy murojaatlar sifatida ‘아/야’ chaqiruv kelishigidan foydalanish hollari ko‘plab uchraydi. bo‘g‘in undosh harfga tugaganida “아” *a* chaqiruv kelishigi, bo‘g‘in unli harfga tugaganida esa «야» *ya* chaqiruv kelishigidan foydalaniladi. [4,78]

1). 상혁: **유진아,** 그 사람 정말 이상한 사람 아니야?

Sang Xyok **:** ***Yujin***, u odam biroz g‘alati emasmi?

유진: 어, 이상해, 정말 이상해.

Yujin: Ha, g‘alati, rostan g‘alati ekan.

2). 유진: 빨리 타! 차 떠나겠다.

Yujin: Tezroq o‘tir, mashina hozir yuradi.

3).영국: *유진아,* 상혁이 괜찮을거야, 너무 걱정하지마! 제가 올라가서 만나볼게, *재수야*가자! (겨울 연가-5회)

Yon Guk: ***Yujin,*** Sang Xyok tuzalib ketadi, ko‘p ham siqilaverma! Men borib qarab kelaman, ***Che Su*** ketdik. (Qish sonatasi, 5 qism)

Yuqorida “Qish sonatasi” filmidan keltirilgan misollarning birinchisida Yujinga qaratila, ikkinchi misolda esa Yujin va Che Suga qaratilgan misollar keltirilgan. Koreys tilida «아/야» *a/ya* chaqiruv

kelishigi o‘zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Faqat ba’zi xollarda vaziyatdan kelib chiqib «xoy» deb tarjima qilish mumkin. *Yujin* ismi oxiri undosh harf bilan tugagani uchun «아», *Che Su* ismi esa unli harf bilan tugagani uchun «야» chaqiruv kelishigi qo‘shilgan.

Antroponimlarda ob’ekt yoki shaxsni asosiy nomidan tashqari laqab nom bilan atash ham uchraydi. Masalan, shaxs Mahmud (ismi) – Oqboy (laqabi), Muhammad (ismi) – Qozoqboy (laqabi), Manzura (ismi) – Qalamqosh (laqabi) va boshq... Ism va laqablar shaxsning asosiy ismi bilan yonma-yon yashaydi hamda qo‘shnomlilikni tug‘diradi. Qo‘shnomlar bir vaqtning o‘zida, bitta shaxsning atoqli oti sifatida yonma-yon yashovchi hodisalardandir. Koreys tilida ham aynan shunday xolat mavjud bo‘lib, u quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi [5,190]:

1. Yuzi qorachadan kelgan insonlarga: 꺼먹동이 *kkomokto‘ngi* qoravoy
2. Bo‘yi baland, novcha insonlarga: 꺽다리 *kkoktari* naynov
3. Bo‘yi past insonlarga: 땅딸보 *ttaangttalpo‘* pakana
4. To‘lachadan kelgan insonlarga: 뚱땡이, 뚱보 *ttungttengi*, *ttungpo‘* baqaloq
5. Ko‘p ovqat yeydigan insonlarga: 먹보 *mokpo‘* ochofat

Shu bilan bir qatorda kishilarning tanasidagi nuqsonlardan kelib chiqib qo‘yilgan laqablar ham mavjud ekan.

Cho‘loq insonlar: 절뚝발이 *cholttukpari* cho‘loq

Bukr insonlar: 꼽추 *kko‘pchu* bukr

Ko‘zi ojiz insonlar: 봉사, 소경 *po‘ngsa, so‘gyong* ko‘r

Kulog‘i eshitmaydigan insonlar: 귀머거리 *kvimogori* kar

Tanasida xol yoki biror ortig‘i bo‘lsa 점열 *chomyol*, 점순 *chomsun*, 점숙 *chomsuk*, agar tanada tuki ko‘p bo‘lsa 털보 *txolpo‘*

Insonlarning muhimligi, azizligini, mehribonligini bildiruvchi indikatorli ismlar 사랑 *Sarang* Sevgi, 인애 *Inxe* Muhabbat, 온유*O‘nyu*, 은혜 *Inxe* Nafisa, Munisa, 지혜 *Jixe* Dono

Gullarni ifodalovchi ismlar 향기 *Xyangi* Ifora

Tabiatni ifodalovchi ismlar 하늘 *Xanil* Osmon, 산 *San* Tog‘, 강하늘 *Kang Xanil* Daryo va Osmon (Koreyaning mashxur kinoaktyorining ismi ham aynan shunday), 강산 *Kang San* (daryo va tog‘, tabiat manzarasi)

Galliulina G.R. o‘zining “Tatarskaya antroponimiya v lingvokulturologicheskom aspekte” nomli doktorlik dissertatsiyasida antroponimika haqida «Ma’lum bir tilning antroponimik tizimida til va madaniyatning o‘zaro aloqadorlik masalalarini lingvomadaniy muammolar doirasida o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. Har qanday tilning antroponimik tizimini bilish ma’lum bir millat yoki mintaqaga mansub insonlar psixologiyasi va xarakterlarini anglash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi» deya ta’kidlaydi. [2,3]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, koreys tilida kishilarga ism bilan murojaat qilishda suxbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, mansabi, kasb va lavozimi albatta inobatga olinishi lozim. Shu bilan birgalikda adresat va adresant o‘rtasidagi munosabatlarning rasmiy, norasmiy yoki yaqin ekanligiga qarab yuqorida keltirilgan qoliplardan tegishlisi tanlangan xolda murojaat etishni talab qiladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.

2. Галиуллина Г.Р. Татарская антропонимия в лингвокультурологическом аспекте. Автореф. диссер. на соискание ученой степени доктора филологических наук. Казань – 2009.

3. Сайдазимова У.Т. Корейс адабиётидан танланган асарлар. Т.:2015.

4. 왕환선. 한국 사회와 호칭어. 도서출판역락. 2005.

5. 최태연. 우리 언어 예절. 역락. 2014.

XVI XVII ASR HIKOYACHILIGI VA PU SUNGLING IJODI

Shaxzoda XASANOVA, *TDShU, o‘qituvchi*

Asarlarning paydo bo‘lishi madaniy hayotning yuksalishidan darakdir. Xitoyda ilk adabiy manbalar Chjou imperiyasi davrida yozilgani ma’lum. Manbalarda ko‘rsatilishicha, E.avv. V-IV asrga tegishli “Osmon o‘g‘li Mu’ning hayot tarzi” (“Жизнеописание Сына Неба Му”)[1] ilk adabiy manba hisoblanadi. O‘sha davrdan boshlab to XVI-XVII asrga qadar ko‘plab asarlar yaratilgan, ammo juda ko‘p manba izsiz yo‘qolgan, qo‘zg‘olonlar natijasida yakson qilingan bo‘lsada, hozirgi kunga qadar yetib kelgan asarlar ham talaygina.

J.Ziyamuhammedovning “Pu Sungling va o‘rta asr xitoy novellalari” monografiyasida aytishicha: – “... chop etilgan kitoblar tekshiruvdan o‘tkazildi. Ularning ko‘pi qayta ishlandi. Kitoblarning bir qismi taqiqlandi. 1774 yildan 1782 yilgacha bo‘lgan davr ichida Xitoyda o‘t-tizmingdan ortiq kitobning kulini ko‘kka sovurgan 24 gulxan tashkil etildi”[2, 22]. Darhaqiqat juda ko‘p manbalar yo‘qolib ketgan, qolganlari esa mavjud davrning ma’naviyati, mafkurasiga moslangan. Asarning asl mohiyati anchagina o‘zgargan. Ayni shu davrlarda o‘zining novellalri she’riy to‘plamlari bilan elga mashhur bo‘lib borayotgan, kichik janr shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini asarlarida aks ettirgan novellashunos Pu Sunglingdir (1640-1715).

Pu Sungling Lyao Jay tahallusi bilan elga tanilgan bo‘lib 古文 *guwen* guven[76] da ijod qilgan. Uning ko‘p asarlarining mazmuni sud tizimi, g‘ayrioddiy hikoyalar va talabalar to‘g‘risida bo‘lgan.

“Tarjima internatsionalizm va xalklar dustligp quroli. Tarjima yuli bilan millny madaniyatlar bir-birlarini boyitadilar. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qaramang, u yerda katta tarjimaning hayot baxsh ta’sirini kurasiz. Tilda, tafakkurda, madaniy-adabiy hayotda, san’atda — xamma joyda uning o‘ziga xos ta’siri sezilib turadi”[3,5]. Tarjima orqali biz o‘zga millatning madaniyati, dunyoqarashi, an’anasi, urf-odatlari o‘rganiladi, shuningdek yozuvchi uslubi bilan asarni tarjima qilish jarayonida tanishib chiqiladi.

Ushbu asar haqida kengroq ma’lumotlarga XIX asrda yashab ijod qilgan akademik V.M.Alekseevning tarjimalari orqali erishildi. V.M.Alekseev Pu Sungling novellalarini to‘rt qismga bo‘lib tarjima qiladi. “Tulkining ayyorligi”, “Sehirgar rohiblar”, “G‘ayrioddiy hikoyalar”, “Ajoyib insonlar xaqida hikoyalar” kabi hikoyalarni keyinchalik bir to‘plam qilib “Lyao Jayning g‘ayrioddiy hikoyalari”[4] deb nomlangan to‘plamini nashrdan chiqaradi.

Pu Sungling davlat arbobi bo‘lib, hayoti davomida doimo safarda bo‘lgan. Barcha borgan joylaridagi g‘ayritabiiy narsalarni, geografik joy nomlarini o‘z novellasida aks ettirgan. Ba’zi hollarda tarixiy joy nomlari adabiyot namoyondalari orqli bizgacha yetib kelgan. Bu haqda V.M.Alekseev quyidagi fikrlarni bildiradi: “Ushbu “geografik” joy nomlari ba’zi tarixiy manbalarda aks etmaydi, shunday ma’lumotlar tarixiy manbalarni yaratishda kerak bo‘ladi”[5, 51].

Ba’zi yozuvchilar V.M.Alekseevning tarjimalarini hozirgi kunda ham o‘z ahmiyatini yoqotmagan deya hisoblashadi. Hattoki bu haqda o‘z manbalarida ham zikr qilib ketishgan. L.Z. Eydlin o‘z maqolasida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Lyao Jay novellalarining ruhiyatini yetkazazib beradigan muqobil tarjima aynan V.M.Alekseevning tarjimalaridir”[6, 7], deya o‘z maqolasida aytib o‘tgan.

Tarixdan ma’lumki Xitoyga bo‘lgan qiziqish o‘tgan asrning 50 yillaridan boshlangan bo‘lib nafaqat rus tiliga balki juda ko‘p dunyo tillarga ham ushbu asar tarjima qilingan. Jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. J.Ziyamuhammedov va Z.Shamsievalar tomonidan 2012 yil “Lyao Jay (Pu Sungling) novellalari”[7, 97] deb nomlangan xristomantiya nashrdan chiqgan, hamda 2016 yil J.Ziyamuhammedovning “Pu Sungling

[76]古文 *guwen* Chin sulolasi davrida foydalanilgan qadimiy yozuv bo‘lib, unda asosan qonunlar belgilar aks etgan.

va o‘rta asr xitoy novellalari” deb nomlangan monografiya nashrdan chiqdi. Ushbu monografiyada bir qancha novellalarning tarjimalari berilgan bo‘lib, ularda Pu Sungling ijodidagi peronajlarning ruhiyati hamda o‘rta asr hayot tarzi aniq bayon qilingan bo‘lib, asliyatdan o‘qisa ham uning mohiyatini tushuna olmay qoladi. J.Ziyamuhammedov esa ushbu tarjimalarni kitobxonga tushunarli ravishda yetkazib bergan.

Pu Sungling o‘z asarini 1679 yillarda yakunlagan. Muaallif qadimgi va o‘rta asrlarda yashab o‘tgan shoirlar, yozuvchilar ijodiga qiziqar edi. Adib yozgan asalari asosan g‘aroyoib voqealar, personajlar esa hayvonlar, hashoratlar va o‘smliklardan tashkil topgandir. Ayrim manbalarda ko‘rsatilishicha Pu Sungling Xitoy poeziyasining taniqli namoyondalari 屈原 *Qū Yuán*[77] syuy Yuan va 蘇軾 *Sūshì*[78]Su Shilarning ijodiga qiziqgan va lirik asarlarini ular kabi yozgan.

Tarixdan ma’lumki XVII asrda Xitoyni Manjurlar zabt etib o‘zlarining 大清国 *Tài qīngguó*[79], Sin sulolarini yaratdilar. Manjurlar ko‘plab yozuvchi, shoir-u olimlarni qatl ettirib, tarixiy yodgorliklarni yo-qib yo‘q qilishgan. Pu Sungling novellalari oltmish yildan oshiq vaqt mo-baynida nashrdan chiqmaganligi bejiz emas. U o‘z asarlarida nohaqlik, sud tizimi, talaba va uni imtixon topshirishi, komillik g‘oyalari kabi mav-zularga to‘xtalgan. Yuqori lavozimlarda ishlash uchun imtihondan o‘tish kerak edi. Pu Sungling bolalik davrlaridan boshlab “Konfutsiyning mukammal inson haqida bayon etilgan qadimgi matnlarni, komil inson tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni o‘rganib chiqgan”[8, 265]. Biroq bu muvaffaqiyat olib kelmagan. Pu Sungling keksalikka qadar muvaffaqiyatsiz talabalar qatorida bo‘lgan. “Pu Sungling 71 yo-shidagina *suygun* darajasini oldi (haqiqiy talaba ma’nosini anglatadi)”[9, 738]. U juda ko‘p marotaba imtihon topshirgan va har safargi mu-vaffaqiyatsizliklarini novellada har xil ko‘rinishda bayon etgan. Har sa-fargi muvofaqqiyatsizlik adibga kanday ta’sir qilganini uning yozgan no-vellalaridan anglashimiz mumkin.

“Ushbu novellalarning barchasida davlat imtihonlariga boruvchi o‘quvchilarning xavotirlari va umidlari shunchalik jonli tasvirlanganki, dahoni bilimsizdan ajrata olmaydigan imtihonchilar shu qadar osonlikcha o‘z majburiyatini ado etardiki xatto, novella asliyatini va tarjimasini

---

[77] Xitoy tarixidagi ilk shoir 屈原 Qū Yuán eramizdan avvalgi 340—278 yillarda yashab o‘tgan. Uning

[78] 蘇軾 Sūshì Su Shi va Su Dun-po (蘇東坡 sūdōngpō)taxallusi bilan mashhur bo‘lgan (08.01.1037 – 24.08.1101) Xitoy shoiri va nasrning ustasi (Tang va Song davrlarining “sakkizta buyuk shoir va yozuvilari”dan biri) rassom va xattotsilik bilan shug‘illangan

[79] 大清国 *Tài qīngguó* Sin sulolasi 1644-1912 yilgacha hukmronlik qilgan

oʻqiganda ham juda aniq..... muallif qandaydir talabalar muvaffaqiyatsizlikka ucharaganini oʻzida his qiladi va ularning taqdiriga befarq boʻlmaydi”[8, 296]. Ushbu kayfiyat ayniqsa “贾芬芝 *Jiǎfēnzhī* Jiya Finji oʻlmas boʻldi” novellasida yanada yorqin aks ettirilgan. Ushbu novellada 贾 *Jiǎ* Jiya talaba xech ham imtihon topshira olmas ekan garchi u butun samoviy imperiya boʻylab bilim borasida tengdoshi boʻlmasa ham. Lyan ismli rohib kelmagunga qadar shu yoʻsinda bir qancha yil davom etdi. Rohib unga mazmun jihatdan beoʻxshov uzundan-uzun shunchalik xato ediki, koʻrsatishga ham odam uyaladigan soʻzlarni yod oldirtirdi. Biroq aynan mana shu yod olgan beoʻxshov soʻzlarini yozib 贾 *Jiǎ* Jiya imtihondan oʻtdi va uning ismi birinchilardan boʻlib roʻyxatda turgan edi. Bu kabi novellalar odiy xalqni ruhini koʻtarish ilohiy kuchlarga ishonish hayotida yana davom etishga undaydi.

Pu Sungling hikoyalarida xotima yozishi oʻzgacha uslub hisoblanadi. Ushbu xotimada muallifning asosiy gʻoyasi, voqealar rivojini tasvirlab kitobxonga asar haqidagi taassurotini yanada kengaytirishga yordam beradi. “Epiloglar an’anasi miloddan av. II asrning Buyuk Xitoy tarixshunosi 司马迁 *Sima Qian*[80] Sыma syanga borib taqaladi”[10,130]. Fishman yozgan asarida quyidagilarni zikr qiladi: “Lyao Jay tarixchi Sыma syanga taqlid qilib, Konfutsiyning fikrlaridek oʻzining xotimalarida aniq va qat’iy soʻzlar bilan gapiradi. Insoniyatning xulq-atvori haqida bayon qiladi” [11,67] .

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak oʻrta asrlarda yashab ijod qilgan Xitoyning uchta mashhur novellashunoslaridan biri Pu Sungling hayoti davomida koʻrganlari, turmush tarzi, urf-odatlarini, asarlardagi personajlarga badiiy obraz berib ularning aksariyatini hayvonlar sifatida aks ettirganini guvohi boʻlamiz. U oʻzgacha uslubda ijod qilgan. Uning ijod namunalari necha asrlar oʻtsa ham hozirgi kunda oʻz dolzarbligin yoʻqotmagan. Oʻzgacha uslub obrazlarning yaratilishi nafaqat xitoy adabiyotida balki butun dunyo adabiyotida oʻzgacha gʻayrioddiy yoʻnalish shaklda namayon boʻlganini koʻrsatadi.

Foydalinilgan adabiyotlar roʻyxati

[1] http://www.synologia.ru

[2] Зиямуҳаммедов Ж. Пу Сунглинг ва ўрта аср хитой новеллалари. Чўлпон номидаги нашриёт-манбаа ижодий уйи. – Т.: 2016, – Б 264

[3] Саломов Ғ., Комилов Н. Таржимон маҳорати. – Т.:197 – Б 196.

[4] Royallib.ru

[5] Алесеев В.М. Труды по китайской литературе. Книга 1. – Москва: 2002, – Б 578.

[80] 司马迁 Sima Chian milloddan avvalgi II asrda yashab oʻtgan tarixchi.

[6] Эйдлин Л.З. Василий Михайлович Алексеев и его Ляо Чжай / Л. Эйдлин // Пу Сун-лин Рассказы Ляо Чжая о чудесах / Пу Сун-лин. – М., 1973. – С. 7.
[7] Зиямуҳаммедов Ж., Я.Шамсиева. Ляо Жай (Пу Сунглинг) новеллалари.(хиромантия). – Т.: 2012, – Б 97.
[8] Алексеев В.М. Китайская литература. Избранные труды / В.М. Алексеев. – М., 1978. – С. 295.
[9] О.Е.Непомнин. Династия Цин Т. VI. – М.: Наука – Вост. Лит., 2014 – 886 с.
[10] Хасанова Шахзода. Ёш таржимашунос V / Ш.Хасанова. – Т.: ТДШУ, 2020. – Б. 130
[11] Фишман О.Л.Три китайских новеллиста XVII - XVIII вв. Пу Сун-лин, Цзи Юнь, Юань Мэй. – М., 1980. – С. 67.

YAPON TILIDAGI REALIYALAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI

***Ma'rufxodja NADJIMXODJAYEV**, TDShU, o'qituvchi*

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining jadal rivojlanishi va mamlakatimizda va jahon hamjamiyatida bir qancha sohalarda yangiliklar kiritishni talab qilmoqda. Shu qatorda milliy adabiy merosimizni asrash va butun jahonga tanitish maqsadida bir qator islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar yildan-yilga yaxshilanib kelmoqda. Bu esa ikki davlatning o'zaro lingvokulturologik jihatdan almashinuviga ham zamin tayyorlamoqda. Yapon tilidagi bir necha dunyo tanigan asarlar bevosita o'zbek tiliga tarjimalar amalga oshirilib, o'zbek tilidagi asarlarning yapon tiliga ag'darilishi ham asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirishda tarjimonlardan o'ta yuqori mahorat talab etiladi. Afsuski, tarjima jarayoniga oid bo'lgan bir necha muommolar hali-hamon o'z yechimini topmagan.

Yapon tilidan o'zbekchaga va o'zbekchadan yapon tiliga bevosita tarjima masalalari esa sanoqli dissertatsiya ishlarida yoritilgan. Yapon tilidan bevosita tarjimaga o'tish masalasiga tarjimashunos olimlar va tadqiqotchilarining qator maqolalarida qisman to'xtab o'tilgan. Bevosita tarjimalar soni bilvosita tarjimaga qaraganda oz miqdorda bo'lganligi tufayli bilvosita tarjimalarga xos bo'lgan "muammo"lar keragidan ortiq darajada o'rganilgan, asliyatdan bevosita o'girish masalalari xiyla nazardan chetda qolgan va bu mavzu chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa sharq madaniyatining o'ziga xosligi tarjima jarayonida ham yaqqol ko'rinadi. Bunda tarjimondan realiyalar, ya'ni milliy o'ziga xos so'zlarni tarjima qilishda o'zgacha yondashuv talab qilinadi.

Milliy o’ziga xoslik deganda ma‘lum millatga xos, uning turmush sharoitiga, dunyoqarashiga, madaniyatiga, kiyim-kechagiga, uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid tushunchalarni ifodalovchi realiyalar ko‘zda tutiladi. Bunday o‘ziga xoslik asar personajining xulq-atvorida, o‘y-hayollarida, gapiradigan gaplarida, maqollarda, xazillarida, qolaversa asar muallifining voqea hodisalariga munosabatida, bayonida ham o‘z aksini topadi. Shu sababli o‘ziga xoslikni tarjimada to‘laqonli aks ettirish asarning badiiy, estetik, semantik, stilistik jihatlarini ikkinchi bir tilda to‘laqonli qayta yaratish vazifalarini oldinga suradi. Bu tarjimondan tarjima asari yaratilgan tilni chuqur bilishlikni, shu xalqqa mansub bo‘lgan milliy o‘ziga xosliklarni, dunyoqarashlarni, asarning badiiy estetik ta‘sirini ta‘minlovchi barcha jihatlarini chuqur anglashni talab qiladi.

Bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning ta‘kidlashicha: “Realiyalar muayyan bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti)ga taalluqli bo‘lgan va boshqa tillarda aniq muqobiliga ega bo‘lmagan va o‘ziga xos yondashuvni talab qiladigan so‘zlar va so‘z birikmalaridir”[*1, 416.*]

R.Fayzullayevaning “Yo‘llar yiroq, ko‘ngillar yaqin”nomli maqolalar to‘plamida realiyalarga har tomonlama to‘g‘ri keladigan ta‘rif berildi.

“Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me‘morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi”[*2, 257*].

“Milliy o‘ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma‘naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi ” [*3, 101*].

Realiyalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlarni tarjimada muqobil qayta tiklash evaziga original asarning milliy to‘qimasini o‘zga tilda beshikast qayta yaratishdek yechimi shart bo‘lgan tarjima muammosini ma‘lum ma‘noda hal etish mumkin.

Realiyalarning aniq ta‘rifi, boshqa tillarga tarjima qilishdagi o‘ziga xosliklari, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik funksiyalar haligacha tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Realiyalar ifodalagan milliy o‘ziga xoslik, uni tarjimalarda

berish masalasi rus va o‘zbek olimlarining ko‘plab ilmiy tadqiqotlariga mavzu bo‘lgan. Shu kunga qadar tarjimashunos olimlar tomonidan ilgari surilgan realiyalarni tarjima qilish usullari ichida keng tarqalganlari haqida to‘plangan ma‘lumotlardan kelib chiqib, quyidagi usullarni keltirib o‘tamiz:

1. Transliteratsiya va transkripsiya;
2. Tarjima orqali yangi so‘z – neologizm hosil qilish;
3. Realiyalarni realiya bilan tarjima qilish;
4. Realiyani izohlab bayon qilish;
5. Konstekstual muqobil bilan almashtirish;

1. Transliteratsiya va transkripsiya - biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, boshqa o‘rinda asliyat tilidagi harflar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish tushuniladi. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va realiyalarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash nazarda tutiladi. Bunda tarjima qilingan xalq tilining lug‘at boyligi boyidi.

Milliy realiyalarni tarjimada berishning eng samarador usuli transkripsiya va transliteratsiya bo‘lib, u originaldagi xos so‘zni to‘liqroq ifodalash imkonini beradi. Transliteratsiya usulidan odatda asliyatdagi milliy o‘ziga xos tushuncha ifodalaydigan ma‘no tarjima tilida mavjud bo‘lmagan hollarda foydalanadi. Transliteratsiya uslidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Quyida yaponcha so‘zlarni transkripsiya usuli bilan tarjima qilingan misollarni ko‘rishingiz mumkin:

Masalan: *鎌倉(かまくら)[4,40.] - [kamakura] - Kamakura[5,5.];*

円(えん)[6,28.] — [yena] — Yena;

Transliteratsiya orqali berilgan so‘z izohlanmasa, tushuntirilmasa, kitobxon tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va so‘zlar bayoniga tushunmay qoladi. Bu o‘rinda transliteratsiya qilingan so‘z kontekst ichida tasvirlanib tushuntirilishi, ma‘nosi qavsda berilishi, yoki matn ostida izohlanishi mumkin.

2. Tarjima orqali yangi so‘z (neologizm) - milliy xos so‘zlar va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilish orqali yangi so‘z yaratish nazarda tutiladi. Bu tarjima usuli har doim ham o‘zini oqlamasligi tarjimashunoslar tomonidan tanqid ostiga olish hollari uchraydi.

Masalan: *下駄(げた)[6,53.] - [geta] - yog’och oyoq kiyim;*

箸(はし)*[6,80.] — [hashi] — ovqat cho'pi;*

Yuqoridagi ikki holatdagi misolni ko‘rib turganingizdek, o‘zbeklarning maishiy turmushida “geta” yoki ‘hashi” singari narsalar mavjud bo’lmagani sababli bu yerda bu so‘zlarga ekvivalent qidirish juda mushkul hisoblanadi. Shuning uchun ham “*yog'och oyoq kiyim"[5,45]* yoki *"ovqat cho'pi"[5,67]* singari neologizmlardan foydalanish tarjimonning ishini samarali qiladi hamda boyitadi desak adashmagan bo‘lamiz.

Albatta o‘zbek izohli lug‘atida mavjud bo‘lmagan so‘zni kitobxon hazm qilishi bir qator mushkullikni keltirib chiqarishi mumkindir. Ammo kitobxon o‘zga davlatning badiiy asarini o‘qiyotganda neologizmlarga tayyor turishi hamda o‘zgacha fikrlagan holda o‘zga davlat adabiy ruhini anglagandagina badiiy asarning ichki olamiga kira oladi. Shuningdek, tarjimondan ham milliy o‘ziga xos so‘zlarni tarjima qilishda neologizmlarga o‘ta noziklik bilan yondashishi hamda o‘zbek kitobxoniga tushunarli ko‘rinishda yetkazib berishi muhim hisoblanadi.

3. **Realiyalarni realiya bilan tarjima qilish** – asliyat tilidagi xos so‘zni tarjima qilinayotgan tildagi ma‘no jihatidan yaqin bo‘lgan realiya bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu usul orqali tarjima qilingan asar shu xalq milliyligiga mos keladi hamda kitobxon uchun tushunarli bo‘ladi. Ammo bu usul bilan tarjima qilingan matnning asliyatdagi milliyligi yo‘qoladi. Masalan: 居酒屋(いざかや)*[7,15.] - [izakaya] - choyxona;*

着物(きもの)*[8,36.] — [kimono] — yaxtak;*

Tarjimon o‘zga davlat tilida yozilgan badiiy asarni xalq tiliga ag‘darish vaqtida ayniqsa milliy o‘ziga xos so‘zlarning tarjimalarida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi sir emas. Ayniqsa, o‘zga davlatning madaniyati, turmush tarzigagina xos bo’lgan holatlar mavjudki, tarjimon bunday qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida realiyalarni realiya bilan tarjima qilish usulidan foydalanadi.

Bu usuldan foydalanish bilan o‘zga tildagi realiyalarga qaysidir jihatlari bilan mos keladigan realiya bilan almashtiriladi. Bu esa tarjima qilingan asarni o‘qishda bir qator qulayliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, **asliyatda:** “Erkak kishi o‘z kimonosini kiyib, ko‘chaga chiqib ketdi” deb yozilgan bo‘lsa, **tarjimada:** “Erkak kishi o‘z yaxtagini kiyib, ko‘chaga chiqib ketdi” *[5,48.]* ko‘rinishida tarjima qilinishini ko‘rish mumkin. Albatta Yaponiyaning kimonosi bilan o‘zbeklarning yaxtagi orasida katta farq bordek ko‘rinadi. Ammo har ikki narsa kiyim turi hamda milliy libos sanalgani tufayli tarjimonlar ushbu tarjima qilish usulini qo‘llashadi.

4. Realiyani izohlab bayon qilish - bu usulda asliyatdagi milliy o‘ziga xos so‘zni tarjima qilishga harakat qilinmaydi. Realiyani tarjimada asliyat tilidagi izohli lug‘atda berilgan ma‘nolarini tushuntirish orqali tarjima qilinadi.

Ko‘p mutarjimlar realiyalarni ag‘darishda tranliteratsiya yo‘li bilan tarjima qilib, havola qismida to‘liq tarzda izoh berishni maqul ko‘rishadi. Bu usul hozirgi davr tarjimashunoslari tomonidan to‘g‘ri tarjima qilish usullaridan biri sifatida ko‘rilib, keng tarzda realiyalarning tarjima jarayonida qo‘llanib kelinadi.

Masalan: *金沢 (かなざわ) [6,27.] - [kanazawa] - Yaponiya shaharlarining birining nomi;*

酒 (さけ) [6,95.] - [sake] - Yaponlarning o’tkir ichimligi;

5. **Kontekstual muqobil bilan almashtirish (ekvivalent) –** o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya‘ni muqobil tushuncha bilan berish nazarda tutiladi. Bu usul bilan realiyani tarjima qilishda shu xalqqa tegishli va bir xil vazifa bajaradigan muqobil ya‘ni aynan kerakli so‘zni topa bilish muhim hisoblanadi. Masalan: *茶碗 (ちゃわん) [9,97.] - [chavan] – piyola ; 先生 (せんせい) [9,105.] - [sensey] – ustoz;*

Shu yerda tarjimada ekvivalentlik to‘g‘risida so‘z yuritishni maqsad qildik. Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e‘tiborni ikki til tizimining semantik jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning to‘laqonliligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg‘unligi tashkil etadi. Lisoniy tarjimaning muhim vazifalaridan biri “tarjimaviy ekvivalentlik” tushunchasini muayyan tilga tarjima qilishdan iboratdir. Asliyat va tarjimaning mazmunan to‘la-to‘kis mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko‘pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ekvivalentlik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnni o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” kabi ta‘rifga mos keladi. Asliyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon bo‘ladi:

I. Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg‘unligi ko‘z ilg‘amas darajada namoyon bo‘ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o‘rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: a) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik;

b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o‘rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog‘lanishning ko‘zga tashlanmasligi;

v) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past. Shunday qilib, ekvivalentlikning ushbu turida asliyatdagiga nisbatan tarjimada go‘yo mutlaqo boshqa narsa haqida gapirilayotgandek tuyuladi. Ushbu tarjima turiga ekvivalent sifatida tan olingan quyidagi jumla tarjimasini misol tariqasida keltirish mumkin: *彼女は男の方に怖い顔をした。[10,78.] [kanojo ha otoko no hou ni kowai kao shita]*

Qiz yigitga nafrat ko‘zi bilan qarab qo‘ydi.

Bu yerda asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan.

II. Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma‘nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko‘pchilik so‘z va sintaktik qurilmalar o‘rtasida bevosita yaqinlik ko‘zga tashlanmasada, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko‘proq o‘xshashdir.

Demak, ushbu ekvivalentlik turida fikr turli tillarda turlicha ifoda etilsada, bir xil vaziyat tasviri yaratiladi. Bunday hol muloqot ishtirokchilarining g‘ayrilisoniy tajribalari asosida yuzaga keladi.

Quyidagi turlicha qurilishli yaponcha va o‘zbekcha ekvivalent ifodalar orasida mantiqiy-semantik bog‘lanish yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- *日が上がってきた。[10,132.] [hi ga agate kita] Tong otay dedi.*
- *彼女は一人暮らしの生活を送っている。[11,123.] [kanojo ha hitorigurashi no seikatsu wo okutte iru] U hech qayerga chiqmaydi.*

Bunday ekvivalentlikning turli tillar dalillari asosida tadqiq etilishi tilshunoslik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. U tillar o‘rtasidagi umumiy va tafovutli holatlarni muayyan qilish, shu yo‘l bilan tillar hodisalariga ongli yondashish imkoniyatini beradi.

Xulosa o’rnida, realiyalarni tarjima qilishda tarjimon o‘z mahoratini ko’rsatib, barcha usullarni qo‘llab ko‘rishi hamda eng munosib yo‘l orqali tarjimani amalga oshirishi kerak. Bunda eng samarador usuli transliteratsiya ekanligi aniqlandiki, u originaldagi xos so‘zni to‘liqroq ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, milliy realiyalarni tarjimada ifodalanishini o‘rganish birinchidan badiiy asardagi milliy o‘ziga xosliklarni ifodalash usullarini aniqlab, tarjimonlar uchun amaliy, nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Bilvosita va bevosita tarjima jarayonida qo‘lga kiritilgan boy tajribalarni umumlashtirishga,

yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurroq anglanishiga olib kelar ekan.

Milliy o‘ziga xos so‘zlarni tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik muhim rol o‘ynab, bu orqali kitobxonga asar bilan tanishish jarayonida bir qator qulayliklarni beradi. Lekin shu bilan birga tarjima jarayonida muqobil so‘zni tanlashda o‘ta yuqori bilim hamda malaka bilan faoliyat olib borish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] – Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.:Международные отношения, 1986.

[2] – Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Т.: 1973.

[3] – Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти,1983.

[4] –『コンサイス和露辞典』2005-2007 konsaisu waro jiten (Concise yaponcha-ruscha lug‘at)

[5] – Aminova N. “Qalb” asari bevosita tarjimasi. Jahon adabiyoti may-iyul soni. 2013-yil.

[6] –『小学館大辞線』2008 Shogakukan daijisen (”Ilmiy izohli katta lug‘at ”).

[7] –『明鏡国語辞典』2002-2009 meikyo kokugo jiten (Meikyo izohli lug‘at i).

[8] –『百科辞典マイペディア』2008 hyakka jiten maipedia (Maypedi ensiklopedik lug‘at).

[9] –『ブリタニカ国際大百科事典』2009 Buritanika kokusai daihyakka jiten (Britanika katta ensiklopedik lug‘at).

[10] – 夏目漱石「こころ」1914.

[11] – Nippon the land and its people. Japan. 2008.

UYG‘URCHA GIYOH NOMLARI TARJIMASIGA DOIR

***Farhod GISAROV**, TDShU, o‘qituvchi*

O‘zbek va uyg‘ur tillari bir oilaga mansub tillar bo‘lsada, ushbu tillar orasida tarjima amalga oshirilayotganda ba’zan muammolar kelib chiqishi tabiiy. Uyg‘ur tili boshqa turkiy tillar kabi o‘ziga xos grammatik va stilistik xususiyatlarga ega bo‘lgan qadimiy tillardan biri hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, taniqli olim Emir Nadjipovich Nadjipning 1960 yilda nashr etilgan “Hozirgi zamon uyg‘ur tili” kitobida Torim ko‘li bo‘ylarida istiqomat qiluvchi uyg‘urlar tilining adabiy til ekanligi aytilgan.

Olim uyg‘ur tilining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan jug‘rofiy omillarni asosiy sabablardan ekanligini ta’kidlaydi. U o‘tgan asrning 30-yillarida uyg‘ur vohalarida yashovchi xalqlar bir-birlarini “dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilar” ma’nosida “torimchi” deb yuritib kelishgan, degan fikrga keladi.

Uyg‘ur tilida ham boshqa turkiy tillarida bo‘lgani singari fors va arab tillarining ta’siri yaqqol seziladi. Uyg‘ur tilidagi atamalarni tahlil qilish sirasida o‘simlik nomlari, ayniqsa dorivor giyohlarning nomlari ustida ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Uyg‘urcha giyoh nomlaridagi leksik-semantik o‘ziga xosliklarni o‘rganish milliy-mental lug‘aviy strukturani chuqurroq bilish imkonini beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

O‘simlik nomlari, ya’ni tabobat atamalari yasalishida so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi affikslar va suffikslar katta ahamiyatga ega. Uyg‘ur tilidagi tabobat atamalaridagi arabiy-forsiy leksik ta’sirga kelinadigan bo‘lsa, ta’kidlash kerakki, Sharqiy-Janubiy Osiyoda bemorlarni dorivor o‘simliklar bilan davolashda ham kuchli tajribalar va amaliy natijalarga erishilgan. Hindiston, tibet, xitoy, uyg‘ur, o‘zbek, arab, eron tabobatlarida ham shifobaxsh giyohlar, dorivor o‘simliklardan unumli foydalanilgan. Ko‘hna Hind tilida yozilgan “Yajur-veda” (“Hayot haqida fan”)ni vrach Sushruta qayta yozgan va unda Hindistonda o‘sadigan 700 xil dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan, inson salomatligiga foydali o‘simliklar bayonini bergan.

Abu Mansur Muvaffaq hind tabobati haqida yozgan kitobida dorivor o‘simliklardan 466 tasining nomini keltiribgina qolmay, 44 xil organik dorivor moddaning kimyoviy xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot ham bergan. Bokulik farmatsiya magistri Abdul Axundov 1893-yilda bu kitobdan arab tilida dorivor o‘simliklardan tayyorlangan mahsulotlar bo‘yicha ilmiy ish yozgan. Ibn Baytar o‘z kitobida 1400 xil dorivor mahsulotlar va ularga xos farmasevtik jihatlarini tavsiflagan.

Mashhur hakim Abu Ali ibn Sinoning 1020 yilda yozilgan 5 jildlik “Al-Qonun” (“Tib qonunlari”) asarining 2 jildi dorivor giyohlar haqida bo‘lib, 5-jildi murakkab dorilarga bag‘ishlangan. Qomusiy bilimlar sohibi Abu Rayhon Beruniy “Kitobu s-saydana fi-t-tib” (“Tibbiyot farmakognoziyasi”) nomli asarida sharq tabobatida qo‘llanilgan 674 ta dorivor o‘simlik va 90 xil o‘simlik mahsulotlari haqida ma’lumot bergan. Ushbu asarda 104 ta hayvonning go‘shti, ichki a’zolari, shoxi, junlaridan tayyorlanadigan shifobaxsh mahsulotlar nomi keltirilgan. Beruniy o‘zigacha boshqa olimlar tomonidan noto‘g‘ri qo‘llanib kelgan yoki nodurust tarjima etilgan 113 ta dorivor o‘simlik nomi, atamalarda yo‘l

qo‘yilgan kamchiliklarni tanqid qilgan va ularni qanday atash to‘g‘ri bo‘lishini ta’riflab, asoslab bergan.

Sharq tabobati ilmining shakllanishi va taraqqiy topishida Uyg‘ur tabibchiligi ham salmoqli ahamiyatga ega. Shinjong Xalq Sihhiya nashriyotida 2012 yilda chop etilgan 2 qismdan iborat ”Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasida Uyg‘ur dorivor o‘simliklar bilan davolash tarixi, tibbiy usullarning benazirligi, xalq tabobati texnikasi, inson tanasining fiziologik tuzilmalari orasidagi uzviy bog‘liqlik, inson tana a’zolarining faoliyati, uni yaxshilash uchun foydali dorivorlarning ahamiyatli jihatlari, tabiatda xom uchraydigan shifobaxsh o‘simliklarning turlari, ulardan inson salomatligini yaxshilashda qo‘llanish metodlari, mazkur o‘simliklarning kimyoviy tarkiblari va ularni tabobatda ishlatish me’yorlari kabi masalalar batafsil bayon etilgan.Ushbu ensiklopedik salohiyatga ega bo‘lgan kitob Uyg‘ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmasevtika) oliy maktablari uchun darslik vazifasini o‘tab kelmoqda.

Abdurahim Yusup bosh tuzuvchi bo‘lgan mazkur II qismli tabobat darsligining muallifi Ali Hoji Emchidir.Kitobni tuzishda Ruqiya Qovuz hamda Abul Qosim Muhammad Siddiqlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shgan. 1987-yilda Shinjong Uyg‘ur tabobatchilik oliy texnikumiga asos solinib, kechki ta’lim bshlanadi.

Darslik o‘ziga qadar ikkinchi avlod o‘quv qo‘llanmalari sifatida foydalanib kelingan 26 ta kitobdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga jamlagan bo‘lib, bundan tashqari uyg‘ur tabobati va dorivor o‘simliklar yo‘nalishida mavjud klassik(mumtoz)asarlarni hamda ikki maktab tajribalarini asos qilib olganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur ”Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasida O‘rta asrlarda Qoshg‘arlik Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti–t-turk” asarida keltirilgan o‘simlik nomlari asos qilib olingan va ulardagi leksik xususiyatlar saqlab qolingan. Mahmud Qoshg‘ariy asarining nomiga e’tibor qaratilsa, “Devonu lug‘oti-t-turk” so‘z birikmasining o‘ziyoq arab tilida ekanligi ko‘rinadi, tarjimasi “Turk tillari devoni(qomusi)”.(3)

X asrlardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqalariga arab tilidagi yangi madaniyat va ilm-fanning kirib kelishi natijasida maorif ishlari, ya’ni maktab, madrasalarda ta’lim arab tilida olib borilgan.Ilm ahli ta’lim olish, ilmiy ishlarini amalga oshirish maqsadida Arab xalifaligining markazlari bo‘lgan Kufa, Bag‘dod, Misr kabi shaharlarga borishgan va arab tilida ijod qilganlar. Mahmud Qoshg‘ariyning ushbu asari ham arab tilida yozilganligi bejiz emas. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyotida 2012 yilda chop etilgan II qismdan iborat ”Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasida qayd etilgan dorivor o‘simliklar nomlari o‘rganib chiqil-

ganda ushbu atamalarning taxminan 25% arabcha ekanligi koʻzga tashlandi. Bu atamalarni aynan arab tilidan oʻzlashgan atamalar deyish unchalik oʻrinli boʻlmasa kerak.

”Uygʻur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasi hozirgi kunlarda Shinjong-Uygʻur avtonom rayoni Tibbiyot ilmgohlarida asosiy darslik sifatida oʻqitilmoqda (4). Tabobat atamalari tarkibidagi arabcha soʻzlar asosan yakka soʻz yoki soʻz birikmalari shaklida ifodalangan, masalan:

1. رەيهان Rayhon Fa’lan qolipida
2. ئانبار A’nbar Fa’lan qolipida
2. ئەمەن A’man Fa’lan qolipida
4. مۇغاس Mugʻas Fu’al qolipida
5. شاتارى Shatari F’ala qolipida

.Mazkur qoliplar ism nomlarini ifoda etuvchi qoliplar sanaladi.Arab tilining oʻziga xos jihatlaridan biri shundaki,istalgan soʻz muayyan bir qolip (shakl) orqali oʻz mohiyatini namoyon etadi. Yuqorida keltirilgan soʻzlar va soʻz birikmalarida aksar hollarda arab leksikasiga xos jihatlar yaqqol koʻzga tashlanadi.Soʻzlardagi arab tili morfologiyasi nuqtai nazaridan soʻz yasalish formalari mavjud.

Bu atamalarni uygʻur tiliga tarjima qilish jarayonida ularning tub asliy atalishini topish yengil ish emas,chunki asrlar davomida xalqning tiliga singib ketgan bu nomlarni aslida qadimda qanday boʻlganligi oson ish emasligi ayon,biroq bu terminlarning uygʻur tilidagi muqobillarini topa olish tarjimondan kattagina mahorat hamda bilim talab qiladi.(5)

Uygʻur tilidagi tabobat atamalarida nazarda tutilgan shifobaxsh oʻsimliklarning nomlarida xalqning badiiy soʻz mahorati, zukkoligi, donishmandligi, badiiy obrazlilik jihatlari uygʻur milliy mentalitetining serqirraligidan darak beradi.Tarjimondan xalqning qadim oʻtmishini uning ilmiy salohiyati va iqtidorini inobatga olgan holda matnga yondoshmoqlik talab qilinadi.Tarjimashunoslik sohasida bu asosiy masalalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Халидов Б.З. Учебник арабского языка.2014 — 2-е изд. Ташкент: Ўқитувчи, 1977. 656 с

Saloev R.B. Oʻzbek tilida ismi foillar: filol. Fanlari nomzodi...diss. avtoref.— Samarqand, 1994.

Наджип Н.М. Современный уйгурский язык // Издательство восточной литературы – М.: 1960 г. – 132 с. .

Малов С. Е., Изучение живых турецких наречий Западного Китая, Восточные записки, т. I, Л., 1927.

Малов С. Е., Сказки желтых уйгуров, «Живая старина», СПБ, 1912, XXI, вып. 2-4.

INSON XARAKTERINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA DOIR

***Zebo SALIMOVA**, TDShU, o'qituvchi*

Ushbu ilmiy maqola turk tilida inson salbiy xarakter xususiyatlarini berishda evfemizmlarlardan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi. Salbiy xususiyatlarni ifodalashda qo'llanilgan birliklar tahlil qilinadi. Zoonim orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko'rib chiqiladi. Turk tilida inson salbiy qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi.

Til inson va borliq o'rtasidagi ko'prik va borliq o'rtasidagi ko'prik, inson olamni idrok etishidagi eng muhim vosita sifatida xarakterlanadi. Insonning o'zligini anglashi, unda milliy g'urur, iftixor kabi oliy tuyg'ularning qaror topishida tilning o'rni nihoyatda beqiyos. Zero, tilshunoslik sohasi mutaxassislarini tayyorlashda sohaga oid turk va o'zbek tillarida sifat leksemalarning qiyosiy-chog'ishtirma tizimini ilmiy asosda chuqur tadqiq qilingani, o'zbek va xorijiy tillarda umumiy, xususiy jihatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boorish ko'lami hamda samaradorlik ko'rsatkichini yanada oshishiga imkoniyatlar yaratadi.

Dunyoda jamiiki inson borki, har birining o'z dunyoqarashi, o'ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Yaxshi fazilatlar kabi inson bolasida yomon, ya'ni salbiy xarakter ham shakllanishi mumkin. Bunga uning atrof-muhiti, oilasi, tarbiyasi, jamiyati va boshqa ta'sir etuvchi omillar sabab bo'ladi. Bu kabi salbiy sifatlar har bir tilda shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda aks ettiriladi.

Turk tilida salbiy xususiyatlarni beruvchi leksik birliklar juda ko'p. Masalan, ***Adam sendeci*** (kibr-havoga berilgan), ***afal*** **(**tarqoq fikrli, besaranjom), ***açıkgöz*** **(**manfaatparast), ***aferist*** (ayyor), ***ahmak*** (axmoq), ***ağzı büyük*** (katta gapiradıgan kimsa), ***ağzı gevşek*** (ichida gap turmaydigan), ***ağzı havada*** (atrof-muhitdan bexabar), a***ğzı kara*** (yomon xabar yetkazishdan bahra oladigan), a***ptal aptal*** (axmoq, axmoqona), a***val aval*** **(**axmoq**),** ***budala*** (axmoq), c***ingöz*** (ayyor), ***yalancı*** (yolg'onchi), ***kaba*** (qo'pol), ***hasetçi*** (hasadgo'y) ***inatçı*** (qaysar), ***kurnaz*** (ayyor), ***dedikoducu*** (g'iybatchi), ***kararsız*** (beqaror), ***katır*** (juda ham qaysar), ***kıskanç*** (qizg'anchiq, rashkchi), ***köşe kadısı*** (mehnat qilishni xohlamaydigan, bekorchilikni yoqtiradigan kimsa), ***lakayıt*** (loqayd) va ***sinsi*** (g'arazgo'y), ***hain*** (xoin), ***burnu havada*** (burni osmonda), ***bencil*** (xudbin, egoist), ***kinder*** (ginachi), ***kavgaci*** (janjal chiqaruvchi), ***sahtekar*** (ikkiyuzlamachi), ***ikiyüzlü*** (ikkiyuzlamachi), ***cimri*** (pastkash), ***duzenbaz*** (xiylakor), ***dolandirici*** (aldoqchi), ***hırsız*** (o'g'ri), ***katil*** (qotil), ***uyanık*** (ayyor), ***vurdum duymaz***

(tepsa tebranmas kimsa), ***acımasız*** (marhamatsiz, toshbag'ir), ***açık ağızlı*** (axmoq), ***zalim*** (zolim), ***alçak*** (nokas, pastkash), ***kibirli*** (takabbur), ***inatçı*** o'jar, ***bencil*** (xudbin) va boshqalar.

Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarini ularning gap-so'zini, o'y-niyatini, yoki tana a'zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi. Salbiy stereotiplarni ifodalash uchun ***manda gibi*** (to'nkaday, ishyoqmas), ***tilki gibi*** (ayyor, laganbardor) kabi zoonimlardan foydalaniladi.

Ba'zi noo'rin so'zlar borki, ularning o'zini emas, ma'nosini bildiruvchi evfemizmlardan foydalaniladi.

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy "Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar" deya ta'rif beradi.[81]

Har bir yozuvchining badiiy mahoratini belgilashda uning qahramon portretini yaratishdagi o'ziga xosligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yozuvchi yaratgan portret adabiy qahramon to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun dastlabki tayanch asos sanaladi. Asarda qalamga olinayotgan voqeq-hodisalarda kimlar ishtirok etayotgani, ular qanaqa ko'rinish, qiyofa va qanday fe'l-atvorga ega ekanligi, avvalo, ularning portreti orqali namoyon bo'ladi.

Asardagi voqealarning kundalik hayotdagidan ko'ra ta'sirchanroq, jozibaliroq bo'lishining asosiy sababi, avvalo, qalamga olinayotgan voqealarni markazida turgan qahramonlar bilan bog'liqdir.

Aristotel o'zining "Poetika" asarida ushbu fikrlarni beradi: "Inson maylining nimadadir namoyon bo'lishi, kimning nimanidir afzal deb hisoblagani yoki nimanidir yoqtirmagani xarakterdir… Shaxs agar o'zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadga amal qilsa, xarakterga ega bo'ladi. Agar shaxs yaxshi maqsadlarni ko'zlasa, xarakteri ham yaxshi bo'ladi. Bu har bir odamda mavjud bo'lishi mumkin". [82]

Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar. "Kar" ma'nosini beruvchi qulog'i og'ir, "g'ilay" ma'nosini beruvchi bir ko'zi mag'ribda, bir ko'zi mashriqda evfemik ma'noli birikmasi shular jumlasidan. Bir so'z boshqa so'zlarsiz evfemik ma'noni bergan holatlar talay: arra, axlat, qisqa (ahmoq), o'choqboshi (hukumat), o'yin (xiyla), yara (dard), yuraksiz (qo'rqoq), yuklik (homilador), etaksiz (betayin), chayqovchi (olib sotar, qallob), tuyoq (farzand), tillaxona (hojatxona), oqsoqol

[81] Ўзбек тилида Эвфемизм ва Дисфемизм –Т:2013 2-3 б.

82 Аристотель. Поэтика. (Поэзия санъати ҳақида). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 18-31 б.

(aroq), obirahmat (aroq), ko‘ch (xotin), zaifa (ayol, ojiza), do‘ndiqcha (fohisha) va boshqalar.

Bularni hamma tilda bo’lgani kabi, turk tilida ham uchratish mumkin. ***Sağır***, ya’ni kar ma’nosida ***kulağı tıkalı*** birikmasi qo’llanilsa, ***korkak*** (qo’rqoq) so’zi o’rnida ***devekuşu*** (tuyaqush) zoonimidan foydalanish mumkin. Yoki tozalikka rioya qilmaydigan, ozodalikka amal qilmay, yuvinmay hatto badanidan badbo’y hid keladigan nopok kishini ***kokarca*** (sassiqko’zan, badbo’y) hayvoniga o’xshatiladi.

Miyasi yaxshi idrok qilmaydigan, anqov ma’nosida ***öküz*** (ho’kiz), juda sho’x/ bezori bolaga nisbatan ***eşek sıpası*** (ho’tikcha), juda ochko’z odamni gavdalantirish uchun esa ***fil*** (fil) zoonimlari qo’llaniladi.

Diydori nomuborak (turqi sovuq), vaqtsizroq yaratilib qolgan (chala tug‘ilgan) kabi insonning tashqi ko‘rinishidagi nuqsonlarni bildiruvchi evfemik ma’noli birliklar orasida yana «husni Yusuf» kinoyaviy birikmasi ham xarakterli ahamiyatga ega: Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, handalakdek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir «husni Yusuf» ko‘rinar edi. (A.Qod. “Mehrobdan chayon”)[83]. “Xunuk”, “badbashara” mazmunini yumshatayotgan ayni ifoda qo‘shtirnoq ichida berilib, kinoyaviy ma’no ifodalagan.

Insonning ma’naviy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar Insonning aql bilan bog‘liq ma’naviy-ruhiy nuqsonlarni anglatuvchi aqling oqsaydir, aqlingiz bir oz yanglishibdir, boshi bo‘sh, jo‘n odam, po‘stak aqlini moy bosgan, jahli basit, soddalavh, esi yarim, yarim madaniy xalq, xom kishi kabi evfemik ifodalar badiiy dabiyotlarda kuzatiladi.

Turk tilida ham ***dar kafalı*** , ***dibek kafalı*** (aqli noqis) birikmalari aynan shu ma‘noda ishlatiladi. Yana asabiy og‘riq (ruhiy kasal, jinni), bolalik (sodda, go‘l, xom), botirligi yetmas (qo‘rqoqlik qilar), vasiqasi yo‘q (betayin) kabi evfemik ma’noli birliklar ham ushbu tizimda qaraladi. Tamagirlik, pora mavzusi doirasida evfemik ma’noli birliklar xilma-xil: yelkasi qichimasin (tamagirlik qilmasin), yovvoyi chiqim (pora), mullajiring (pul; pora), “qarz” (pora), cho‘ntakparast (tamagir, pulga o‘ch odam), konvert orqali ulashilgan “badal”lar (pul, pora) kabi evfemik ma’noli birliklar shular jumlasidan. Diydori nomuborak (turqi sovuq), vaqtsizroq yaratilib qolgan (chala tug‘ilgan) kabi insonning tashqi ko‘rinishidagi nuqsonlarni bildiruvchi evfemik ma’noli birliklar orasida yana «husni Yusuf» kinoyaviy birikmasi ham xarakterli ahamiyatga ega: Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, handalakdek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir «husni Yusuf» ko‘rinar edi.

83 Qodiriy Abdulla . Mehrobdan chayon: T.1992. 35-b.

(A.Qod. “Mehrobdan chayon”). “Xunuk”, “badbashara” mazmunini yumshatayotgan ayni ifoda qo‘shtirnoq ichida berilib, kinoyaviy ma’no ifodalagan.

Insonning ma’naviy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar Insonning aql bilan bog‘liq ma’naviy-ruhiy nuqsonlarni anglatuvchi aqling oqsaydir, aqlingiz bir oz yanglishibdir, boshi bo‘sh, jo‘n odam, po‘stak aqlini moy bosgan, jahli basit, soddalavh, esi yarim, yarim madaniy xalq, xom kishi kabi evfemik ifodalar badiiy dabiyotlarda kuzatiladi.

Turk tilida ham ***dar kafalı*** , ***dibek kafalı*** (aqli noqis) birikmalari aynan shu ma‘noda ishlatiladi. Yana asabiy og‘riq (ruhiy kasal, jinni), bolalik (sodda, go‘l, xom), botirligi yetmas (qo‘rqoqlik qilar), vasiqasi yo‘q (betayin) kabi evfemik ma’noli birliklar ham ushbu tizimda qaraladi.

Tamagirlik, pora mavzusi doirasida evfemik ma’noli birliklar xilmaxil: yelkasi qichimasin (tamagirlik qilmasin), yovvoyi chiqim (pora), mullajiring (pul; pora), “qarz” (pora), cho‘ntakparast (tamagir, pulga o‘ch odam), konvert orqali ulashilgan “badal”lar (pul, pora) kabi evfemik ma’noli birliklar shular jumlasidan.

Shunday salbiy xislatlar borki, ularni bir necha sinonimlar, iboralar, leksik birikmalar orqali berish mumkin. Masalan, ezma, ko’p gapiradigan odamga nisbatan ***geveze, çenesi durmayan, çene kavafı, çeneli, çenesi düşük, çenesi kuvvetli*** kabi o’xshatishlardan foydalaniladi. Bir ishga yaramaydigan, hech kimga foydasi tegmaydigan qadrsiz, keraksiz ma’nosini ifodalash uchun esa ***çöp arabası, çöp tenekesi*** (axlat idish), ***işe yaramaz, değersiz*** birikmalari bor.

Bu kabi salbiy xarakter bildiruvchi sinonim so’zlarga turk tilida juda ko’plab misollar berishimiz mumkin. ***Avanak*** – laqma, anqov, ***arabozan, arabozucu, ordubozan, fesatçı, fitçi, nıfakçı, münafık, müfsit, müzevir*** so’zlar ora buzuvchi, ig’vogar ma’nolarini beradi. ***Beceriksiz -*** uquvsiz, ***bön-*** anqov, c***anına düşkün, bencil*** -o’zini o’ylaydigan egoist, xudbin, ***canı sıkkın***-qiyin ahvolda, ***canı tatlı***-o’zini qiynamaydigan, c***anı tez, aceleci*** -shoshqaloq, ***canlı cenaze-*** tirik murda, ***cahil, cim karnında bir nokta*** - o’qimagan, savodsiz, ***ceberut, acimasiz-*** beshafqat, marhamatsiz, **cebi delik** iborasi esa tejamkor bo’lmagan, topganini ko’chaga sovuradigan isrofgarlarga ko’ra qo’llaniladi. ***Cefakar, cellat*** - aziyat berguvchi, bag’ritosh, tosh yurakli, zolim kishini ifodalaydi.

Cimri, bitli, eli sıkı, ekti, hasis, kibritçi, mıhsıçtı, nekes, pıntı, sıkı, varyemez so’zlari pastkash, ziqna, qizg’anchiq, nokas kishini gavdalantirish uchun qo’llaniladi.

Cin çalığı, çirkin esa tashqi ko’rinishdan xunuk, ***kaba, dag’adamı*** qo’pol ma’nosida, c**oşkusuz** xamiri achimagan, beg’am ma’nolarida ke-

ladi. Shu o'rinda bir misol: *Hűseyin, delişmen bir adamdı. Beni çabuçak sevmişti. Ben de umulmaz ve affedilmez bir vefasızlıkla onun sevgisine mukabele edivermiştim.* (R.N.G., 9) jumlasida ifoda etilgan fikr, aniqrog`i, *sevgisine mukabele etmek* birikmasi o`zbekcha tarjimada ibora vositasida *(oyoq osti qilmoq)* yoritilgan va bu tarjimaning badiiy saviyasini yanada oshirgan: *Husayn devonaroq odam edi. Meni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Men esam uning sevgisini oyoq osti qilib, tuzatib bo'lmaydigan vafosizlik bilan xorlardim* (M.I., 8).

Mazkur misolda "***delismen***" devonasifat, "***vefasiz***" vafosiz kabi xarakter xususiyatlari tarjimada o'z ekvivalenti bilan berilganining guvohi bo'lamiz. Qo'pol, juda ham semiz, mehnatga tobi yo'q tanbal kishilarni tasvirlash uchun o'zbek tilida "to'nkaday", "cho'chqaday", "buqaday" so'zlari qo'llanilsa, turk tilida "***manda gibi***" birikmasi ishlatiladi. Manda yovvoyi buqa ma'nosini beradi.

Umuman olganda, har bir til o'z imkoniyatlarini so'z boyligining kengligi bilan namoyish etadi. Bitta so'zning kontekstda ikki martadan ko'p ishlatilmasligi esa badiiy va grammatik g'alizlikning oldini oladi. Salbiy xarakter ifodalarini ham tarjimada so'z, so'z birikmasi, ibora yoki evfemizm orqali berish tarjimondan anchagina bilim va tajriba, idrok talab etadi. Zero, tarjimon—ikki milliy adabiyot o'rtasidagi aloqachi. Voqealar oqimini original asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga avtor singari kirib borishi lozim.[84]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Güntekin R.N., Çalıkuşu, roman, İstanbul, 1992.
2. K. Jo'rayev "Tarjima san'ati" T.: "Fan" 1982.
3. Moran B. Turk edebiyatına eleştirel bir bakış. Iletişim Yayınları. Istanbul-1995.
4. Yakuboğlu Adil, Köhne Dünya, Tűrkiye Tűrkçesi D.Ahsen Batur, İstanbul. 1998.
5. Yakuboğlu Adil, Uluğbey'in Hazinesi, Tűrkiye Tűrkçesi D.Ahsen Batur, İstanbul. 1999.
6. O'zbek tilida Evfemizm va Disfemizm –T:2013.
7. Гунтекин Р. Н., Чоликуши, роман, Тошкент, Янги аср авлоди. 2011.
8. Ёқубов О., Кўҳна дунё, роман, Тошкент. 1995.
9. Ёқубов О., Улугбек хазинаси, роман, Тошкент, 1996.
10. Иброҳимова Ш., Одил Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши, ф.ф.н. дисс.Тошкент, 2010.
11. Исматуллаев Н. Ўзбек тилидаги эвфемизмлар ва уларнинг классификациясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. № 1. – Б. 57.

[84] K. Jo'rayev "Tarjima san'ati" T.: "Fan" 1982-yil. 17-18-betlar.

12. Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти // ТошДПИ илмий асарлари, 1964. 2-китоб.

Lug'atlar

13. Türkçe sözlük. Ankara. 2009
14. TDK Güncel Türkçe sözlük.

Internet saytları

15. www.trt.net.tr
16. https://www.haberturk.com
17. https://www.pinterest.com.goz

AFG'ON XALQ OG'ZAKI IJODIDA UY HAYVONLARI HAQIDAGI ERTAKLARNING O'RNI

***Botir MAMARAJABOV**, ToshDShU o'qituvchisi*

O'tmish madaniy-ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodini o'rganish kishilarimiz ma'naviy olamini shakllantirishda, ularni go'zal ideallar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi xalqning ko'ngil oynasi bo'lib, ularda xalqning orzu-umidlari, armonlari, ezgu niyatlari, ichki kechinmalari yorqin aks etadi. Xalq ogzaki ijodi vositasida yosh avlod go'zallikni anglash, uni qadrlash ruhida tarbiyalangan. O'zbek ertakchiligi ham uzoq tarixga ega. «Dede qo'rqut» kitobidan buyon to XX asrning boshlarigacha yuzaga kelgan barcha adabiy, badiiy obidalarida, turli shaklda o'zbek xalqining qadimiy ertakchiligi,dostonchiligi, qissalari, afsonalari o'z izlarini qoldirgan.

Afg'on folklorida hayvonlar haqidagi ertaklarning nechog'lik salmoqli ekanligi va dariyzabon ertaklarda hayvonlarning roli haqida so'z yuritishdan avval ertak janri haqida biroz to'xtalib o'tsak. Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oyalar tashuvchi, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan og'zaki hikoyalar ertaklardir[85]. Ertaklarda xalqning maishiy turmushi, insonparvarlik va vatanparvarlik, chin sevgi va vafodorlik haqidagi orzulari xayoliy hamda hayotiy uydirmalar vositasida hikoya qilinadi. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit-turk" asarida ertaklarning *etuk* tarzida ishlatilganligini ko'rsatib o'tadi. Ertaklarning o'ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar:

1) og'zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo'lishi;
2) voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks etishi;

[85]Matchonov S., Sariyev Sh. Adabiyot. – T.: "Yurist-media markazi" nashriyoti, 2010. – B. 15.

3) estetik vazifaning yetakchilik qilishi;
4) o‘ziga xos badiiy shakliy qolip hamda tilga ega bo‘lishi.

Shu bilan birga ertaklar an’anaviy tarzda *kirish qism, voqealar rivoji* va *tugallanma* kabi qismlardan iborat bo‘ladi. Xususan, o‘zbek tilida ertaklar *“bir bor ekan, bir yo‘q ekan ...”* kabi maxsus boshlanmalar bilan boshlanib, *“murod-maqsadiga yetibdi”, “birga turib, birga yashabdilar”,“soqoli ko‘ksiga yetibdi”* kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi. Bizga qardosh bo‘lgan afg‘on xalq ertaklari ham asosan*“yaki bud, yaki nabud”(bir bor ekan, bir yo‘q ekan)* boshlanmasi bilan boshlanadi.

Dunyoning hamma qit’alarida, barcha xalqlarda ertaklar va uning xalq orasida tashib yurgan ertakchilari, uning nazariyachilari – ertakshunoslari bor. Ertak so’zini qachondan beri qo’llanilishini aniq ko’rsatish qiyin bo’lsada, uning juda qadimdan mavjudligi xalq og’zaki ijodining ilk adabiy janrlardan biri ekanligi ma’lum. Ertak so’zining lug’aviy ma’nosi – aytish, aytmoq, hikoya qilmoq kabilardir. “Ertak” so’zi “er” aslida “ir” (yir, jir)so’ziga o’xshatishni bildiruvchi “tak” qo’shimchasining qo’shilishidan tarkib topgan bo’lib, qo’shiqqa o’xshash degan ma’no anglatadi[86].Chunki, ertakning sajli boshlanmasi qo’shiqqa o’xshab ketadi.

Ertaklarning paydo bo’lishida qadimiy urf-odat, e’tiqod, qadimiy dunyoqarash, marosim va miflar hal qiluvchi rol o’ynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqea va hodisalar, urug’ va qabilalar turmushi bilan bog’liq miflar, an’anaviy urf-odatlar o’z kuchi va maishiy vazifasini yo’qotib, kishilar ongida g’aroyib narsa bo’lib anglashila boshlagan edi. Shuning uchun ham ayrim ertaklarda dev, suv pari, yalmog’iz kabi xayoliy obrazlar ham ertaklardagi asosiy obrazlar hisoblangan. Ertak motivlarining dastlabki namunalari ta’limiy-didaktik harakterda bo’lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan.

Ertaklarning paydo bo’lishi haqidagi ba’zi bir mulohazalarimizni aytib o‘tsak. Ertak xalq og’zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo’lgan janrdir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, dunyoga bo’lgan e’tiqodiy marosimlari asosida paydo bo’lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oliyjanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o’ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

[86]ХотамовН.Т. Адабиётшуносликдан қисқача русча-ўзбекча терминологик луғат. –Т.: 1964. - Б.108.

Afg’on xalq ertaklarida hayvonlar haqidagi ertaklarning o’rni anchagina beqiyos ekanligini ko’rishimiz mumkin. Xususan, sharqshunos olim A. Mannonov bu borada quyidagi fikrlarni qayd etgan: “Dariyzabon xalqlar orasida hayvonlar haqidagi ertaklar bir muncha katta hajmni tashkil etadi. Ular ichida mayda ertakchalar birlashib bitta ertakni vujudga keltirishi ham mumkin. Ularda juda ko’p hayvonlar bilan bog’liq epizodlar uchraydi. Bu xildagi ertaklarning ikki turi uchraydi.

Agar ertaklarning mazmuni qisqa, kichik bir epizoddan iborat bo’lsa, bular bolalarga mo’ljallangan bo’ladi. Agar hajm jihatidan katta va uslub jihatidan murakkabroq bo’lsa, kattalar uchun mo’ljallangan bo’ladi[87]”. Dunyodagi boshqa xalq ertaklarida ham havyonlar haqidagi ertaklarning yaratilishiga insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo’lgani kabi, dariyzabon adabiyotidagi bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ham dariyzabon xalqlarning qadimdan mavjud bo’lgan orzu-niyatlari muhim rol o’ynaydi. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo’lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko’ra ularning syujetida inson obrazi keyingi o’rinda turadi, ko’p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Jumladan, “Tengi yo’q zotli tulpor”, “Mirzoyi yurish”, “Eshagim dumsiz edi”, “Echki va bo’ri”, “Eshak va ho’kiz”, “Ko’zoynak taqqan buzoq” va “Mushuk va qo’riqchi it” ertaklari dariyzabon xalqlarning azaliy maqsadlarini o’zida aks ettirgan ertaklar sirasidandir. Ertaklarni tarjimada berishda eng qulay optimal variantini berish, asliyat bilan bir xillashtirish va tartibga solish maqsadga muvofiq. Tarjima har doim aloqada va o’zaro kesishadigan madaniyatlarni tushunishga yordam beradi. Shunday ekan tarjima, jumladan, ertaklar tarjimasi lingomadaniy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mannonov A. U istokov afganskoy klassicheskoy literaturы, Toshkent, 1994.
2. Mannonov A. Afg‘oniston xalqlari folklorinva mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: TDSHI. 2001, 152 b.
3. Mannonov A. Afg’on xalq ertak va hikoyatlari, Toshkent, 2017.
4. Matchonov S., Sariyev Sh. Adabiyot. – T.: “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2010. – 368 b.
5. Xotamov N.T. Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at. – T.: 1964. – 108b.
6. تشکی و سکه های طلا. مجموعۀ چند افسانه از گنجینۀ فرهنگ مردم. گرد آورنده یحیی "خوشبین". 1361

[87] Mannonov A. Afg’oniston xalqlari folklori va mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent.: TDSHI. 2001, - B. 37.

MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR VA TARJIMA

***Kamola SHARIPOVA**, Toshkent shahridagi 17-maktab o‘qituvchisi*

Tarjima nihoyatda nozik san’at turi hisoblanadi. Sababi, unga qo‘l urgan odam puxta amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Badiiy yoki ilmiy tarjima sirlarini chuqur egallagan tarjimongina har tomonlama puxta tarjimalar yaratishi mumkinligini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Tarjimon zimmasida asar mazmuniga oid lug’at boyligidan tashqari, boshqa xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy hayoti bilan bog’liq bo‘lgan tilshunoslikdan tashqari jihatlarni ham yoritish mas’uliyati yotadi. Tarjima qilinayotgan asar asosida boshqa xalqlar turmush tarzi, urf-odatlari, adabiyoti va madaniyati tarixi, diniy va milliy qarashlari yotgan bo‘lishi mumkin. Tarjimon tadqiqotchi sifatida mana shu ma’lumotlarni o‘zlashtirib olmasdan turib, o‘quvchini bunga ishontira olmaydi. Asarning g’oyasi uning uslubiy jihatlari bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, tarjimada muallifning o‘ziga xos ijodiy uslubini, asliyatning badiiy-estetik xususiyatini va u yaratilgan davr ruhini ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat iste’dod va boy tajribaga ega bo‘lishi, balki nazariy bilimlarni puxta egallagan tilshunos olim ham bo‘lishi kerak.

Badiiy asar qaysi adabiy tur yoki janrga mansub bo’lmasin, agar u g’oyaviy-badiiy jihatdan pishiq, mukammal, so’z san`atining o’ziga xos betakror namunasi darajasiga ko’tarilgan bo’lsa, uni barcha kitobsevarlar o’qishga harakat qiladi. Ba`zan shunday asarlarni zo’r qiziqish va ishtiyoq bilan mutolaa qilish ta`sirida ularni atrofimizdagilarning ham o’qishini istab qolamiz. Badiiylikning yuksak mezonlariga tayanib, o’zbek adabiyotida yaratilgan asarlarni ko’zdan kechirsak, ularni baholasak, haqiqatan ham dunyo kitobxonlari o’qisa arziydigan, mutolaa uchun sarflangan vaqtiga hech qachon achinmaydigan asarlarimiz borligidan qalbimiz iftixorga to’ladi. Bunday asarlar o’z vaqtida mohir tarjimonlarimiz tomonidan xorijiy tillarga tezroq o’girilsa, dunyo kitobxoni serjilo o’zbek tilining boy imkoniyatlari ta`sirida yaratilgan asarlarimizni o’qisa, bahramand bo’lsa deya orzu qilamiz. “O’tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Shum bola” singari mashhur asarlarimiz qatorida yana ko’plab so’z san`ati durdonalari dunyo kitobxoniga ma’lum bo’lsa va e`tirof etilsa, mashhurlik maqomini olsa. Zero, ifoda-tasvir imkoniyati g’oyat keng tilimizni tarjimonlargina dunyoga tanitishi mumkin. Hozirgi kunda chet el kitobxonlarini eng sara asarlarimiz bilan tanishtirish masalasi o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Hatto, bugungi kunda har qachongidan muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Hozirda davlati-

mizning badiiy adabiyotni targ'ib qilish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqidagi siyosati ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda. Agar yuqorida ta`kidlangan ustuvor vazifalar ko'ngildagidek, muntazam bajarilsa, biz ko'plab xorijiy mamlakat adiblari tomonidan yozilgan so'z san'ati durdonalarini o'qiganimiz kabi ularga ham o'z tillarida mashhur asarlarimiz bilan tanishish imkoniyatini yarata olamiz. O'rni kelganida shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi kunda xorij yozuvchilarining o'zbekchaga o'girilgan asarlarining miqdori o'z tilimizdan ularning tiliga tarjima qilingan asarlar salmog'idan ancha yuqori. Bu fikrning tasdig'i Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmonida o'z ifodasini topgan. Bu farmonda ta`kidlangan fikrlar 2016-yil 13-maydagi "Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident farmonida belgilab qo'yilgan vazifalarga, ayniqsa, o'zbek adabiyotining noyob asarlarini xorijiy tillarga o'girish masalasiga hamohang. Xususan, universitet tarkibidagi o'zbek-ingliz tarjima fakulteti zimmasiga: "ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o'zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga, shuningdek, jahon tillaridan ona tilimizga yuksak sifat va mahorat bilan tarjima qiladigan tarjimonlar tayyorlash, ona tilimizning Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, uning kompyuter uslubini, o'zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlar va lug'atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog'liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tadbiq etish"dek mas'uliyatli topshiriq yuklangan.

Yer yuzidagi har bir xalq o'ziga xos milliy xarakterni namoyon etadi. Ammo bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina xos bo'lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig'indisi deb qarash ham noto'g'ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi hech bir xor qatnashchisining ovoziga o'xshamagandek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining xarakteriga o'xshamaydi yoki millat xarakteri hech bir millat vakilida tugaligicha aks etmaydi. Miiliy xarakter o'zgarmas, turg'un narsa ham emas. U tarix mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan u ham

malum darajada o‘zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o‘zida ham u ayrim hislatlarni yo‘qotib, yangi hislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

Shuningdek, har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o‘zida yo‘q narsalarni oladi va o‘zidan ham ularda bo‘lmagan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter hislatlari, millat vakillari tomonidan o‘zlashtirilganda aynan o‘zgarishsiz ko‘chira olmay, o‘ziga xos milliy ifodani oladi. Ma’lumki, har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o‘zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida bo‘lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to‘plangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta’siri ostida ham shakllanadi. Urf odatlar va rasm-rusumlar kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar va ko‘nikmalardir. Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatning o‘ziga xos tizimini tashkil qiladi. Millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilingan. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o‘zini o‘z millatidan ajratib qo‘yadi.

Bunda, ayniqsa, har bir xalqqa xos bo‘lgan milliy urf-odat va an’analarning roli kattadir. Shunday ekan, lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan bo‘lgan milliy xarakterning tildagi ifodasini ayna o‘sha urf-odat, an’ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o‘rganish, ularning vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi, saqlanishi va o‘zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish va tahlil qilish yordamidagina chuqurroq va batafsil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Tarjima – murakkab jarayon, chunki tarjimon hamma vaqt ham asarning asliyatini saqlashga erishavermaydi, ba’zan matnga yuzaki, e’tiborsiz yondashuv undagi badiiylikka putur yetkazadi. Til imkoniyati, so’z tanlash mahorati, uslub kabilarning birligi esa tarjimon ishining mavqeini ko’tarishga xizmat qiladi. Badiiy tarjima adabiy asarning faqat mazmunini ifodalab berish bilan cheklanib qolmay, balki badiiy fazilatlari va uslub xususiyatlarini saqlab qolishni ham talab etadi. Tarjimon har ikkala tilni mukammal bilishi, o’ziga xos badiiy ifodalarni berishda o’z tili va shu tildagi adabiyotdan o’xshash iboralar topib ishlata olishi lozim. Tarjimonning mahorati, voqelikni teran idrok etishi va tahlil qila olish iqtidori u tarjima qilgan matnda o’z “men”ini qoldiradi. U asarning badiiy kashfiyot bo’lganini, asar mazmuni hamda yozuvchining voqelikni tasvirlash uslubi va unga munosabati ifodasini saqlagan holda kitobxonni o’z “ish”i bilan qoyil qoldirishi, mehrini qozonishi zarur. Badiiy asar tarjimasida tarjimonning e`tiborini tortmaydigan nuqtaning o’zi bo’l-

maydi. Bunda tarjimonning topqirlik mahorati va so’z boyligiga, matndagi e`tiborli o’rinlarga alohida urg’u berganiga guvoh bo’lamiz.

Badiiy asar tarjimasida tarjimonning e`tiborini tortmaydigan nuqtaning o’zi bo’lmaydi. Bunda tarjimonning topqirlik mahorati va so’z boyligiga, matndagi e`tiborli o’rinlarga alohida urg’u berganiga guvoh bo’lamiz. Bir xil voqea tasviri bir necha xalq hayoti va adabiyotida kuzatilishi mumkin, voqelik ko’proq qaysi xalq turmushiga daxldor ekan, deya o’ylangan damlarimiz bo’ladi. Bunday asarlarning yoki asarning biror bobi tarjimasida bir xalqning hayotiga xos voqea, tasvir ravshan ifodalanmay qoladi. Go’yoki, shu xalq hayotini ishonarli ifodalash uchun nimadir yetishmayotganday tuyuladi. O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ustozi Abdulla Qahhordan so’z qo’llash borasida yaxshigina “mahorat darslar”ini olgan hamda o’z asarlarini yozishda bunga amal qilgan, bu saboqlarning amalda natijasini namoyon qila olgan ijodkor. Uning bir necha hikoyalari taniqli rus tarjimoni Barolina tomonidan rus tiliga mahorat bilan o’girilgan. Hikoyalarining o’girilgan nashridan yozuvchining ko’ngli to’lib, tarjimonning mahoratiga qoyil qolgan. Biroq kunlarning birida tarjimon bilan suhbatlashib qolgan adib bir hikoyasi yuzasidan unga kichik bir e`tiroz bildiradi. Rus kitobxoni voqeaning qayerda sodir bo’lganligini bilmaydi-ku, shuning uchun bir o’rinda garchi yozuvchi hikoyada ta`kidlamagan bo’lsa-da, tarjimon buni o’zidan qo’shib ketsa yaxshi bo’lardi-da, degan mazmun e`tirozda ifodalangan edi. Zukko tarjimon esa buni o’zingiz aytgansiz-ku, deya yozuvchiga munosabat bildirgan ekan. Gap shundaki, tarjimonning aytishicha, hikoya qahramonining qog’ozni yelimlashda o’rik tanasidagi shunga o’xshash yopishqoq moddadan foydalangani voqeaning yurtimizda sodir bo’lganiga ishora ekan. Chunki bu misol o’zbeklardan boshqa xalq hayotida uchramas ekan. Demak, voqeaning qayerda sodir bo’lganini oshkor aytishga zaruriyat yo’q, qiziquvchan kitobxon buni o’ylaydi, topadi va xalqimizga xos bu milliylikni esda saqlab qoladi. Til va tarjima atamalarini bir-biridan ayri holda idrok etib bo’lmaydi. Yozuvchining ham, tarjimonning ham quroli – til. Tarjimaning mukammalligi til vositalarining joyida, tanlab ishlatilishiga bog’liq. Bu sohada tarjimon qanchalik mohir bo’lsa, u ijodkorning mahoratini, uslubini imkon qadar kitobxonga to’liq yetkazishga muvaffaq bo’ladi.

Xalqlar o’rtasida o’zaro muloqot – munosabatning turli shakllari bor, biroq bular orasida adabiy aloqalarning, tarjima asarlarning o’rni beqiyosdir. Bunday tarjima asarlar xalqlar o’rtasidagi do’stlik munosabatlarini, aloqalarni mustahkamlaydi, adabiyotlar bir-birini to’ldiradi, badiiy tafakkurning beqiyos mevasidan barcha oziqlanadi. Kitobxon o’zga xalq

hayotidagi o’ziga xos bo’lgan lavhalar, odatlar, turfa xarakterlar tasviri bilan tarjima asarlar orqali tanishadi, qiziqishi oshadi, shu xalq hayotiga, adabiyotiga bog’lanib qoladi, mehr qo’yadi. Shu ma’noda tilimizning badiiy ifodasini ko’z-ko’z qilgan tarjima asarlar xalqlar o’rtasidagi do’stlik rishtalarini bog’lash bilan bir qatorda madaniyatlararo munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to’g’risida” 2016 yil 13 maydagi Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”2017 yil 12 yanvardagi Farmoni.

3. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Darslik. -Toshkent: ToshDShI, 2016. –192 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X. Hamidov).

4. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. –Toshkent: ToshDShI, 2017. –320 b. (Qayta nashrga tayyorlovchi: X. Hamidov).

5. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDShI, 2014.

TARIXIY ROMAN TARJIMASIGA DOIR

Shohnigor HUSANOVA, Gulbonu ARIPOVA
Toshkent shahridagi 17-maktab o‘qituvchilari

O‘zbekistonda professor G‘aybilla Salomov asos solgan tarjimashunoslik maktabi vakillari, badiiy asar tarjimasiga oid ko‘plab ilmiy ishlar yozganlar va bu jarayon ustozning shogirdlari tomonidan davom etdirilayotir. Tarjimashunoslikda she’riy, nasriy va ilmiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari ta’kidlanadi. She’riy tarjimada she’rning mazmuni bilan ohangini saqlab qolishga ko‘proq e’tibor qilinadi, boshqacha qilib aytganda she’riy tarjima tarjimalar ichida ancha murakkab. Nasriy tarjima mashaqqati ham she’riy tarjima mehnatidan kam emas. O‘zbek tarjimonlari jahon adabiyotining yirik namoyandalari Dante, Gyote, Balzak, Pushkin, Tolstoy, Dostevskiy, Tagor, Markes, Kafka, Sartr va boshqa ko‘pkina ulug‘ adiblar ijodidan asarlarni tarjima qilib o‘zbek kitobxonlariga yetgazganlar. Jahon adabiyotining namunalari asosan rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Shuningdek o‘zbek adiblarining asarlari ham rus tiliga tarjima qilingan. Hazrat Alisher Navoiyning rus tilida 10 tomlik “Say-

lanma” asarlari chom etilgan. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining ham, XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namayandalari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, H.Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov va boshqa o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni bo‘lgan ijodkorlaring asarlari rus tiliga tarjima qilingan.

Mustaqillik davrida, ayniqsa, so‘ngi 3-4 yilda o‘zbek adabiyotining namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish masalalariga alohida e’tibor qilinmoqda. Alisher Navoiy, Zulfiya, Erkin Vohidov asarlarini ingliz tilida, A.Oripovnig turk tilida she’rlar to‘plami chop etilganligi fikrmizga dalillardan. Mustaqillik davrida yaratilgan asarlarning rus tiliga tarjimasi haqida gap ketganda, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasini rus tiliga tarjima qilinishini alohida ta’kidlash kerak. Sobiq sho‘rolar davrida Amir Temur haqida kitob yozish uyoqda tursin, gapirish ham mumkin emasdi. Endilikda Amir Temur haqida ko‘plab badiiy asarlar yaratilib xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining birinchi kitobi “Jahongir Mirzo” rus tilida nashr qilindi (Muhammad Ali. «Amir Temur velikiy. Kniga 1-aya Djaxangir Mirza». Glavnaya redaksiya izdatelsko-poligraficheskoy aksionernoy kompanii «Sharq», Tashkent – 2015g.). Asarni Saodat Komilova muallif bilan hamkorlikda rus tiliga o‘girgan.

Roman tarjimasi ustida fikr yuritsak, asarning boshlanishidagi ohang tarjimada ham saqlanib qolgan. Birinchi bob shunday boshlanadi: “Navro‘zi ayyomga bir necha kun qolganda, 34 yoshlik Temurbekning qo‘shini Termizdan 3 farsah (uzunlik o‘lchovi. Eskicha hisobda 1 tosh 8 chaqirim, yangicha xisobda taxminan 6 kilometrga teng bo‘lgan uzunlik-masofa o‘lchovi) naridagi Bo‘yyo deb atalgan mavzeda chodir tikdi. Tarix xijriy (musulmonlar yil xisobi. Muhamad(s.a.v.)ning Makkadan Madinaga ko‘chishi bilan bog‘liq sana, ya’ni 622-yilning 16 iyuli -juma kunidan boshlangan yil hisobi) 771 yil (milodiy 1371 yil) kirib kelmoqdaydi. Har Navro‘z bayramini dilkash Kesh yurtida xesh akrobalar (yaqinlar, yorbirodarlar, qarindoshlar) davrasida xursandchiliklar bilan o‘tkazishni yoqtiradigan Temurbekning odatini tark qilib, safarga otlanishiga yetarli asoslar bor edi...”. (Muhammad Ali. “Ulug‘ saltanat. I-kitob Jaxongir Mirzo “ (Narvo‘z, Toshkent - 2019y. 12-bet). Endi ruscha tarjimasi bilan solishtiramiz: “Tridsatichetiryoxletniy Temurbek v kanun prazdnika Navruz razbil svoi shatri v tryox farsaxax (mera dlini ravnaya priblizitelno 7 km.) ot goroda Termeza v okrestnostyax Buyyo. Nastupil 771 god xidjri (771god xidjri sootvetstvuet 1371 godu). Prazdichnie dni Temurbek lyubil otmechat v rodnom gorode Keshe v krugu rodnix i blizkix. Na sey raz

bili veskie prichini narushit tradisiyu i vistupit v poxod...” (st-11). Ko‘rinadiki sharqona terminlar, izohlari bilan saqlab qolingan.

Tarixiy mavzuda asar yozishning mas’uliyati bo‘lganidek, tarixiy mavzudagi asarlarni tarjima qilish ham oson emas. Chunki o‘sha davr odamlari ruhini, kiyimlarini tasvirlashda o‘ziga hos murakkabliklar bor. Ammo “Ulug‘ saltanat” romanining tarjimonlari Muhammad Ali va Saodat Komilova ancha muvaffaqiyatga erishganlar. Endi tarjimada dialoglarning berilishiga diqqatimizni qarataylik: “Mir Sayyid Baraka jim qoldi va xayollarga berilgancha olis -olislarga tikildi. Temurbek pir so‘zlarini eshitib, chindan ham Olloh uning qalbinin bebaho ilhom nashidalari ila to‘ldirganini tuydi. Amirlar-u bahodirlar o‘zaro shivirlasha boshladilar:

- Juda ulug‘ inson ekanlar! Bay-bay! Nafaslari juda o‘tkir!

- O‘zlariyam so‘zga bir chechan ekanlarki...

- Amirimizning “sohibqiron” degan norlari ham bor ekan! Birinchi marta eshitishim!

- Ma’nosini tushundingizmi?

Oh, oh! Tushundim. Avvalari bilmasdim, ma’nosi chuqur ekan...

- Xudo bergan-da... Ha...

- Jim! Sayydzoda gapiryaptilar!” (39-bet). Ruschasi:

“Мир Сайид Барака умолк и, предавшись своим мислям, поглядел вдаль, будто видел будущее. Услышав слова пира Темурбек почувствовал, что Аллах вселил в его душу небывалое вдохновение! А вокруг стали перешёптиваться:

- Какой великий человек! Вай-вай! Какие предсказания!

- Какое доброе благословение наших начинаний!

- Он, видать, искусный оратор...

- Нашего амира оказывается, зовут Сохибкираном...

- Уразумели, смысл этого слова?

- Да-да уразумел. Впервые слышу. Какое значимое слово!

- Это божя милость...

Замолчи! Сайидзаде говорит!” (ст-36-37).

Bu yerda diniy ulamolarga nisbatan ishlatiladigan “nafasi o‘tkir” sifatini berishda qiyinchilik bo‘lgan va “ budto videl budущее “ tarzda berilgan. Ammo bu mazmunni to‘ldirsada, Sayyid Barakaning yirik diniy ulamo shaxs sifatidagi xususiyatini to‘liq ochib berolmaydi.

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda tarjimonlarni o‘ylantiradigan holat urf-odatlar, realiyalarning berilishi, milliy koloritni saqlab qolishdir. Bunda yo mos ekvivalentni topish kerak yoki boshqa so‘zlar bilan bo‘lsa ham matn mazmunini yetkaza olish darkor. Yana bir misolga murojaat

qilaylik: “Boshiga zarbof to‘n tashlagan kuyov oldinda charx urib o‘ynab borayotgan baxtiyor jo‘ralaridan ko‘z uzmasdi.

Bog‘i Chinorning o‘rtasida, kelinning sep-u yarog‘i bilan chamanday bezatilgan yashil uyda kuyov va kuyovjo‘ralar uchun alvon xontaxtalar qo‘yilib, bashang dasturxon yozildi. Taomlarning keti uzulmas, kuyovjo‘ralar kayfiyati baland, naq arshi a’loda... Ular hatto kuyovni boshqa xonaga chaqirganlari, u yerda nikoh o‘qilganini ham sezmay qoldilar.

Shahar uzra oqshom o‘zining harir qora pardasini yoya boshlaganda kelin katta mash’alalar yorug‘ida dabdaba-yu as’asa bilan Konigil tomon yulga chiqdi. Yigirmaga yaqin bezatilgan aroba karvoni marjonday izmaiz siljiydi. To‘rt tomondan mash’alalar bilan o‘ralgan eng katta arobada Xonzoda xonim o‘z kanizaklari bilan borar, boshqalariga kelinning sep-u yarog‘i ortilgandi. Ko‘nglini behol uvaltiradigan yor-yor sadolari Samarqand osmonini ajabtovur fayzli qilib yuvordi” (335-bet). Ushbu matn parchasining tarjimasi quyidagicha: “Жених в золотом чапане не отводил глаз от весело тансующих друзей. В Зеленом доме, что в сентре САда, спесиально для жениха и его друзей накрит праздничний стол. Сменяются вкуснейшие блюда, настроение у присутствущих приподнятое, не смолкают веселе и шутки... Друзья жениха даже не заметили, как жених отлучился в другую комнату, где имам прочитал никох. Вечер тонкой вуалю опустился на город, невеста в сопровождении подруг и родственников при свете больших факелов под звуки торжественной музыки отпрвилась в сторону Конигила. Караван из двацати нарядних повозок жемчужной ниткой тянулся за принсессой. На огромной повозке, с четырех сторон освещеной факелами, сидит Хонзада хонум с подружками, в других приданное невесты. Звуки задушевной свадебной песни «Ёр-ёр» кружит в небе Самарканда” (ст.326-327). Бу ерда “Бошига зарбоф тўн ташлаган куёв...” сўзларини “Жених в золотом чапане...” tarzida tarjima qilinishi o‘zini oqlamagan. Kuyovning to‘nni boshiga tashlashi to‘y marosimidagi urf odatga binoan, uyalish, odob ma’nosida bo‘ladi. Tarjimada esa shunchaki zarbof to‘n kiygandek.

Albatta joy nomlari va tarixiy sharoit, milliy koloritni berishning tarjimada to‘liq mos kelmagan joylari bo‘lishi mumkin va bu tabiiy. Tarjimaning yuz foiz asliyatga mos kelishi qiyin masala. Ammo roman tarjimasining umumiy saviyasiga baho berganda tarjimonlar Muhammad Ali va Saodat Komilovalar rus tilida asarning umumiy ruhini saqlab, rus kitobxoniga asar mazmunini yetkazib bera olganlar deyishimiz mumkin.

MILLIY XOS SO‘ZLARNING TARJIMADA BERISH USULLARI XUSUSIDA

Mohira UMAROVA, *ToshDShU, tayanch doktoranti*

Asliyatdagi mazmun-mohiyatni tarjima jarayonida to‘g‘ri va to‘laqonli yetkazib berish tarjimonning o‘z oldiga qo‘ygan eng katta maqsad hamda vazifasi bo‘lishi lozim. Mustaqillik yillarida o‘zbek nasri namunalari o‘nlab xorijiy tillarga tarjima qilindi. Shu bilan bir qatorda, ko‘plab xorij asarlari o‘zbek tiliga o‘zbek tiliga o‘girildi. Bir so‘z bilan aytganda, tarjimashunoslik soxasi ancha rivolanganini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

O‘zbek tarjimashunoslik maktabi asoschisi, o‘zbek tarjimashunosligiga tamal toshini qo‘ygan olim – G‘aybulla as-Salomning quyidagi jumlalarini tarjimonlik kasbiga bo‘lgan eng chiroyli, aniq va eng to‘liq ta’rif sifatida keltirish mumkin: “Tarjimon ikki milliy adabiyot o‘rtasidagi aloqachi. Voqealar oqimini asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga avtor singari kirib borishi lozim.” [1, 130]

Ma’lumki, turli millatlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi madaniyatning asosiy omillaridan biri bu adabiyotdir. V.G.Belinskiy: “Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish ularning o‘zaro yaqinlashishlariga, bir-birlariga g‘oyalar almashinishiga asos bo‘ladi, ana shunda yangi badiiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi” [2,11], – deb aytgan edi. Ma’lumki, azal-azaldan olimu adiblarning asarlarini turli tillarga tarjima qilish orqali xalqlar o‘rtasidagi rishtalar bir-biriga bog‘lanib kelgan. “Ma’lumki, badiiy adabiyot har bir xalqning ma’naviy dunyosi, hayoti, urf-odatlari, an’analari bilan, uning madaniyatidagi jamiki yaxshi, ilg‘or narsalar bilan tanishish imkoniyatini beradi” [3,122] Binobarin, insoniyat ma’naviy hayotida adabiyotning ahamiyati beqiyos. Bunda nafaqat vatan adabiyoti, balki o‘zga millatlar adabiyoti ham nazarda tutiladi.

Barchamizga ma’lumki, milliy xos so‘zlarni tarjima qilish tarjimondan katta bilim va ko‘nikma talab qiladi. Sababi, milliy xos so‘zlar – realiyalar kitobxonlarda boshqa millat hayoti, turmush tarzi, an’ana va udumlari umuman milliyligi haqida eng katta tushuncha hosil qiladigan so‘zlar sanaladi. Ularni to‘g‘ri tarjima qilish esa tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Tarjimaga nafaqat bir so‘z yoki jumlaning boshqa tilga shunchaki tarjimasi sifatida, balki bir millat madaniyatini boshqa tilda aks ettirish usuliga qaragandek qarash lozim.

“Xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan lisoniy vositalar tarjimasi bo‘yicha xanuzgacha bizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham tarjima amaliyoti ravnaqi uchun ozmi-ko‘pmi xizmat qilish mumkin bo‘lgan

jiddiy tadqiqotlar yaratilmaganligi tufayli mazkur mavzuga oid qator masalalar o‘zining ilmiy-amaliy yechimini kutmoqda.

Tarjimonni xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so‘zlar ma’no va shakllaridan ko‘ra ko‘proq ularning muayyan kontekstlarda o‘tab keladigan vazifalarini qayta yaratish masalasi mashg‘ul qilmog‘i darkor. Bu san’tkorni asl nusxadagi xos so‘zlarni beasos tarjima matniga ko‘chirish yoki mumkin bo‘lmagan taqdirda ularni tarjima tilidagi xos so‘zlar bilan almashtirib qo‘yish xavfidan saqlab qoladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uyg‘unlik nuqtayi nazaridan yondashish asliyatdagi ifoda vositalarining hajm, vazn, miqdor, xususiyat va vazifa aniqligini qayta yaratadi shu bilan birga, tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tugunarli bo‘lishi-ga erishish imkoniyatini beradi” [4, 158].

Milliy xos so‘zlarni tarjima qilishda bir nechta tarjima usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, tarjimashunos olim Ergash Ochilov realiyalarni tarjima qilishni quyidagi uch usulini ajratadi:

1. **Transliteratsiya** – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko‘rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so‘zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash. Masalan: *jigit, sultan, kishlak, kasa, piyala*. Oybekning “Navoiy” romani ruscha va fransuzcha tarjimasida “devon”, “parvonachi” kabi terminlar transliteratsiya qilib berilgan.

2. **Analogiya** – o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya’ni muqobil tushuncha bilan berish.

3. **Yangi so‘z va so‘z birikmasi yaratish –** ba’zi tarjimonlar milliy xos so‘z va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilarki, bu hol ko‘pincha o‘zini oqlamaydi.

«Xos so‘zlarni ona tiliga o‘girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o‘tab kelayotgan axboriy vauslubiy vazifalarni aniqlash, so‘ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug‘iladi». [5, 93]

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so‘zlarning ayrimlari asliyat mansub bo‘lgan tildan tashqari yana qator xalqlar lafzlarida uchrashi, jumladan tarjima tili lug‘at zaxirasining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so‘zlar hudud, turmush –sharoit jihatlaridan bir-biriga yaqin , doimiy munosabat va mulokotda bulib turadigan xalklar lafzida ko‘proq uchraydi. Bu tarjimonni amaliy qiyinchiliklardan xalos etadi. Kavkaz va kavkaz-orti xalklari. rus-ukrain-beloruslar, o‘zbek, qozoq, kirgiz, turkman va tojiklar uchun umumiy bo‘lgan ko‘pgina milliy xususiyatli suzlar shular jumlasidandir. Muayyan xalk turmush tushuncha-

larini anglatadigan koʻpchilik xos soʻzlarning maʼnolari va oʻtaydigan vazifalari mamlakatlarning oʻzaro madaniy, maʼrifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida kator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga xam tanish boʻlib qoladiki, tarjimonlar bunday soʻzlarga oʻz tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yoʻli bilan talkin etaveradilar.

Transliteratsiya uslidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud boʻlmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili soxiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qoʻyish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan maxrum etish kabi holatga yoʻl qoʻymaslikdan iborat. [6,90]

Xos soʻzlar tarjimasida,odatda,ikki xil qiyinchilikka duch kelinadi:

1) asliyat tiliga xos soʻzlarga mos ekvivalentning mavjud emasligi;

2) asliyat tilidagi xos soʻzlar, mazkur xalqqa doir milliy, tarixiy koloritni tarjima qilinayotgan tilda toʻlaligicha ifodalashning murakkabligi. Shu nuqtai nazardan, xos soʻzlar tarjimasida quyidagi holatlar koʻzga tashlanadi:

1) baynalminal xarakterdagi xos soʻzlar. Tarjimada ular oʻz shaklida birlashishi mumkin;

2) faqat maʼlum bir hudud yoki millatga xos voqea-hodisalar. Ular shu millat turmush tarziga xos tushunchalarnigina ifodalaydi. Agar tar–jimon bunday oʻziga xoslikni tushunmay, uni boshqa maʼno ifodalovchi soʻz bilan oʻgirib qoʻysa, asarning milliy koloriti, soʻz ifodalagan ma'–noning oʻziga xosligiga putur yetkazgan boʻladi. Bunday hollarda xos soʻzlar xorijiy tildagi shaklda berilib, izohi havola (snoska)da beriladi.

3. Ayrim xos soʻzlar matn ichida oʻzicha qoldirilib, kontekstning ichida izohi keltiriladi. Shunday qilib, xos soʻzlarning tarjimasida quyidagi usullar koʻproq kuzatiladi:

1) transkripsiya;

2) transliteratsiya;

3) tarjima orqali yangi soʻz – neologizm hosil qilish;

4) soʻzma-soʻz (kalka) tarjima qilish;

5) maʼnosi yaqinlashtirilgan soʻz bilan oʻgirish;

6) xos soʻzni izohlab bayon qilish;

7) kontekstual muqobil bilan almashtirish. [7, 98]

Yana bir guruh tarjimashunos olimlar xos soʻzlar va ularning tarjimasi xususida quyidagicha yozadilar: “Har bir millatda faqat shu elatning urf-odatlari bilan bogʻliq milliy koloritdagi kiyim kechaklar, uyroʻzor ashyolari mavjudki, bu kabi predmetlar nomlari(realiyalar)ni

boshqa tildagi analoglar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Masalan hindlarning “sari va “sindur”, yapon ayollarining “xonboki”, o‘zbeklarning paranji va mah–sisini amologik tarjima qilish mumkin emas. Bu kabi so‘zlar translite–ratsiya qilinib, matn ostida izoh berishni talab etadi. Zero, “salla” so‘ziga inglizcha “a hat” yoki inglizcha “a shoes” so‘ziga o‘zbekcha “kalish”ni analog sifatida tanlash biroz o‘ng‘aysiz. Chet tilidan tarjima qilish ja–rayonida biror so‘zning analogi yoki sinonimi sifatida tarjima tilidagi neytral so‘zlarni tanlagan ma’qul. Milliy koloritdagi so‘z tarjimani o‘qigan kitobxonda shubha uyg‘otadi, ya’ni faqatgina tarjima tiliga tegishli realiyani tarjima matnidan o‘qib hazm qilish qiyin”[8, 21] O‘ylaymizki, bunday holatda eng ma’qul usul ushbu so‘zlarning interpretatsiyasini berib o‘tishdir.

Xulosa qilib aytganda, tarjimon u yoki bu asarni tarjima qilish jarayonida xos so‘zlarga duch kelish ehtimoli yuqori. Ana shu paytda u bor bilimini ishga solishi, xos so‘zlarning asliyatdagi ma’nosini to‘liq ochib berishi, bunda tarjima qilish usullardan eng mosini tanlashi lozimdir. Yuqorida qayd etilganidek, realiyalar tarjimasida eng ko‘p qo‘llaniladigan usul bu – transliteratsiya usuli ekan. Ko‘pchilik mashhur tarjimashunos olimlar aynan mana shu tarjima usulga eng “universal” usul sifatida qarashar ekan. Bundan tashqari, xos so‘zlarni tarjima qilishda yana interpretatsiya (sharhlash) usuli ham keng qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin. Bunda xos so‘zdan so‘ng yoki qavs ichida, yoki sahifa so‘ngida ushbu so‘zning ma’nosi , interpretatsiyasi keltirib o‘tiladi.

Foydalanilgan alabiyotlar ro‘yxati

1. Ғ.Саломов, Н.Комилов, Салимова, К.Жураев, Н.Отажонов. Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан нашриёти, 1979.
2. Саломов Ғ. Рус тилидан мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: ФА нашриёти, 1961. – 11б.
3. Саломов С. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 122 б.
4. Ҳамроев Ҳ. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадиий таржима // Таржима маданияти. – Т., 1982. – 158 б.
5. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. ўқув қўлланма. Т., 2014. – 248 б.
6. Қ.Мусаев. Тажима назарияси асослари. Т., Фан, 2005– Б.352 .
7. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. Т., Ўзбекистон миллий энсиклопедияси, 2006 – 176 б.
8. Сирожиддинов Ш, Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 203б .

TURK TILIDA “SEVGİ” KONSEPTINING SEMANTIK MAYDONI VA ASSOTSIATIV XUSUSIYATLARI

Malohat YOQUBJONOVA, TDSHU magistranti

Konsept – kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri hisoblanadi. XX asrning 90-yillariga kelib keng qo‘llanishga kirgan ***konsept*** atamasi lotincha ***conceptus*** bo‘lib, umumiy qilib aytganda, “tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Hozir ham ko‘pincha “konsept” terminidan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, “konsept” atamasi matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda. “Konsept” tushunchasini turli xil soha va yo‘nalishlarda uchratish va har bir sohada uning o‘z ma’no va vazifasi borligini kuzatish mumkin. Jumladan, “konsept” atamasining talqinlari tilshunoslik, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtai nazaridan batafsil ko‘rib chiqilgan[88].

Konsept – bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabat, bir millatning o‘y-fikrlari, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan termindir.

Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so‘zlar orqali ifodalanadi. Masalan, turk tilida – su, o‘zbek tilida – suv, rus tilida voda, nemis tilida – wasser kabi. Ushbu misollar so‘z ma’nosi va tushunchaning bir-biri bilan uzviy aloqada ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so‘zlar o‘z ma’nosiga ko‘ra bir-biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so‘z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug‘iladi. Ba’zi olimlar tushuncha va so‘z ma’nosining bir-biriga mos kelishini ta’kidlab shu asosda tushuncha va so‘z ma’nosini mohiyatan bir narsa deb qaraydilar. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so‘z ma’nosining birligi nimada ko‘rinadi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Har ikkalasi ham bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Tushuncha so‘z va uning ma’nosi bo‘lmasdan mavjud bo‘lmaydi va aksincha, so‘z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. *So‘z ma’nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo‘lishi sababli bir-biridan farq qiladi.*

Ma’lumki, tafakkur qonunlari obyektiv olam bilan bog‘liq. Tushuncha mazmuni millatga bog‘liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadilar,

[88] Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.

fikr almasha oladilar. So‘z esa milliy xarakterga ega bo‘lib, xalq tilining o‘ziga xos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so‘zning ma’nosi boshqa tildagi so‘z ma’nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi.

Konsept masalasi dastlab Yevropa tilshunosligida, keyinchalik rus tilshunosligida o‘rganilgan bo‘lsa[89], so‘nggi yillarda sharq tilshunosligida ham keng miqyosda o‘rganila boshlandi[90].

Turk tilining izohli lug‘atida “konsept” terminiga quyidagicha izoh beriladi: **konsept** is. Fr. concept 1. Kavram. 2. Anlayış, görüş, düşünce[91] (tarjimasi: ***Konsept*** (ot turkumiga oid) fransuz tili (**consept**) orqali turk tiliga o‘zlashgan bo‘lib, ***1. Kavram*** (tushuncha); ***2. Anlayış, görüş, düşünce*** (fikr, qarash, tushuncha) ma’nolariga ega.

Shuningdek, izohli lug‘atda “konseptulaizm” terminiga quyidagicha izoh beriladi: **konseptüalizm** is. Fr. conceptualisme fels. [92] (tarjimasi: ***Konseptüalizm*** (ot) atamasi ham fransuz tili orqali turk tiliga o‘zlashgan (**Conseptualisme**) falsafiy termin hisoblanadi. Ushbu teminning turkcha muqobili ***“Kavramcılık”***.

Endi ana shu sanab o‘tilgan atamalarning ba’zilarini izohlashga harakat qilamiz. ***Kavram*** (ot turkumiga oid) 1. Bir narsa (predmet) yoki tushunchaning inson zehnidagi mavhum va umumiy ko‘rinishi falsafada narsa va predmetlar yoki voqea-hodisalarning umumiy o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan va bitta umumiy nom ostida to‘plagan tushuncha: *"Herkesin kendine özgü bir mutluluk kavramı vardır"* -H. Taner. ***Kavram*** so‘zi bundan tashqari ham bir necha ma’noda qo‘llaniladi. ***Kavram*** so‘zidan yasalgan **“kavramak”** fe’lining bizga keraklisi quyidagicha: Bir narsani yaxshilab tushunmoq. Turk tilda ***kavram*** so‘zi asosida bir necha so‘z va atama yuzaga kelgan: kavramlaştirma (tushunchaga aylantirmoq), kavramsal (tushuncha bilan bog‘liq), kavranılma (tushunilmoq, zehnda shakllantirmoq yoki haqiqatdan ham shunday narsaning borligini aqlga sig‘dirmoq) va b.

Turk tilining izohli lug‘atida “konsept” termini ma’nosini qoplaydigan yana bir so‘z “**anlayış**”dir. *Anlayış* –1. anglash, zehn: *"Hugo'yu artık*

---

[89]Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999; Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. Краснодар, 2002; Карасик В. И. Значение слова: определение и толкование // Коммуникативные аспекты значения. Волгоград, 1990; Попова, З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 2001.

[90]Ибрагимова Р.С. “Француз ва ўзбек тилларида ***аёл*** концептининг лингвокогнитив тадқиқи”, ф.ф.н. дисс.автореф. Т.: 2012.

[91] Türkçe Sözlük, S. 1208:

[92] Türkçe Sözlük, S. 1208:

okuyamıyoruz, onun şiiri, şiir anlayışı bizden çok uzaklaştı" (Gyugoni endi o‘qiy olmay qoldik. Uning she’rni tushunishi bizdan ancha uzoqda) -N. Atay. 2. Anlama yeteneği, feraset, zeka. 3. Hoş görme, halden anlama. 4. Anlayış göstermek istenilen veya söylenilen bir şeyi hoşgörüyle karşılamak (Bir narsani ijobiy qabul qilmoq, tushunmoq): *Lütfen anlayış gösterin.* (Iltimos tushuning) kabi.

Barcha madaniyatlarda bo‘lgani kabi turk madaniyatida ham “Sevgi” konsepti o‘z semantik xususiyatlariga ega. Turk madaniyatining muhim bir bo‘lagi bo‘lgan “Sevgi” konseptining turlicha ifodalanishini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Sevgi” ya‘ni “Aşk” konseptini verballashtiradigan leksik birliklar ustida bir qator tahlillar olib borilgan. Konsept strukturasida yadro va periferiya (yaqin va uzoq) mavjudligi ma‘lum. Materialning tahliliy protsedurasi bir necha bosqich asosida o‘tadi:

1. O‘rganilayotgan konseptning tariflanishi;

2.Tilda kalit so‘zning belgilanishi;

3. Sinonimlar, kalit so‘zdagi derivativlarning tahlili orqali qo‘shimcha konseptual ma‘nolarning aniqlanishi.

“Aşk” konsepti fe‘l so‘z turkumiga mansub komponentlari semantik maydonining yadrosi turk tilida quyidagilarni tashkil etadi: *aşık olmak, sevmek, tutulmak, hoşlanmak, bağlanmak, beğenmek, gönül vermek.*

“Aşk” konseptining fe‘l so‘z turkumiga mansub reprezentantlari yadro maydonining aniqlanishi muhim masaladir. Chunki yadro fe‘llarning leksik-semantik xususiyatlari o‘zaro bog‘liq sistemani ko‘rsatib, “Aşk” fe‘llarini adekvat darajada interpretatsiya qilish uchun asos vazifasini bajaradi va fe‘l so‘z turkumiga mansub bu reprezentantlar o‘rganilayotgan konseptning periferiya zonasini egallaydi. Turk tilida “Aşk” konsepti “Sevmek” leksemasi orqali konsept yadrosini tashkil qiladi. Konseptual belgilarni aniqlash uchun “Sevmek” fe‘lining yaqin periferiyalarini ko‘zdan kechirib chiqishga to‘g‘ri keladi. Tahlil va o‘rganishlar natijasida bu leksema quyıdagı semalarga ega ekanligi tasdiqlandi.

Sevmek so‘zining birinchi ma‘nosi “Büyük Türkçe Sözlük”da *çok hoşlanmak* – yoqtırmoq deb izohlangan. Masalan: “Kenan‘ın en **sevdığı** mevsim bu iki sonbahar ayıydı. *(R.N.Güntekın).*” – “Kenanning eng **yoqtirgan** mavsum bu – kuzning ikki oyi edi”. Bu yerdagi misoldan ko‘rinib turibdiki, **sevmek** so‘zi biror predmet, hodisa va yoki kimsa uchun **yoqtirish, yaxshi ko‘rish** ma‘nosida qo‘llanilayapti.

Sevmek so‘zining keyingi ma‘nosi *sevgi ve bağlılık duymak* – sevgi bilan bog‘liqlik his qilmoq deb ifodalangan. Quyida esa bunday ifoda shakliga mos keluvchi misolni ko‘ramiz: “Münir Bey, bıraz rıntmeşrep, sade, makul bir adamdı. Bu baba-kızdakı alayış merakı ve sanat amatörü-

güyle belli etmeden hafif tertip alay ederdi. Böylr olduğu halde ıkısını de **severdi.** *(R.N.Güntekın)*." – "Munir bey biroz darvesh tabiatli, sodda, ma'qul bir odam edi. Bu ota-boladagi yuzaki qiziqish san'at havaskorligini o'zlariga sezdirmay, yengil qochirimlar ila kulgi qilardi. Shunday bo'lgani holda ikkisini ham **sevardi**".

Bu misol bilan biz **sevmoq** so'zi orqali ifodalanayotgan ma'no – ishqiy munosabatlarni tasvirlash vositasi sifatida emas, balki yuqorida ta'rif berganimizdek o'zaro uyg'un bilish, bog'liqlik his qilish va iliq munosabatlar shaklini tasvirlash uchun qo'llanilayapti.

Sevmek so'zi orqali ifodalanadigan yana bir ma'no *birine sevgiyle bağlanmak*, gönül vermek – ishq-muhabbat tuyg'usi bilan munosabatda bo'lmoq, sevmoq, ko'ngil bermoq. Shu mazmunni ifodalagan jumla ishtirokidagi misol bilan tanishamiz: "Bu dakikada heyecanları adete **sevdiği** erkekle evlenmeğe hazırlanan bir kızın heyacanlarını andırmaktaydı. *(R.N.Güntekın)." –*'Shu daqiqadagi hayajonlari huddi o'zi sevgan yigit bilan turmush qurish uchun hozirlik ko'rayotgan qizning hayajonlariga o'xshar edi". Bu yerdagi holat ya'ni, yosh qizning nozik ko'ngil kechinmalari biz yuqorida aytgan izohga juda yaxshi misol bo'la oladi. **Sevmek** so'zi orqali ifodalanayotgan yana bir ma'no – *yerini, şartlarını uygun bulmak* - uyg'un bo'lmoq, mos kelmoq. Yana misollar orqali tahlilni davom ettiramiz:*"*Bu ağaç nemli ortamları sever" – "Bu daraxt namli muhitlarni yaxshi ko'radi". Bu yerda **sevmek** so'zi orqali daraxt o'zi uchun qulay bo'lgan holatda yaxshi o'sishi nazarda tutilyapti. Keng qamrovli ma'nolarga ega bo'lgan **sevmek** so'zi *okşamak* - mehr ko'rsatmooq, erkalamoq shaklida ham qo'llaniladi. Masalan: "Ne kadar tatlı çocukmuş. Kuçağıma alayımda, bir seveyim." – "Buncha shirin bola bo'lmasa. Quchog'imga olib bir erkalay". Bu holatda **sevmek** so'zi ifodalagan ma'no yaxshi ko'rish, yoqtirishgina emas balki, erkalash, mehr ko'rsatish kabi ma'nolarni ham o'z ichiga qamrab olayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, "Aşk" asosan "sevmoq, yoqtirmoq" tushunchalarini aks ettiradi. "Aşk" konseptining mavjud semalaridan tashqari biz yuqorida keltirib o'tgan sinonim so'zlar orqali ham reprezentatsiyasi ko'rib chiqilgan bo'lib, ular juda keng qamrovli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: "***aşık olmak*** *– sevmek, tutulmak". "oshiq bo*'l*mooq – sevmoq".* "*Bir iki kez karşıdan görmekle nasıl* ***aşık*** *olduğunu, nasıl evlendiğini yüreği burkularak izledi (N.Cumalı)". – "Bir ikki matra ro*'*baro*' kelib qolish bilangina qanday **oshiq bo'lib** qolganini, qanday turmush qurganini yuragi *ezilib ko*'rib turdi". *"**Sevmek** - sevgi ve bağlılık duymak" – "sevmoq – sevgi va bog*'liqlik his qilmoq".

Ben, baştan çıkarılmış bir evladlık değilim. Her kız gibi basbayağı bir kızım. Yani kendime göre kafam da var, onurum da var... Birbirimizden ***hoşlandık****. Aramızda bir şey geçti (R.N.Güntekın)". "Men o*‘zboshimcha farzand emasman. Har bir qiz kabi oddiy qizman. Meni ham o‘z fikrim, obro‘yim bor. Birbirimizni **yoqtirdik**. O‘rtamizda nimadir bo‘ldi". *"****Bağlanmak*** - sevmek, içten bağlı olmak" – "bog‘lanmoq – sevmoq, ichdan bog‘liqlik his qilmoq".

"Etrafindeki insanlardan birine anlaşılmaz bir hayranlıkla ***bağlanırlar*** *(R.N.Güntekın)". –"Atrofidagi insonlardan biriga g*‘ayrioddiy bir maftunlik bilan **bog‘lanadilar**". *"****Beğenmek*** – iyi veya güzel bulmak" – "yoqtirmoq – yaxshi yoki go‘zal hisoblamoq".

Bu küçük İstanbul kızına ***bayılıyorum***, Kenan Bey... Ne şirin değil mi? *(R.N.Güntekın)". – "Bu kichikkina Istanbul qizini* ***judayam yaxshi ko'raman****, Kenan Bey. Juda shirin qizaloq, shunday emasmi?". "G****önül vermek*** *– sevmek, aşık olmak" – "ko*‘ngil bermoq, sevmoq, oshiq bo‘lmoq". *"Be kızım, ne oldu sana, ne derdın var? "derdim. "Hiç teyze... Başım ağrıyor, karnım ağrıyor, ayağım ağrıyor," yalan yalan üstüne doker... Derken efendiciğim, ben anlaım ki, işin içinde iş var. Bu kız birine* ***gönül vermiştir****... (R.N.Güntekın)". – "Ha qizim,nima bo*‘ldi senga, nima darding bor?" derdim. "Hech narsa xola… Boshim og‘riyapti, qornim og‘riyapti, oyogvim og‘riyapti," yolg‘on ustiga yolg‘on aytadi. Demoqchi bo‘lganim afandim bu ishda bir gap bor. Bu qiz birortasiga **ko‘ngil bergan**…". Shuningdek, "Aşk" konsept-so‘zi o‘zining shu, ot so‘z turkumiga mansub formasi ham boshqa so‘z turkumiga mansub so‘zlar bilan qo‘llanilib, konseptning leksik-semantik maydonini qay darajada boyitganini ham tasdiqlash mumkin: "aşka düşmek – oshıq bo'lmoq"

"Fakat bu yangın, kalbimizde başlıyorsa, yani ümitsiz bir **aşka düşmek** üzere oduğumuzu hisseredsek ne yapabiliriz? *(R.N.Güntekın)" – "Faqat bu yong*‘in qalbimizda boshlansa, ya‘ni umidsiz **oshiq bo‘lganimizni** his etsak nima ham qila olardik". "Aşka gelmek – bir narsani qilish uchun kuchli istak bildirmoq, jo'shmoq".

"Meltemler tanrısı **aşka gelip** bu yeni varliği yelpezelemeye koyuldu. (Halikmas Balıkçısı)". – "Shamollar tangrisi jo‘shib, bu yangi borliqqa zarba berishni boshladi". Bundan tashqari *sevda, sevgi, sevi, sevdalanmak, sevda çekmek, sevdalı, aşık, aşıklık, aşıktaşlık, muaşaka* kabi leksik-semantik birliklar ham aniqlangan bo'lib, yuqorida qayd etilganlar bu kabi birliklarning statistik ma'lumotlarga ko'ra eng ko'p qo'llaniladigan variantlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda konsept ko'rinmas tafakkur kotegoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept bir-biriga bog‘liq, bir butun qoidaga ega g‘oyalar yig‘indisi. Konsept matnda bir butun

ko‘rinishda namoyon bo‘lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Biz yuqorida keltirgan misollardan ham ma‘lumki, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e’tirof etish ma’quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbek tilida

1. Ибрагимова Р.С. “Француз ва ўзбек тилларида *аёл* концептининг лингвокогнитив тадқиқи”, ф.ф.н. дисс.автореф. Т.: 2012.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. «Sangzor» nashriyoti. Jizzax- 2006.

Rus tilida

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Басова Л.В. Концепт ТРУД в русском языке (На материале пословиц и поговорок): Дис. канд. филол. наук: 10.02.01: Тюмень, 2004. 241 с.
3. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. Краснодар, 2002.
4. Жинкин Н. И. Язык. Речь. Творчество. — М.: Лабиринт, 1998.
5. Карасик В.И. Значение слова: определение и толкование // Коммуникативные аспекты значения. Волгоград, 1990.
6. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996. – С.31.
7. Леви-Стросс К. Структурная антропология / Пер. с фр. В.В. Иванова. - М.: Наука, 2001.
8. Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию. – Волгоград, 2003.
9. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. М., 1993.
10. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004.
11. Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.
12. Попова, З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007.

Turk tilida

13. Büyük lûgat ve ansiklopedi, Meydan Yayınevi, İstSAanbul 1969.
14. Büyük Türkçe Sözlik. Ankara: 2005.
15. Gür Alim, Ebüzziya Tevfik. Hayat, Dil, Edebiyat, Basın, Yayın ve Matbaacılığa Katkılar, T.C. Kültür Bakanlığı Kültür Eserleri, Türk Tarih Kurumu Basımevi – Ankara, 1998. s.25
16. R.N.Güntekın. Dudaktan kalbe. Istanbul. 2000

KINOFILMLAR TARJIMASI MUAMMOLARIGA DOIR

***Nilufar ESHNAZAROVA**, TDSHU, 1-bosqich magistranti*

Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda adabiyot va san’atning o‘rni beqiyos. Adabiyot va san’at inson ma’naviy dunyosini boyitish bilan birga unda olamning go‘zalliklarini his qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ma’naviy g‘oya jihatdan yuksak, badiiy jihatdan jozibali san’at asarlari inson qalbiga yo‘l topish, unga estetik ta’sir ko‘rsatish, hayotdagi voqea-hodisalarni chuqurroq mushohada qilishga da’vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Adabiyotning qudrati, insonning ichki ruhiy dunyosi, tafakkurini o‘stirishdagi ahamiyati haqida ko‘p gapirilgan. Ammo san’at asarlarining inson ma’naviy-axloqiy kamolotidagi o‘rni haqida alohida to‘xtalish maqsadga muvoviq bo‘ladi. Ayniqsa, zamon talabi bilan ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida odamlar ruhiyatiga kitob mutolaasidan ko‘ra san’atning boshqa vositalari orqali ta’sir etish yetakchilik qila boshladi. Xususan, san’atning eng zamonaviy turi hisoblangan kino bir san’at turi sifatida o‘zgacha ahamiyat kasb eta boshladi.

Ma’lumki, kino san’ati o‘zidan oldin yaratilgan barcha san’at turlari tajribasini o‘zlashtirgan holda yuzaga kelgan. Ushbu san’at o‘z taraqqiyoti mobaynida boshqa san’at turlaridan ko‘p jihatlarni ham oldi. Bu borada o‘zbek badiiy kinosi endigina shakllana boshlagan davrda A.Fitrat o‘zining “San’atning manbai” nomli maqolasida “Kino ham teatr singari oltita ajoyib san’at: raqs, musiqa, adabiyot, rang tasvir, haykaltaroshlik, me’morlikdan kelib chiqqan. Boshqacha aytganda, kino oltita qadimiy ajoyib san’atning samarali mevasidir”– deb yozgan bo‘lsa, mashhur olim S.M.Eynshteyn “Kinodagi har bir unsurning ildizi boshqa san’atlarda yotadi, chunki kinoning o‘z-o‘zidan vujudga kelish nazariyasi allaqachon o‘z umrini yashab bo‘lgan, kinoning xususiyatlarini san’atning bir-biriga yaqin turlaridan qidirish kerak” deya ta’kidlagan edi [2,194].

Kino san’ati o‘z shakllanish bosqichida bir-biriga yaqin san’atlardan tajribalarni singdirib olganligi bois qisqa vaqt ichida chinakam san’atga aylandi va an’anaviy san’atlar bilan bir safda qayd etildi. Kino rivojlangani sari uning muayyan mamlakatdagi badiiyati chuqurlashib, o‘zaro ijodiy aloqa, o‘zaro yordamlashish xususiyatlarini kasb eta boshladi.

Kino san’ati taraqqiyotining ilk boshlaridanoq ijodkorlar badiiy adabiyotga murojaat qilishgan. Jahon adabiyotining yuzlab sara namunalari ekranlashtirilgani bu fikrni tasdiqlaydi. Bu esa kinoning o‘z qaddini tiklab, oyoqqa turib olishiga imkon yaratgan. Kino adabiyotning

barcha tasvir va ifoda vositalari: hikoya qilish, inson xarakterini ochib berish hamda uning janr boyligini o‘ziga meros qilib olgan.

“Kino san’ati – kinematografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi ekran, san’atining muhim tarkibiy qismi, real borliqni aynan yoki badiiy hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish, kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye mahsulidir. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san’at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg‘unlashtirilib, oziga singdirilgan holda voqe’lik o‘ziga xos ifoda vositalarida fotografik tasvir orqali ko‘rsatiladi. Kino san’ati ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg‘ulari, umuman ma’naviy dunyosining shakllanishida g‘oyaviy-badiiy ta’siri kuchli vositadir” [1,208]

So‘nggi yillarda zamonaviy turk filmlari va seriallariga bo‘lgan talab kuchaygan. Bu esa, o‘z navbatida ushbu tildan o‘giruvchi tarjimonlarga bo‘lgan ehtiyojning ham sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘lmoqda. “Sevimli” telekanali statistika ma’lumotlariga tayaniladigan bo’lsa, ushbu kanalda o‘nga yaqin tarjimon ijod qilmoqda. Xalq talabi va istaklarini to‘laqonli qondirish maqsadida yurtimizda tarjima filmlar saviyasi yildan-yilga oshib, sifati yaxshilanib bormoqda.

Kinofilmlarni bir tildan ikkinchisiga o‘girish ijodiy va texnikaviy jarayondir. Kinofilmlarni o‘girishning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, mazkur tarjima turida maxsus guruh tuzilib, unda nafaqat tarjimon, balki aktyorlar, montajchilar, matn joylovchilari va boshqa mutaxassislar bevosita ishtirok etadilar.

Dublyaj qilingan filmda tasvir bilan musiqa aynan saqlanadi, ammo matn bilan uni o‘qiyotgan aktyorlarning ovozi almashadi. Yangi matn filmning maqsadi bilan hamohang ravishda asl nusxa mazmuni, so‘zning obrazliligi, qahramonlar xarakteri, so‘z o‘yinlari, hazil-mutoyiba, qochirimlar, maqol va iboralar ma’nosini aynan saqlash bilan birga, buni ekranda o‘ynayotgan aktyorning og‘iz harakatlari, pauzalar, imo-ishoralar, qosh, ko‘z va yuz harakatlari, ya’ni mimika va jestlarga mos ravishda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima qilingan matnda so’zlar vazni asliyatdagi matn so‘zlari vazniga mos tushishi lozim. Tarjima qanchalik aniq bo‘lmasin, tasvirdagi so‘z, ifoda vazniga mos tushmasa, ya’ni aktyor qanchalik tez o’qimasin unga “yeta olmasa”, tarjima sifatsiz bo’lib chiqadi.

Demak tarjimondan so‘zlarning bo‘g‘inigacha hisoblagan holda joylashtirish talab etiladi. Shundagina tarjima matni ham mazmunan, ham aktyor lab harakatlariga moslashuv jihatdan sayqal topadi.

Turk tilidan qilingan tarjima filmlarida bu tarjimonga ancha qulaylik yaratadi. Chunki ikki qardosh tildagi grammatik qurilish, frazeologik birliklarning ko‘p hollarda aynan muqobil tushishi tarjimaning sifatli chiqishini ta’minlaydi. Ammo shunda ham ba’zan asliyatdagi matn so’zma-so‘z tarjima qilinishi oqibatida o‘zbek tili qoidalariga mos tushmaydigan, sintaktik jihatdan xato qurilgan gaplar film tarjimasining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kino tarjimasining leksik, grammatik va stilistik birliklari masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Turk va o‘zbek tillari bir til oilasiga mansub bo‘lgani bois sintaktik jihatdan qiyinchilikka deyarli duch kelinmaydi. Shunga qaramay, baribir, tarjimalarda xatoliklar, g‘alizliklar uchraydi. Misollarga murojaat qilamiz:

“Yig‘lama, ona!” (Ağlama Anne) seriali personaji – Hasanning shunday bir gapi bor: *“Neyini dinleyeceğim be, neyini dinleyeceğim? Kadını görmüyor musun? Evimize geldi, yuvamı kurtar, diyor bana. Herkesten beklerdim ama, senden beklemezdim, defol git! Defol! Defol! Artık sen de yoksun benim için, git!”* Ushbu parcha film tarjimasida quyidagicha berilgan. *“Нимасини эшитаман-а? Нимасига қулоқ соламан? Оиламни қутқариб қолинг, деяпти менга. Ҳаммасидан кутсам ҳам, сендан кутмагандим. Даф бўл, кет! Даф бўл, йўқол. Энди сен ҳам йўқсан мен учун. Кет!”.* Asliyatdagi parcha o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z ko‘chirib qo‘yilgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Umuman olganda, turk tilidan o‘zbek tiliga, yoki aksincha badiiy tarjimada so‘zma-so‘z tarjima ko‘p hollarda o‘zini oqlaydi. Ammo o‘zbek tili gap qurilishi qonun-qoidalari inobatga olinadigan bo‘lsa, gap bo’laklari quyidagi tartibda joylashishi kerak edi: “Nimasini eshitaman, nimasiga quloq solaman? Ko‘rmayapsanmi buni? Uyimga kelib, menga “Oilamni qutqaring” deyapti. Hammadan kutsam ham, sendan kutmasdim. Yoqol ko‘zimdan, yoqol! Yo‘qol! Endi sen ham men uchun yo‘qsan. Bor!”

Quyida “Yig‘lama, ona!” (Ağlama Anne) serialidan olingan bir necha jumla va ularning tarjimalariga e’tibor qaratamiz:

Ağlama Anne, Dizi. 20. Bölüm	**“Yig‘lama,ona!” seriali, 20-qism**	**Taklif etilayotgan variant**
Hasan: - Bana bak, söyle	Menga qara, unga ayt,	Aytib qoy, hoziroq

ona çabuk terketsin burayı, evlat katili yapacaksınız beni.	hoziroq tark etsin bu yerni, o‘z farzandi qotiliga aylantirmang meni	ko‘zimdan yo‘qolsin, Nima, meni o‘z bolamning qotiliga aylantirmoqchimisiz?
Necmiye: - Tövbe de, yalan demiş, diyemedin mi benim kızım öyle bir şey yapmaz diye.	Tavba deng, yolg‘on gapiribdi, aytolmadingizmi, mening qizim unday ish qilmaydi deb.	Tavba qildim deng, yolg‘on gapiribdi, qizim unday ish qilmaydi, deb aytolmadingizmi?
Aydan: - Yazıklar olsun, kaç yıllık yengenim ben senin.	Xayf senga, necha yillik yangangman sening.	Xayf senga, shuncha yillik yangangman axir.
Damla: - Anlatacağım ben sana, çıkmayacaksın odadan.	Ўзим айтаман сенга, хонадан чиқмайсан.	Senga o‘zim tushuntiraman, xonadan chiqmaysan.

Bunday misollardan bir nechasini keltirish mumkin:

Xulosa ornida ta’kidlash joizki, kino madaniyatlar almashinuvi, turli millatlarning urf-odat va an’analari, yashash tarzi, tarixi, tili va so’zlashuv madaniyatidan boxabar bo’lish, dunyo xalqlari hayotidagi turli ijtimoiy jihatlar, mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarni o’rganishda eng samarali va ommabop vosita hisoblanadi. Ana shunday san’at asarlarining ona tilimizga tarjimalarini ilmiy o‘rganish esa bugungi tarjimashunoslik ilmining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш, “Ўқитувчи” нашриёти. –Т. 1978.

2. Salomov G‘aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish, darslik. –Тошкент: ТошДШИ, 2016. –192 b. (qayta nashrga tayyorlovchi: X. Hamidov).

3. Абулкасимова Х. Рождение ўзбекского кино. -Т.1965, 48-bet

MALAY TILIDA ARAB TILIGA OID O’ZLASHMALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Zarnigor TOSHPO’LATOVA, *TDSHU, magistrant*

Tillarning o’zaro aloqasi va hamkorligi ko’p holda tillar orasida o’za ro so’z almashishiga,bir tildan ikkinchi tilga so’z o’tishiga sabab bo’ladi yoki bir tildan ikkinchi tilga so’z o’tishiga sharoit yaratadi.

Xalqaro munosabatlar taraqqiyoti, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar va ularning samaralari ana shu xalqlarning tillari leksikasida ham namoyon bo’ladi.Bunday hodisalarning ahamiyati va roliga bag’ishlangan ko’plab tadqiqotlar mavjud bo’lsada, lekin shunga qaramay, bu boradagi

bahs va munozaralar barham topgan emas.Chunki so’z o’zlashtirish masalasida tilshunoslar tomonidan mushtarak va qat’iy to’xtamaga kelingani yo’q.Qariyb 300 yildirki,tillarning o’zaro ta’siri qonuniyatlarini aniqlash, so’zlarning bir tildan ikkinchi tilga o’zlashish sabablari va xususiyatlarini o’rganish, ularning o’zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o’rganilib kelinmoqda. Dunyodagi rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko’pmi o’zlashgan so’zlar,iboralar uchrashi,hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari avvalo tilshunoslarning, qolaversa, tilga e’tiborli bo’lgan har bir kishining ham diqqatini o’ziga jalb qiladi.Ayniqsa, chet so’zlarining qabul qiluvchi til qonuniyatlariga tezda bo’ysunishi, yotligi bilinmay huddi ona tiliday moslashib ketaverishi, o’zlashma so’zlarning ba’zilari o’zlarining asl ma’nolarini saqlab qolsa ba’zilarining ma’nolari torayishi, ba’zilari esa umuman o’zing asl ma’nosini yoqotishi kabi obyektiv omillar so’z o’zlashuvi masalasini tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biriga aylantirdi.

Malay tili bilan o’zaro aloqada bo’lgan va o’z ta’sirini o’tkazgan arab-fors,xitoy, sanskrit, portugal, hind, ingliz va tamil tillari malay tili lug’at tarkibida sezilarli iz qoldirgan.

Buning o’z sabablari bor,bunday sabablarning eng muhimlaridan biri malay tili tarixida sanskrit va arab-fors tillari malay xalqlarining hayotida muhim o’rin tutishi, savdo-sotiq va diniy qadriyatlari bilan chambarchas bog’liqlikda bo’lgan bo’lsa,portugal va ingliz tilining ta’sirini esa malay xalqlari portugal va ingliz mustamlakasi bo’lganligi bilan, xitoy va ta’mil tillarining ta’sirini esa qadimdan ushbu “Nusantara” deb atalgan hududda yashagan xalqlar va Malayziyaning ko’p millatli davlat ekanligi bilan izohlashimiz mumkin. Malay tilida mavjud bo’lgan o’zlashma so’zlarni va ularning o’zlashish manbasini R.J.Vilkinsonning *"Malaycha-inglizcha lug'at"* kitobi yordamida tahlil qilishimiz mumkin. Malay tilida arab o’zlashmalarining boshqa tildan o’zlashgan so’zlardan asosiy farqi ularning asosiysini savdo-sotiq, diniy va da’vatga oid so’zlar tashkil qilishida ekanligidadir. Arab tili Malayziya hududlariga esa dastlab islom dinini qabul qilgan hind savdogarlari orqali kirib kelgan bo’lsa, keyinchalik o’rta asrlarda Malayziya va arab-fors davlatlari orasida savdo-sotiqning olib borilishi natijasida keng yoyila boshlagan. Malay tilida arab tiliga oid unsurlar XIV-asrdan boshlab ko’zatila boshlagan. Malay tilida arabcha so’zlarning keng o’zlashtirilishiga asosiy sabab bu albatta islom dinining kirib kelishi bo’lgan.

Tilshunos olim *Repettining* so’zlariga ko’ra, so’zlar bir til boshqa bir tildan so’zlarni 3xil ko’rinishda o’zlashtiriladi:

1)o'zlashtirayotgan so'zni aynan hech qanday o'zgarishlarsiz, 2)qisman o'zlashtirish, bunda o'zlashtirilayotgan so'z ma'lum bir fonetik-fonologik o'zgarishlarga uchraydi,3)ma'lum bir qo'shimchalarnigina o'zlashtirilishi [6:182-196]. Malay tilida mavjud bo'lgan arab tiliga oid o'zlashmalarni fonetik-fonologik jihatdan o'rgangan va tavsiflagan malay olimlarning ilmiy ishlari ham ahamiyatga molik hisoblanadi. Ulardan eng asosiylari *: Leslau (1956), Mwita (2009),Ramasamy (2012), Zaharani Ahmad, Nor Hashimah Jalaluddin,Maizura Osman (2013), Hashemi, Aghagolzade dan Golfam (2014),Alqahtani dan Musa (2015)* malay tiliga o'zlashgan arabcha so'zlarning fonetik-fonologik xususiyatlarini tavsiflaganlar, ularning ilmiy ishlarida ayniqsa katta e'tibor undosh tovushlarga qaratilgan. Ingliz tilidan tashqari arab tili ham malay tilining boyishidagi asosiy manbalaridan biridir

Malay tilida arabcha o'zlashmalar haqida tilshunos olim Xendershot shunday fikr bildirgan: *"Arab tili malay tili rivojiga eng katta hissa qo'shgan va boyitgan tilardan biridir"* [9:123]. Buning sababi shundaki, barcha diniy g'oyalar arab tili orqali yetkazilgan. Arab tili o'zlashgan so'zlarning miqdori bo'yicha malay tilida sanskrit tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Beg 1979-yilda olib borgan ilmiy izlanishlarinatijasida, arab tilidan 1000 ga yaqin so'zlar kirib kelganligini aniqlagan. Idris Mansorning 2002-yildagi malay tilidagi arab o'zlashmalarini semantik tahlil qilish orqali A dan M gacha bo'lgan 1242 arabcha so'zlar ro'yxatini tuzadi va ushbu so'zlarni malay tili leksikasining asosiy manbasi bo'lgan *Kamus Dewan* lug'atiga kiritadi.

Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tarjimalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi. Tarjima ikki til yoki tillar o'rtasidagi voqelikning hosilasidir. Tarjima nazariyasida lingvistikaning o'rni beqiyos. Keyingi o'n yillarda nazariyada lingvistik muammolar ko'p va qayta-qayta ishlanmoqda. Ulardan ma'lum bo'lmoqdaki, tarjimada lingvistikasiz ishonch bilan qadam tashlash qiyin. Shu bilan birga lingvistik muammolar qatorida tarjimaning poetik, estetik, psixologik, falsafiy, ijtimoiy muammolarini chuqur va izchil o'rganish, tar jima tanqidiga hozirgiga qaraganda kuchliroq e'tibor qaratish bu jozibador sohaning muhim tamoyillari sirasiga kiradi.

Til bilish – tarjimaning birlamchi sharti bo'lsa-da, tarjima uchun faqat shuning o'zi kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'gri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi. Arab tilidan o'zbek tiliga yoki boshqa bir tilga tarjima jarayonida ham aynan shu kabi omillarga duch kelinadi(Salomov G', 40-41-betlar).

Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasidagi muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari g'ayrilisoniy muammolar hisoblanadi. G'aybulla Salomovning yozishicha, "tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki she'riy tizim, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir".

O'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida fransuz olimi E. Karining "Tarjima nazariyasi sari" va amerikalik tilshunos Yu. Naydaning "Tarjima nazariyasi xususida" nomli mazmunan bir-birini to'ldiruvchi tadqiqotlari bosilib chiqdi. E. Kari o'z kitobida tarjima nazariyasini mustaqil fan tarzida e'tirof etish bilan birga umumiy "tarjima nazariyasini yaratmoq payti keldi", degan fikrni bildirgan bo'lsa, Yu. Nayda tarjima amaliyoti va nazariyasining vobasta ilmiy tamoyillarini ishlab chiqmoq lozimli gini uqtirish bilan, tarjima nazariyasiga "dinamik ekvivalent" (so'zlarning teng ma'noli muqobillari) tushunchasini olib kirdi.

O'sha yillari O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof etila boshlandi. Prof. A.A.Reformatskiy va A.V. Fedorovning tarjima nazariyasi xususida bildirgan fikrlari yo'nalishida bahs yurituvchi o'zbek olimlari N.V.Vladimirova ("Nekotori'e voprosi' xudojestvennogo perevoda s russkogo na uzbekskiy yazi'k", 1957), J.Sharipov("Nekotori'e problemi' poeticheskogo perevoda", 1958), G'.Salomov ("Maqol va idiomalar tarjimasi", 1961) larning tadqiqotlari yuzaga keldi. 1961 yil professor G'.Salomov asos solgan "Tarjima san'ati" ilmiy to'plamining birinchi kitobi bosilib chiqdi. Mualliflar o'sha davr talabidan kelib chiqqan holda o'z tadqiqotlarida tarjima nazariyasining ba'zi lingvistik va poetik xususiyatlarini yoritishga harakat qilgandilar (Muhammadjon Xolboyev. Jahon adabiyoti jurnali. – 2013-4).

Tilshunos Katarina Rays ta'rificha, tarjima amaliyotida asosiy holat matnning turli-tumanligiga bog'liq bo'lib, olima quyidagi matn turlarini keltirib o'tadi: a) paragmatik matn;

b) badiiy matn;

v) og'zaki matn.

Birinchisida tarjimon aniqlik va muqarrarlikka, ikkinchisida obrazlilikka; uchinchisida esa suhbatdosh nutqining mazmuniga asosiy e'tiborni qaratmog'i lozim bo'ladi.

Olim ularda tarjima – lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so’z san’ati, tarjimon esa ijodkordir, degan tezis asosida tarjima jarayonini keng miqyosda tadqiq qilib bergan edi.

Taniqli tilshunos Yu. Nayda esa tarjima nazariyasiga to’rt taraflama, ya’ni filologik, lingvistik, kommunikativ va sotsiosemantik yondashuv lozimligini taklif etadi. Filologik yondashuv zamirida badiiy matn, ya’ni uning strukturaviy va stilistik xususiyatlari mujassam bo’lib, ularning yechimi lingvistik nazariyaga tayanadi. Lingvistik yondashuv zamirida esa ikki tilning leksik va sintaktik holatlariga e’tiborni qaratmoq lozim bo’ladi. Bu holatda tillarning kommunikativ funksiyasiga tayaniladi. Tarjimaga uchinchi yondashuv – sof kommunikativ jarayon hisoblanib, unda asosan ijtimoiy sharoit va kommunikatorlar orasidagi o‘zaro muloqot hisobga olinadi. To’rtinchisi, tarjimaga nisbatan sotsiosemiotik yondashuv hisoblanib, unda tarjima qilinayotgan matn uchta asosiy faktorga: belgi, referent (matn) va interpretant (talqin qiluvchi) ga asoslanadi. Bu jarayonda asosan sinonimik belgilar (elementlar) hal etuvchi vazifani bajaradi.

Tarix davomida tarjima usullaridan foydalanish ko'plab bahs-munozaralar manbasini tashkil etgan; ba'zi olimlar so'zma-so'z tarjima qilishni, boshqalari esa mustaqil tarjimani qo'llab-quvvatlaydilar. Tarjima faoliyatining maxsus va ixtisoslashgan sohasi bo'lgan (va shu bilan hujjatlarning qisqartirilishi, tejamkorligi va qalbakilashtirish, matndagi qo'shimchalar, kamchiliklar yoki o'zgartirishlarning oldini olish uchun aniqligi bilan ajralib turadigan huquqiy tarjimada (Crystal & Davy, 1969) , xatolar yoki noto'g'ri tarjimalar halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu taqdimotda so'zma-so'z tarjima, mustaqil tarjima, tarjimaning funktsional yondoshuvi, translyatsiya va transkripsiya, ssuda tarjimasi, moslashish, ta'riflar bilan tavsiflash, leksik kengayish va tavsiflovchi almashtirish mavjud. Tarjima boshqalarni va ularning tsivilizatsiyalarini tushunish va ular bilan muomala qilish uchun eshikdir (Al-Aqad, 2014). Uning kundalik hayotimizdagi ahamiyati va dolzarbligi ko'p o'lchovli. Aynan tarjima orqali biz aloqa va texnologiyalar sohasidagi o'zgarishlar bilan tanishamiz va bilimlarning turli sohalaridagi so'nggi yangiliklar va yangiliklarni kuzatib boramiz. Tarjima manba tilidan maqsadli tilga kommunikativ jarayon yoki matnning ma'nosini bir tildan ikkinchi tilga etkazish jarayoni bo'lgani uchun, bu jarayon keng qamrovli usul va uslublarni o'z ichiga oladi. "So'zma-so'z tarjima" , "ma'noli tarjima" yoki "mustaqil tarjima". Tarjima xillari quyidagicha bo’ladi:

1. Bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo’lmagan tilga tarjima qilish.

2. Qadimgi davr tilidan o’sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish.

3. Muayyan tilning u yoki bu shevasidan adabiy tilga tarjima qilish.

Quyidagicha tarjima usullari mavjud: adekvat, erkin, ijodiy, so’zma-so’z, hijjaviy, aniq, taglama, tabdil, adaptatsiya. Bundan tashqari tarjima amaliyotida yana mualliflashtirilgan tarjima, qayta tarjima, vorisiylik, avtomatik tarjima va antonimik tarjima usullari ham mavjuddir.

Arab tilidan O’zbek tiliga tarjima qilish qardosh bo’lmagan tilga tarjima qilish hildan bo’lib, bunda ikki xil dunyo, ikki xil til, ikki tilga doir qonun-qoidalar, ikkki xil madaniyat, jamiyat va qonuniyatlarni taqazo qiladi.

Arabcha nutq Arab tilidagi Islom qonuniyati va madaniyati bilan bog’liq. Bunda arab tilidan tarjima qilish uchun tarjimondan katta mahorat talab etadiki, u arab tilini bilish bilan birga islom madaniyati hamda qonuniyatlarini ham bilmog’I lozim. Emery (1989) shunday deydi: Arabcha matnlar tuzilish va uslubning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etadi. Ular boshqa tillarga qaraganda grammatik birlashuvdan (mos yozuvlar va bog'lanish orqali) va cheklangan tuzilmalardan ko'proq foydalanadilar va passivlardan kamroq foydalanadilar. Bundan tashqari, ular arxaik lug'at va morfologiyadan foydalanish bilan tavsiflanmaydi. Ikki til nominalizatsiya, binominallarni yaratish va ta'kidlash va matn belgilaridan foydalanish uslublari bilan farq qiladi. (10-bet) Arab tili islom qonunlaridan kelib chiqqan Qur'oni Karim va Sunnat (Payg'ambarimiz Muhammadning qarorlari, amallari va so'zlari) bo'lgan keng atamalar va iboralarni o'z ichiga oladi. Ular birgalikda arab tilida "shari'a" deb nomlanadigan narsani shakllantiradi.

El-Farahatiga ko'ra (2015 y., 31-51 betlar) arab tili odatda quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Lug'aviy xususiyatlar :

- diniy, madaniyatga xos va tizimga asoslangan atamalar va iboralar;
- rasmiylik;
- asosidagi atamalar: erkaklar uchun belgilangan atamalar
- arxaik atamalar;

Sintaktik xususiyatlar :

- Nominalizatsiya;
- Passivizatsiya;
- Modals;
- murakkab jumla tuzilishi: aniq belgilangan jumla chegaralari va tinish belgilarining izchil ishlatilmasligi uzoq, murakkab jumlalarga olib keladi.
- ikki va uch kishilik;

- Ishtirok etadigan qismlar: Arabcha huquqiy matnlarda ba'zi grammatik xususiyatlar mavjud, masalan: (passiv) va (mutlaq ob'ekti) yoki 'turdosh kelishik';

Matn xususiyatlari :

- leksik takrorlash: so'z, so'z birikmasi yoki tuzilishning matnda bir necha bor paydo bo'lishi,

- Malumot: ishtirokchilarni izlash va matndagi uyg'un bog'lanishlarni o'rnatish uchun yaxlit moslamalardan foydalanish,

- Qo'shma va tinish belgilari (Tinish belgilari nuqtai nazaridan nuqta va vergul eng ko'p ishlatiladigan tinish belgilaridir).

Tarjima bu murakkab jarayon bo'lkib, barcha xusuiyatlarni o'rgangan holda tarjimaga qol urgan ma'quldir. Tarjima qilishda xoh u arab tilidan bo'lsin, xoh u boshqa tildan, tarjima usul va uslublarni bilish va o'z adabiy til va boshqa til adabiy mayor talablarini shuningdek, har ikkala tildagi jamiyat va madaniyatidan ham to'laqonli xabardor bo'lishi lozim. Shu kabi muammo va yechimlar va ularning tarixini va qonuniyatlarini o'rganish, farqlarini taxlil qilish bilan shug'ullanuvchi fan tarjima nazariyasi tarjimaning asoiy manbaasi hisoblandi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliayatining uch turiga qaratilgan: biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy; biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun – kollektiv; jamiyat o'zini aks ettirgani uchun – ifodaviy. Tarjima jarayonida ham ushbu omillar o'z ta'sirini korsatadiki, bunda shaxsiy, kollektiv va ifodaviy xusuiyatlar chambarchas bog'lanib ketadi. Til – ijtimoiy hodisa bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov, M. Xolbekov. Atoqli tarjima nazariyotchisi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2012,14-dekabr

2. Al Aqad, M. H. (2014). Translation of Legal Texts between Arabic and English: A Case of Marriage Contracts, Arab World English Journal, 5, (2), 110-121.

3. E. Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma -Toshkent: 2012, 40-bet.

4. El- Farahaty, H. (2015). Arabic-English-Arabic Legal Translation. London: Routledge.

5. Emery, P. G. (1989). ‘Legal Arabic Texts: Implications for Translation. Babel, 35, 1–11.
6. I.G’ofurov, O.Mo’minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: “Tafakkur bo’stoni”, 2012, 13-bet.
7. Muhammadjon Xolbekov. Jahon adabiyoti jurnali. – 2013-4
8. Newmark P. A. Approaches of translation. London. 2001.
9. Ochilov Ergash. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o’quv qo’llanma). – Toshkent: 2012, 4-bet
10. Rahimov G’. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Samarqand: 2016 – 5-6 betlar
11. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1978, 18-bet
12. Nida E., Taber Ch. The theory and practice of translation. – Leiden. 1969.

FEATURE OF THE GUIDE-TRANSLATOR'S RHETORIC.

Kamola ALIMOVA, *UzSWLU, teacher*

Modern conditions of social, political and economic reality are characterized by an active growth of acts of intercultural interaction. In recent years, the state has paid great attention to the development of domestic and foreign tourism in Uzbekistan. There is a need for guides-translators who are ready and able to establish and maintain mutual understanding between the parties of intercultural communication. The need to study the regularities of professional training of guides and translators determines the identification of tools that increase its effectiveness. The active development of tourist activity causes an increased interest of tourists to the objects of tourism not only in their own country, but also, above all, in a foreign country as an object of a different culture, a different language and other traditions. The task of effectively transmitting qualitatively new information about another culture, as well as the task of forming a correct and positive image of another culture in a tourist is performed by a guide-translator.

A guide-translator is a professional language person who has a certain set of actions, strategies and competencies for implementing cross-cultural communication in the process of getting acquainted with the cultural realities of another country. This type of language personality reveals the synergy of the guide's language personality and the translator's language personality. Tourism is not going through the best of times due to the pandemic. However, the interest in traveling and learning does not weaken. New routes appear, and States become more accessible to explore their attractions more fully. And the main thing in this process are guides and translators. They are always represented as the face of their

state, bringing ideology, culture, and high moral values to every person, whether a citizen of our state or a foreigner (guest) who wants to learn about the cultural and historical traditions of our country. The guide-interpreter is considered an elite employee of the service sector, as he provided foreign guests with comprehensive information about their country. The boundaries of direct communication with tourists passed into indirect communication, only when the guide performed only a translation role for broadcasting the guide's monologue. The profession of a guide interpreter more than the profession of a guide requires a fairly diverse set of competencies (language, cross-cultural, translation).

A key figure in the process of foreign tourists ' knowledge of the country, its culture, historical past, and everyday life is a guide-translator. It is an intermediary for transmitting and receiving information between the tourist and the reality that interests him. To do this, the guide-translator uses knowledge of a foreign language and knowledge related to the information of interest, but not only. For successful work, a guide-translator must use a set of other knowledge (psychology, pedagogy, ethics, local history, country studies, guided tours), skills (communication, interactive, organizational), skills (translation, documentation), and use personal qualities. The professional activity of a guide-translator is a complex set of actions determined by his ability to implement this activity (knowledge, skills, personal qualities), and the profession of "guide-translator" requires a detailed and versatile study. Despite the high prestige of the profession, its popularity and social necessity, there are no conceptual studies of the profession of "guide translator"in professional pedagogy. When studying the professional activity of a guide-translator as a system of professional actions, it should be taken into account that it is based on the interaction of the guide with other participants of the trip. The main area of such interaction is interaction with a group of tourists. This interaction occurs at various levels. Identification and characterization of individual components of the professional activity of a guide-translator allows you to search for pedagogical ways to form the competence of a specialist in the field of excursion support.

The following components can be distinguished in the activity of a guide-translator: psychological, speech, communicative, interactive, social, cognitive, ethical, organizational, and reflexive. The characteristics of each component will allow for a more detailed consideration of the features of the guide-translator's work with groups of foreign tourists.

Rhetoric is a Greek word that means "oratory". This is a philological discipline that studies the rules for constructing artistic speech, i.e. the art

of eloquence. The speech component of the guide-translator's activity includes his / her language competence and ability to communicate in a language that is understandable for the tourist group. Language is a means of communication and is implemented in speech (making a speech act in oral or written form). The difference between the concepts of "language" and" speech " is the understanding of language as a system of signs, with the help of which speech activity is carried out.

Language and speech. It is important not to confuse the concepts of "language" and "speech", which are closely related.

Language is an existing possibility that manifests itself in the presence of certain conditions: knowledge of phonetic, lexical, grammatical rules; ability to think and speak, to reach mutual understanding with other people. Language is a specific social means of storing and transmitting information, as well as managing human behavior.

Speech is the realization of the possibility of language, a form of communication between people, "concrete speaking" that takes place in time and is expressed in sound (including internal pronunciation) or written form.

Knowledge of vocabulary, grammar, and phonetics is a language competence, and the ability to Express thoughts freely is a speech competence. The main form of speech in professional communication of a guide-translator is oral speech. For speech that sounds, requirements are put forward regarding the normativity of the language, phonetic requirements, rhetorical skills and abilities. Voice, diction, intonation, breathing, and the use of nonverbal means of communication are important for the design of sounding speech. Signs of speech culture are compliance with language norms, content, logic, lexical richness, expressiveness. High requirements for sounding speech determine

the whole complexity of the speech activity of the guide-translator, since his communication with tourists is conducted in a foreign language in a bilingual situation. The oral speech of the guide-interpreter can be divided into prepared and spontaneous. Prepared speech is implemented in voicing travel information, conducting sightseeing tours. Spontaneous speech is implemented in other communication situations (answers to questions, assistance in settlement, food selection, shopping), translation of Museum tours, and contacts with the local population. Therefore, the guide-translator must constantly work on improving the language and speech competence.

The guide-translator needs to understand the meaning of language and speech, their relationship. The speech of a guide-translator is a purpo-

seful activity aimed at realizing the capabilities of the language. The success of this activity depends on how much attention the guide-translator pays to improving their speech skills. The main thing is constant practice. For one guide-translator-this is the assimilation of various forms of speech animation, for another-the fight against parasitic words, for a third-the identification and elimination of errors in the language, for many - the elimination of tautology in speech.

Bibliography

1. Ulezko G.M. Gigiena golosa. (Metodicheskie ukazaniya dlya lis golosovix professiy: vokalistov, akterov, prepodavateley, lektorov, ekskursovodov, studentov, rukovoditeley i dr.) [Elektronniy resurs]. - URL: http://www.fonoped.ru/hygiene-of-voice.php (data obraщeniya: 26.05.2015).

2. Didakticheskie igri [Elektronniy resurs]. - URL: https://m.wikipedia.org/wiki/Didakticheskie_igri (data obraщeniya: 26.05.2015).

3. Aristova Ye.A. Formirovanie foneticheskix i fonasionnix navikov inoyazichnoy ustnoy rechevoy deyatelnosti u studentov neyazikovogo vuza: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. - Perm, 2005.

4. Protopopova O.V., Aristova Ye.A. Golosovaya kultura ustnogo perevodchika-permyaka // Industriya perevoda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Perm, 3-5 iyunya 2013 g.) - Perm, 2013. - S 77-84.

XITOY TILIDA [A 跟 GĒN B….一样 YÍ YÀNG] KONSTRUKSIYASI VA TARJIMA MUAMMOLARI

***Adiba MAXAMADTOIROVA**, TDSHU, tadqiqotchi*

Qiyoslash mazmunidagi gaplar xitoy tilida 比较句 bǐjiào jù atamasi orqali ifodalanadi. Xitoy tilida bunday gaplar sifat va darajalarning o‘zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Asosan ikki kishi, ikki predmet yoki ikki holat darajalaridagi farqlani o‘zaro taqqoslashda qo‘llaniladi.Ushbu maqola qiyoslash mazmunidagi gaplardagi xato va kamchiliklarning tahlili hamda ularni oldini olishga qaratilgan.

Qiyoslash mazmunidagi gaplar to‘rt a’zoga ega bo‘ladi: 1) taqqoslanayotgan narsa yoki subyekt, 2) unga qiyos bo‘luvchi narsa yoki obyekt, 3) qiyos belgisi va 4) shakliy ko‘rsatkich. Sof qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir predmet, jarayon, hodisalar ikkinchisi bilan o‘xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. Bunda taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga

aynan bir xil darajada emas, balki turli darajaga tegishli bo‘ladi. Taqqoslanayotgan predmetlar belgining tegishlilik darajasidagi ana shu farqga ko‘ra bir biriga qarama-qarshi qo‘yiladi va shu tariqa predmetlar o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi [2, 214].

[A 跟 gēn B….一样 yí yàng] konstruksiyasida, A xodisa yoki holatlarni ifodalasa, A va B taqqoslanuvchi ikki xil narsa 一样 *yí yàng* solishtirish natijasi bo‘lib, kesimning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kesimning asosiy komponenti bo‘lgan 跟 *gēn* B esa, hol vazifasida keladi [8, 125]. Ba’zida 一样 *yíyàng* dan so‘ng sifat, his-hayajon ifodalovchi fe’llar yoki fe’lli so‘z birikmalarini uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda 跟 *gēn* B …. 一样 *yíyàng* sifat va fe’lning holiga aylanadi. 跟 B….一样+sifat/fe’l modelida A qaysidir xususiyati B bilan bir xil ekanligini anglatadi. Masalan:

1. 这个字的声调跟那个字的声调一样。

Zhège zì de shēngdiào gēn nàge zì de shēngdiào yíyang.

Bu ieroglifning ohangi bilan anavi ieroglifning ohangi bir xil.

2. 这间屋子跟那间屋子一样大。

Zhèjiān wūzǐ gēn nàjiān wūzǐ yiyang.

Bu xona bilan anavi xonaning kattaligi bir xil.

3. 他跟我一样喜欢孩子。

Tā gēn wǒ yíyàng xǐhuan háizi.

U ham bolani mendek yaxshi ko‘radi.

Birinchi misoldagi 一样 *yíyàng* gapdagi ikki ohangning bir xilda ekanligini ta’kidlamoqda. Ikkinchi misolda esa ikkita xonaning ham hajmi bir xilda katta ekanligi keltirgan bo‘lsa, uchinchi misolda esa uning bolani yaxshi ko‘rish darajasi “men” bilan bir xilda ekanligi keltirilgan.

Bundan tashqari ushbu modelda qiyosiy darajani ifodalovchi sifat odatda 高 *gāo* baland, 长 *cháng* uzun, 宽 *kuān* keng, 厚 *hòu* qalin, chuqur, 大 *dà* katta, 多 *duō* ko‘p, 矮 *ǎi* past, 短 *duǎn* kalta, qisqa, 窄 *zhǎi* tor, ingichka, 薄 *báo* yupqa, 小 *xiǎo* kichkina sifatlari bilan bir qatorda, 长度 *chángdù* balandlikni, 宽度 *kuāndù* kenglikni, 厚度 *hòudù* qalinlikni, 容积 *róng jī* ko‘lamlilikni, 面积 *miànjī* maydonini, 数量 *shù liàng* sanoq miqdorini ifodalovchi so‘zlardan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga ularning antonimlarini ham qo‘llash mumkin [9, 127]. Masalan:

这本书跟那本书一样厚,大概都是二百多页。(这明厚度)

Zhèběn shū gēn nàběn shū yíyang hòu, dàgài dōushì èrbǎi duō xié.

Bu kitob bilan a u kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan ikki yuz betdan ko‘proq.

Quyida 跟….一样 konstruksiyasining grammatik xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz: [跟 *gēn*….一样 *yí yang*] hol vazifasida kelganda, undan so‘ng 地 *de*

qo‘yilishi mumkin. Ayniqsa so‘z brikmalarini qo‘llayotganimizda. Masalan: 他会跟我们一样地想念祖国。*Tā huìgēn wǒ men yíyàng dìxiǎng niàn zǔ guó*. *U ham mendek Vatanini sog‘inadi.* [跟 *gēn* …. 一样 *yí yang*] aniqlovchi vazifasida ham kelishi mumkin. Bu vazifada odatda 一样 *yíyang* dan keyin, 的 *de* qo‘shimchasi qo‘llanilishi shart. Masalan: 还有跟这本一样的字典吗? *Hái yǒu gēn zhè běn yíyàng de zìdiǎn ma? Yana shu bilan bir xildagi lug‘at bormi?*

跟 *gēn* old ko‘makchisining oldi va ortida joylashgan A va B ot, olmosh bo‘lishi bilan bir qatorda, fe’l, sifat va fe’lli so‘z birikma hamda sifatli so‘z birikmaham bo‘lishi mumkin [4, 180]. Masalan:

1. 读跟写一样需要下功夫。*Dú gēn xiě yíyang xūyào xià gōngfu.*

O‘qish yozishdek bir xil mehnat talab qiladi.

2. 长跟短怎么能一样呢? *Cháng gēn duǎn zěnme néng yíyàng ne?*

Uzun va qisqa qanday qilib bir xil bo‘la olishi mumkin?

3. 用钢笔写和用毛笔写一样吗?*Yòng gāngbǐ xiě hé yòng máobǐxiě yíyàng ma? Ruchkada yozish bilan qalamda yozish bir xilmi?*

4. **你来跟他来一**样,谁来都能解决问题。Nǐ lái gēntā lái yíyàng,shuí lái dōunéng jiějué wèntí. Seni kelishing bilan uni kelishi birdek, kim kelsa ham muammoni hal eta oladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan misollarning birinchisida fe’l, ikkinchi gapda sifat, uchinchi gapda sifatli brikma hamda to‘rtinchi gapda fe’lli so‘z brikmalarini kuzatishimiz mumkin.

[跟 B….一样] konstruksiyasining bo‘lishsiz shakli quyidagicha ko‘rinishga ega: [A 跟 B …. 不一样], [A 不跟 B ….一样] bo‘lib, [A 跟 B….不一样] konstruksiyasiga quyidagicha misollarni keltirishimiz mumkin:

1. 七班的节目跟别班的都不一样,他们跳了一个名族舞。*Qi bān de jiémù gēn bié bān de dōu bù yīyàng, tāmen tiàole yígè míngzú wǔ*. *Yettinchi guruhning dasturi boshqa guruhlarnikiga o‘xshamaydi, ular milliy raqsni tanlashgan.*

2. 他的意见跟我的意见不一样。*Tāde yìjiàn gēn wǒde yì jiànbú yíyàng*. *Uning fikri bilan mening fikrim bir xil emas.*

Ba’zi vaqtlarda esa 不跟 *bùgēn*….一样 *yíyang* ko‘rinishida ham foydalansa bo‘ladi. Bunday gap tuzilishida 跟 *gēn*…. inkor shakli bo‘lib xizmat qiladi,一样 *yí yang* emas. Masalan:

1. 他不跟我一样高,跟我妹妹一样高。*Tā bú gēn wǒ yíyàng gāo, gēn wǒ mèimèi yíyàng gāo. U men bilan emas, singlim bilan birdek baland.*

Bunday gaplarning tasdiq-inkor ko‘rinishdagi savol shakli quyidagicha yasaladi:

1. 他的意见跟我的意见一样不一样? *Tā de yìjiàn gēn wǒ de yìjiàn yíyang bù yīyang*. *Uning fikri bilan sening fikring bir xilmi yo‘qmi?*

2. 他跟你一样高不一样高? *Tā gēn nǐ yíyàng gāo bù yīyàng gāo?*

Uning bo‘yining balandligi seniki bilan bir xilmi yoki yo‘qmi?

E’tibor beradigan jihatimiz shundaki, ikkinchi misolda 他跟你一样高不高 *tā gēnnǐ yíyàng gāo bù gāo* deb bo‘lmaydi. Chunki yuqoridagi gapda balandlikning bir xil yoki bir xil emasligi emas, balki baland-pastligi so‘ralmoqda. Bunday holatda esa qiyosash mazmunidagi gap emas, balki oddiy so‘roq gapga aylanib qoladi.

跟 *gēn* old komakchisidan foydalanilganda quyidagi ususiyatlarga e’tibor berish kerak. Buni bir necha holatlarda ko‘rib chiqamiz:

Birinchidan, xitoy tilida [比 *bǐ* ……一样 *yīyàng*] yoki [比 *bǐ* ……不一样 *bù yīyàng*] kabi modellar mavjud emas [9, 203]. Faqatgina [跟 *gēn* /和 *hé*/同 *tóng* ……一样 *yīyàng*] yoki [跟 *gēn* /和 *hé*/同 *tóng* ……不一样 *bù yīyàng*] konstruksiyalari mavjud. Masalan: *Bizning davlatimizning urf-odatlari Xitoyniki bilan bir xil emas.*

×我们国家的习惯比中国的不一样。 *Wǒ men Guójiā de xíguàn bǐ Zhōngguó de bù yīyàng.*

√ 我们国家的习惯跟中国的不一样。 *Wǒ men Guójiā de xí guàn gēn Zhōngguó de bù yīyàng.*

Ikkinchidan, taqqos 跟 *gēn* orqali ifodalansa, 的 *de* yordamchi so‘zining qo‘llanishiga albatta e’tibor berish kerak. Masalan:

×我买的书跟玛丽一样。 *Wǒ mǎi de shū gēn Mǎlì yíyàng.*

√我买的书跟玛丽的一样。 *Wǒ mǎi de shū gēn Mǎlì de yíyàng.*

Men sotib olgan kitob Maliniki bilan bir xil.

Yuqoridagi gapda 书 *shū* predmet, 玛丽 *Mǎlì* bo‘lsa shaxsni ifodalovchi so‘zlardir, bularni ikkovini bir biriga taqqoslab bo‘lmaydi. Shuning uchun 玛丽 *Mǎlì* so‘zidan keyin aloqani boglovchi yuklama 的 *de* qo‘llanilishi kerak, shunda, 玛丽的 *Mǎlì de,* ma’nosi 玛丽的书 *Mǎlì de shū,* ya’ni “Malining kitobi”ga ega bo‘ladi [12, 242]. Boshqa bir misol: *Mening lug‘atim unikidan qulay.*

× 我的词典跟他一样好用。 *Wǒ de cí diǎn gēn tā yíyàng hǎo yòng.*

√ 我的词典跟他的一样好用。 *Wǒ de cí diǎn gēn tā de yí yàng hǎo yòng.*

Bu gapda ham yuqoridagidek 的 *de* tushib qolishi ma’no o‘zgarishiga va uni qo‘llashdagi kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, hech qachon 比 *bǐ* va 一样 *yíyàng* dan birga foydalanish mumkin emas. Masalan: *Bu ruchka bilan anavi ruchka bir xil.*

这支钢笔跟那支(钢笔)一样。 *Zhè zhī gāngbǐ gēn nà zhī (gāngbǐ) yíyang.*

×这支钢笔比那支一样。 *Zhè zhī gāngbǐ bǐ nà zhī yíyang* tarzida tarjima qilish mumkin emas.

Xulosa. 1. Qiyoslash mazmunidagi gaplarda bir predmet, jarayon, hodisalar ikkinchisi bilan o‘xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. Bunda taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajada tegishli bo‘ladi.

2. [A 跟 B 一样] narsa, hodisa va holatlarning o‘zaro bir xilligini ifodalovchi konstruksiya bo‘lib, A va B ya’ni ikkita o‘xshash bo‘lgan predmet yoki holatni taqqoslashda, natijaning teng darajada ekanligi ifodalashda qo‘llaniladi.

3. Ushbu konstruksiyaning bo‘lishsiz shakli: [A 跟 B…不一样], [A 不跟 B ….一样] bo‘lib, inkor elementining gapdagi o‘rni konstruksiyaning ma’nosiga tasir etmasligi, uning og‘zaki nutqdagi qulayligini ta’minlab beradi.

4. Tasdiq inkor shakli [A 跟 B 一样不一样] ko‘rinishga ega. So‘roq shakli esa gapning oxiriga so‘roq yuklamasi 吗 qo‘yish orqali yasaladi. Ushbu [A 跟 B…. 一样] konstruksiyasidagi “一样” o‘rniga, 相同/相似/近似/类似 so‘zlaridan ham foydalanishimiz mumkin.

5. [A 跟 B 一样] konstruksiyasi orqali taqqos olib borilganda,的 *de* yordamchi so‘zining tushib qolishi ma’no o‘zgarishiga va uni qo‘llashdagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin.

6. Hech qachon 比 va 一样 bitta konstruksiyani tashkil etmaydilar. Xitoy tilida [A 比 B…..一样] yoki [比…..不一样] kabi modellar mavjud emas. Faqatgina [跟 / 和 / 同 …… 一 样] yoki [跟 / 和 / 同 … 不 一 样] konstruksiyalari mavjud. Xitoy tilida [有…一样] konstruksiyasi ham mavjud emas.

7. Old ko‘makchi “跟” o‘rniga, 与, 和, 同 kabi so‘zlar bilan almashtirilib foydalansa ham bo‘ladi. [A 跟 B…. 一样] konstruksiyasi, o‘zning grammatik xususisyatlariga ko‘ra ekvivatlentlarga boyligi, rang barangliligi bilan ajralib turadi. Aynan shu xususiyat uning og‘zaki nutqdagi qulayligini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1]. Абдурахмонов Ғ.А., Шоабдураҳмонов. Ш.Ш., Ҳожиев А.П. (1996). Ўзбек тили грамматикаси. II. Синтаксис. – Тошкент: Фан, – 450 б.

[2]. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. (1992). Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, – 397 б.

[3]. Ҳожиев А. (2002). Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 164 б.

[4]. Горелов В.И. (1992). Грамматика китайского языка. – Москва: Просвещение, – 278 с.

[5]. Виноградов С.Н., Кузьмин А.Ф. (1993). Логика. – Москва: Наука, – 164 с.

[6]. Драгунов А.А. Грамматическая система современного китайского языка. – Лененград, 1962. – 250 с.

[7]. Liu Yuehua. (2001). 实用现代汉语语法 (Practical Modern Chinese Grammar). – Beijing: Commercial Press. – p. 940.

[8]. Li Dejin, Cheng Meizhen. (2008). 外国人实用汉语语 (Practical Chinese for Foreigners). – Beijing: Beijing Language and Culture University Press. – p. 652.

[9]. Dai Xuemei, Zhang Ruoying. (1999) 实用汉语语法三百点 (300 Practical Chinese Grammar). – Beijing: New World Publishing. – p. 240.

[10]. Ding Shengshu. (1996) Modern Chinese Grammar Speech. – Beijing: Commercial Press. – p. 120.

ARAB DUNYOSIDA TARJIMA JARAYONI (XX-XXI ASR)

Azamat QUDRATOV, *TDSHU, magistrant*

Butun dunyo miqyosida turli xalqlaring o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi yanada kuchayib bormoqda va bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarjima xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko‘prik deb qaraladi.

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so‘z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma’no ifodalarini avval tarozida o‘lchab, keyin tarjima qilish ma’qul, degan fikrni bildirganlar[99]. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o‘z nazariy tushunchalarini bildirib o‘tganlar.

Arab tarjima jarayonini islomdan avvalgi johiliyat davridan boshlab kuzatish mumkin. Islomdan oldingi tarjima jarayonini yuzaga kelishining eng muhim omillardan biri Aleksandr Makedonskiyning g‘arbiy Osiyo va Misrda yunon sivilizatsiyasining tarqalishiga olib kelgan fathlaridir. Buning natijasida o‘sha mintaqaga boshqa madaniyatlarning kirib kelishi kabi jarayonlar yuzaga keldi.

VIII asrning boshlarida Movarounnahrni arablar butunlay egallagan edilar. Islom dini mamlakatda hukmron din, arab yozuvi yagona yozuv,

[99] https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/tarjima-na-zariyasi-fan-sifatida/

arab tili adabiy til bo‘lib qoldi. Olimlar va shoirlar arab tilida kitoblar yoza boshladilar. Arablar istilosi davrida eng ko‘p tarjima qilingan asarlar tarixiy-badiiy janrda yaratilgan kitoblar bo‘lib, ularni ko‘pincha adib, shoirlar tarjima qilar edilar. O‘sha davrda bizning hududimizda arab tilida yozgan katta-katta olimlar, tarixchilar yetishib chiqdi. Chunki arab tili o’sha davrning ilm tili hisoblanganligi uchun Forobiy, ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. 359 yilda vafot etgan olim Abu Bakr Muhammad bin Ja’fariy Narshaxiy Buxoro tarixiga oid «Tahqiqul-viloyat» («O‘lkani o‘rganish») nomli asarini yozdi[100].

Bu asar fors tiliga, keyingi davrlarda rus tiliga ham tarjima qilindi. Eng qadimiy asarlardan biri 922 yilda vafot etgan Abu Ja’far Muhammad bin Jarir Tabariyning «Tarixi Tabariy» nomli bir necha jildli asari bo‘lib, 963 yilda Buxoroda somoniy amirlarining saroyida vazir bo‘lgan Mir Abu Ali bin Muhammad Bal’amiy tojikchaga qisqartib tarjima etgan[101]. Keyinchalik bu asarning o‘zi ham boshqa tillarga tarjima qilingan. Somoniylar saroyida tarix va geografiyaga katta diqqat berilar edi. Movarounnahrda tarix va geografiyaga oid ko‘p sonli asarlarni qiziqib o‘qilar edi. Ma’daniy, Balozuriy, Tabariy, ibn Miskavey va boshqalar o‘sha davrning mashhur tarixchilari edi. Movarounnahrning madaniy kishilari orasida Tabariy o‘z tarix kitobi tufayli mashhur bo‘lganini shu faktdan ko‘rish mumkin: «Somoniylarning Abulmalik va Mansur degan ikki amirining atoqli vaziri Bal’amiy Tabariyning asarini tojik tiliga qisqartirib tarjima qildi. Boshqa yo‘qolgan variantdan qilingan bu tarjima arab tilidagi so‘nggi nashrlarda bo‘lmagan bir qancha axborotlarni beradi.

Ko‘p mamlakatlardagi kishilar hozirga qadar Tabariy asari bilan Bal’amiy tarjimasi orqali tanishadilar. Qizig‘i shundaki, haligacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan Bal’amiyning tarjima kitobi o‘z navbatida turk, fransuz, hatto, arab tillariga tarjima qilingan». Bu asar «Tarixi Narshaxiy» nomi bilan mashhur. Abu Nasr Ahmad bin Muhammad al-Qubaviy XII asrda uni qisqartib, fors tiliga tarjima qilgan[102]. 1892 yilda Parijda bu asarning teksti Shefer tomonidan bostirilgan. Arab tilida tizimli tarjima faoliyatlari esa Ummaviylar davlatining ilk tashkil topish vaqti bilan bog‘liqdir. Yazid ibn Muoviyaning o‘g‘li Xolid arabchaga tizimli tarjima faoliyatlarini qo‘llab quvvatlagan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, tarjima jarayoni u qiziqqan sohalardan biri edi va shu bois bu sohaga ishtiyoq bilan yondoshgan. Xalidning sa’y-harakatlari bilan tibbiyot va kimyo kitoblari arabchaga tarjima qilindi. Ushbu davrda tarjima sohasining

[100] Hamidov X.X. Tarjimashunoslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012. – B.17
[101] Hamidov X.X. Tarjimashunoslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012. – B.17
[102] FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. №2110

rivojlanishiga koʻplab omillar oʻz tasirini oʻtkazdi, shu omillardan baʼzilari quyidagilardir:

- Arablarning boshqa xalqlar bilan aloqalari, yangi madaniyatlardan xabardor boʻlishi va mana shu yangi madaniyat haqida nuqtayi nazarlarini, bilimlarini kengaytirish istagida edilar.
- Arablarning yangi ilm sohalariga ehtiyoj sezishlari sababli ayniqsa, tibbiyot, hisob, vaqt oʻlchash kabi ilmlarga zaruriyat tugʻildi. Namoz vaqtlarining belgilanishi, roʻza kunlarining hisoblanishi, haj ziyorati va yil boshining aniqlanishi kabi sohalarda yangi ilmlarga ehtiyoj sezdilar.
- Xalifalar tarjimaga katta ahamiyat berishdi. Masalan, Abdulmalik bin Marvon davrida suriya devanlari arablashtirildi. Arab tilidagi birinchi devan Shom devoni edi.

Umaviylar davrida arab tiliga tarjima qilingan eng muhim sohalardan baʼzilari quyidagilar:

- Falak ilmi (Astronomiya). Astronomiya fani ummaviylar davrida, ayniqsa Biladush-shomda rivojlandi. Ushbu taraqqiyotning sababi musulmonlarning boshqa millatlarning ilm-faniga va madaniyatiga yoʻl berishi va astronomiyaga oid kitoblarning arab tiliga tarjima qilinishi edi. Ummaviylar davlatining qulashidan 7 yil oldin arab tiliga tarjima qilingan davrning birinchi astronomiya kitobi «Ard ul-miftaf ul-Nujum» (Yerning yulduzli kaliti) deb nomlangan. Ammo Xalid ibn Yazid tomonidan tarjima qilingan yulduzlar va astronomiya haqidagi birinchi kitob «Kitob un-Nujum» (Yulduzlar kitobi) boʻlgan deya rivoyat qilinadi.
- Falsafa fani. Ushbu turdagi fan ummaviylar davrining boshlarida Damashqda paydo boʻlgan. Falsafa rivojlanishida maʼlum omillar mavjud, ularning baʼzilari quyidagilar:

a) Musulmonlarning boshqa din vakillari bilan oʻzaro munosabati. Damashqda koʻplab masihiylar boʻlgan. Ushbu aholining katta qismi musulmon boʻlganligi sababli, ularning koʻpchiligi oʻz dinlarini saqlab qolishgan. Damashqda masjidlar cherkovlar yonida qurilgan. Shuning uchun Islom va Nasroniylik oʻrtasida aloqa bor edi. Dialoglar, munozaralar va nizolar dinlar oʻrtasida yuzaga keldi.

b) Siyosiy ziddiyat. Falsafa faniga oʻsha paytda mavjud boʻlgan siyosiy toʻqnashuvlar taʼsir koʻrsatdi. Imomiyat va xalifalik masalasi kun tartibidagi eng taʼsirli masala boʻlib, unda musulmonlar ixtilof qilishgan.

c) Tarjima harakati. Bu falsafaning rivojlanishi va tarqalishida muhim rol oʻynaydigan muhim omillardandir. Musulmon faylasuflarining yunon mantigʻi va falsafasini arab tiliga tarjima qilinganidan keyin bu fanlar bilan tanishganliklari ularning fikrlari va printsiplarining bir qis-

mini o‘zgartirdi. Xalid bin Yazid ushbu sohada tarjimaning kashshofi bo‘lgan.

Endi biz ummaviylar davridagi devonlarning yozishmalari va yozuvlariga to‘xtalib o‘tsak. Aytishimiz mumkinki, Suriyadagi devon Abdumalik ibn Marvon xalifaligi davrida yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan va Iroqdagi devon Hakkok hokimligi davrida forsiydan arabchaga tarjima qilingan. Misrda yozilgan ko‘plab asarlar Abdullaziz xalifaligi davrida arabchalashtirildi.

Shunday qilib, Bag‘dodning intellektual yorqinligi tez orada Kufa va Basradan ustun bo‘lib, Damashqni bosib o‘tadi. Abu Jafar al-Mansur Vizantiya, Yunon podshohlariga falsafa, hikmat kitoblarini so‘rab iltijo qilgan birinchi islom hukmdori edi. Vizantiya imperatori Abu Jafarning iltimosiga binoan Evklidning Evklid kitobini boshqa kitoblar bilan birga yuborgan.

Abu Mansur xorijiy tillarni biladigan elit olimlar uyushmasini tuzdi va ularni ba’zi ilmiy asarlarni tarjima qilishga undadi. Shuning uchun u tarjimaga tegishli devan yozdi.

Horun ar-Rashid bu devonni kengaytirib, chet el kitoblarini tarjima qilish bilan shug‘ullandi. Horun ar-Rashid davrida astronomiyada katta tasnifni anglatuvchi «Makesti» asari tarjima qilindi. Bundan tashqari, Anqoladagi Vizantiya yurishlarida Anqara va Ammuriyadagi kitoblar arab tiliga o‘girildi. Horunning o‘g‘li Mamun «Baytu-l-hikma» deb nomlangan markazni ochdi, uning qoshida jamoat kutubxonasi va astronomiya uchun ishlatiladigan rasadxona mavjud[103].

«Baytu-l-hikma», ya’ni davlat xazinasidan ko‘plab sovg‘alar berib, u yerda bir guruh doimiy tarjimonlar guruhini tashkil qildi. Andalusiya Bag‘doddan keyin ilmiy va madaniy tarjimalarning ikkinchi vataniga aylandi. Andalusiya adabiyot, fan va san’at sohalarida ixtiro va ijodkorlik namoyish etiladigan muhitga aylanishdan oldin tarjima markazi bo‘lgan.

Abbosiylar davrida tarjima faoliyati eng ko‘zga ko‘ringan shaklda paydo bo‘ldi. Abbosiylar davlatining birinchi davrida xalifalardan tashqari, davlat arboblari tarjimani rag‘batlantirgan. Ushbu yo‘nalishdan so‘ng, jamiyatdagi turli elita guruhlari tarjimani ikki asr davomida jamiyatga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan harakatga aylantirdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjima tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tarjimon (tilmoch) orqali ish

[103] Zainab Alsaati. Türkçede ve arapçada simultane çevirinin geliştirme yöntemleri. Haziran: Gazi üniversitesi eğitim bilimleri enstitüsü, 2018.

bitkazganlar. Tarjimonsiz ish bitirish qiyin bo‘lgan. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda hamma vaqt tarjimaga zarurat tug‘ilgan. Qadim zamonlardan beri xalqlar o‘z tarjimonlariga katta hurmat bilan qaraganlar. Ularning nomlari tarix sahifalarida abadiy yozilib qolgan. Tarjima tarixi madaniyat, san’at, adabiyot tarixi bilan chambarchas bog‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamidov X.X. Tarjimashunoslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012.
2. Zainab Alsaati. Türkçede ve arapçada simultane çevirinin geliştirme yöntemleri. Haziran: Gazi üniversitesi eğitim bilimleri enstitüsü, 2018.

Manbalar:

3. FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. №2110.
4. Собрание Восточных рукописей Академии наук. Том 1.

СТРАТЕГИИ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА
(на примере переводов с корейского на русский язык)

Шоира НАЗАРОВА, ТГУВ, магистрант

В Корее концепция синхронного перевода была впервые введена в 1991 году, когда началось трансляция в прямом эфире через CNN во время войны в Персидском заливе[104]. В корейской лингвистике исследование синхронного перевода разделилось на два основных направления. Первое направление, практическое, в котором переводчики анализируют перевод, сопоставляя корейский язык с другими иностранными языками. Лингвист 원종화 (Вон Чжон Хва[105] проанализировал 226 статей, связанных с синхронным переводом из первого издания Корейского журнала устных и письменных переводов, до 2014 года, объяснив, что большинство документов относится к исследованиям переводов с японского, китайского и английских языков на корейский. Второе направление - обучение синхронному переводу, непосредственно связанное с подготовкой будущих синхронных переводчиков. Другими словами, в большинстве исследований, посвященных синхронному переводу, основное внимание уделяется предложению методов обучения с использова-

[104] https://namu.wiki/w/%ED%86%B5%EC%97%AD
[105]원종화. (2015). 국내 통역 연구의 어제와 오늘 그리고 내일. 번역학연구,16(1), 35-64.

нием конкретных видов деятельности. В данный момент в Корее есть ряд университетов, которые готовят профессиональных синхронных переводчиков[106].

Практика переводческой деятельности представляет собой набор определенных стратегий, используемых синхронным переводчиком в конкретных ситуациях перевода. Необходимость обеспечения приемлемого качества перевода заставляет переводчика прибегать к использованию приёмов, позволяющих минимизировать информационные потери, причиной которых являются экстремальные условия, сопровождающие процессы одновременного слушания исходного текста и порождения текста на языке перевода.

В теоретическом аспекте изучения синхронного перевода корейские лингвисты придерживаются определений своих западных коллег, таких как: Gile D.[107], Herbert J.[108], Moser-Mercer B.[109], Чернов Г.В.[110], Комиссаров В.Н.[111] и др.

По мнению ученых в синхронном переводе можно выделить ряд стратегий: стратегию проб и ошибок, стратегию ожидания, стратегию линейности, стратегию компрессии, стратегию декомпрессии и другие. Стратегии в синхронном переводе также привлекают внимание и корейских лингвистов.

한원덕(Хан Вон Док) классифицировал стратегии в синхронном переводе на макрокогнитивные стратегии, когнитивные стратегии, социальные и эмоциональные стратегии, стратегии в тексте и стратегии вне текста[112].

이미경(Ли Ми Кёнг) считает, что стратегии помогают в преодолении временных ограничений синхронного перевода, которая также известна как метод регулировки длины несоответствия слуха Ear-

---

[106] 한국외국어대학교 통번역대학원 - Университет иностранных языков Ханкук, 서울외국어대학원대학교 - Сеульский университет иностранных исследований, 이화여자대학교 통번역대학원- Высшая школа устного и письменного перевода женского университета Ихва, 부산외국어대학교 통번역대학원 - Высшая школа устного и письменного перевода женского университета Пусан, 한동대학교 통번역대학원 - Высшая школа устного и письменного перевода университета Хандонг.

[107] Gile D. (1995). Basic concepts and models for interpreter and translator training (Vol. 8). John Benjamins Publishing. 185.

[108] Herbert, J. (1952). Le manuel de l'interprete, Geneva: Georg & Cie.

[109] Moser-Mercer B. (1976). Simultaneous Translation: Linguistic, psycholinguistic, and human information processing aspects. Ph.D. thesis, Tyrol: Universitat Innsbruck (unpubl.) - (2000). Simultaneous interpreting: Cognitive potential and limitations. Interpreting 5(2), 94.

[110] Чернов Г.В. Теория и практика синхронного перевода. -М.: Междунар. отношения, 1978. -208 с.

[111] Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). − М.: Высш. шк, 1990. − 253 с..

[112] 한원덕. (2009). 스페인어-한국어 동시통역 학습전략 고찰. 통번역학연구, 13(1), 207-228.

Voice Span (EVS), метод упрощения или сокращения выражения и метод обобщения выражения[113].

권상미(Квон Санг Ми) полагает, что в переводе с английского на корейский, в основном, используются такие стратегии как: стратегия проб и ошибок, ожидание, прогнозирование и столлинг. Автор считает, что в целях усовершенствования качества перевода с недавних пор начали использоваться стратегии речевой компрессии, упущения и перефразирования [114] . Можно считать, что в Корее исследования стратегий синхронного перевода носят разрозненный характер.

В корейской лингвистике большинство ученых стратегии на подгруппы: 언어적 전략 (лингвистические стратегии), 인지적 전략 (когнитивные стратегии), 문화적 전략 (культурные стратегии).

В процессе осуществления синхронного перевода корейские переводчики отдают предпочтения к таким стратегиям, как:

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy matnlar o'z ichiga mafkuraviy vazifani bajaruvchi emotsional bo'yoqdor leksik birliklarni qamrab oladi. Bunday leksik birliklar ijtimoiy-siyosiy leksika deb ataladi. Masalan, 两岸 关系 的 暖和, 新加坡, 泰国, 马拉斯亚 和 台湾 等 国家 和 地区 – liǎng àn guānxì de nuǎnhé, xīnjiāpō，tàiguómǎlāsīyà hé táiwān děng guójiā hé dìqu[123] O'zbek *tiliga "ikki qirg'oq o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirish, Singapur, Tayland, Malayziya va Tayvan kabi davlatlar"* deb tarjima qilingan.

Ikkinchidan, xitoy ijtimoiy-siyosiy matnlarida juda ko'p sonli maxsus siyosiy atamalar (termin), metafora va iboralar qo'llaniladi. Buning barchasi ijtimoiy-siyosiy terminologiya tushunchasi ostida birlashadi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya emotsional betaraf va siljimasdir. Terminologiya tushunchasi ostida jamoatchilik tafakkurida ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan tushunchalariga munosib so'z yoki so'z birikmalarini tushunamiz.

Xitoy Kommunistik Partiyasining 2017 yil 18–24 oktabr kunlari bo'lib o'tgan XIX Umumxitoy syezdidan so'ng, davlat siyosati matnlarida va XXRning taniqli siyosiy arboblari nutqlarida, 两个一 百年 – liǎng gè yī bǎi nián *"ikki yuz yillik"* kabi iboralar keng tarqaldi, bu o'rta jamiyatni qurish va

[120] Комиссаров В. Н. Теория перевода. – М. : Высш. шк., 1990.

[121] Занковец О. В. Особенности перевода общественно-политических текстов на лексическом уровне // Актуальные проблемы гуманитарного образования: материалы III Междунар. науч.-практ. конф., 20–21 окт. 2016 г. Минск. С. 261–266.

[122] http://naukarus.com/perevod-politicheskih-tekstov-s-russkogo-yazyka-na-kitayskiy-yazyk-problemy-strukturirovaniya-teksta

[123] Чжун Вэйхэ. Учебное пособие для подготовки переводчиков-синхронистов. Пекин: Пекин. ун-т иностр. яз., 2009.

XKP tashkil etilganligining yuz yilligi munosabati bilan sotsialistik modernizatsiyani amalga oshirishga qaratilgan siyosiy yo'nalishni bildiradi; 四个自信 – sìge zìxìn *"to'rt o'ziga bo'lgan ishonch"*, bu o'z yo'liga, nazariyasiga, siyosiy tizimiga va madaniyatiga bo'lgan ishonchni anglatadi;

三股势力，上海合作组织及相关国家所用术语，指在中亚地区的暴力恐怖势力（恐怖主义）、民族分裂势力（分裂主义）、宗教极端势力（极端主义[124]

"Uch kuch", bu atama Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va unga aloqador mamlakatlar tomonidan qo'llanilib kelinadi, zo'ravonlik bilan bog'liq terroristik kuchlar (terrorizm), etnik separatistik kuchlar (separatizm) va Markaziy Osiyodagi diniy ekstremistik kuchlar (ekstremizm) nazarda tutiladi. Bunday terminologik iboralar ro'yxati ayniqsa mamlakatdagi muhim siyosiy voqealardan so'ng doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Uchinchidan, xitoy ijtimoiy-siyosiy matnlarida ham turli xil qisqartmalar juda tez-tez ishlatiladi. Masalan, 两会 – liǎnghuì *"ikkita konferensiya"* Umumxitoy xalq vakillari yig'ilishi va Xitoy xalq siyosiy maslahat kengashiga ishora qiladi; 土改 tǔgai *iborasi "agrar islohot"* degan ma'noni anglatadi. Xitoylik siyosatchilarning chiqishlari matnlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, turlicha davlat boshqaruv tizimi nomlari ham ko'pincha qisqartiriladi, masalan 国家 发展 改革 委员会 guójiā fāzhǎn gǎigé wěi yuánhuì *"davlatni rivojlantirish va islohotlar qo'mitasi"* 国家 发改委 guójiā fāgǎiwěi ko'rinishida qisqartirildi.

Mamlakatdagi eng muhim siyosiy voqealardan biri – Xitoy Kompartiyasining Umumxitoy syezdi 共产党 全国 代表 大会 nomi odatda quyidagicha qisqartiriladi: syezdning tartibi yozilib, 大 da ieroglifi saqlanib qoladi:十九 大 shíjiǔdà *"XKPning XIX syezd*i"; 互相帮助 hùxiāng bāngzhù "o'zaro qo'llab quvvatlash 互助 hùzhù; 科学技术 kēxuéjìshù "ilm-fan va texnika" 科技 kējì ko'rinishida qisqartiriladi. [125]

To'rtinchidan, xitoy siyosatchilarining nutqlari boy turli xil frazeologik birliklarga boy (chengyu). Ijtimoiy-siyosiy matnlarda qo'llaniladigan ko'pgina frazeologik birliklar mavjud[126]. Masalan, qiánsuǒwèiyǒu *"misli ko'rilmagan"* 中国 的 经济 以 前所未有 的 速度 速度 向前 发展 *"Xitoy iqtisodiyoti misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda"*; Frazeologizm 息息相

[124] https://zh.wikipedia.org/wiki/%E4%B8%89%E8%82%A1%E5%8A%BF%E5%8A%9B
[125]Войцехович.И.В.Китайский_язык_Общественно_политический_перевод."Муравей'' Москва 2002
[126] Щичко В. Ф. Китайский язык: Теория и практика перевода. М. : Восточ. кн., 2010.

通 xīxīxiàngtōng *“Ajralmas aloqaga ega bo'lish”* ko'pincha ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash uchun ishlatiladi, masalan: 中国 梦 是同 世界人民的梦想 息息相通 *“Xitoy orzusi dunyo xalqlarining orzulari bilan chambarchas bog'liq*”.

Beshinchidan, xitoylik siyosatchilar o'z bayonotlarida maksimal darajada jonlilikka erishish uchun turli uslubiy texnikalar va nutq figuralari bo’lmish majoziy taqqoslash, metafora, giperbola va boshqa texnikalardan foydalanadilar. Ko'pincha xitoy xalqining nutq madaniyatida mustahkam o'rnashgan turli xil obrazli taqqoslashlar qo'llaniladi. Bu yerda Xitoy Xalq Respublikasining amaldagi raisi Si Tszinpinning turli uslubiy vositalarga boy nutqlaridan misollar keltirilgan:

我们要坚持改革开放正确方向， 敢于啃硬骨头， 敢于险滩， 既勇于冲破思想观念的障碍 *“Biz islohotlar va ochilishning siyosiy yo'nalishini davom ettirishimiz, qiyinchiliklarga dosh berish va tavakkal qilishdan qo'rqmasligimiz va mafkuraviy to'siqlarni jasorat bilany engib o'tishimiz kerak “.*

硬骨头 yìnggǔtóu so’z birikmasi kuchli, *“qattiq suyak”* mazkur kontekstda *"qiyinchilik, qiyin vazifa"* ma'nosida va 险滩 xiǎntān *"xavfli qum sohili"* so’z birikmasi *(tezkor oqimga ega daryolarda uchraydigan sayoz riflar)* yuqoridagi nutqda *“taraqqiyot yo'lidagi turli xil xavf omillar”* ni anglatadi[127] .

Va nihoyat, xitoy tilidagi ijtimoiy va siyosiy mavzulardagi matnlar juda ko'p venyanizmlar - Xitoy qadimiy adabiy tilining elementlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-siyosiy matnlarni tahlil qilish natijasida biz eng ko'p ishlatiladigan elementlarni aniqladik: 以 yi *"orqali, bilan":*

需要 以 中国 智慧 构建 国际 合作新 格局 *“Xitoy aql-idrokidan foydalangan holda xalqaro hamkorlikning yangi tizimini yaratish kerak”*;

所 suǒ “nmaiki”: 感谢 秘书长 所做 的 通报 “Bosh kotibga hisoboti uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman”; 之 zhī (aniqlovchi aniqlanmishdan ajratib turuvchi yordamchi so’z): 我国 拥有 甲天下 之 称 华丽 的 桂林 山水

“Bizning mamlakatimizda yer yuzidagi eng ajoyib bo’lmish, Guylin manzarasi mavjud”.

Shunday qilib, biz xitoy tilidagi ijtimoiy va siyosiy matnlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini aniqladik: ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiyadan foydalanish, qisqartmalar, frazeologizm, venyanizm va obrazli taqqoslashlar matnga yorqin hissiy rang berishga samarali ta’sir etadi. Xitoy tilidagi ijtimoiy-siyosiy matnlarni o’zbek

[127] 中国共产党新闻网 / Новостное агентство Коммунист. партии Китая. URL: http://cpc.people.com.cn/xuexi/n/2014/1126/c385475-26097088.html (дата обращения: 05.04.2018).

tiliga to'g'ri tarjima qilishni amalga oshirish uchun ana shu xususiyatlarni aniq idrok etish lozim. Ushbu maqola xitoy tilini o'rganayotgan talabalarga foydali bo'lishi bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy sohada faoliyat boshlagan xitoyshunos tarjimonlarga kelgusida O'zbekiston va Xitoy davatari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni yaada rivojlantirishga samarali xizmat qiladi deb umid qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. Kitob 7, – B 606.

2. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М. : Высш. шк., 1990.

3. Занковец О.В. Особенности перевода общественно-политических текстов на лексическом уровне // Актуальные проблемы гуманитарного образования: материалы III Междунар. науч.-практ. конф., 20–21 окт. 2016 г. – Минск. С. 261–266.

4. http://naukarus.com/perevod-politicheskih-tekstov-s-russkogo-yazyka-na-kitayskiy-yazyk-problemy-strukturirovaniya-teksta.

5. Чжун Вэйхэ. Учебное пособие для подготовки переводчиков-синхронистов. Пекин: Пекин. ун-т иностр. яз., 2009.

6.https://zh.wikipedia.org/wiki/%E4%B8%89%E8%82%A1%E5%8A%BF%E5%8A%9B.

7. Войцехович.И.В.Китайский_язык_Общественно_политический_перевод. "Муравей'' – Москва, 2002.

8. Щичко В. Ф. Китайский язык: Теория и практика перевода. – М. : Восточ. кн., 2010.

9. 中国共产党新闻网 / Новостное агентство Коммунист. партии Китая. URL: http://cpc.people.com.cn/xuexi/n/2014/1126/c385475-26097088.html (дата обращения: 05.04.2018).

YAPONIYADA SINXRON TARJIMA SOHASINING RIVOJLANISHIGA DOIR

***Samandar SHUKUROV**, TDShU, 2-bosqich magistranti*

Bugungi globallashuv zamonda xalqaro munosabatlarda har bir davlat o‘z tashqi munosabatlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda ham tashqi aloqalar hajmi ohirgi to‘rt yil mobaynida sezilarli darajada o‘sganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi qismidaki *“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot etkazish”*[1] bandida aynan bugungi shiddat bilan o‘sib borayotgan xalqaro munosabatlar zamirida yurtimizda olib borilayotgan tashqi siyosiy faoliyat belgilab ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan

tashqi aloqalar zamirida o‘sib kelayotgan yosh tarjimonlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortdi va ushbu sohada qilanadigan ishlar dolzarbligini oshirdi. O‘zbekiston tashqi siyosatda sharq davlatlaridaki rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lgan Yaponiya bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, turizm sohalarida aloqalarni chuqurlashtirishga e’tibor qaratmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi davomida O‘zbekiston va Yaponiya davlatlari o‘rtasidaki o‘zaro aloqalarida yangi davrni boshlab berdi. Shu bois yurtimizda yapon tilini o‘rganish jumladan, yapon og‘zaki tarjima sohasida ilmiy ishlarni olib borishni taqozo qilmoqda. Biz ushbu maqolada Yaponiyada og‘zaki tarjimaning eng murakkab yo‘nalishi bo‘lmish sinxron tarjima jarayoni tarixini umumiy rakursda ko‘rsatishga va bu jarayonlarning o‘ziga xosligini tadqiq etishni maqsad qildik.

Yapon tili, ehtimol dunyodagi eng qiziqarli va sirli tillardan biri sifatida ta’riflanadi. Tarjima sohasi yaponlarga birinchi ming yillikning boshidanoq tanish edi. III asrda xatto mamlakatning turli qismlarida yashovchi yaponlarning tarjimon vositachi xizmatisiz bir-biri bilan aloqa qila olmasligi ham ma’lum edi. Yaponiyada har bir mintaqa alohida o‘ziga xos etnik madaniyatga va shunga ko‘ra o‘z shevasiga ega edi. Yaponiyada paydo bo‘lgan ilk va mashhur tarjima agentligi “Atiki – no fumbito” edi. Ushbu qadimiy tarjima tashkilotining vazifalari orasida Xitoy va Koreyaning diplomatik xatlarini tarjima qilish va batafsil talqin qilish va “shirkat xodimlari” bo‘sh vaqtlarida g‘arbiy qo‘shnilarining ilmiy risolalarini ham yapon tiliga tarjima qilar edilar. Tarjimonlar asosan yozma tarjima bilan shug‘illangan, uzoq yillar davomida Yaponiyada yashagan Koreya va Xitoydan kelgan muhojirlar edi. Yaponiya imperatorlik sudida sud jarayonlarini tarjima qiluvchi og‘zaki tarjimonlar ham bor edi. Tarjimonlar yordamida xorijiy xabarlardan boxabar bo‘lish mumkin edi. V-VI asrlarda yapon yoshlari tarjimonlar bilan birga o‘zidan bilim jihatdan kuchliroq bo‘lgan qo‘shnisi Xitoyga barcha fanlarning sirini o‘rganish uchun yuborilgan ham edi. XVI asrning boshlarida Yaponiyaga yevropalik missionerlarning kirib borishi, bu hududda yevropa madaniyatining asta sekin paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ular Kyushyu oroliga joylashib, bir qator tarjima byurosi va kichik bosmaxonalarni tashkil etishdi. Yevropa tillaridan yapon tiliga birinchi tarjima asari Ezopning mashhur afsonalari edi. Muqaddas Kitob ham tarjima qilingan, lekin faqat alohida qismlarda. XVI asrning oxiriga kelib Yaponiyada chet elliklar bilan barcha aloqalar taqiqlandi va shunga ko‘ra tarjimonlar faoliyati to‘xtab qoldi. Yaponiya keyingi ikki asr davomida dunyodan butunlay ajralib qolgan kichik hududga aylandi. Faqatgina XVIII asrda mamlakatda xalqaro aloqalar qayta tiklandi. Yaponlarga hatto golland tilini o‘rganishga ham ruxsat berildi.

Og‘zaki tarjimaning eng murakkab shakli esa sinxron tarjimadir. Yapon tilidan ona tilimizga va aksincha ona tilimizdan yapon tiliga sinxron jarayoni ham murakkab jarayonlardandir. Sinxron tarjima jarayoni haqida yapon olimi T. Kitabayashi “ushbu tarjimada notiq va tarjimon o‘rtasidaki vaqt unchalik uzoq bo‘lmasa ham, tarjima so‘zma-so‘z nuqtama-nuqta amalga oshirilmaydi”[2, 168-169.] deya ta’kidlaydi. Aynan mana shu holat sinxron tarjimaning sifatini belgilab beruvchi omil desak adashmagan bo‘lamiz. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan tillar oilasi va ulardaki gap tuzulishi bir xil bo‘lgan tillarda sinxron tarjima jarayonini bir muncha osonroq ketishi kuzatiladi. Lekin ikki xil gap tuzulishiga ega bo‘lgan tillar(yapon-ingliz) da ushbu faoliyatni amalga oshirish haqiqiy san’at asari desak adashmagan bo‘lamiz. Sinxron tarjima maktabining yorqin namoyondalaridan bo‘lgan rus olimi G.V Chernov tarjimaning ushbu yo‘nalishi haqidaki fikriga ko‘ra, “Sinxron tarjimonlarning muvaffaqiyati bu konferensiya vaqtida ularga e’tibor berilmaganligidir” [3,4] deya ta’kidlaydi. Ushbu muvaffaqiyatni ta’minlash zamirida tarjimon mahorati, notiq hamda tarjimonning o‘zaro uyg‘unlashuvi talab etiladi.

Dunyo miqyosida birinchi sinxron tarjima amaliyoti ikkinchi jahon urushidan so‘ng (1945.10-1946.11) Germaniyada bo‘lib o‘tgan Nyurenberg xalqaro tribunal sudida amalga oshirilgani barchamizga ma’lumdir. Sinxron tarjima jarayoni juda murakkab amaliyot bo‘lanligi bois o‘sha vaqtlarda g‘arbda ushbu vazifani amalga oshirishga qodir tarjimonlar hamda maxsus moslamalar yetarli bo‘lmaydi. Nyurenberg xalqaro tribunal sudida yodda qolarli jihatlaridan yana biri, unda yigirma ikki yoshli Ramler ismli tarjimon nemis tilidan ingliz tiliga sinxron tarjimani amalga oshiradi [4, 8.]. Bu haqida yapon sinxron olimi Yasumase S “ラムラーさんはわずか 22 歳でこういう軍事裁判の通訳をすることになったわけですが、要するにほかに誰もできる人がいないわけで すね。彼は英語とドイツ語の両方とも堪能で、頭の回転も速い。軍事裁判についても多少の知識があった。そういうことで、とにかくやれということでやったそうです。(Janob Ramler ushbu tarjima sohasini amalga oshira oladigan boshqa tarjimon bo‘lmaganligi bois, yigirma ikki yoshida bu kabi harbiy sud jarayonida tarjimon sifatida ishtirok etgan. U Ingliz tili va nemis tillarida bilimga ega va miyya faoliyati tez ishlash qobilyatiga ega inson edi. Harbiy sud haqida ham tassavurga ega edi. Shu sababli ham u buyruqqa bo‘ysunib sinxron tarjimani mukammal tarzda amalga oshirgan.)” [5, 95] deya ta’kidlaydi. Aynan mana shu voqealikdan bilishimiz mumkinki, ushbu soha nisbatan yangi tarmoq bo‘lib, ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan davr mobaynida sinxron tarjima amaliyoti deyarli amalga oshirilmagan va bu davrgacha turli xalqaro konferensiyalarda tarjima jarayoniga juda ko‘p vaqt sarflanishiga sababchi bo‘lgan edi.

Yaponiya davlat nomini va nufuzini oshirish maqsadida dastlab radio orqali jonli effirlar, so‘ngra esa Yaponiyaning eng mashhur telekanali sanalmish NHK kanali orqali ushbu davlatda bo‘layotgan ichki hodisalarni sinxron tarjima usulida butun dunyoga ko‘rsatib borilgan. Shu tarzda Yaponiyada dastlabki sinxron tarjima amaliyoti XX asrning 60-yillariga borib taqaladi. 1969-yilda NASA tomonidan “Apalon 11” nomli raketaning oyga uchirilishi va unda insoniyat tarixida birinchi oyga qadam nomli voqeaning NHK kanali orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri effirga uzatilishi vaqtida ingliz tilidan yapon tiliga dastlabki sinxron tarjima faoliyati amalga oshirilgan[6, 95-96]. Nishiyama Sen ismli tarjimon o‘sha vaqtdaki Yaponiyada dastlabki sinxron tarjimani amalga oshirgan tarjimon bo‘lib, undaki birinchi tarjima jumlasi quyidagicha edi: …That’s one small step for (a) man これは人類にとって小さな一歩 ***Bu insoniyat uchun kichik qadam.*** Bu yerda yapon tilidaki jumla o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, Bu insoniyot uchun kichik bir qadam deya tushunishimiz mumkin. Lekin o‘sha vaqtdaki ushbu voqeaning naqadar hayajon bilan kuzatilgani bois yapon tilida amalga oshirilgan dastlabki sinxron tarjimada gap mazmuni ohirigacha eshitilmaganligi bois xatolikka yo‘l qo‘yiladi va bu NHK telekanalining kechki qayta dasturida to‘g‘irlangan shaklda effirga uzatiladi.

That’s one small step for (a) man one giant step for mankind. ひとりの人間にとっては小さな一歩だが、人類にとっては偉大 な飛躍 ***Bir inson uchun kichik qadam, lekin insoniyat uchun ulkan sakrash.***

Sinxron tarjimada gap tuzulishi turlicha bo‘lgan tillarda tarjimon nutqini to‘liq eshitilmaganligi aynan mana shu xatolikka olib kelgan deya aytishimiz mumkin. Shu voqeadan boshlab Yaponiyada sinxron tarjima amaliyotga tatbiq qilina boshlanib, 1990-yildaki Fors ko‘rfazi urushini CNN telekanali orqali ingliz tilidaki jonli efirni yapon tiliga sinxron tarjima qilish bilan ushbu tarjima yo‘nalishi Yaponiyada kengaya boshlaydi[7, 59-60.]. Sinxron tarjima jarayonini ingliz tilidan yapon tiliga amalga oshirilishda har bir jumla to‘liq tarjima qilish tarjima vaqtini bir muncha murakkablashishga olib keladi[8, 78-79.]. Shunday bo‘lsa ham notiqning nutqi va tarjima orasida qancha vaqt masofa bo‘lishi haqida aniq ma’lumot keltirilmagan. Shu sababli ham har bir yapon sinxron tarjimoni ingliz tilidaki jumlani o‘z uslubida yapon tili stilistikasiga moslashtirgan holda biroz kechikib tinglovchiga yetkazib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunga kelib Yaponiyaning turli nufuzli universitetlarida sinxron tarjima yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanib kelinmoqda. Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida milliy fondlar tomonidan turli uyushmalar ham tuzulgan bo‘lib, JAITS (The Japan Association for Interpreting and Translation Studies) kabilarni misol tariqasida ko‘rishimiz mumkin. Ilg‘or sinxron tarjimon deganda avvalambor,

amaliy tajribaga ega kadr tushuniladi. Chunki sinxron tarjima bu amaliyot deganidir. Yurtimizda hozirda sinxron tarjima amaliyoti borasida qisqa vaqt ichida yosh sinxron tarjimonlar faoliyatini rivojlantirish va tartibga solish maqsadida ushbu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda. Bu yutuqlarga o‘z yo‘li va usuliga ega Yaponiya tajribasini o‘zlashtirishimiz, O‘zbekistonda yapon tili sinxron tarjimashunoslik maktabini hosil bo‘lishida yuqoridaki singari tarjimonlar uyushmalari bilan hamkorlikda ko‘proq amaliy faoliyat olib borishimiz ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T, 2017.
2. T. Kitabayashi. 初めて学ぶ翻訳と通訳言語コミニケーション入門. – Japan, 1998. B 168-169.
3. Г.В Чернов. Теория и практика синхронова перевода. – Москва, 1978. – С. 4.
4. Yasumasa S. 同時通訳はなぜ可能なのか//同時通訳の認知・ 言語学的メカニズム. – Japan, 2012. B-95.
5. Ishiguro Yumiko. 日英放送通訳 歴史と現状. – Japan, 『通訳翻訳研究への招待』. No.20 2019.
6. Inao Kinuyo. 放送通訳の変遷と通訳・翻訳手法に関する考察 //ＣＮＮ二カ国語放送を例に. – Japan, 2003. B-59-60.

Nishio Michiko. 同時通訳の質の向上に資する言語表現について. – Journal of the Ochanomizu University English Society No. 1 (2010). B-78-79.

STEREOTIP VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O’RNI

***Nodir JO’RAYEV**, TDSHU 2-kurs magistranti*

XVII asr oxirida fransiyalik noshiri F.Dido[128] kitob nashriyotida vaqt, mehnat va narxni tejaydigan qurilmani ixtiro qildi. Ixtirodan oldin, har safar kitobning matni katta mablag’ sarflashga olib kelingan. Dido’nun yangi ijodiy qarori matn terishdan iborat bo’lib, undan so’ng ko'p sonli kitoblarni chop etishga imkon beruvchi metall plitalari chiqarildi. F. Dido o'zining ixtirosini - ***stereotip***: "***stereo***" - mustahkam "***tiroz***" – tasvir deb atadi. Stereotip zamonaviy dunyoda nimani anglatadi? 1922 yilda amerikalik bir publitsist Valter Lippmann[129] ijtimoiy muhitga "stereotip" tushunchasini

[128]Firmin Didot (fransuzcha: [fiʁmɛ̃ dido]; 1764 yil 14 aprel - 1836 yil 24 aprel) - fransuz noshir, o'ymakor va tip asoschisi.

[129]Valter Lippmann (1889 yil 23-sentyabr - 1974 yil 14-dekabr) amerikalik yozuvchi, muxbir va siyosiy sharhlovchi bo'lib, Sovuq urush tushunchasini birinchilardan bo'lib kiritgani bilan mashhur bo'lib, zamonaviy psixologik ma'noda "stereotip" atamasini kiritdi.

kiritdi va uning ma'nosini quyidagicha ta'rifladi: “Insonni soddalashtirmasdan haqiqiy dunyodagi barcha tasavvurlarni bilish qobiliyati. Biror kishi ochiq-oydin bilimlarga emas, balki boshqalar tomonidan tayyorlangan shablonlarga asoslangan holda: o'z qarindoshlari, tanishlar, tizim, davlatni qo'llab-quvvatlaydi”.

Ko’plab olimlar stereotip tushunchasini turlicha talqin qilishgan. Misol uchun: V.A. Rijkov[130] stereotipni "ma'lum bir etnosning kommunikativ birligi, ijtimoiy sanksiyalangan ehtiyojlarni haqiqiy taqdim etish orqali, shaxsning - ijtimoiylashgan shaxsning ongiga rag'batlantiruvchi tipik ta'sir ko'rsatishga qodir, unda munosib turtki yaratishga qodir" deb talqin qiladi. V.V. Krasnix[131] stereotipni “qat'iy aqliy rasm” deb hisoblaydi, bu inson ongida haqiqiy dunyoning” tipik “bo’lagi aks etishi natijasidir deb aytadi. O. A. Leontovich[132] “stereotiplar - bu turli toifadagi odamlarning soddalashtirilgan aqliy tasavvurlari, ular orasidagi o'xshashlik momentlarini bo'rttirib ko'rsatib, farqlarni inobatga olmaslikdir. Stereotiplash jamiyat va odamning statik ko'rinishini, inson shaxsiyatining o'ziga xosligini anglay olmaslik, barcha odamlarni cheklangan miqdordagi turlarga qisqartirish istagini, o'ziga xos xususiyatlar to'plamini o'z ichiga oladi”, - deb hisoblaydi. A.V. Pavlovskaya[133], shuningdek, stereotiplarning ijobiy rolini qayd etadi: “Stereotiplar odamga umuman olganda dunyo g’oyasini shakllantirishga, uning tor ijtimoiy, geografik va siyosiy dunyosidan chiqib ketishga imkon beradi”, deb aytadi.

E.I.Rogov [134] stereotipni “ma'lumotlarning yetishmasligi sharoitida hodisaning barqaror va shu bilan birga soddalashtirilgan tasviri”, deb ta’riflaydi. Aynan stereotiplar insonga o'zgaruvchan haqiqatga javob berish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishga, bilish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi deb talqin qiladi. Stereotiplash inson ongida doimiy va zaruriy jarayondir. Bizni o'rab turgan dunyo, uning barcha muammolari, voqealari va mo’jizalari haqida yolg’iz ma'lumot olishimizga qaraganda kattaroq va murakkabroqdir. Barchamiz har kuni ko'p miqdordagi maxfiy ma'lumotlarni uchratamiz, bu boshqalar ko'rgan va eshitgan narsalar natijasidir, restoranning yaxshi yoki yomonligi haqidagi ma'lumotlardan tortib, ma'lum joylarga sayohat qilishning yoqimsizligigacha….

[130] Рыжков В.А. Регулятивная функция стереотипов//Знаковые проблемы письменной коммуникации. Межвуз. сб. науч. трудов. Куйбышев, 1985. С. 15-21

[131] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М.:ИТДГК «Гнозис», 2002. 284 с

[132] Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: Монография. Москва: Гнозис, 2005. 352 с.

[133] Павловская А.В. Россия и Америка. Проблемы общения культур. М.,1998. С. 17.

[134] Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога (книга 1) Москва, ВЛАДОС, 1999

Garvard universiteti psixiatri va kommunikatsion loyihalar direktori Erik Jivianning fikricha, barcha insonlar ongida turli xil narsalarning, odamlarning va hattoki,geografik joylashuvlarning sxemalari va tasvirlarini chizishlari kerak, bu esa odamlarga turli xil sharoitlarda so'zlash qobiliyatini his qilishlariga yordam beradi. Ularning fikrlari bor va atrofdagi dunyoni yaxshi bilishadi. Ushbu dizayn va tasvirlarni har bir insonda yaratish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning aksariyati ommaviy axborot vositalari orqali olinishini hisobga olsak, shuning uchun ongimiz doimo media stereotiplari changalida qolishi tabiiy. Shunday qilib, reduksionistik jarayonda ong oddiy jumla yoki tushunchaga aylantirilishi mumkin bo'lgan turli xil tushuncha va hodisalarni aqliy stereotiplarga aylantiradi. Bizning atrofimizdagi dunyo haqidagi ko'plab hukmlarimiz bolalik haqidagi oldindan o'ylab topilgan tushunchalarga asoslangan. Vaqt o'tishi bilan biz biron bir narsadan tutun ko'tarilsa, uni issiq yoki yonayotgan deb ta'riflashimiz yoki sudralib yuruvchilar yoki hasharotlarni hiyla-nayrang yoki xavfli deb hisoblashimiz kerakligini bilib oldik. Stereotiplar ijobiy tajribalarni takrorlash bilan kuchaytiriladi va buzilishlarning misollarini ko'rmagunimizcha yoki turli xil stereotiplarga duch kelgunimizcha ularni inkor etishimiz dargumon. Ammo bu stereotip qanchalik to'g'ri?. Agar ommaviy axborot vositalari haqiqatni ma'lum bir tarzda namoyish etishni talab qilsa , uni vaqt o'tishi bilan turli xil usullar bilan takrorlasa, ular ushbu so’zlarni "stereotip" ga aylantirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari bizga ma'lum guruhlarni, o'ziga xosliklarni va vaziyatlarni tasavvur qilish usullarini o'rgatadi. Ushbu tasvirlarni odamlar bilan bog'lashda ular "stereotiplar" deb ta'riflanadi. Stereotipizatsiya - bu har safar kontseptsiya, shaxs yoki guruh haqida o'ylaganimizda, ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan stereotip darhol yodga tushib, atrofimizdagi odamlar va hodisalar haqidagi hukmlarimizga va qarorlarimizga ta'sir ko'rsatadigan bir shakl. Stereotiplarni shakllantirishdagi diqqatga sazovor joy "takrorlash" elementidir. Takrorlash xabarni oluvchini ongsiz ravishda umumlashtirishga olib keladi. "Tomoshabinlar ongida umumlashtirish ommaviy axborot vositalarining stereotiplarni shakllantirishdagi asosiy maqsadi. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarning ongida takrorlash va umumlashtirish orqali guruhning barcha a'zolarini qabul qiluvchilarning ongida bir xil shakllantiradi. Xuddi o'zini namoyon qilish tushunchasi ijobiy ham, salbiy ham emas; Stereotiplarni mustaqil ravishda baholab bo'lmaydi. Garchi stereotiplar ba'zan salbiy ta'sirga ega bo'lsa ham, biz dunyoqarashimiz ommaviy axborot stereotiplari mavjud bo'lmasdan to'liq emasligini qabul qilishimiz kerak. Ong osti filmlari va

teleseriallarda "Agar biz ota-onamizni ranjitgan bo'lsak, biz uning narxini to'laymiz" kabi mavzulardagi stereotiplar bizni ota-onamiz bilan, hatto ular stereotipli xatti-harakatlar bo'lsa ham, munosib tutishimizga olib keladi. Shaxslarda, ayniqsa o'spirinlarda vatanparvarlik va millatparvarlik stereotiplarini yaratish ham ijobiy stereotip sifatida qaraladi va deyarli barcha mamlakatlar har yili o'zlarining kino va televizion mahsulotlarida bir qancha vatanparvarlik stereotipik filmlarini va seriallarini suratga olishadi, shunda vatanparvarlarning avlodi ushbu stereotiplardan foydalanishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarida uxlashdan oldin tish tozalash stereotipini muntazam ravishda ko'rgan bola (ayniqsa, uning sevimli qahramoni shunday qilsa) tishlarini muntazam ravishda va ongsiz ravishda tozalaydi.

Stereotiplarning ijobiy misollaridan biri bu ommaviy axborot vositalarida giyohvandlikning namoyishi. Narkomanlar ko'pincha ommaviy axborot vositalarida iflos, kasal, oriq, moddiy qashshoqlik va kambag'al oilalar sifatlari bilan tasvirlanadi. Jamiyatning qolgan qismida esa, bu go'yo orqali giyohvandlikdan uzoq yurish haqidagi streotip kuchayadi va shakllanadi. Bu kabi stereotiplar hayotimizda ko’plab uchraydi. Xulosa qiladigan bo’lsak stereotiplar inson ijtimoiy hayotining ajralmas bolagi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. КрасныхВ.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М.:ИТДГК «Гнозис», 2002. 284 с

2. Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: Монография. Москва: Гнозис, 2005. 352 с.

3. Павловская А.В. Россия и Америка. Проблемы общения культур. М.,1998. С. 17.

4. Прохоров Ю.Е. Национальные социокультурные стереотипы речевого общения и их роль в обучении русскому языку иностранцев. М., 1996. С.21

5. Рыжков В.А. Регулятивная функция стереотипов//Знаковые проблемы письменной коммуникации. Межвуз. сб. науч. трудов. Куйбышев, 1985. С. 15-21

Internet saytlari:

6. Wikipediya.uz

7. http://farhang.blog.ir/

8. https://www.google.coمقاله+در+باره+کلیشه

NOTIQ NUTQIDAGI LEKSIK-FRAZELOGIK BIRLIKLARNING SINXRON TARJIMADA BERILISHI

***Oybek JUMABOYEV**, TDShU, 1-bosqich magistranti*

Globallashib borayotgan dunyoda, mamlakatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalar mustahkamlanib, davlatlar orasidagi integratsiya jarayonlari jadal suratlarda rivojlanib, turli darajadagi uchrashuvlar, xalqaro forumlar, anjumanlar avj olgan hozirgi zamonda xalqaro anjumanlar va ishtirokchilar orasida boʻladigan oʻzaro muloqotlar sirasida ogʻzaki tarjima, xususan sinxronist tarjimonlarga ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Bunda sinxronist-tarjimondan alohida masʼuliyat, alohida mavqeni egallash talab qilinadi.

Ushbu maqolada turk tilidan oʻzbek tiliga va aksincha sinxron va ketma-ket tarjimada notiq nutqidagi leksik-frazelogik birliklarning berilishi mavzusida muxtasar soʻz yuritiladi.

Maʼlumki, sinxron tarjima murakkablıkları tildan tilga oʻzgarib boradi. Oʻxshash grammatik tuzilishga ega boʻlgan qardosh tillarda ushbu jarayon birmuncha osonroq kechadi. Masalan, turk va oʻzbek tillarida gap qurilishi, morfologik tuzilish oʻxshashligi tarjimonga ancha qoʻl keladi. Tarjimon ish jarayonida notiq nutqidagi parchani (bir yoki bir necha jumla) u tugallanmasdan, kechikishlarsiz amalga oshirishi mumkin boʻladi. Aksincha, uzoq tillardan tarjima sirasida esa koʻpincha notiq nutqidagi gapning yakunlanishini kutish kerak boladi va bu, oʻz navbatida, sinxronistning nutqda kechikishiga sabab boʻlishi mumkin.

Endi, bevosita turk va oʻzbek tillari orasida qilinadigan sinxron tarjimada notiq nutqida qoʻllaniladigan frazeologik birliklar, maqol va iboralarni oʻgirish masalasiga kelinsa, bunday vaziyatlarda sinxronist bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday birliklarning manba tildan tarjima tiliga oʻgirilishi, tarjimondan alohida yondashuv, kerak boʻsa mahorat talab qiladi. Bundan tashqari, tarjimon har ikkala tilni yaxshi bilishi, ikki davlatning uzoq va yaqin tarixi, urf-odatlari, madaniyati, insonlarning hayot tarzi va boshqa jihatlarni soha mutaxassisi darajasida bilishi kerak boʻladi.

Sinxron tarjima jarayonida tarjimonning notiq fikrini oʻz vaqtida ilgʻay olmasligi tufayli manba jumlani toʻliq yetkazib berilmasligi notiq va auditoriya orasidagi faol muloqotning sustlashishi, hatto tushunmovchiliklar, turli koʻrinishdagi noqulay vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Misol tariqasida Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Tayyib Erdogʻonning 2018-yil 29-30 aprel kunlari Oʻzbekistonga davlat tashrifi si-

rasida O‘zbekiston-Turkiya tadbirkorlari forumida so‘zlagan nutqidan birga necha jumla va tarjimasini keltirish o‘rinli bo‘ladi:

TR Prezidenti: *Değerli katılımcılar, biliyorsunuz, Türkiye ekonomisi dünyanın en büyük 17., Avrupa'nın da en büyük 6. ekonomisidir. Gayri safi millı hasılamız son 15 yılda üç buçuk kata artarak, 11 000 ABD dolarına ulaşmıştır.*

Tarjimon, murakkab iqtisodiy atama va istilohlardan tashkil topgan ushbu jumlani to‘g’ri, ishonchli bera olgan: *Hurmatli ishtirokchilar, o‘zingiz bilasiz, Turkiya dunyoning 17- va Evropada 6 chi eng katta iqtisodiy o‘ringa ega o‘lkasi va yalpi ichki mahsulotimiz kishi boshiga 15 yilda uch yarim barobarga oshib 11 000 dollarga yetdi.* Yana bir misol:

TR Prezidenti: *Demek ki, bu alkışları hak ediyor ve dakikalarca bütün katılımcılar ayakta alkışlıyor, darısı başımıza.*

Ushbu jumlani tarjimon quyidagicha o‘giradi:*Demak bu olqishlarga loyiqki, siz daqiqalarcha butun ishtirokchilar oyoqda uni olqishladingiz.*

Tarjima sirasıda tarjimonni har doim ham muvaffaqiyat kutavermaydi. Masalan yuqoridagi misolda asliyat jumlasining umumiy mazmuni bera olingan, biroq manba tildagi “ayakta” – tik turgan holatda, “alkışlamak” – olqishlamoq, qarsak (chapak) chalmoq so‘zlaridan tarkib topgan “*ayakta alkışlamak*” birikmasini tarjimon “oyoqda olqishladingiz” shaklida so‘zma-so‘z o‘girib qo‘ygan. Ya’ni u asliyat uslubi ta’siriga tushgan. Uni “o‘rningizdan turib olqishlaganingiz” yoki “hozir siz olqishlagan...” shaklida berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Aslida notiq istirokchilarga qarata “Sizlar (Prezident Sh. Mirziyoyevni) bir necha daqiqa davomida o‘rningizdan turib olqishladingiz, hammaga shunday ehtirom nasib qilsin” demoqchi bo‘lgan. Tarjimon jumla so‘ngidagi “*darısı başımıza*” iborasini tarjima qilmay, tushirib qoldirgan. Holbuki, aynan o‘sha tushirib qoldirilgan “*darısı başımıza’* iborasi ishtirokchilarning o‘rinlaridan turib qarsak chalishlariga sabab bo‘lgan kalit so‘z hisoblanadi. Buning oqibatida turk tilini tushunmaydigan ishtirokchilar vaziyatni anglay olmay, bir necha soniya ikkilanib turgach, boshqalarga “ergashish”ga majbur bo‘lishganini ko‘rish mumkin[135].

Endi, tahlil qilinadigan bo‘lsa, ***darısı başımıza*** iborasiga lug‘atda quyidagicha izoh beriladi: *“Kavuştuğum başarı ve mutluluğa tüm dostlarımın da kavuşmasını isterim”*[136] (ma’nosi: Bunday muvafaqqiyat va baxt hammaga nasib etsin)[137].

---

[135] Tarjimon zalda paydo bo‘lgan muhitni sezgach, “*darısı başımıza*” iborasining tushirib qoldirgani to‘g‘ri ish bo‘maganini anlaydi.

[136] https://www.turkedebiyati.org/turkce-deyimler-sozlugu/5/

[137] “*Darısı başımıza*” (Büyük Türkçe-Rusça Sözlük.–M.: «Russkiy yazik», 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994.) iborasining kelib chiqishi quyidagicha: O‘tmishda, hatto hozirgi kunda ham ba’zi turkiy

Uchrashuv sirasida Turkiya Prezidenti Turkiyada futbolchilik faoliyatini olib borgan, hozirda O‘zbekistonda murabbiylik qilayotgan aka-uka Shota va Archil Arveladzelarni sahnaga taklif qiladi va shunday deydi: *Burada Şota ile Arçil de var. Şota gel bakalım, Arçil!* Tarjimon Shota va Archil so‘zlari ism ekanligini anglamasdan, “Archil”ni “achchiq” (acı) deb tarjima qiladi va qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yadi: *Bu yerda ozgina achchiq bilan haqiqat aralashgan. Ozgina hazil bilan haqiqat aralashtirib gapirdim.*

Tarjimon sahnaga Shota va Archil Arverladzelar kirib kelganini ko‘rgach esa o‘ta noqulay holatga tushadi[138]. Yana bir misol:

TR Prezidenti: *Özbek kardeşlerimizin bu başarılarını yakından takıp ediyoruz.* Tarjimasi: *O‘zbekistonlik qardoshlarimizning bu muvafaqqiyatlarini yaqindan qarab kelyapmiz. “Yakından takıp etmek”* birikmasining to‘g‘ri varianti “bir narsa yoki voqea-hodisani diqqat-e’tibor bilan davomli kuzatib bormoq”dir. Ammo tarjimon buni “shoshilinchda” “yaqindan qarab kelyapmiz” shaklida so‘zma-so‘z tarjima qilgan. Turkcha lug’atda “takip etmek” qo‘shma fe’liga quyidagicha izoh berilgan. Ma’nosi: kuzatmoq, birini ta’qib etmoq, ma’lum bir yo‘nalishda harakatlanmoq, bir narsani (masalan “Axborot” dasturini) muntazam ko‘rib bormoq, birining orqasidan ergashmoq” va b. Shuni hisobga olganda, notiq jumlasini “O‘zbek qardoshlarimizning muvafaqqiyatlarini muntazam kuzatib boryapmiz” shaklida tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Umuman olganda, tarjimonlar davlat darajasidagi rasmiy uchrashuvlarda turli nutq vaziyatlarini hisobga olishlari foydadan xoli bo‘lmaydi. Bu, o‘z navbatida, tarjimonning notiq so‘zlarini to‘g’ri o‘girish, hatto nutq ohangi, notiqning his-hayajonini ham imkon boricha ilg‘agan holda ish tutish, auditoriyani qiziqtirish mahoratiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Xulosa. global taraqqiyot jarayonida o‘zaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etar ekan, sinxron tarjima sirasida vaqtni tejash kerakligi inobatga olinsa, sinxron tarjimaga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. https://www.youtube.com/watch?v=mfj27H788ME**.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti R.T.Erdog’anning O‘zbekiston-Turkiya Biznes forumidagi chiqishlari.
2. https://www.turkedebiyati.org/turkce-deyimler-sozlugu/5/
3. **https://sozluk.gov.tr**
4. Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –M.: «Russkiy yazik», Multilingual. –İstanbul, 1995.

xalqlarda saqlanib qolgan odatga ko‘ra, yangi oila qurgan kelin va kuyuv hovliga kirganda ularning ustiga shirinliklar, tanga, bug’doy yoki tariq sochilgan. Shirinlik totli hayotni, tanga boylikni, bug’doy yoki tariq esa farovonlik ramzi hisoblangan *(Darısı başınıza, ben hayalimdeki üniversiteyi kazandım).*

[138] Yuqoridagi jumlaning so‘zma-so‘z tarjimasi quyidagicha: Shota va Archil ham shu yerda. Shota bu yoqqa kel, Archil, sen ham.

5. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük.–M.: «Russkiy yazik», 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994.

6. Ҳамидов Х.Х., Ҳасанова Ш.А., Русча синхрон таржима терминларининг ўзбекча изоҳли луғати. − Т., 2020. − 184 б.

7. Hamidov X., Ismatullayeva N., Ergasheva S.. Sinxron tarjima (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2020. – 140 b.

ARABCHA-O‘ZBEKCHA SINXRON TARJIMA KOMBINATSIYASIDA ISLOMIY ATAMALARNING BERILISHI

Shoxruh DJO‘RAEV, *TDSHU, 1-kurs magistranti*

Bugungi kunda hayotimizning turli sohalarida rivojlanish va tarq-qiyotni kuzatishimiz mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro konferen-siyalar va davlararo uchrashuvlar, jamiyatdagi barcha sohalarning rav-naqiga qaratilgan turli ilmiy-ma’rifiy anjumanlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Avvalo davlatlararo uchrashuvlar-u turli anjumanlarning yuqori sa-viyada o‘tishi, bir tomondan tarjimonning har tomonlama yuksak maho-rati bilan ham izohlanadi. Bas, shunday ekan, tajribali va o‘z kasbining ustasi - mahoratli ilmiy va amaliy ko‘nikmalarni o‘zida mujassam etgan tarjimon tayorlash, davr talabidir. Shu bilan birga, davlatimiz tomondan olib borilayot islohotlaridan ham bu sohaning qanchalar ahamiyatli ekan-ligini ko‘rishimiz mumkin.

Jamiyatimizda olib borilayotgan diniy- ma’rifiy ishlarga nazar tash-lar ekanmiz, bu sohada ham sezilarli darajad keng ko‘lamli islohotlar ja-miyatimizning ma’naviy hayoti ravnaqi qolaversa yosh avlodaning ma’-naviy kamolligiga erishish yo‘lida hukkumatiz tomonidan talaygina ish-lar amalga oshirilmoqda.

Xususan, muhtaram yurt boshimiz tashabbusi bilan yosh avlodni yana ham yetuk hamda diniy va dunyoviy bilimlarni egallashlari va yurti-mizda yetishib chiqqan buyuk islom olimlari, alloma va mutafakkirlari, jahon madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan ulug‘ bobakalonlarimizning ilmiy – ma’rifiy, islomiy meroslarini puxta va har tomonlama diqqat e’tibor bilan o‘rganish maqsadida, islom sivilizatsiya markazi va xalqaro

Imom Termiziy va Imom Buxoriy va markazlari ochilishi esa xal-qimiz uchun ulkan tarixiy bir yutuq bo‘ldi.

Yuqordida aytilgan oliy maqsadlarni amalga oshirish uchun esa, albatta, islomiy va ilmiy qo‘lyozmalarni tarjima qilish asosida biz bu beba-

ho merosimizni o‘rganamiz. Bu uchun diniy va dunyoviy bilimlarni egallagan bilimli va iqtidorli olimlaru ilmiy xodimlar va talabalar vazifasidir.

Arabiy, forsiy tillarda bitilgan bu asarlarni to‘g‘ri va har tomonlama tarjima qoidalariga muvofiq holda hamda xalqimiz madaniyatiga mos ravishda tarjima qilish va uni to‘g‘ri talqin qilib, xalqimizga yetqazish bir tomondan tarjimonlar zimmasiga yuklanadigan mas’uliyatli vazifa desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa, islomshunos va sharqshunos olimlari va shu soha vakillari ham o‘z bilimlari va qadrli vaqtlarni imkon darajada, bu kabi tarjima ishlarini amalga oshirishlari bir tomondan sharafli qolaversa, ulkan mas’ulitni taqozo qiladi.

Masalani ikkinchi tomoni yana shundaki, ilmiy-ma’rifiy va diniy anjuman va konferensiyalarda notiq, islomiy diniy mavzularda nutq qilganda, sinxron tarjimon o‘z tarjimasini maufaqqaqiyatli va tinglovchilarga tushunarli, mavzuni mazmunan, shaklan to‘g‘ri tarjima qilish dolzarb masaladir.

Bu kabi diniy ma’rifiy anjumanlarda sinxron tarjimon islomiy va diniy mavzularni to‘la-to‘kis va ifodali tarjima qilib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo‘lish va mavzuni to‘g‘ri yetqazilishi uchun avvalo tarjimonda lug‘aviy va shar’iy bilimi va tarjimon mahorati bilan birga tarjimon uchun ba’zi islomiy istiloh va atama hamda so‘zlarni bilishi va qolaversa, islomshunoslik sohasidan xabardor bo‘lishi, davr talabidir. Chunki, sinxron tarjimon - islomiy atama va so‘zlarni lug‘aviy ma’nosiga etibor berib, uning shar’iy ma’nosini bilmasligi notiq temasining ma’nosi buzilishiga olib keladi va tinglovchilarda noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ladi. Arab tilida ham boshqa tillar singari so‘zning ham lug‘aviy va istilohiy ma’nosi mavjud bo‘lib, ayniqsa, islomiy ilmlarda bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida ba’zi misollarni jadval tariqasida solishtiramiz:

Misollar	Lug‘aviy ma’nosi	Shar’iy ma’nosi
1. صلاة	Duo	Namoz
2. صوم	Tiyilish, saqlanish	Ro‘za
3. حج	Qasd qilish	Haj amalini bajarish
4. زكاة	Poklanish, ko‘payish	Zakot berish
5. حديث	Gap, so‘z	Rasulullohning aytgan hadislari

Islomiy istilohlarni tushinishlik ne chog‘lik zarur va muhimligi borasida yurtdoshimiz bo‘lmish Muhammad ibn Ahmad Ibn Yusuf Xo-

razmiy (387h) shunday deydi: “ Adab ilmida ko‘zga ko‘ringan adib agar ilmlar bobida tasnif qilingan kitoblarni ta’mmul qilsa-yu unda o‘sha ilmlar borasida (ularning istilohlarini bilmasa) unda hech narsani tushunmaydi.Bunga misol “raj’a” so‘zi.[139] biz Xorazmiyning misolini jadval tarzda beramiz:

Lug‘atshunoslar nazdida	Faqihlar nazdida	Kalom ilmida: Shia mazhabi e’tiqodi bo‘yicha		
الرجعة “raj’a”	*الرجعة* “raj’a	*الرجعة* “raj’a”		
Bir bora Qaytish, Chekinish	Boin bo‘lmagan taloqda qaytish	Imom vafotidan keyin dunyoga qaytishi		
	Izoh : Shariat istilohida taloq qilingan xotin bilan yana nikohlanish			

Muallifning “miftahul ulum “ deb nomlangan asarida bu kabi ma’lumotlrni ko‘plab uchratish mumkin.

Xulosa. Diniy ma’rifiy, islomiy anjumanlarda, notiq o‘zining diniy mazmundagi nutqida Qur’oni karim va hadisi- shariflardan misol keltirib izohlaydi va o‘z e’tiqodiy maslakidan kelib chiqib, uni talqin qiladi. Mana shu jaraayonda, sinxron tarjimon avvalo islomiy bilimlardan xabardor bo‘lishi kifoya qilibgina qolmay Qur’on va hadisiy so‘z va iboralarining ma’nosini va ba’zi bir islomiy atamalarning ma’nosini yetarlicha bilish zarurdir. Shuningdek, har bir islomiy atamani asliy manbasidan qidirib topish va iboraga to‘g‘ri ma’no berib tarjima qilish, sinxron mutarjim uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shiddat bilan, tez suratda o‘sib borayotgan bugungi kunimizda, sinxron tarjimonlardan ser qirra bo‘lishlari hamda madaniyatlararo muloqatlarga ham har tomonlama tayyor bo‘lishi, xulqi va o‘zini rasmiy o‘rinlarda tuta bilishi hamda o‘z sohasinigng yetuk mutaxassisi bo‘lish talab qilinadi. Sinxron tarjimon, tarjima faoliyati yanada samarali va ko‘zlangan maqsadga yetishish uchun siyociy, iqtisodiy yoki diniy ma’rifiy sohalarning birini tanlab, o‘z ustida ko‘proq ishlab, malakasini oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, har bir sohani puxta egallash hozirgi ilm va texnika rivojlangan vaqtda bir tomondan

[139] - Хоразмий., Мифтаҳул улум. – Байрут., дор ал-китабил арабий, 1989 й.

yengil bo‘lsa, ikkinchi tomondan ma’lumot va axborot bazasining ko‘-lami keng va o‘sib borayotgani tufayli muayyan bir sohani tanlab, o‘sha soha ustida, sinxron tarjima faoliyati bilan shug‘ullanish hukumatga ham tarjimon faoliyatiga qolaversa, anjuman ishtirokchilariga ham yuksak muvaffaqiyat olib keladi deb bilaman.

XITOYCHA-O‘ZBEKCHA SINXRON VA KETMA-KET TARJIMA QIYINCHILIKLARI

***Zahro NOMOZOVA**, TDShU, 1-bosqich magistranti*

Xitoy tili bugungi kunga kelib tobora ommalashib borayotgan tillar qatoridan o‘rin egallamoqda. Hech kimga sir emaski, hozirgi vaqtda xitoy tilida so‘zlashadiganlarning soni bir milliarddan oshadi, bu sayyoramiz aholisining oltidan bir qismini tashkil etadi. Ammo, bu tilni o‘rganishni istaganlar soni, afsuski, unchalik ko‘p emas. Ehtimol, bunga sabab nihoyatda murakkab iyerogliflardan tashkil topgan til tizimidir. Iyerogliflarning o‘ziga xosligi ham aynan murakkabligidadir. Birgina nuqta bilan butun boshli fikr, gap mazmuning o‘zgartirib yuborish hech gap emas. Biz tarjimonlarning asosiy vazifasi esa xitoy tilining nozik jihatlari, xususan, xitoy tilini o‘zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari bilan shug‘ullanishdan iborat. Xitoy tiliga yohud xitoy tilidan tarjima jarayonini amalga oshirish boshqa tillarga nisbatan qiyinchilik tug‘diradi. Bu muammoli vaziyatlar, asosan, quyidagilardan iborat:

Xitoy tili ohang tizimida tovushlar emas, balki intonatsiya eng muhim ro‘l o‘ynaydi. Shunday qilib, xitoy tilidagi har bir bo‘g‘inni to‘rt xil intonatsiya bilan talaffuz qilish mumkin va ularning ma‘nosi ba‘zi hollarda mutlaqo teskari tomonga o‘zgarib ketishiga ta’sir ko‘rsatadi[140]. Tarjimonlar uchun yana bir muammo – bu juda ko‘p bir xil tovushli so‘zlarning mavjudligi, ya‘ni omonimlar. Shuning uchun kontekstdan tashqarida olingan iborani to‘g‘ri tarjima qilish deyarli mumkin emas.

Xitoy tilidan tarjima qilishda yana bir muammo - tildagi lahjalarning ko‘pligi. Ba‘zida ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Ba‘zi viloyatlar aholisi bir-birini tushunishda qiynalishadi, ba‘zan esa mamlakatning bir mintaqa vakili boshqa birini mutlaqo tushunmaydi. Ushbu qiyin vaziyatni

[140] Riccardi A. Language-Specific Strategies in Simultaneous Interpreting. – Amsterdam, 1996 – P.101.

to‘g‘irlash uchun hukumat mamlakatning barcha fuqarolari gapira oladigan "putonghua" nomli yagona tilni tasdiqlashga qaror qilgan. Ushbu til ta‘lim muassasalarida o‘qitiladi, davlat muassasalarida qo‘llaniladi, barcha fuqarolar ushbu tilni bilishlari shart. Shunga qaramay, bu muammo to‘laqonli bartaraf etilgani yo‘q. Xitoy tilidagi yana bir o‘ziga xos xususiyat gaplarning tuzilishi bilan bog‘liq. Ya‘ni xitoy tilida gaplar ma’lum bir struktura formula asosida tuziladi. Bu esa o‘z navbatida tarjima jarayonida to‘siqqa uchrashga sabab bo‘ladi, tarjimon uchun qiyinchilik keltirib chiqaradi. Xitoy tilining yana bir qiyinchilik – tilda haqiqiy tarixiy qahramonlar va adabiy qahramonlar nomlaridan foydalanishga asoslangan, har xil so‘zlar va frazeologik birliklarning ko‘pligi. Shu sababli, sinxron tarjima paytida mutaxassis tarjimon kuchli zehnli, mukammal xotiraga ega va muzokaralar mavzudan yaxshi xabardor bo‘lgan bo‘lishi kerak, shunda sinxron tarjima paytida to‘liq matnni to‘g‘ri tarjima qilishga erishish mumkin.

Yaponiyalik xitoy tarjimon mutaxassisi Kunimoto Xayashi Xitoy tilidan yoki xitoy tiliga tarjimani amalga oshirishni bevosita madaniyat va qadriyatlar bilan bog‘laydi. Bunga sabab qilib xitoy tili va yozuvining aynan qadriyat va an‘analarga asoslanganini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra "madaniy qabul qilinish" tarjima kelajagi uchun kalit bo‘lib xizmat qiladi. u o‘z maqolasida “madaniy qabul qilish” o‘z o‘rnida xitoy tilida tiklayotgan, yoki, xitoy tilida nutq so‘zlayotgan vakillarda til va madaniyatdagi farqlardan xavotirlanmaslik hissiyotini paydo qilishi haqidagi qarashni bayon etadi[141].

Tilning asosiy materiali so‘zdir. Shuning uchun biron til haqida gap borganda tinglovchi nazarida birinchi navbatda o‘sha tilning so‘z boyligi gavdalanadi. Yozuvchi yoki shoirga nisbatan tarjimon uchun so‘z tanlashning mashaqqati yana ham ko‘proq. Chunki u biror matnni o‘z tiliga ag‘darar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so‘zlar orasidan o‘zi istaganlarini ishlata olmaydi. Tarjimon faqat ifodalangan fikrni boshqa tilga haqqoniy qayta tiklash doirasida so‘z tanlash erkinligiga ega. Uning mahorati ko‘pincha matnda aytilgan so‘zga ma’no tomondan teng keladigan so‘zni qay darajada topib ishlata bilishga bog‘liqdir[142].

So‘z tanlash muammosi tarjima oldida turgan eng katta muommolar safidan o‘rin egallaydi. Bu esa o‘z o‘rnida, ketma- ket va sinxron tarjimaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bu ikki yo‘nalish xizmat ko‘rsatish, texnik tayyorgarlik va ish jarayonini tashkil etishdagi murakkab-

---

141 通訳. その難しさと今後の展望ニーズが高ま. – る中国語翻訳, 2014 - 页.3.

142 Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan,1966. – P.163.

liklar bilan bir-biridan katta farq qiladi. So‘z tanlash jarayonida vaqt muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, ayniqsa, vaqt nihoyatta taqchil bo‘lgan sinxron va ketma- ket tarjima jarayonida bu nihoyatda muhim. Tarjima paytida so‘zni to‘g‘ri, aniq tanlash, shu jumladan, so‘z takroriga yo‘l qo‘ymagan holda tushunarli tarjima matnini yaratishda tilni yaxshi bilish darajasi ham katta ahamiyatga ega.

Yevropa tillaridan farqli o‘laroq, xitoy tili ko‘pchilik uchun kamroq tanish til hisoblanadi. Xitoy tili boshqa tillardan, asosan, harflar tizimiga ega emasligi bilan farq qiladi. Iyeroglifik yozuv xitoycha matnlarni nafaqat lug‘aviy, balki grammatik jihatdan tushunishda ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi[143]. Tabiiyki, tarjima qilish jarayonida so‘z tanlash bilan bog‘liq muammolar ham turlicha:

1. Agar tarjimon joy nomlari, tegishli ot, ismlar, atamalar duch kelsa, u xitoy tilida tarjimani amalga oshirishda qiyinchilikka duch keladi. Chunki ularga har tomonlama mos so‘z tanlash, ta’bir joiz bo‘lsa, iyerogliflarni tog‘ri tanlagan holda yo fonetik, yoki semantik tarjimani amalga oshirish, minglab iyerogliflar orasidan mos iyeroglifni tanlab olish lozim bo‘ladi. Xitoy tilida aynan iyerogliflar so‘zlarning maxsus guruhlarini tashkil qiladi, ular tashqi ko‘rinishi va fonemik ko‘rinishi jihatidan asl matndagi nom, ismga mos tushishi lozim. Sinxron yo ketma- ket tarjima paytida o‘zlashtirish jarayonidagi eng qiyin vazifa - har bir belgi va ifoda uchun mos keladigan “bo‘g‘inni” tezda topish. Tarjimon puxta tayyorgarlik ko‘rmasdan turib ish tutolmaydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday so‘zlar yoddan bilishi va aniq takrorlanishi kerak. Masalan: Abdulla Qahor- 阿卜杜拉·卡哈尔 (ā bǔdùlá kǎhāěr); “乌兹别克斯坦撒马尔罕（又译撒马尔干）是中亚最古老的城市之一，丝绸之路上重要的枢纽城市，有 2500 年的历史，为古代帖木尔帝国的首都” jumlada Samarqand 撒马尔罕（又译撒马尔干） (sǎ mǎ ěr hǎn yòu yì sǎ mǎ ěr gàn) shaklida fonetik tarjima qilingan. Yoki “Navro‘z ayyomi” so‘zining xitoy tiliga bir qancha fonetik tarjimalari mavjud ular orasidan esa muqobilini tanlab olish lozim bo‘ladi. Bular: “纳吾热孜” (nàwúrèzī), “诺鲁孜” (nuòlǔzī), “纳乌鲁兹” (nàwūlǔzī)

2. Raqamlarni tarjima qilish tarjimon uchun yana bir qiyin vazifadir. Albatta, agar bu raqamlar rus tili, ingliz tili va hatto, yapon tiliga va bu tillardan tarjima qilinsa, ehtimol, muammolar qatoriga qo‘yilmas edi. Biroq, xitoy tilida, ayniqsa, vaqtni tejash bilan bog‘liq tarjima sohasida bu aynan muammo. Xitoy va o‘zbek tillarida raqamlarni o‘qitish va ulardan foydalanish o‘rtasida katta farq bor. Tarjimon tarjimada raqamlarni qayta aytib berishi kerak. Xitoy tilida raqamlar har o‘nlar, yuzlar, minglar,

[143] Ismatullayeva N. Tarjima amaliyoti. O‘quv- uslubiy majmua. – Toshkent: ToshDShI, 2017. – B.9-11

o‘nminglar va yuzmillionlarda ajratilib hisoblanadi. Bu holda raqamlarni ajratish, bizning til kabi an’anaviy raqamlar ajratuvchi til egalariga qiyinchilik tug‘diradi. Ya’ni: 10 十; 100 一百; 1000 一千;10000 一万; 20000 两万; 1million 一百万 100million 一亿; 1milliard 十亿 .

40,001,000,000 qirq milliard bir million

400,0100,0000 四百亿一百万

Tarjimon tegishli birlikni eslab qolishi va tarjima paytida darhol hisoblab raqamlarni to‘g‘ri tarjima qilishi kerak.

3. Xitoy tiliga hisob so‘zlar tarjimasidagi so‘z tanlash muammosi. Xitoy tilida hisob so‘zlar muhim ahamiyatga egadirlar. Ba’zi xitoyshunoslar fikriga ko‘ra esa sizning qay darajada ko‘p hisob so‘zlarini bilishingiz va tog‘ri qo‘llay olishingiz sizning xitoy tili bilish darajangizdan dalolat beradi.

Xitoy tilida har bir narsa shakli, ko‘rinishi, vazifasiga qarab alohida hisob so‘zlarga ega bo‘ladi. Masalan: o‘zbek tilida 3 ta rasm, 3 ta qalam, 3 ta kompyuter so‘zlarining barchasiga bir xil ta hisob so‘zini ishlatish mumkin. Ular xitoy tiliga tarjima qilinganda esa har bir narsa o‘z hisob so‘zlari bilan birgalikda tarjima qilinishi lozim. Ya’ni: 三张照片(usti silliq, yassi buyumlar uchun hisob so‘z)，三支铅笔(qalam, ruchka,musiqa uchun hisob so‘z)，三台电脑 (kompyuter, televizor, texnika uchun hisob so‘z).

4. Xitoy va o‘zbek tillarida sinonimlardan to‘g‘ri foydalanish orqali so‘z tanlash. Xitoy tili sinonim ya’ni ma’nosh so‘zlarga nihoyatda boy tillar safiga kiradi. Biroq, bu sinonimlarning ishlatilish o‘rinlari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun: yordam bermoq fe’lining xitoy tilidagi tarjimalarni tahlil qilsak: 帮(bāng) biror ish bajarishda yordam berish；药(yào) dori, giyohning yordam berishi(foyda berishi)；接(jiē)，帮(bāng)（pul, moddiy tomondan yordam berish ）；辅(fǔ) yordamchi tomonidan yordam berilishi；自(zì) o‘z-o‘ziga yordam berish；辅(fǔ) davlat boshqaruvida yordam berish；互(hù) o‘zaro, bir-biriga yordam berish；救(jiù) qurbonlarga yordam berish; 成(chéng) kimgadir maqsadga erishishi, vazifasini yakunlashi uchun yordam berish. Bu so‘zlar o‘zaro sinonim hisoblanib bir-birining o‘rnida qo‘llanila olmaydi.

Shu sababli, izchil yoki ketma ket tarjima jarayonida ulardan tezda hamda o‘rinli foydalanish uchun bu sinonimlarni so‘z birikmasi shaklida yodda saqlash va kerak fursatda foydalanish tarjima sifatini yanada yaxshilashga, shu bilan birga, bexato tarjima yaratishga xizmat qiladi.

5. Shakldosh so‘zlarni tog‘ri tarjima qilishdagi so‘z tanlash muammosi. Xitoy tili dunyoda omonim so‘zlarga juda boyligi bilan ma’lum va

mashhur. Hech qaysi tilda xitoy tilichalik ko‘p shakldosh so‘zlar mavjud emas. Bu esa tarjimada, asosan, og‘zaki tarjimada so‘z tanlash jarayonida katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarmay qolmaydi. Misol sifatida “shi” so‘zini olsak bu so‘z o‘ndan ortiq omonimlik xususiyatiga ega, ya’ni, 是(shì bo‘lmoq）；十(shí o‘n) ；时 (shí vaqt)；事 (shì ish,hodisa)；使 (shǐ imkon bermoq, majbur qilmoq)；市 (shì shahar)；式 (shì sinab ko‘rmoq)；石 (shí tosh)；师(shī ustoz,master) ；室(shì xona, ofis) ；诗 (shī she’r)；食 (shí ovqat,yemoq) ；视 (shì qaramoq)；尸(shī murda)；拾 (shí ko‘tarmoq,tozalamoq)；失 (shī yo‘qotmoq)；施 (shī bermoq)；(shǐ bilmoq）；驶 (shǐ boshqarmoq)；释 (shì tushuntirmoq) bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Tarjima jarayonida bunday omonimlarga duch kelinganda matn mavzusi, mazmuni va ergashib kelingan so‘zga ahamiyat bergan holda tarjimani amalga oshirish kerak bo‘ladi.

O‘zbek va Xitoy tillari tafovutlarni o‘rganish bizning fikrlarimizni rivojlantirishga va turli xil imkoniyatlarni keltirib chiqarishga sharoit yaratadi. Bu imkoniyatlar odamlarga kelajakda tarjima qilishda ko‘proq narsaga ega bo‘lishga yordam beradi. Tarjimaning mohiyatini tushunishga yordam berish – madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish, tarjimaning amaliy tajribasini umumlashtirish va mutarjim duch kelgan muammolarni tahlil qilishni o‘rgatishdir.

Yetuk o‘zbek tarjimashunos olimi Ibrohim G‘ofurov tajimonlarga shunday ta’rif beradi: “…xalqaro va davlatlararo anjumanlarda tarjimonning mehnati katta ahamiyatga ega shu ma’noda tarjimon, ta’bir joiz bo‘lsa, elchining yonidagi elchi, diplomatning yonidagi diplomat, siyosatchining yonidagi siyosatchi, adibning yonidagi adibdir. Tarjimon so‘zlar va fikrlarni shunchaki hijjalab o‘girish bilan cheklanmaydi. Bu so‘zlar tagidagi ma’nolar, tarixlar, muddaolarning mag‘zini chaqadi… [144] ” Sinxron tarjima tarjimondan juda katta bilim, madaniyat zakovat va fikrni tez ilg‘ab, uni ravshan ifodalaydigan so‘z topishni talab qiladi. Har bir tarjimon tarjima jarayoniga kirishdan oldin ham ruhan ham jismonan tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. G‘ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish – Toshkent, 2008
2. 通訳. その難しさと今後の展望ニーズが高ま. – る中国語翻訳, 2014
3. Riccardi A. Language-Specific Strategies in Simultaneous Interpreting. – Amsterdam, 1996
4. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan,1966

[144] G‘ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish – Toshkent, 2008. – B.8.

5. Ismatullayeva N. Tarjima amaliyoti. O‘quv- uslubiy majmua. – Toshkent: ToshDShI, 2017

XITOYCHADAN OG‘ZAKI TARJIMADA XUSHMUOMALALIKNING IFODA ETILISHI

***Ja’farxon MIRZOKIROV**, TDSHU, 1-bisqich magistranti*

Xitoy tilidan og‘zaki tarjimada suhbatdoshlar orasidagi xushmuomalalik asosida o‘rnatilgan munosabatni ona tilimizda qayta ifodalash talay murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, xushmuomalalik ma’lum urf-odatlar ta’siri ostida muloqot sirasida shakllangan o‘zaro hurmat vositasidir.Ayniqsa o‘zbekona andisha, muomala qadimdan yetkachi o‘rin egallab kelmoqda.Shu asnoda qadimgi Xitoyda ham odob-axloq normalari hukmron sinflar va oddiy odamlar o‘rtasidagi muvozanatli munosabatni saqlashga yordam bergan. Faylasuf Sun Zi fikricha: „Nutq etikasi jamiyat poydevori bo‘lib xizmat qiladi”[145]. Xushmuomalalik qadimgi Xitoy falsafasining muhim qismidir. Miloddan avvalgi V asrning boshlarida Yi Li, Jou Li va Li Zi kabi mashhur kitoblari yaratilgan bo‘lib, unda odamlarga odob-axloq qoidalarini qanday o‘rgatish ko‘rsatib berilgan. Xitoyning kommunikativ madaniyati buyuk xitoy faylasufi va ma'rifatchisi Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Konfutsiyning ta’limotiga ko‘ra, dono kishi nutq axloq qoidalarga muvofiq yashashi kerak. Konfutsiyning ko‘plab qarashlari bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.Shu asnoda Konfutsiyning buyuk asarlaridan biri “论语 Lun Yuy” ya’ni “Suhbat va mulohazalar” asarida nutq axloqi va uning jamiyatdagi ahamiyati haqidagi fikrlar keltirib o‘tilgan.

“Murojaat, N.I.Formanovskaya fikricha, eng yorqin va ko‘p ishlatiladigan etiket belgisidir.Ayrim murojaatlarda atash, tinglovchi e’tiborini so'zlovchi gapiga qaratish vazifalari bilan birga, baholash vazifasi ham bo‘ladi”[146]. Bunday murojaatlar baholash so‘zlari, birikmalari, ma’lum baholash vositalari bilan yoki baholash ma’nosini ifodalovchi sifatlarning otlashgan shakllari bilan keladi: “Hurmatli Botir Nosirovich”, “Ahmadjon , shu yerdamisiz?” ushbu gaplarning o‘zbek tilidan tiliga so‘zma – so‘z tarjima usulida xitoy tiliga quyidagicha:“尊敬的 Botir Nosirovich”zun jing de

[145] Юй Цзямин. Лингвокультурологический аспект обучения китайских студентов этикетным нормам русского речевого поведения. —2011.—Санкт-Петербург С.51.
[146] International Journal of Word Art.—Tashkent: Crossref, 2019 —B. 52.

Botir Nosirovich, “亲爱的 Ahmad 你在这里吗?” qin ai de Ahmad ni zai zhe li ma koʻrinishda tarjima qilinadi.

Murojaat orqali soʻzlovchi tinglovchiga ijobiy munosabat ifodalashi mumkin, bunda soʻzlovchining maqsadlaridan biri tinglovchiga ta’sir oʻtkazishdir. Buni quyidagi ikki misolda yaqqol koʻrish mumkin: Erkin, mana buni koʻtarishib yubor, xitoy tilida: “Erkin, 帮助我把这个东西抬起来 Erkin bangzhu wo ba zhege dong xi tai qi lai.” Erkinjon , mana buni koʻtarishib yubor. “请 Erkin, 帮助我把这个东西抬起” Qing Erkin bangzhu wo ba zhege dong xi tai qi lai.

Iltifot va hurmatni ifodalovchi murojaatlar odatda yuqori lavozimli shxslarga, hurmatli kishilarga , chet el fuqarolariga murojaat qilinganda ishlatiladi va bunda murojaat muayyan so’zlar , morfemalar bilan keladi: Muhtaram, hurmatli , janob , xonim, aka, opa, -jon kabilar xitoy tilida “亲爱的” “qin aide”, “先生” xian sheng, “诸君”zhu jun, “尊敬的” zun jing de , “太太” taitai tarzida namoyon etiladi. Bundan koʻrinib tribdiki, ikki tildagi bu ekvivalent murojaatlar bir-biridan strukturasi, semantikasi va ishlatilishi boʻyicha farq qiladi. Semantik farqlanish madaniyat bo’yicha lingvomadaniy farqni ham o’z ichiga oladi.

Iltimos muloqatda vaziyatga koʻra qoʻllaniladigan nutqiy etiket birligi boʻlib, asosan murojaatdan keyin keladi. Murojaat+iltimos. Masalan: “亲爱的同胞！请你保护自己和家庭”[147]. Qin aide tongbaomen ingni baohu ziji he jiating Aziz vatandoshlar ! Oʻzingizni va oilangizni asrang. Izlanishlar shuni koʻrsatadiki, xizmat xatlarda nutqiy etiket formulalari murojaatlar, minnatdorchilik bildirish , iltimoslar quyidagi kabi yasaladi:

“亲爱的同胞们！愿 2020 年，我们每个家庭，我们整个国家和平安宁、幸福安康和万事如意！”[148]. Aziz yurtdoshlarim, qadrdonlarim! 2020 –yil har bir oila, har qaysi xonadonga qut-baraka, baxt va omad olib kelsin! Doʻstona turdagi notalar hurmatni ifodalovchi soʻzlar bilan boshlanadi: Sizga hurmat bilan shuni ma’lum qilamanki…;Kamoli ehtirom ila…’’, Sizga chuqur hurmat bilan … kabilar shular sirasidan.

Har ikkala millat doirasida ota-ona farzandalariga ismi yoki oʻgʻlim, qizim, novvotim, shakarim, asalim soʻzlarini ishlatgan holda murojaat qiladilar. Biz tarjimshunoslikning ekvivalentlik tamoyiliga asoslanib xitoy tiliga “亲爱的儿子 oʻgʻlim’’, “亲爱的女儿–qizim ’’, “亲爱的– asalim’’, “可爱的-shakarim’’, “亲爱的-qadrdonim’’tarzida tarjima qilishimiz mumkin.

[147] 乌兹别克斯坦总统**沙夫卡特·米尔济约耶夫**发表 2020 **新年**贺词 2019 **年**.页 1

[148] 乌兹别克斯坦总统**沙夫卡特·米尔济约耶夫**发表 2020 **新年**贺词 2019 **年**.页 4

Tilshunos Gu Yuego nuqtai nazarida Xitoy mamlakatida xushmuomalalik qoidalari quyidagi printsiplarga asoslanadi[149]:

1.O‘zingni kamtar bil boshqalarga hurmat qil tamoyili. Suhbatda takabburlik qilishning hojati yo‘q, o‘zingizni yaxshiroq va muhim suhbatdosh deb biling.

2. Murojaat tamoyili. Bunda so‘zlovchi tinglovchining yoshi, mavqei, ijtimoiy mavqei va boshqalarni hisobga olgan holda murojat qilishi kerak. Ushbu tamoyil xitoy madaniyatida xushmuomalalikning ifodasidir va jamiyatdagi odamlarning bir-biri bilan munosabatlarini ifoda etadi.

3.Tarbiyaviy tamoyil. Suhbatda qo‘pol, ma’nosiz so‘zlar va iboralarni ishlatishdan qochish kerak.

4.Uyg‘unlik tamoyili. Suhbatdoshlar har doim ba’zi munozarali masalalarda murosaga yoki hamfikrlikka intilishlari kerak.

O‘bekiston va Xitoyda muloqot standartlarining lingvulturologik rivojlanishi nafaqat o‘xshashliklarni, balki xitoy va o‘zbek madaniyatidagi odob-axloq qoidalari o‘rtasidagi farqlarni ham o‘rganishni talab qiladi. Quyida biz bir necha turli jihatlarini ko’rib chiqamiz.

1.Xitoyliklar xushmuomalalik va hurmatni namoyish qilish uchun uchrashgan vaqtda suhbatdoshning qo‘lini uzoq vaqt ushlab turishadi, o‘zbek xalqi muloqotda esa yosh kattalarga hurmat sifatida qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib turishadi.

“有个季才, 一天正在读书, 听见有人敲门, 开门一看, 是个老头. 这老头的打扮好象古人的样子. 请进来后, 老头自我 介绍: “我性胡, 是胡仙. 听说你读书多, 想跟你谈谈”.[150] (you ge li cai, yi tian zheng zai du shu, ting jian you ren qiao men,kai men yi kan, shi ge lao tou. Zhe lao tou de da fen hao xiang gu ren de yang zi. Qing jin lai hou, lao tou zi wo jie shao: “wo xing hu, shi hu xian. Ting shuo ni du shu duo, xiang gen ni tan tan”)

So‘zma-so‘z tarjimasi: “Bir olim bo‘lgan ekan. U bir kuni kitob o‘qib o‘tirgan vaqtda, kimdir eshik taqillatganini eshitdi, eshikni ochib qarasa, bir qariya ekan. Bu qariya eskicha (avvalgi odamlardek) kiyingan (yoki, eski davrlardagi kishilar ko‘rinishida) kiyimlar kiiyinib olgan edi. Uyga taklif qilgandan keyin, qariya o‘zini tanishtiribdi: Mening familiyam Hu, Hu Sianman. Eshitishimcha sen juda ko‘p kitob o‘qir ekansan, sen bilan suhbatlashishni xohlayman.”

2. Xitoyliklar bir-birlarini uchratgan vaqtida doim jilmayib qo’yishadi. Ba’zida o‘zbeklar xitoyliklar hamshaharlari bilan tasodifan uchrashib qolsa ham nima uchun har doim yuzlarida tabassum bilan salomlashishlarini

[149] Patrick Wallace. Etiquette guide to China.—Shanghai: Oxford university press,2016 p77-78.

[150] 松龄 ,,聊斋志异” 北京：2001 年.10.页

tushunmaydilar. Tabassum bilan xitoyliklar suhbatdoshga nima deyishlaridan qat‘iy nazar, bo‘lajak suhbat uchun yaxshi zamin yaratadilar.

3. Suhbatdosh bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish uchun xitoyliklar suhbatdoshlarining lavozimini qo‘shadilar (masalan, direktor, o‘qituvchi, xo‘jayin, shifokor, muhandis va boshqalar). O‘zbek tilida esa to'g'ridan-to‘g‘ri ismga hurmat ifodalovchi qo‘shimchalar “-aka” yoki “-opa” qo‘shiladi. Shu vositlar orqali suhbatdoshning ongida yaxshi taasurot qoldiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Patrick Wallace. Etiquette guide to China.—Shanghai: Oxford university press,2016 p77-78.
2. International Journal of Word Art.—Tashkent: Crossref, 2019 —B. 52
3. 曹雪芹.《红楼梦》. - 北京, 2000 年. 45 页
4. 松龄 ,,聊斋志异” 北京：2001 年.10.页
5. Юй Цзямин. Лингвокультурологический аспект обучения китайских студентов этикетным нормам русского речевого поведения. —2011.—Санкт-Петербург С.51.
6. Chungeng Zhu Yan Gao. A chinese grammar for english speakers.—Peking: Peking university press,2012.
7. Robert A. Chinese business etiquette. —NewYork:invention press,2014.

О НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В.Н.КОМИССАРОВА

***Хадича ОРИФЖАНОВА**, ТГУВ, студентка 4- курса*

Имя выдающегося специалиста в области теории перевода и методики обучения переводчиков – переводоведения, ведущего представителя школы лингвистической теории перевода, автора более 10 книг и 80 научных статей по проблемам теории перевода, семасиологии и английского языка Вилена Наумовича Комиссарова хорошо известно теоретикам и практикам перевода, как в России, так и за её пределами.

Первая научная статья Вилена Наумовича «О методике преподавания переводческих приемов» (1956), написанная в русле теории закономерных соответствий. В 1960 г. выходит в свет основательный учебник в твердом переплете (скромно именуемый «пособием») по переводу с английского языка на русский, соавтором которого он стал наряду с Я.И.Рецкером и В.И.Тарховым. В 1957 г., во время проведения Всемирного фестиваля молодежи и студентов в Москве, благодаря случайности ему представилась возможность попробовать себя и в синхронном переводе. Эта проба сил оказалась успешной: с

тех пор и до самых преклонных лет Вилен Наумович оставался практикующим синхронистом.

В 1960-1966 гг. он преподавал в Военно-политической академии и продолжал заниматься наукой, хотя в тот период его научные интересы еще не полностью сосредоточились на проблемах перевода. Он пишет кандидатскую диссертацию на тему о семантике антонимов (1962) и по ее материалам выпускает небольшой словарь антонимов английского языка (1964). В течение полувека занимался исследованиями переводческой деятельности, преподаванием теории (в частности, преподавал общую теорию перевода на переводческом факультете МГЛУ) и практики устного (последовательного и синхронного) и письменного перевода. Его выдающийся вклад в переводоведение позволил считать его одним из основателей отечественного направления этой науки.

Им опубликовано свыше 100 научных работ и учебников, среди которых такие неоднократно переиздававшиеся книги, как «Слово о переводе» (1973), «Лингвистика перевода» (1980), «Теория перевода» (1990), «Естественность художественного перевода» (1991), «Теоретические основы методики обучения переводу» (1997), «Общая теория перевода» (1999), «Современное переводоведение. Курс лекций» (1999-2000), «Лингвистическое переводоведение в России. Учебное пособие» (2002), «Современное переводоведение. Учебное пособие» (2004); посмертно выпущен сборник «Переводческие исследования. Избранные статьи 1968-2005» (2020).

Книга В.Н.Комиссарова «Слово о переводе» – итоговый и, пожалуй, важнейший труд лидера и одного из основоположников отечественной теории перевода. Надо сказать, что по своему стилю эта первая монография В.Н.Комиссарова значительно отличалась от трудов его коллег. Если книги «Язык и перевод» Л.С.Бархударова, «Перевод и лингвистика» А.Д.Швейцера и «Теория перевода и переводческая практика» Я.И.Рецкера написаны доступным и подчас популярным языком, то комиссаровское «Слово о переводе» требует при чтении гораздо большего напряжения. В ней много конкретных и интересных примеров, но теоретическая концепция, которую они иллюстрируют, излагается на весьма высоком уровне научной абстракции в довольно сухой и строгой манере. В.Н. Комиссаров изложил в этом труде свою теорию перевода, выстроенную на новаторском учении об уровнях эквивалентности. Эту теорию он уточнял и шлифовал и в позднейших монографиях.

Многие зарубежные авторы - как до, так и после «Слова о переводе» – рассматривали эквивалентность перевода оригиналу в сугубо дихотомическом ключе. Ю.Найда в книге «К науке переводить» (1964) противопоставил формальную и динамическую эквивалентность. Аналогичного подхода придерживался Дж. Кэтфорд в монографии «Лингвистическая теория перевода» (1967), различая «связанный» и «несвязанный» перевод. Дж. Ньюмарк в книге «Подступы к переводу» (1981) подразделил эквивалентность на семанттическую и коммуникативную, и одновременно с ним хорватский переводовед В. Ивир противопоставил «соответствие» и «переводческую эквивалентность».

Посмотрим, как подошел к изучению эквивалентности В.Н. Комиссаров. Во-первых, эквивалентность перевода была описана им не как результат борьбы между противоречащими друг другу альтернативными вариантами, а как целостное понятие, связанное с передачей сложного содержательного комплекса, образуемого иерархическим наслоением смысловых уровней. Во-вторых, он сумел «оторвать» уровни эквивалентности от традиционных уровней анализа текста: уровней слова, словосочетания, предложения и т.д. Это было важно сделать, так как привычная «грамматическая» схема не давала возможности выйти на всю глубину содержательной структуры текста. В «Слове о переводе» дано совершенно оригинальное определение пяти уровней эквивалентности перевода: это уровень языковых знаков, уровень высказывания, уровень (структуры) сообщения, уровень описания ситуации и уровень цели коммуникации. В дальнейшем В.Н. Комиссаров внес некоторые модификации в названия и определения уровней эквивалентности, но суть его концепции не изменилась. В-третьих, он определил задачу переводчика не в виде поэтичной, но малопрактичной формулы отказа от «буквы» в пользу «духа» подлинника, а в виде требования обеспечить эквивалентность на максимально возможном числе из этих объективно выделяемых уровней, начиная с высшего уровня – уровня цели коммуникации. Работа переводчика оказалась описана более приземленно, но и гораздо более продуктивно, поскольку получила опору в виде более ясных принципов анализа плана содержания текста и четких правил сопоставления оригинала и перевода на основании, отсутствовавших прежде объективных критериев.

Таким образом, В.Н.Комиссаров укрепил фундамент лингвистической теории перевода как дисциплины, стоящей на собственной точке зрения, пользующейся собственным научным аппаратом и

имеющей собственную методологию, поскольку именно его концепция уровней эквивалентности смогла обрести статус методологической основы как науки о переводе, так и практики перевода.

Помимо методологии, теория иерархических уровней эквивалентности дала лингвистической теории перевода и новую общеконцептуальную базу, более полно и подробно описав процесс перевода как итеративный процесс, предполагающий проверку отношений эквивалентности на различных уровнях и в масштабах всей их иерархии. Она восполнила ряд пробелов денотативной и трансформационной моделей перевода и явилась крупным шагом вперед по сравнению с ними. Одним из ценнейших достижений является разграничение двух уровней ситуативного смысла - уровня идентификации ситуации и уровня способа описания ситуации (первоначальный термин - уровень сообщения), более глубоко и точно раскрывающее основания и механизм многих случаев «отхода от текста» переводчиком.

Нужно признать, что теория уровней эквивалентности В.Н. Комиссарова была не в полной мере оценена зарубежными переводоведами. Точнее сказать, они оказались недостаточно знакомы с ней – как, к сожалению, и с большей частью других теоретических работ, опубликованных не на английском языке. Если бы «Слово о переводе» было в свое время переведено на английский, то и подходы к исследованию эквивалентности в мировом переводоведении были бы менее противоречивы и, возможно, не дошли бы до такой крайности, как полное отрицание теоретической значимости этого понятия.

И все же именно Вилен Наумович Комиссаров получил наибольшее признание на Западе среди российских теоретиков перевода, стал для него лицом российского переводоведения. Этому способствовали в первую очередь его собственные публикации на английском языке в международных переводоведческих журналах *Babel, Target, Meta*, сборниках научных трудов, издаваемых в Германии, США, Великобритании, Италии, выступления В.Н.Комиссарова на конференциях Международной федерации письменных переводчиков (FIT), его лекции в университетах США и Финляндии. Нужно отдать должное и усилиям болгарских коллег, хорошо знакомых с исследованиями российских ученых: они не только часто ссылаются на них в своих трудах, но и перевели на английский язык некоторые важные фрагменты их работ, включая и работы В.Н. Комиссарова.

На основании проведенного исследования можно подвести краткие итоги научной и трудовой деятельности В. Н. Комиссарова. Итак, научная деятельность В. Н. Комиссарова начинается с первой научной статьи «О методике преподавания переводческих приемов» (1956), которая была написана согласно теории закономерных соответствий. Уже в 1960 году было опубликовано учебник-пособие по переводу с английского на русский, составленный В. Н. Комиссаровым в соавторстве с Я.И.Рецкером и В.И.Тарховым. С 1957 года В.Н.Комиссаров начинает заниматься синхронным переводом. В 1962 году лингвист защищает диссертацию, проблематика которой была связана с семантикой антонимов. Немного позже, в 1964 году на основании данной диссертации В. Н. Комиссаров выпускает небольшой словарь антонимов английского языка. В 1973 году была впервые опубликована книга В. Н. Комиссарова «Слово о переводе», которая не утратила свое актуальности и на сегодняшний день. Важно отметить, что В. Н. Комиссаров читал лекции в таком университете, как Гарвард, проводил семинары для переводчиков ООН. Таким образом, очевидно, что российский лингвист оказал значительное влияние на развитие переводоведения не только в России, но и за рубежом. Вален Наумович является автором около ста научных статей и различных книг. Результаты проведенных им исследований до сих пор не утрачивают своей актуальности. Труды В.Н.Комиссарова способствовали и продолжают способствовать развитию переводоведения.

БИБЛИОГРАФИЯ

1. Комиссаров В.Н. Слово о переводе М.: Международные отношения 1973.
2. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода М.: Международные отношения 1980.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода М.: Высшая школа 1990.
4. Комиссаров В.Н. Естественность художественного перевода М. 1991.
5. Комиссаров В.Н. Теоретические основы методики обучения переводу М.; Рема 1997.
6. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода М.: Черо 1999.
7. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Курс лекций М.: ЭТС 1999-2000.
8. Комиссаров В.Н. Лингвистическое переводоведение в России. Учебное пособие М.: ЭТС 2002.
9. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие М.: ЭТС 2004.
10. Комиссаров В.Н., Рецкер Я.И., Тархов В.И., Пособие по переводу с английского языка на русский М.: Литературы на иностранных языках 1960.
11. Комиссаров В.Н., Коралова И.А. Практикум по переводу с английского языка на русский М.: Высшая школа1990.
12. Комиссаров В.Н. Словарь антонимов современного английского языка М.: Международные отношения 1964.

13. Комиссаров В.Н. Статья О методике преподавания переводческих приемов 1956.

NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA MUKAMMAL TARJIMA UCHUN MUNOSIB QO‘LLANMA XUSUSIDA

Jamshidbek DAVRONOV, *O‘zMU, talaba*

Tarjima nazariyasi haqida so‘z yuritilganda, shak-shubhasiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o‘zga kitobxonlar ixtiyoriga havola etish maqsadida bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayoni va bu jarayondagi turli muammo hamda ushbu muammolar uchun munosib yechimlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Chunonchi, tillar o‘rtasidagi tavofut va millatlar madaniyatidagi o‘xshash va farqlar hamda to‘laqonli va mukammal tarjima namunasini yaratishga bo‘lgan istak va talablar tarjima sohasiga qadam qo‘yishga bel bog‘lagan yosh mutarjimlar uchun ushbu nazariyani o‘rganish va ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini talab qilar ekan, ushbu nazariyalarni rivojlantirish, umumiylikdan xususiylik sari olg‘a odimlash va bu odimlar asosida amaliy bilimlar uchun ham imkoniyat yaratish tilshunos olimlar hamda tajribali tarjimonlar uchun yanada ulkan mehnat va izlanishlarni talab qiladi. Izlanish va mehnatlar mahsuli sifatida esa tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun yaratilgan qimmatli manbalar hamda mufassal qo‘llanmalar dunyo yuzini ko‘radi. Ushbu nazariyalarning yaratilishi uchun ham talab va ehtiyojlar talaygina. Zero, asosiy vazifasi *asl nusxa bilan tarjima o‘rtasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, xususiy tarjimaviy hodisalardan hosil bo‘lgan xulosalarni ilmiy dalillar asosida umumlashtirishdan, shu yo‘l bilan tarjima amaliyotiga ta’sir o‘tkazib, uning sifatini yaxshilashga ko‘maklashishdan iborat* [1] bo‘lgan nazariyalar asosida bugun tarjima sohasi rivojlanmoqda.

Shuningdek, tarjima nazariyasining ahamiyati qanday degan savol tug‘ilishi ham tabiiy. Ba’zilar hattoki tarjima qilinishi kerak bo‘lgan tilni mukammal egallash va o‘sha asarni sevish hamda qalban tushunish orqali uni to‘liq va asliga yaqin tarzda o‘girish mumkin ekanligi haqida fikr yuritadilar. Ammo shu kungacha bo‘lgan tarjima tarixi buning o‘zi yetarli emasligini uqtiradi. Zero, mukammal tarjima ham tarjimonlikka iste’dod, ijodiy tajriba va shu sohaga oid kerakli bilimlarni o‘rganishni talab qiladi. Ichki intuisiyaga ishonish va shaxsiy mayllar asosida tarjimaga qo‘l urish oqibatida yuzaga kelgan turli o‘zboshimchaliklar misolida tarjima nazariyasining ahamiyatini to‘liqroq his qilish mumkin. Dunyodagi har bir fan, sohasi

singari tarjimashunoslik ham o‘z qonun-qoidalari, uslublariga ega bo‘lib, tarjimonlarga faoliyat yo‘llarida tirgak bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun yaratilgan qo‘llanmalarning ham tobora ortib borishi natijasida bu sohaga qiziqish, to‘g‘rirog‘i tarjima-shunoslikning rivojiga hissa qo‘shishga bel bog‘lagan mutarjimlar salmog‘i ham oshib bormoqda. Eng avvalo, tarjima nazariyasiga umumiy jihatdan qarash asosiy o‘rinni egallagan manbalar bilan birgalikda ma’lum tillar orasidagi tarjima muammolari hamda ushbu tillarning imkoniyatlaridan foydalangan holda qanday qilib adekvat tarjimaga erishish yo‘llari haqida qo‘llanmalarning dunyoga kelayotganligi eng katta yutuqlarimizdandir. Zero, nemis xalqi adabiyoti namunalarini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish borasida ulkan tajriba va bilimga ega bo‘lgan til va tarjima jonkuyarlari ustozim Shuhratxon Imyaminova hamda I.F.Borisovaning mehnatlari asosida yaratilgan qo‘llanma ham tarjima ixlosmandlari uchun kerakli va munosib manba bo‘lib xizmat qiladi [2].

Tarjima tarixi va uning ahamiyati, rivojlanishi, iste’dodli tarjimonlar-ning usullari, tarjima shakllari, tasvir uslublari, nemis tilidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish muammolari, tarjimada murakkab hisoblangan holatlarning yengil yechimlari, misollar vositasida o‘rganuvchiga osonlik bilan yetkazilgan nazariyalar hamda eng muhimi, o‘rganuvchida to‘liqroq ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun tayyorlangan turli topshiriq hamda vazifalarni o‘z ichiga olgan ushbu qo‘llanma ahamiyati va qimmati jihatidan yuksak o‘rinlarni egallaydi. Binobarin, munosib qo‘llanma o‘quvchidan munosib tahlil va e’tiborni talab qilishi shubhasizdir. Asar ustida ishlash, unga ilmiy va badiiy jihatdan nazar tashlash mobaynida u haqida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

Birinchidan, yuqorida aytilganidek, qo‘llanma o‘zidan avvalgi tarjima-shunoslikni umumiy tahlil qiladigan manbalardan farqli ravishda aynan nemis tiliga oid adabiyotlarni o‘zbek va rus tillariga o‘girish muammolariga bag‘ishlangan. Bu esa o‘z navbatida, birmuncha aniqlik, xususiylikdan dalolat berib, oson o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, asarning eng katta yutug‘i sifatida uning ikki tilda tushuntirish berilganligi, ya’ni ma’ruza va amaliy misollarning o‘zbek va rus tillarida ekanligini keltirish mumkin. Bu esa o‘zbek tilining mahoratidan foydalangan holda nemis adabiyotidan namunalarni o‘zbek kitobxonlariga hadya etish niyatida bo‘lgan mutarjimlarga muhim ko‘makchi bo‘lish bilan birgalikda rusiyzabon kitobxonlar ong-u shuurini nemis madaniyati bilan oshufta etishga bel bog‘lagan tarjima san’ati havaskorlari uchun ham o‘z yordamini ko‘rsata olishi ayni haqiqat.

Uchinchi tomondan esa nazariyani mustahkamlash uchun har bir qoida va mulohazalardan so‘ng amaliy misollar yordamida o‘quvchiga kerakli

tasavvur va ko‘nikmani tez va oson berilishiga erishilgan. Misollarning ham o‘z jihatidan turli manbalar asosida tayyorlanganligi, ya’ni faqat bitta muallif yoki bitta asar asosida emas, bir necha tafakkur egalari ijod mahsulidan olinganligi ham uning afzallik tomonlaridan biridir.

To‘rtinchi muhim jihatni kitobning mavzulashtirish tizimidagi noan’anaviylikda ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni tarjimada qo‘l keluvchi bilimlar jamlangan amaliy qism o‘z navbatida bir necha mavzularga ajratilishi natijasida asarning qiziqarli va tushunarli yo‘sinda tashkil etilishiga erishilgan. Misol uchun, qisqartma so‘zar qanday tarjima qilinishi, atoqli otlar tarjimasida nimaga e’tibor berilish kerakligi, frazeologizmlarni o‘zga tilga o‘girishdagi noan’anaviy uslublar, hattoki artikldan tortib modal fe’llar tarjimasiga oid usul va yo‘riqlar qisqa va tushunarli tilda alohida hamda mavzulashtirilgan holda bayon etilgan.

Bilamizki, har qanday bilim takrorlash va amalda qo‘llashni taqozo qiladi. Ana shundagina chuqur ilm egallash va ko‘nikma hosil qilish mumkinligi barchaga ayon. Ushbu haqiqatni ilgari surgan mualliflarimiz mavzular davomida mustahkamlash uchun amaliy mashqlar berib qo‘ygan. Beshinchi jihat hisoblangan bu afzallik esa yuqorida olingan usullar vositasidagi bilimlarni shu zahoti qo‘llab ko‘rish imkoniyatini beradi. Zero, birdaniga kattakon asar tarjimasiga bel bog‘lashdan avval mualliflar tavsiya qilgandek kichik matnlar ustida ishlab tajribani orttirish nur ustiga a’lo nur bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Va nihoyat, oltinchi tomondan asar so‘nggida tarjimashunoslikka oid kerakli atamalar mazmuni ikki tilda tushunarli usulda keltirilib o‘tilganligi ham qo‘llanmaning ilmiy qimmatini oshiradi. Zero, yuqorida ta’kidlab o‘t-ganimdek, mukammal tarjima uchun ham mukammal bilim kerak, u ham o‘z navbatida mufassal manbaga ega bo‘lmog‘i lozim. Bir necha afzalliklarni o‘zida mujassam qilgan ushbu qo‘llanma allaqachon yuzlab tarjima muxlis-lari qo‘liga yetib, muhim va ajralmas qo‘llanmaga aylanib bo‘lgan.

Shunday xulosa qilish mumkinki, tarjima san’ati ham o‘ziga xos olami, o‘ziga mos davrasi hamda o‘zining qiziqarli va o‘rganish lozim bo‘lgan bir necha qonun-qoidalariga ega hisoblanadi. Bunda esa yuqorida tahlil qilingani singari muhim va kerakli qo‘llanma hamda ilmiy adabiyotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, munosib qo‘llanmaga munosib kitobxon ham bo‘lishi kerak, shubhasiz...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Қудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2005

2. Борисова И.Ф., Имяминова Ш.С.. Таржима назарияси ва амалиёти. –Т.: Университет, 2005.

XALQARO JURNALISTIKAGA OID MATERIALLAR

INTERNET TIZIMIDA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHI TAMOYILLARI

F.f.n. ***Muhabbat SALIYEVA****, TDShU, katta o‘qituvchi*

XX asr oxiri – XXI asr boshlari tilshunosligi nazariy tadqiqotlarni amaliy jihat bilan birlashtirish istagi bilan ajralib turadi. Til tizimining ishlashini bilish, balki undan oqilona foydalana olish, bilimning turli sohalari, ayniqsa, kuchli rivojlanayotgan davrda terminologik tizimlarga extiyojning kuchayib borayotganligi, bugungi dunyoning ilmiy manzarasini yaratishga imkon beradi.

Internet texnologiyalari sohasini shakllantirish atamasining o‘ziga xosligi yetarli darajada o‘rganilmagan omillar ta’sirida yuzaga keladi. Bularda Internet texnologiyalari sohasida atamalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muammolari dolzarb bo‘lib turibdi. Internetning o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayoni uning tarkibida yangi tarkibiy qismlarni qo‘shish orqali kengayib boradi. Bu jarayon jonli o‘simlik organizmining tarqalishigi o‘xshaydi, uning negizi faqat metabolizmning tabiiy jarayonlari emas, balki axborot resurslari almashinishining iqtisodiy jarayonlari. O‘sish va rivojlanish bir vaqtning o‘zida uchta yo‘nalishda uchraydi, ular internetning uch asosiy komponentiga mos keladi: apparat, dasturiy, ta’minot va axborot.

Interent bugungi kunda – bir butun, dunyo bo‘ylab joylashgan kompyuter tugunlarini o‘z ichiga oladi. Bu keng tarmoq, Internetdagi saytlarning soni ikki milliarddan oshganligini ko‘rsatmoqda.

Hech kim Internetga egalik qilmaydi. Internet – butun, istisnosiz, axborot resurslari va axborot xizmatlari (e-pochta, taxtali, kompyuter konferensiya, ma’lumot fayllari, umumiy dasturiy ta’minot, proofreadning xujjatlari, interaktiv kutubxona, fayl uzatish va boshqalar, kirishini ta’minlash uchun mumkin bo‘lgan infratuzilma tarmog‘idir.

Internet – bu xizmatlardan foydalanadigan odamlar tomonidan doimiy ravishda ishlab chiqilgan tizim bo‘lib uning tarmoqlarini boshqaradigan markaziy kompyuter yo‘q. Resurslari minglab shaxsiy kompyuterlar orasida taqsimlanadigan ommaviy kommunikatsiyaning muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Uning eng katta kuchi va eng katta zaifligi uning keng tarmoqliligi bo‘lib, yondashuvi, barcha veb ustidan ofatlar uchun to‘liq ishonchsizlikni anglatadi.

Axborot texnologiyalari – bu faqatgina World Wide Web resurslaridan foydalanish bo‘libgina qolmay, balki “si”[151] yaratilishiga imkon beradi va ommaviy kommunikatsiya tarmoqlari doirasida amaliy muammolarni hal qilish uchun aniq tizimlarni yaratadi. Bu asosan iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy parametrlardan biri bo‘lgan ta’limga tegishlidir. Ish kuchi sifati bugungi kunda iqtisodiy o‘sishning asosiy cheklovidir. Internetda bu tizimning yangi bilim va terminologiyasini rivojlantirish uchun muhim vosita va muxit mavjud. Tashkiliy va ierarxik texnologiyalar. Internet sxemasi. Chegaralarning yo‘qligi, mustaqillik va amalda ishlash real vaqtda tarmoq texnologiyalarini kuchli ijtimoiy integratorga aylantiradi.

Internetda sayyoramizning turli burchaklaridan odamlar va yangi madaniy hamjamiyatni shakllantirish bo‘yicha emas, balki milliy chegaralar va milliy tizimning kommunikativ tarmoqlari bilan bog‘liq. “Tarmoq” tizimi axborot va internet va World Wide Web uning tarqatish xarakteri, vositalarini noyob, erkin va alohida xukumat, tashkilot yoki shaxs texnik infratuzilma va shu bilan birga turli ilovalarni va tarmoq tarkibini to‘liq nazorat qila olmaydi. Shu tufayli ham, ushbu tarmoqlarda harakatlarning shakllanish usullari asosan, Birinchi darajali internet foydalanuvchilar-milliy davlatlarning fuqarolari va muayyan joylarda yashaydi. Ikkinchi darajali internet provayderlar bo‘lib, ular Internetning asosiy moliyaviy oqimlari orqali internetning asosiy tashkiliy kuchi hisoblanadi.

Provayderlar tarmoq uskunasiga egalik qiladi yoki ularni ijaraga oladi va foydalanuvchilarning internetga kirishini to‘liq nazorat qiladi. Provayderlar jismoniy va virtual boshliqlar o‘rtasidagi ko‘prikdir. U orqali jismoniy “Men” virtual dunyoga qolgan vaqt bilan muloqot qilinadi.

Bir tomondan jismoniy shaxslar (internet foydalanuvchilari) va boshqa tomondan o‘z mijozlarining domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida tizimdagi tarmoqni “vakolatli organlar” bilan, virtual muhitda o‘z shaxsiyatlarini aniqlash bilan shug‘ullanadigan provayderlar. Aksariyat hollarda, ayniqsa G‘arb davlatlarida asosan rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Xitoy) provayderlari davlat litsenziyasiga ega, yoki davlatga tegishlidir. Uchinchi darajadagi tizimda esa ko‘pincha elementar tasodifiy tabiatga ega domenlar (virtual makon asosiy xujayralar) va turli millatli interaktiv jamoalardan iborat.

Network – Internet turli jamiyatda o‘ziga xos shakldagi qonuniy nazorat va xukumatlar o‘rtasida yangi bo‘linishlar, shuningdek, virtual masofaviy nazorat “boshqaruv” tarmog‘ini yaratadi. Butun dunyoni o‘rab

[151] "Inverter 12/220 Quyosh Afrika SI-200S sinusoidal" uchun buyurtma berishingiz mumkin. Kompaniyada

turgan “veb” kabi, u bir to‘plamda bo‘lganlarni birlashtiradi va jimgina, deyarli sezilmasdan, qolganlarni rad etadi. Tarmoq jamiyati parallel ommaviy aloqa tizimlarini yaratadi.

Internet tarmog‘ining eng katta muammosi o‘zining nufuzli resurslarining zaif tartibini anglamaganligidir. Internet keng tarmoqli va mislsiz tarzda filiallarsiz ishlaydi, katta kvadrat atrofida juda ko‘p noyob kitoblar tarqalgan. Ushbu intellektual betartiblik tarmoqning o‘zi bilan o‘sib boradi. Shu tufayli mavjud resurslarni tizimlashtirish bo‘yicha master rejasiz tarmoq va buyurtma ustidan nazorat qilish, juda qiyin. Bugungi kunda kuchli qidiruv asboblari yaratilmoqda, ommaviy kommunikatsiya tarmoqlari rivojlanib o‘sib bormoqda. Texnik muammolardan foydalanuvchilarning jadal o‘sishi va manzillar maydonini tarmoq manzillarining sinflariga bo‘linmasligi sababli tarmoqning yetarli bo‘lmagan tezligi qayd etilgan.

Kompyuter tarmoqlari va internetni rivojlantirish tamoyillari. Bugungi zamonaviy O‘zbekistonning Internet tarmoqlarida tomoshabinlar soni juda ko‘p. Internet sayyoramizning eng chekka joylarida paydo bo‘ladi. 2012 yil oxiriga kelib butun dunyodagi internet foydalanuvchilari soni dunyo bo‘ylab 2,4 milliardga yetdi. AQSh milliy Ilmiy Fondining prognozlariga ko‘ra, 2020 yilda, internetdan foydalanuvchilar soni 5 mlrd.ga ko‘paygan. Internet esa geografik jihatdan tarqaladi. Keyingi 10 yilda foydalanuvchilarning eng ko‘p o‘sishi Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlar (hozirgi vaqtda yetti foizdan ortiq bo‘lmagan), Osiyo (19%) va yaqin Sharq (taxminan 28%) aholisi xisobiga bo‘ladi. Taqqoslash uchun hozirgi vaqtda Shimoliy Amerikaliklarning 72%dan ortig‘i internetdan foydalanmoqda.

Axborot texnologiyalarida Ma’lumot uzatish tezligi va ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda. So‘nggi ishlab chiqarilgan kompyuterlarda ma’lumotlarni uzatish tezligi 40 Gbit / s ni tashkil etadi. Misol uchun, roman Tolstoy Lev Nikolaevich[152] ning urush va tinchlik romani 4xajmi – ya’ni, taxminan 40 Mbpsga 1000 marta kamroq! Siz ushbu 4 jildli 1 mikrosoniyadan kamroq vaqt ichida saqlab olishingiz mumkin, ammo olimlarning fikrlariga ko‘ra yaqin kelajakda ma’lumotlar nur tezligida uzatilishi taxmin qilinmoqda. Ammo bu allaqachon bor, bugun bir necha kilometr s 7 Gbit ma’lumot uzatish imkonini beradi WiGik texnologiyasi jismoniy darajadagi ma’lumotlarni kodlash usuli, tarmoq kengligi Cisco

[152] Толстой, Лев Николаевич —ru.wikipedia.org/wiki/Толстой,_...
Лев Никола́евич Толсто́й — один из наиболее известных русских писателей и мыслителей, один из величайших писателей-романистов мира. Участник обороны Севастополя. Просветитель, публицист, религиозный мыслитель, его авторитетное мнение послужило причиной возникновения нового.

ko‘ra, bir soniyada Skype bugun, Facebook 35 milliondan ortiq foydalanuvchisi bor. 200 milliondan ortiq YouTube har daqiqa video 72 soat yuklangan. Mutaxassislarning fikricha Texnologiyalar va jahon o‘rgimchakda davom bitimlar video fayllar, yuqori tarmoqli kengligi talab qilinadi. Texnologiyalar shu yo‘nalishda rivojlanadi.

Semantik WEB[153] - ommaviy kommunikatsiyaning bir tarmog‘i bo‘lib, “semantik internet” tizimi paydo bo‘lmoqda, unda axborot kompyuterga tushinish va semantik darajada qayta ishlash imkonini beradigan aniq ma’no borligini kuzatish imkoniyati bor. Bugungi kunda kompyuterlar sintaktik darajada ishlaydi, belgilar darajasida, ma’lumotni tashqi belgilar bilan o‘qiydi va ishlaydi. “Semantik veb” atamasi ilk bor Barks Berners-Li jurnalida Scientific American[154] (World Wide Web- kompyuteriga tushunish va semantik darajada qayta ishlash imkonini beradigan aniq ma’no berilmoqda. Bugungi kunda kompyuterlar sintaktik darajada ishlaydi, belgilar darajasida, ma’lumotni tashqi belgilar bilan o‘qiydi va ishlaydi. “Semantik veb” atamasi ilk bor Amerikan ilmiy jurnalida Barks Berners-Li[155] (World Wide Web[156]) tomonidan kiritildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki Tellekommunikatsiya dunyosining rivojlanishidagi bugungi tamoyillar har yili aloqa sohasida yangiliklarni keltirib chiqaradi va shuning uchun har bir telekommunikatsiya operatori zamonaviy tendensiyalarga parallel ravishda rivojlanishga intiladi. Mobil aloqa bugungi kunda kelajak avlod tarmoqlarini barpo etish uchun juda uzoq muddatli istiqbolga ega Telekommunikatsiya va uyali aloqa operatorlari, asosan, 3G platformasi asosida o‘z tarmoqlarini qurishning asosiy sababi abonentlarning sotib olish qobiliyatini oshirish va shuning uchun multimedia xizmatlariga talabni oshirishdir. O‘zbekistonda bugungi muhim masala operatorning texnik va iqtisodiy jihatlariga asoslangan siyosatiga bog‘liq bo‘lgan 3G tarmoqlariga o‘tish yo‘lini aniqlashdan iborat.

---

[153] Семанти́ческая паути́на — это общедоступная глобальная семантическаясеть, формируемая на базе Всемирной паутины путём стандартизации представления информации в виде, пригодном для машинной обработки.

[154] Scientific American — научно-популярный американский журнал, выпускающийся с 28 августа 1845 года, что делает его старейшим журналом США из выпускающихся по сей день.

[155] Сэр Тимоти Джон Бернерс-Ли OM — изобретатель URI, URL, HTTP, HTML, создатель Всемирной паутины (совместно с Робертом Кайо) и действующий глава Консорциума Всемирной паутины. Автор концепции семантической паутины. Автор множества других разработок в области информационных технологий.

[156] World Wide Web (Всемирная паутина) самая массовая сегодня информационная служба Интернета Это огромная, распределенная по всему миру информационная.

ZAMONAVIY ARAB MAMLAKATLARI JURNALISTIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.f.n. ***Muhabbat SALIYEVA****, TDShU, katta o‘qituvchi*
Jaxongir ABDUPATTAXOV*, TDShU, o‘qituvchi*

Zamonaviy davr talabiga javob beradigan OAVning jadal rivojlanishini, axborot sohasining samarali faoliyatini ta’minlaydigan yangi qonun xujjatlari qabul qilinganligining o‘zi jurnalistika sohasining davlat darajasidagi maqomini belgilaydi. Shu o‘rinda aytish joizki, Arab Sharqining zamonaviy jamiyatga o‘tish davrida jurnalistika, masalan, huquqshunoslik va tibbiyot kabi professional sohalardan farqli o‘laroq, rasmiylashtirilgan, aniq shakllangan bilimlar, ilmiy darajalar va malaka tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinmadi. Qo‘shma Shtatlarda jurnalistika sohasida mutaxassislarni tayyorlaydigan birinchi oliy o‘quv yurtlari XIX asrning oxirida, Yevropada - XX asrning boshlarida, ya’ni jurnalistika shu kabi paydo bo‘lganidan bir necha asr o‘tgach paydo bo‘ldi. Tarixiy vaqt oralig‘i va arab jurnalistikasining evolyusiyasi Usmoniylar davri (XX asr oxiri) davriy nashrlaridan arab davlatlari tashkil etilishida institusional matbuotga qanday o‘tganligini kuzatish qiziq.

Arab mamlakatlari ichida eng keksa matbuot Misr matbuoti hisoblanadi. Mamlakatda ilk matbuot namunasi dastlab Napaleon Bonapartning mamlakatga qilgan harbiy ekspedisiyasi davrida 1798 yilda fransuz tilida chop etilgan. Arab tilidagi dastlabki nashrlar esa Muhammad Ali hukmronligi davrida “Al-Vaqoi al-Misriyya” (الوقائع المصرية) nomi bilan hukumat tomonidan chiqarila boshlangan. Mamlaktdagi eng yirik nashr Al-Ahram” (الأهرام) nomi bilan chop etiladi. “Al-Ahram” (الأهرام) arab dunyosida nisbatan ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan va nufuzli kundalik gazeta hisoblanadi. U har kuni 39-40 sahifadan iborat 80 000 nusxada nashrdan chiqariladi. Aynan shu gazetaning oqshom soni “Al-Ahram al-masaiy” (الأهرام المسائي) nomi bilan 70-80 ming nusxada chop etiladi va butun arab dunyosiga, shu jumladan, xorijda istiqomat qiluvchi arablar uchun ham tarqatiladi.

“Al-Ahrom” (الأهرام) gazetasiga 1875 yilda asos solingan. Bu nashr mamlakatning va arab dunyosining eng qadimgi, nufuzli kundalik gazetasi. Uning o‘rtacha hajmi 32 - 40 sahifani tashkil etadi, 250-300 mingga yaqin nusxada bosmadan chiqadi. Gazeta sahifalari mavzu jihatidan nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, unda xususan turli sohalardagi halqaro mavzularni yoritish asosiy o‘rin tutadi.

“Al-Ahrom ad-duvaliyya” (الأهرام الدولية) gazetasi. Asosan Qohira nashri bo‘lib, 24 sahifali “dayjest” gazetasi hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zi-

da xorijiy mamlakatlarda ham nashr etilib, Sun’iy yo‘ldoshi aloqasining ulanishiga qarab yuboriladi. Unda Amerika, Yevropa va Osiyoda yashovchi arablar uchun 150000 taboqda bosmadan chiqariladi. Korporatsiyaning xalqaro maydondagi nufuzi haqida gap ketganda, uning bu boradagi muvaffaqiyatli faoliyatiga hissa qo‘shayotgan bir qator chet tillarida chop etiladigan matbuot nashrlarini ham sanab o‘tish lozim. Jumladan, ingliz tilida chiqadigan “Al-Ahrom unkli” gazetasi “Al-Ahrom” gazetasining ingliz tilidagi nusxasi hisoblanadi. Shuningdek, unda ba’zi maqolalar, tahlillar tarjima holatida va yangidan yozilib chop etiladi. Gazetada ichki va tashqi siyosatga doir ruknlar mavjud bo‘lib, iqtisodiyot, madaniyat va sport xabarlariga keng o‘rin berilgan. Tiraji 30000 ga yaqin. U MAR va boshqa yurtlarda yashovchi chet ellik gazetxonlar uchun mo‘ljallangan. “Al-Ahrom ebdo” esa fransuzcha haftalik gazetadir. Arab davlatlarida jurnallar asosan 1925 yildan chop etila boshlagan, masalan haftalik jurnallari sanalgan, “Roz Al Yusuf” tiraji 40 ming nusxa. Al-Musavvar” (المصور) 60 ming nusxa. “Axir Saa” (آخر ساعة) 70 ming nusxada, korporatsiya tomonidan chop etiladigan oynomalar “ “Al-Ahrom al-iqtisodiy” (الأهرام الإقتصادي) jurnali bo‘lib, u 12 gulfnews.com korporatsiyaning haftalik iqtisodiy nashri sanaladi.

“At-Tali’a” (الطليعة) 1962 yildan chop etila boshlagan, tiraji 10 ming nusxa. “Al Ishtiroki” (الإشتراكي) 1965 yildan chop etila boshlagan, tiraji 20 ming nusxa. Misr matbuoti kabi zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo‘lishiga qaramay, Saudiya Arabistoni OAVning asosini matbuot nashrlari tashkil qiladi. Mamlakatda yuzdan ortiq arab va xorijiy tillarda chop etiladigan gazeta va jurnallar faoliyat ko‘rsatadi. Ular ichida arab va musulmon olamida eng ko‘p tarqalgani “Ar- Riyod” (الرياض) (1965 yil, may) va “Al-Jazira” (الجزيرة) (1964 yil iyunidan Riyodda chop etiladi) gazetasi.

G‘arb matbuot vositalari materiallari tarjimalarini chop etishga keng o‘rin ajratadi. «Al-Jazira» (الجزيرة) gazetasining birinchi soni 1964 yilning iyunida nashr qilingan. «Ar-Riyod» (الرياض) chop etgan ko‘pgina xabarlarni takrorlaydi. Ro‘znoma mahalliy o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

Ma’lumotlarni yetkazishda poytaxt gazetalariga nisbatan ancha erkindir. Turli voqealar yuzasidan uning fikri hukumatning rasmiy bayonotiga yaqin yoki to‘g‘ri kelishi mumkin. Podshohlik hududidan tashqarida chop etiladigan va Saudiya Arabistoni tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanuvchi bir qator nashrlar, jumladan, “Ash-Sharq Al-Avsat” (الشرق الأوسط) gazetasini ham saudiya matbuot vositalari qatoriga kiritish mumkin. Gazeta Londonda tayyorlanib, sun’iy yo‘ldosh orqali Riyod, Jidda, Frankfurt, Nyu- York va Marselga chop etish uchun

uzatiladi. O‘zining tezkorligi va ma’lumotlar saviyasining yuqoriligi sababli nafaqat Saudiya Arabistonida, balki butun Yaqin Sharqdagi matbuot vositalari orasida u birinchi o‘ringa chiqdi.

Arab dunyosida Saudiya mablag‘lariga chop etiladigan “Al-Hayot” (الحيات) nomli gazeta ham o‘quvchilar o‘rtasida katta e’tirofga sazovor bo‘lgan. Mazkur gazeta nufuzli saudiyalik davlat arboblaridan, shahzoda amr etadigan ma’lumotlar tahliliyligi nuqtai nazaridan gazeta “Ash-Sharq Al-Avsat” (الشرق الأوسط)dan qolishmaydi, 13 gulfnews.com mavzular xilma-xilligi bo‘yicha esa hatto undan ustunroq turadi. Podshohlikda mahalliy o‘quvchilarga mo‘ljallangan qator gazetalar chop etiladi. Ularning eng muhimlari qatoriga “Al-Madina Al-Munavvara” (المدينة المنورة) (1937), “An-Nadva” (الندوة) (1958), “Al-Bilad” (البلاد) (1934) ro‘znomalarini kiritish mumkin. Shuningdek, mamlakatda asosan chet el mutaxassislari va ishchilariga mo‘ljallangan ingliz tilidagi kundalik “Arab Nyus”, “Riyad Deyli” va “Saudi gazet” gazetalari chop etiladi. Ingliz tilida chop etiladigan gazeta va jurnallarning mahalliy xalq o‘rtasida nufuzi ortib borayotganini ta’kidlash zarur. AQSh va Yevropa davlatlarida ta’lim olgan yosh saudiylar o‘rtasida G‘arb matbuotiga qiziqish ham oddiy holga aylanib bormoqda.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Saudiya Arabistonida davlat va nodavlat gazetalar o‘z faoliyatini olib boradi. Shu sababli ushbu gazetalardan ba’-zilarini tahlil qilib, milliy mentalitetda qanday namoyon bo‘layotganligini o‘rganadi. Ma’lumki, davlat gazetalari siyosiy mavzular bilan birga, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy sohalarga oid ko‘plab mavzularni qamrab oladi. Ushbu gazetalar mentalitetni saqlab qolish maqsadida va o‘z xalqini xalqaro terrorizm jabhasiga tortilib ketishini oldini olish uchun juda keng qamrovda tarixda o‘tgan mutafakkirlar, islom huquqshunos va dinshunos olimlari hayotidan misollar keltiradi va islomning asosiy manbasi bo‘lmish Qur’oni Karimdan foydalanadi. Natijada, kishilarni behayo va noqonuniy hatti- harakatlardan ogoh etadi. Zero, gazetalarning so‘nggi sonlari dunyoni ommaviy ravishda qamrab olayotgan xalqaro terrorizm masalalarini o‘z ichiga olgan. “Ar-Riyod” (الرياض) gazetasi hukumat rasmiy xabarlari, chet el yangiliklarini chop etishga keng o‘rin ajratadi. Misol tariqasida siyosiy mavzuga oid bir necha maqolalarni keltirish lozim. Gazetada Saudiyaning hamkorlik aloqalarini qamrab oluvchi maqolalar ham mavjuddir. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari:

- arab matbuotida ba’zi bir lavozimdagi shaxslarga nisbatan o‘ziga xos atamalar qo‘llaniladi. Masalan, Iordaniya qiroli Husayn yoki Malik Fahd bin Abdulazaziz, Fahdning ukasi, Marokash qiroli va b. Shuning-dek, oliy hazratlari, din arboblari, vazir janoblari, elchi janoblari kabi.

- Mas’ul atama vazifasi aniqroq bo‘lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Vazifasi aniq bo‘lmagan shaxslarga esa shaxsiya atamasi qo‘llaniladi. Saudiya Arabistoni Podshohligida spirtli ichimliklar va cho‘chqa go‘shtini iste’mol qilish man etilgan, ularning reklamada ko‘rinishi mumkin emas. Reklama tijoriylashib borayotgan ommaviy axborot vositalarining asosiy iqtisodiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun reklama qabul qilish va berish matbuot uchun zarurdir. Xulosa qilib aytganda, Saudiya Arabistoni OAVning asosini matbuot nashrlari tashkil qiladi. Shu sababli mamlakatda turli xil nashrlar mavjud bo‘lib, ularning xar biri o‘quvchining talabini qondiradi.

Arab mamlakatlarida radio faqat mustaqillikdan so‘ng o‘z rivojini topdi. Texnikaviy baza mustahkamlanib retranslyatorlarning quvvati oshdi, mahalliy radio taraqqiy etdi. Barcha arab mamlakatlari mustaqil radio tizimlariga ega. Ichki radio eshittirishlar bilan birga chet tillarda ham ma’lum vaqtda va ma’lum to‘lqinlarda eshittirishlar berib boriladi. Arab mamlakatlarining dastlabki dasturlari bir-biriga o‘xshab ketadi. Misrda ham ichki va xalqaro radio o‘rtasida chegara yo‘q, Misrda 9 ta yirik radiokanal mavjud. Boshqa arab mamlakatlariga “Yagona arab dasturi” (الفهرس العربي الموحد), “Arablar ovozi” (صوت العرب), “Muqaddas Qur’on” (قناة القران الكريم) dasturlarini uzatadi. Eshittirish 29 tilda: ingliz, arab, bengal, ispan, italyan, pushtu, somali, turk, urdu, fransuz, xind va boshqa tillarda bo‘ladi. Kunda 78 soat hajmida xorijga eshittirishlar yo‘nalti-radi. Asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha arab mamlakatlari va Afrika INOlar ora-sida dunyoda 6-o‘rinni egallaydi. Eshittirishlar asosan o‘rta to‘lqinlarda be-riladi. Signal uzatish asboblari asosan Qohira atrofida joylashgan. Maxsus hay’ati mavjud bo‘lib, u chet eldan yuborilgan dasturlarni nazorat qiladi, musulmonlar mentalitetiga zid materiallarni Afrikaga o‘tkazmaydi.

Jurnalistlar uyushmalarini tuzishga urinishlar Livan, Misr va Suriya-da vaqti-vaqti bilan 19-asr oxirlaridan boshlab sodir bo‘lgan. Qohiradagi "Al-Ahram" (الأهرام) gazetasining bosh muharriri Bishara Takla (بشارة تكلا) 1896 yilda jurnalistlarning kasaba uyushmasini tuzish tashabbusi bilan chiqdi, ammo hamkasblar bilan muzokaralar natija bermadi [Ibidem]. Bayrutda 1911 yilda gazetalar o‘rtasida hamkorlik qilish va nashr etilgan materiallar sifatini yaxshilash uchun "matbuot qo‘mitasi" tashkil etildi, ammo tez orada u tarqatib yuborildi [Ibidem, p. 228]. 1929 yilda Suriyada ham shunga o‘xshash urinishlar bo‘lgan. Ammo siyosiy tafovutlar, shaxsiy ambisiyalar va tashkiliy tajribaning yetishmasligi professional jurnalist birlashmalarining paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qildi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, arab jurnalistikasi Ikkinchi Jahon urushi tugagandan keyingina o‘z rivojlanishining professional

bosqichiga kira boshladi. XIX asr oxiri - XX asrning birinchi yarmi. Arab Sharqi matbuoti kasbiylashtirish nuqtai nazaridan o‘ziga xos aralash holatda edi. Bir tomondan, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuviga ega bo‘lgan zamonaviy, kattaroq gazetalarni yaratish tendensiyasi bor edi, bu esa yuqori darajadagi professional tayyorgarlikni talab qildi. Boshqa tomondan, davriy nashrlarning asosiy qismi shaxsiy jurnalistikaga bo‘ysungan. Arab davlatlari jurnalistikasidagi "ko‘p tuzilma" va "ko‘p tezlikli" jarayonlarga qaramay, professional axloq me’yorlarini, jurnalistlar uyushmalarini va maxsus tayyorgarlikni rivojlantirishni talab qilgan ilg‘or jurnalistik fikr 20-asrning ikkinchi yarmida arab jurnalistikasining zamonaviy professional darajaga o‘tishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Most Censored Countries," Committee to Protect Journalists, 2 May 2012, page retrieved 23 May 2013.
2. Robinson, Sue (2011). ""Journalism as Process": The Organizational Implications of Participatory Online News". Journalism & Communication Monographs. 13 (3): 137
3. Al-Afghani J. al-Din. Al-'Urwa al-wuthqa wa'l-thawra al-tahririyya al-kubra. Cairo: Dar al'-Arab, 1958. 428 p.
4. Ayalon A. The Press in the Arab Middle East. A History. N. Y.: Oxford University Press, 1995. 300 p.
5. Babil N. Sahafa wa siyasah: Suriya fi al-qarn al-ishrin. Landan: Riyad al-Rayyis lil-Kutub wa-al-Nashr, 1987. 525 p.
6. Ishaq Musa al-Husayni. Awdat al-Safina. Al-Quds: Dar al-Nashr al-Arabi, 1945. 228 p. 7. Kurd AH M. Al-Mudhakkirat. Dimashq: Matba'at al-Taraqql, 1954.
8. Kurd All M. Khitat al-Sham. Damascus: Matba'at al-Taraqqi, 1949. Vol. 4. 337 p. 9. Musa S. Al-Sihafa hirfa wa risala. Cairo: Salama Musa, 1963. 124 p.
10. Musa S. Ta rbiyyat Salama Musa. Cairo: Mu'assasat al-khanji, 1962.304 p.
11. Reid D. M. The Rise of Professions and Professional Organization in Modern Egypt // Comparative Studies in Society and History. 1974. Vol. 16. № 1.
12. Rida M. R. Tankh al-ustadh al-Imam al-Shaykh Muhammad 'Abduh. Cairo: Matba'at al-Manar, 1906. Vol. 1. 1122 p.
13. Tarrazi Ph.de.Tarikh al-sahafa al-'arabiyya. Beirut:Matba'a al-Amirkaniyya, 1933. Vol. 4. 510 p.

USTOZLARNI YOD ETIB

UBAYDULLA MURODOVICH UVATOV

(23.02.1940 – 03.11.2020)

Inson hayoti har bir daqiqasi o‘lchangan, unumli foydalanilganida asrlarga tatigulik, qadri miqdor bilan o‘lchanmaydigan bebaho ne’matdir. Umrini foydali ishlarga bag‘ishlagan, ilm-ma’rifatni hayoti mazmuniga aylantirgan, XX asr o‘zbek sharqshunosligining dovrug‘li vakili, taniqli temurshunos, Fidokorona mehnatlari uchun ordeni sovrindori, tarix fanlari doktori, prof. Ubaydulla Murodovich Uvatov vafot etdilar.

Ubaydulla Uvatov 1940 yilning 23 fevralida Qashqadaryoning ko‘hna kenti – G‘uzorda tavallud topgan. 1958-1964 yillarda Toshkent davlat universitetining Sharq fakultetida (hozirgi TDSHU) arab tili yo‘nalishida saboq oldi. O‘qishdan keyin amaliy tarjimonlik faoliyati bilan shug‘ullandi. U Misr, Iroq va Liviya singari arab davlatlarida tarjimonlik qildi. U.Uvatov o‘z faoliyatining ilk kunidan boshlab, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullandi. Olimning ilmiy yo‘nalishlari, qiziqishlari turli tuman. U manbashunos, tarixchi, fan va yurtimiz allomalari merosining tolmas targ‘ibotchisi sifatida faoliyat yuritib keldi. Ilmiy faoliyati davomida yurtimiz allomalari to‘g‘risida birinchilardan bo‘lib tadqiqotlar olib bordi va ushbu yo‘nalishda 200 dan oshiq maqola, 50 ga yaqin kitob va risolalar yozdi. U kishi ko‘plab shogirdlar yetishtirdilar, uzoq yillar hukumatning yuqori tashkilotlarida mas’ul lavozimlarda ham faoliyat yuritdilar.

Ubaydulla Uvatov “Mehnat shuhrati” ordeni va “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan hamda ilm-fan yo‘lidagi xizmatlari yuksak e’tirof etilib, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanganlar.

Yetuk sharqshunos olim, sharqshunoslik fani rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan inson, jamiyat ma’rifati, millat o‘zligini angalash yo‘lida umr bo‘yi tolmasdan mehnat qilib kelgan ulug‘ ustoz – Ubaydulla Uvatovning xotiralari shogirdlari qalbida abadiy yashaydi.

TDSHUning “Sharqdan xabarlar” telegram kanalida 2020 yil 3-noyabrda berilgan, ustozning porloq xotirasiga bag‘ishlab ustoz Mahmud Hasaniy tomonidan bitilgan she’rni quyida berishga jazm qildik.

ENDI YO‘Q

Ey falak, qilding judo, toza inson endi yo‘q,
Olim ahli ichra tengsiz ilmi ummon endi yo‘q.

Ushbu kunda al-Buxoriy ruhi ham afsusdadir,
Chun “Sahih”ga kecha-kunduz bag‘ri qalqon endi yo‘q.

Chun “Sihoyi sitta”ning sohiblari g‘amda bugun,
Ne uchunkim, chun savobdan ruhga darmon endi yo‘q.

Chun Temurbek ruhi ham bezovtadir g‘amgin bo‘lib,
Joniga jon bo‘lguchi toza bir jon endi yo‘q.

Manbalar faryod qilur, qo‘lyozmalar dog‘da bugun,
Chunki, durlar terguchi g‘avvos-i Ummon endi yo‘q.

Sharqshunoslar dargahi qoldi huvillab nogahon,
Azaga yuz tutdi bul kun, chunki posbon endi yo‘q.

Olim ahli ko‘zda yoshu bag‘rida qondir bugun,
Chunki, ilmu fan uchun joni qurbon endi yo‘q.

Shogird ahliga ochiq yuzli edi mezbon kabi,
Mehmon ahlin kutguchi bunda mezbon endi yo‘q.

Diynu iymonni himoya qilguchi bir zot edi,
Ham shariatga edi yaxshi posbon endi yo‘q.

Maxdumo, nomi aning tillarda boqiy qolg‘usi,
Oramizda garchi bul kun bag‘ri osmon endi yo‘q.

Sharqdan xabarlar, 03.11.20 (“Ta’ziya”)

MUHAMMADJON XOLBEKOV

(12.09.1950 – 28.10.2020)



O‘zbekistonda eng ko‘zga ko‘ringan tilshunos, tarjimashunos olim, filologiya fanlari doktori, prof. Muhammadjon Xolbekov shu yilning sentyabr oyida tabarruk yetmish yoshlarini qarshilagan edilar. Alloh ustozimizni rahmatiga olgan bo‘lsin. Olim o‘ldi – olam o‘ldi, deydilar. Shuning uchun ham olimlar o‘lmaydi. Olim o‘lsa, olam o‘ladi. Ustozlarimiz biz uchun abadiy yashaydilar, Ustozning joylari jannat, oxiratlari obod bo‘lsin!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev nutqlarida shunday deydilar: “Hozirgi kunda Hotam Umurov, Xolboy Eshboyev, Olimjon Jo‘rayev, Fanya Axmedshina, Muhammadjon Xolbekov, Zulfiya Pardayeva kabi olimlar o‘z ilmiy-pedagogik faoliyati bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lib kelmoqdalar”[157]. Darhaqiqat, M.Xolbekov domlaning davlatimiz oldidagi xizmatlarini sanab adog‘iga yetish qiyin.

Muhammadjon Xolbekov 1950-yilning 12 sentyabrida Samarqand viloyatining Payariq tumanida oddiy dehqon oilasida tavallud topdilar.

[157] Qarang: Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. –B.347.

Qishloq maktabini tamomlab, oliy dargoh – Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti roman-german filologiyasi fakultetining fransuz tili bo‘limiga o‘qishga kirdilar. U yerda domlaning ilk ustozlari prof. Ibodullo Mirzaev uni ilm olamiga yetakladi, prof. Hamdam Orziqulov unga fransuz tili amaliyotidan saboq berdi. Ustozlari qo‘lida tahsil olib, keyinchalik ular bilan bir safda dastlab o‘qituvchi, so‘ngra dotsent va professor lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdilar. O‘tgan asrning 80-yillarida u kishi tarjimashunos olim sifatida respublikada tanila boshladilar, prof. J.Sharipov, G‘.Salomov, N.Vladimirova, I.G‘afurov, M.Mahmudov, Jamol Kamol, H.To‘rabekov kabi adabiyotshunos va tarjimonlar bilan ilm sohasida hamkorlik qildilar.

Ustoz 1982 yil O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyoti institutida “Fransuz badiiy adabiyoti o‘zbek tilida (tarjima tarixi va amaliyoti tahlili)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1986-1988 yillar Moskvada M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti (IMLI) doktoranturasida tahsil olgandan keyin 1991 yilda esa O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti ixtisoslashgan ilmiy kengashida “O‘zbek-fransuz adabiy aloqalari (tarjima, tanqid va muammolari)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildilar.

M.Xolbekov 1990-2000 yillarda fransiyalik shoirlar “Action poetique” jurnali muharriri Anri Delyui va Jan-P’er Bal’p bilan hamkorlikda Rauf Parpidan to Xurshid Davrongacha bo‘lgan yosh o‘zbek shoirlari ijodidan tarjimalar qilib “Poetes ouzbek et russe” (1989) ontologiyasini nashr ettirdilar, moskvalik ustozlari akademik N.I.Balashov, professorlar P.M.Toper, A.D.Mixaylov, I.G.Torsuevalar bilan hamfikr bo‘lib, g‘arb modern adabiyoti manzaralari xususida maqolalar yozdilar. Keyinchalik bu maqolalar kitob holida ikki bor nashr qilindi. So‘nggi yillarda ustozning tarjima nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag‘ishlab nashr etilgan o‘nlab ilmiy maqolalari, o‘quv qo‘llanmalari, “Struktur adabiyotshunoslik” va “Badiiy matnning struktur tahlili” nomli monografiyalari ilmiy jamoatchilik tarafidan iliq kutib olindi.

M.Xolbekov o‘zining 45 yillik ilmiy faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar yetishtirdilar. U kishining rahbarliklarida 2 nafar fan doktori, 16 nafar fan nomzodi dissertatsiyalarini himoya qilishdi. 1992-1998 yillar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi filologiya

bo‘yicha ekspert kengashi hamda SamDU qoshidagi filologiya bo‘yicha ixtisoslashgan kengash a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatdilar.

1992-1998 yillar Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti “Xorijiy mamlakatlar adabiyoti” kafedrasi mudiri, Filologiya markazi direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Rus filologiyasi fakulteti dekani, “Rus va xorijiy xalqlar adabiyoti” kafedrasi mudiri, professori, 1998-2000 yillar esa Samarqand davlat tibbiyot instituti chet tillar kafedrasining mudiri, 2000-2005 yillar SamDChTI Fransuz filologiyasi fakul’teti dekani, “Fransuz tili fonetikasi va amaliy grammatikasi” kafedrasi mudiri, professori, 2006-2016 yillar A.Qodiriy nomidagi JDPI Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri va professori, 2017 yildan SamDChTI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi professori lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdilar. 2005-2006 yillar Rossiya Federatsiyasi Moskva Davlat Ochiq universiteti (MGOU) “Tarjima nazariyasi va madaniyatlararo aloqalar” kafe drasi professori lavozimida ma’ruzalar o‘qidi.

2009-2010 yillar O‘zMU va SamDChTI qoshidagi filoligoya yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashgan ilmiy kengashlar, 2010-2012 va 2017-2018 yillar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi filologiya bo‘yicha ekspert kengashi, 2014-2016 yillar ToshDShI, 2019 yildan esa O‘zDJTU va SamDChTI qoshidagi filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashgan ilmiy kengashlarda a’zo sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

Respublikamizda ilm-fan va ta’limni yuksaltirishda Benazir xizmatlari singan nuktadon olim, oliy ta’lim fidoyisi va yoshlarning mehribon ustozi professor Muhammadjon Xolbekovning pok xotiralari qalblarimizda mangu yashaydi!

Ustozimiz Muhammadjon Xolbekovning ruhlari shod, oxiratlari obod, joylari jannatda bo‘lsin!

Ma’lumot 2020 yil Samarqandda nashr etilgan ***“Professor Muhammadjon Xolbekov. Bio-bibliografik qo‘llanma”*** *nomli kitobidan olindi.*

ISMATULLA NUSRATULLAEVICH BEKMURODOV

(09.05.1966 – 2020)

O‘zidan mangu xotira qoldiradigan insonlar uchun tug‘ilish chinakam baxtdir. Turkigo‘y shoir, mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida odamiylikning asl nishonasini odamlarning bir-biriga mehr va oqibatli bo‘lishi hamda doimiy ezgulikka intilishida namoyon bo‘ladi, deb biladi. Har bir insonning sharafi, obro‘si yaxshi xulq bilan ortadi, yomon xulq bilan esa kamayadi va oxir-oqibat xalq nazaridan qoladi. «Har bir jon o‘lim (sharbati)ni totguvchidir» (Ankabut surasi, 57-oyat). Oyatda butun insoniyat uchun ta’ziya bor. Zero, yer yuzida har bir jonzot bir kun kelib vafot etadi. Faqat Azim va Hayy sifatli Zotgina o‘lmasdan boqiy qoladi. O‘lim haq! Bandasiga berilgan umr esa o‘lchog‘liq! Alloh o‘zi xohlagan bandasiga uzoq va o‘zi xohlagan bandasiga qisqa umr berarkan. Buyuk Alloh bilguvchidir!

Ismatulla Bekmurodov taqdiriga 54 yil umr yozilgan ekan. Afsus… Bu inson hali qanchadan-qancha ezgu ishlar qilishi, insonlarga ko‘p foydasi tegishi, minglab talabalarga ilm berib, ularni ma’rifatli qilishi mumkin edi. Ammo, Yaratgan Egamning taqdiriga ko‘nmay ilojimiz yo‘q.

I.Bekmuratov 1966 yilning 9 mayida Chimkent viloyati, Turkiston tumanining Qarnoq qishlog‘ida ishchi oilasida dunyoga keldi. Turkistonning Qarnoq qishlog‘idagi 20-sonli o‘zbek o‘rta maktabni bitirib, 1983 yilda ToshDUning Sharq filologiyasi fakultetiga o‘qishga kirdi. 1984-1986 yillarda harbiy xizmatni o‘tab qaytgach, ToshDUda o‘qishini davom ettirdi. 1991 yil universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, “Sharqshunos-filolog, xitoy tili o‘qituvchisi” mutaxassisligiga ega bo‘ldi va shu yildan boshlab to umrining oxiriga qadar Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (hozirgi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida) dastavval laborant, o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, kafedra mudiri, dekan va prorektor lavozimlarida ishladi. Shu bilan birga 2002-2003 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining “Davlatlararo munosabatlar va tashqi iqtisodiy aloqalar” fakultetida o‘qib, magistr darajasini ham oldi.

2003-2006 yillarda “Siyosiy institutlar va jarayonlar” ixtisosligi bo‘yicha “Shanxay Hamkorlik Tashkilotining faoliyati va institutsiyalashish jarayoni” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib borib, 2006 yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, “siyosiy fanlar nomzodi” ilmiy darajasini oldi.

U “Xitoyning tinch yuksalish amaliyoti-siyosiy-falsafiy tahlil” mavzuli doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib borayotgan edi.

O‘z ilmiy-pedagogik faoliyati davomida siyosatshunoslik va xitoyshunoslik sohasida 60 dan ortiq ilmiy maqola hamda “Xitoy falsafasi. Sharq falsafasi”, “Xitoy bayramlari”, “Xitoydagi kam sonli millatlar va chet elliklarga xitoy tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari”, “Хрестоматия публикаций в современной китайской прессе”, “Xitoyda til vaziyati va siyosati (Sotsiolingvistik tahlil)”, “Xitoy matbuot tili va tarixi” kabi 6 o‘quv va uslubiy qo‘llanma nashr ettirdi. Uning xitoy va yapon yozuvi bilan bog‘liq ayrim maqolalari “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” tarkibiga kiritilgan.

U o‘nga yaqin xalqaro va ko‘plab respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etdi. XXRning “Pekin chet tillar universiteti”da va “Shanxay chet tillar universiteti”da o‘zbekistonlik sinxron tarjimonlar uchun maxsus tashkil etilgan qisqa muddatli sinxron tarjimonlar kurslarida 2 marta malaka oshirib qaytdi.

I.Bekmurodov akademik A.Asqarovning “O‘zbek millatining kelib chiqish tarixi” kitobini xitoy tiliga tarjima qilish guruhiga rahbarlik qildi va mazkur kitob xitoy tiliga tarjima qilib tugatildi. Hozirda bu kitob XXRda nashr arafasida. Bundan tashqari u o‘z faoliyati davomida bir necha bor XXR, Janubiy Koreya va AQSh universitetlarida malaka oshirdi.

XXRning Urumchi shahrida 2005 yilda o‘tkazilgan “O‘rta va G‘arbiy Osiyo mintaqalarida noan’anaviy havfsizlik bo‘yicha forum”da, Janubiy Koreyada “Butunjahon ta’lim tizimini islohot qilishga bag‘ishlangan ilmiy anjuman”da “O‘zbekistondagi ta’lim va undagi islohotlar” mavzusida ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

I.Bekmurodov TDSHUda “Sinxron tarjima”, “Sinxron va ketma-ket tarjima amaliyoti”, “Matn tarjimasi va tahriri”, “Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili” kabi fanlardan magistratura mutaxassiligi ilmu-toliblariga saboq berib kelar, “Sinxron tarjima” fani bo‘yicha elektron o‘quv majmua materiallarini ham tayyorlagan edi. “Xitoy tilidan sinxron tarjima” fanidan qo‘llanma nashr qildirish niyatida edi.

U ToshDShI (hozirgi TDSHU)dagi ish faoliyati bilan birga O‘zbekiston-Xitoy do‘stlik jamiyatining ijrochi direktori lavozimida ham faoliyat ko‘rsatdi. Jamiyat raisi o‘rinbosari sifatida Xitoyga qilgan o‘nlab safarlari natijasida, bugungi kundagi Xitoy bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarimizning tobora rivoj topib borishiga munosib hissa qo‘shdi.

Ismatulla aka juda oilaparvar inson edi. Hozirda uning ota-onalari hayotlar. Otalari – Bekmuratov Nusratulla ota va onalari – Bekmuratova Munavvar ayaga Alloh uzoq umr va go‘zal sabrlar bersin. U kishining vafodor ayollari – Bekmuratova Barnoxon opa hozirda farzandlariga bosh bo‘lib, Ismatulla akaning “chiroqlarini” yoqib o‘tiribdilar. Alloh u kishidan rozi bo‘lsin. To‘ng‘ich o‘g‘illari Jahongir – tadbirkor. O‘rtanchalari Javohir – magistrant. Kenja qizlari – Sevinch TDShU talabasi. O‘g‘illari Jahongirni uylantirib, to‘ylar qilgan edilar. Kelinlari – Shohistaxon, O‘zDJTU o‘qituvchisi. Uch yilgina bo‘lsada Ismatulla akaning ko‘zlarini quvontirishga ulgurgan nabiralari – Safinaxon hozir 3 yoshga.

Ismatulla Bekmurodov bu dunyoda o‘zidan mangu xotira qoldirib, chinakam baxtli inson ekanini isbotlab ketdi. Tinimsiz mehnati, chuqur bilimi, g‘ayrat va shijoati, olib borgan sa’y harakatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘rtasidagi ta’lim, madaniy-ma’rifiy, hatto iqtisodiy aloqalarimiz rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shishga ulgurdi.

Alloh Ismatulla akamizdan rozi bo‘lsin va oxirat makonlarini jannat qilsin!

F.f.n. dots. ***Jasur Ziyamuhamedov***

SARVINOZ RO‘ZIEVNA SOTIBOLDIYEVA

(23.10.1972 – 19.10.2020)

O‘zbekiston sharqshunosligi, adabiyotshunosligi va eronshunosligi og‘ir judolikka uchradi. Taniqli adabiyotshunos-sharqshunos olima, mehribon ustoz va jonkuyar rahbar, filologiya fanlari doktori, professor Sarvinoz Sotiboldiyeva 2020 yilning 19 oktyabrida, hayotining eng gurkiragan pallasida, 48 yoshida bu yorug‘ olamni abadiy tark etdi. Ammo Sarvinoz Sotiboldiyevaning qisqa, lekin mazmunli umri besamar o‘tmadi. U o‘zidan keyin bu dunyoda aqlli, ilmli, odobli, andishali, go‘zal xulq-atvorli, oqibatli va eng asosiysi iymonli to‘rt farzand, yuzlab shogird va kitoblar hamda manfaatli ilm qoldirib ketdi.

S.Sotiboldiyeva 1972 yilning 23 oktyabrida Surxondaryo viloyatining Angor tumanida tug‘ildi. 1989 yilda Angor tumanidagi 1-son maktabni a’lo baholar bilan tamomladi. 1989-1994 yillar ToshDUning O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi. 1995-1999 yillarda ToshDShIning aspiranturasini tamomlab, 2001 yilda «Foniy g‘azallarining badiiyati (Foniyning Amir Xusrav Dehlaviyga tatabbu’lari asosida)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2005-2008 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining doktoranturasida va shu bilan birga “Sharq filologiyasi” fakultetining sirtqi bo‘limida tahsil oldi. 2010 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga dotsent ilmiy unvoni berildi.

1995-2004 yillar mobaynida ToshDShI Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, 2005-2016 yillarda mazkur kafedra dotsenti, hamda shu yillarda TDShIning Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida ishladi.

S.Sotiboldiyeva 2016 yil sentyabridan umrining oxirigacha Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, 2018 yildan esa mazkur universitetning “Sharq tillari” kafedrasi mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi.

S.Sotiboldiyeva 2018 yilda “Zamonaviy fors romanchiligi: janr evolyutsiyasi va badiiy mahorat” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2008 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Iste’dod” jamg‘armasi granti sovrindori sifatida RFning Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida malaka oshirdi.

2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga professor ilmiy unvoni berildi.

“Fors adabiyoti va zamonaviy o‘zbek adabiyoti tarixi” ilmiy yo‘nalishlarida faoliyat olib borgan prof. S.Sotiboldiyeva “Sharq (fors) adabiyoti”, “Sharq tillari (fors tili)”, “Adabiyot nazariyasi” va “Adabiyotshunoslikka kirish” fanlaridan talaba va magistrantlarga dars berdi.

Sarvinoz Sotiboldiyeva 60 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan 2 ta monografiya, 4 ta o‘quv qo‘llanma muallifi edi. So‘nggi yillar mobaynida 4 ta xalqaro konferensiyada ishtirok etib O‘zbekiston ilm-ma’rifatini bir o‘zbek ayoli va olimasi timsolida yuksaklarga ko‘tarishga hissa qo‘shdi.

Sarvinoz Sotiboldiyeva oilali, 4 farzand: 3 qiz va bir o‘g‘ilning mehribon onasi, shirindan-shakar nabiralar buvisi edi.

Taniqli o‘zbek olimasi, mehnatkash inson, vafoli yor, mehribon ona, sadoqatli do‘st, jonkuyar rahbar, samimiy, dilkash va mehribon hamkasb bo‘lgan Sarvinoz Sotiboldiyevaning o‘chmas yorqin xotirasi qalblarimizda abadiy yashaydi.

Sarvinoz Sotiboldiyeva qoldirgan farzandlar, shogirdlar va kitoblardan tarqalayotgan ilm-ma’rifat, ezguliklar, saxovat va duolardan kelib turadigan barcha savoblar to qiyomatga qadar uning nomai-a’mollariga yozilishi, qabrlariga nur bo‘lib yog‘ilishi va unga Jannatning eng yuksak darajalaridan nasib etishini Allohdan so‘rab qolamiz!

f.f.n. dots. Jasur Ziyamuhamedov

MUNDARIJA

G.Sh.Rixsiyeva	**Tarjimashunoslar forumi – ilmiy munozaralar maydoni .....**	4

TARJIMASHUNOSLIK TARIXI, TARJIMA STILISTIKASI, TANQIDI HAMDA TAHRIR MASALALARI

A.Mannonov	Tarjimashunoslik an'analari va istiqbollari xususida	7
Q.Omonov	Yozma yodgorliklarda qo'llangan ayrim leksik birliklar ma'nosini hozirgi o'zbek tiliga berish masalasi	12
Z.Isomiddinov	Oliymaqom san'atning olijanob mardumlari……	14
R.Abdullayeva	O'zbekistonda tarjima iqlimi (Tarjimon, tarjima, tahlil, muammo) ……..	23
R.Sharipov	Ibrat maktabi ……...	28
O.Safarov	Qiyosiy tipologiya va tarjima ilmi …….....	32
Yo.Nasirdinova	XX asr oxiri va XXI asrda o'zbek-fransuz adabiy aloqalari taraqqiyoti ……	37

NASRIY VA SHE'RIY TARJIMA MUAMMOLARI

Sh.Shamusarov	Ogahiyning qur'oniy oyatlar va hadislar	42
I.Ahatov	tarjimasidagi mahorati …….	
A.Alimbekov	Arab romani o'zbek tilida …….....	50
E.Ochilov	Sayfi Saroyining tarjimonlik mahorati ……	55
Sh.Imyaminova	Nemis tilidan o'zbek tiliga satira, yumor tarjimasiga doir	65
X.Hamidov	Turkcha so'roq gap shaklidagi frazeologik birliklarning tarjimada berilishi …….	70
N.Xodjayeva	O'zbekchadan hindiyga badiiy tarjimada so'z tanlashning ayrim uslubiy muammolari …….	75
N.Bo'riyeva	Shekspir sonetlari XX-XXI asr o'zbek shoir-tarjimonlari talqinida ……..	79
Sh.Subhonov	Tarjima san'atining zalvorli yuki ……	83
T.Akimov	Xitoy tilidagi 成语 cheng yu-turg'un iboralarini o'zbek tiliga tarjima qilishning ba'zi masalalari…	87
D.Sadikova	Zamonaviy nasr va she'riy tarjima muammolari. Lingvopoetik tahlil masalalari (xitoy she'riyati talqinida) ...	94
G.Nazrullayeva	Hikoya tarjimasida personajlar nutqidagi dialoglarni berilishi ……..	100
D.Abdurahimova	Yapon tilidan badiiy tarjimada personaj portretini qayta yaratish masalasi …….....	106
D.Yusupova	Badiiy tarjima – xalqlarni birlashtiruvchi kuch (Zamonaviy fors she'riyati misolida) ..……	109
Sh.Rustamova	Romantizmning dasturiy talablari A.Shlegel qarashlarida …….	115
N.Valieva	Frazeologik birliklar tarjimasi amaliyotidan ("Dun-	

	yoning ishlari” asari xitoy tiliga tarjimasi misolida)	118
D.Rahmonova	Nasriy va she’riy matnlar tarjimasida adaptatsiya	124
I.Safarova	O’zbek va xitoy tillari orasida tarjima jarayonida duch kelinadigan leksik muammolarga doir ……	128

MADANIYATLARARO MULOQOT VA BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

Z.Xudaybergenova	Tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida…	132
К.Таджиев	Образ Горацио и его роль в понимании авторского замысла трагедии Шекспира «Гамлет» …	137
N.Ismatullayeva	Zoonimik komponentli komparativ frazeologizmlar tarjimasining o‘ziga xosliklari	144
D.Ashirbayeva	Koreys tilida murojaatlar (antroponimlar misolida)	147
Sh.Xasanova	XVI-XVII asr hikoyachiligi va Pu Sungling ijodi ..	152
M.Nadjimxodjayev	Yapon tilidagi realiyalar tarjimasining o’ziga xosliklari ……..	156
F.Gisarov	Uyg‘urcha giyoh nomlari tarjimasiga doir ……..	162
Z.Salimova	Inson xarakterini ıfodalovchı leksik birliklar tarjimasiga doir	166
B.Mamarajabov	Afg’on xalq og’zaki ijodida uy hayvonlari haqidagi ertaklarning o’rni …….....	171
K.Sharipova	Madaniyatlararo munosabatlar va tarjima ….....	174
Sh.Husanova, G.Aripova	Tarixiy roman tarjimasiga doir ……...	178
M.Umarova	Milliy xos so‘zlarning tarjimada berish usullari xususida ……	182
M.Yoqubjonova	Turk tilida “sevgi” konseptining semantik maydoni va assotsiativ xususiyatlari ……..	186
N.Eshnazarova	Kinofilmlar tarjiması muammolariga doir	192
Z.Toshpo’latova	Malay tilida arab tiliga oid o’zlashmalarining fonetik xususiyatlari	195

SINXRON VA ILMIY-TEXNIKAVIY TARJIMA SOHALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Д.Ахмедова	Газетный текст как источник формирования умений перевода	200
С.Насирова	Влияние фоновой информации на адекватный перевод общественно-политических терминов современного китайского языка ……...	204
D.Mubarakova	Publistik matnlar tarjimasiga doir	208
Х.Зикруллаева	Интернациональная лексика в научно-техническом переводе …….....	213
N.Yunusova	Xitoy tilini o‘qitishda pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasiga doir ..	218

Н.Умарова Фонетические особенности лексики при синхроном переводе с египетского диалекта .. 221
D.Mirsagatova The teaching experinces of consecutive interpreting in higher education 227
M.Nizomiddinova Xitoycha neft-gaz terminlarining omonimik va antonimik xususiyatlari 232
S.Mamanazarova Arab tilidan tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari 236
K.Alimova Feature of the guide-translator’s rhetoric ……. 242
A.Maxamadtoirova Xitoy tilida [a 跟 gēn b….一样 yí yàng] konstruksiyasi va tarjima muammolari …….. 245
A.Qudratov Arab dunyosida tarjima jarayoni (XX-XXI asr)..... 250
Ш.Назарова Стратегии синхронного перевода (на примере переводов с корейского на русский язык) ……. 254
A.Shasalimova Xıtoy olimlarining sinxron tarjima sohasida olib borgan tadqiqotlari xususida 259
Н.Исакова Об истории развития устного перевода в Японии 264
M.Baxramova Nyurenberg sud jarayoni tarixidan …….. 270
N.Adılova Xıtoy tılıdagı ıjtımoıy-sıyosıy matnlar tarjımasınıng o'ziga xos xususıyatları 274
S.Shukurov Yaponiyada sinxron tarjima sohasining rivojlanishiga doir …….. 278
N.Jo’rayev Stereotip va ularning ijtimoiy hayotdagi o’rni …… 282
O.Jumaboyev Notiq nutqidagı leksik-frazelogik birliklarning sinxron tarjimada berilishi 286
Sh.Djo‘raev Arabcha-o‘zbekcha sinxron tarjima kombinatsiyasida islomiy atamalarning berilishi … 289
Z.Nomozova Xitoycha-o‘zbekcha sinxron va ketma-ket tarjima qiyinchiliklari ……... 292
J.Mirzokirov Xitoychadan og’zaki tarjimada xushmuomalalikning ifoda etilishi 297
Х.Орифжанова О научной деятельности В.Н.Комиссарова … 300
J.Davronov Nemis tilidan o‘zbek tiliga mukammal tarjima uchun munosib qo‘llanma xususida …… 305

XALQARO JURNALISTIKAGA OID MATERIALLAR

M.Saliyeva Internet tizimida ommaviy kommunikatsiya rivojlanishi tamoyillari ……..... 309
M.Saliyeva **J.Abdupattaxov** Zamonaviy arab mamlakatlari jurnalistikasining o‘ziga xos xususiyatlari …..... 312

USTOZLARNI YOD ETIB

Ubaydulla Murodovich Uvatov …… 318
Muhammadjon Xolbekov ……. 320
Ismatulla Nusratullayevich Bekmurodov ….……. 323
Sarvinoz Ro‘ziyevna Sotiboldiyeva ……..... 326

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

“O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2020” (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: TDSHU, 2020. − 332 b.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
PhD. dots. ***Xayrulla Hamidov***

Mas’ul muharrir:
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori,
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Gulchehra Rixsiyeva***

Taqrizchilar:
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Rustam Sharipov***
filologiya fanlari nomzodi, dots. ***Ergash Ochilov***

Muqova dizayni:
TDSHU o‘qituvchisi ***Gulnoza Nazrullayeva***

Kompyuter verstkasi:
Nilufar Xudoyorova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2020-yil 26-noyabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 14.12.2020.
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 20,75 b.t. 100 nusxada bosildi.
Buyurtma № _____

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2020